

S. RAHIMOV, B. UMURQULOV

**HOZIRGI O`ZBEK
ADABIY TILI**

TOSHKENT -2003

S. RAHIMOV, B UMURQULOV

HOZIRGI O`ZBEK ADABIY TILI

**Universitetlar va pedagogika inistutlarining
Pedagogika- (maktabgacha ta`lim)
fakul`tetlari talabalari uchun
darslik**

*O`ZBEKİSTON RESPUBLİKASI OLİY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI TASDIQLAGAN*

Toshkent “O`qituvchi” 2003

O`zbekiston Respublikasining davlat tili o`zbek tilidir

(Davlat tili haqidagi Qonuning I- moddasidan)

Ko`ngul maxzanining qulfi til,
Va ul maxzanning kalidin so`z bil!

(Alisher Navoiy)

Har tilni biluv emdi bani odama jondur,
Til vositai robitai olamiyondur .

(Avaz O`tar o`g`li)

Ona tilim-onajonim tili bu,
Beshikdanoq singan jonu quloqqa.
Elu yurtim, xonumonim tili bu,
Qadimlikda o`xshar ona tup roqqa.

(Mirtemir)

SO`Z BOSHI.

Ushbu darslik O`zbekiston Respublikasining 1997 yil 29 avgustida Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan “Ta`lim tug`risida”Qonun va “Kadrlar taylorlash milliy dastur talablari asosida yozildi.

Darslik universitetlar, pedagogika institutlarining pedagogika-(maktabgacha ta`lim) fakulteti talabalari uchun mo`ljallangan bo`lib, u mazxur kurs yuzasidan “Hozirgi o`zbek adabiy tili”(Toshkent , 1998 yil ,tuzuvchilar R.Ikromova, M.Yusupova) dasturida asoslangan.

Mazkur darslikni yozishda, asosan,boshlang`ich ta`lim ixtisosligi buyicha bakalavriat yunalishi o`qib rejasida ko`zga tutilgan bo`lib, mutaxassislik o`quv predmeti sifatida uni bosqichma -bosqich tizim asosida o`qitish nazarga olingan Darslikbni yaratishda “Uzluksiz ta`lim tizimi uchun o`quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi (Toshkent, “Sharq” nashriyoti manba aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririysi, 2002 yil) ga amal qilindi.

Bakalavriat o`quv rejasida ona tilini o`qitishda 1-IY kuchlarda jami 332 soat, shundan ma`ruza uchun 187 soat , amaliy mashg`ulot uchun 205 soat ajratilgan .

Ushbu darslikda asosiy e`tibor nazariy ma`lumotlarni bayon etishga qaratiladi.Nazariy ta`rif, qoyida-qonunlar “**O`zbek tili**”(M.Mirzaev, S.Usmonov, I.Rasulov, Toshkent ,1970),”**O`zbek tili** ”(R. Ikromova, A. Azizova, D.Muxammedova , Toshkent,1983),”**Hozirgi o`zbek adabiy tili** ”(A. G`ulomov,M.Asqarova, Toshkent,1987).”**Hozirgi o`zbek adabiy tili** ” (SH. SHoabduraxmonov, M.Asqarova,A.Hojiev., I.Rasulov, X. Doniyorov,Toshkent,1986).“**O`zbek tili grammatikasi** (akademik nashr, 1, 11 tomlar, Toshkent,1975-1976 yillar) kabi darslik va qo`llanmalardagi an`an`avyi” nazariyalarga asoslanib berildi. Ammo ta`rif, qoyidalarni amaliy jixatdan mustahkamlaydigan misollarga O`zbekiston davlatining mustaqillik yillarida erishgan umumbashariy g`alabalarning ruxi sindirilgan .

Darslikni tuzishda fakultetning kasbiy yunalishi alovida hisobga olindi.Darslikda dastur bo`yicha ko`zga tutilgan ona tili o`qitishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiritildi.

1.Tilshunoslikdan umumiylar ma`lumot berish, tilning kishilik jamiyatidagi ahamiyati, tilning paydo bo`lishi va taraqqiyot qoidalari, til va tafakkurning o`zaro munosabati, dunyo tillarining tasnifi, tilning ichki qurilishi (tizimi va tuzilishi), tilshunoslikning umumiylar va xususiy sohalari (o`zbek tili xususiy tilshunoslik ob`ekti sifatida ,o`zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari haqida ma`lumot); 2.O`zbek adabiy tili bo`limlari (mavzularni bayon qila borish jarayonida bo`limlararo bo`linishni maktab va kollejlar ,(ped bilim yurtlari) da berilgan saboqlarni hisobga olgan holda talabalar bilimini kengaytirish hamda mustahkamlab borish, yangi nazariy bilimlar berish ,amaliy malakalar hosil qilish:

3.Berilayotgan har bir ta`rifning amaliy misollar uchun yangi mashqlar majmuasini ishlash bilan birga mustaqil O`zbekiston Respublikasining amalda joriy qilinaboshlangan ilmiy maktab konsepsiysi asosida Davlat tili to`g`risida gi Qonunini bajaraborib , milliy qadriyatlar, an`analar, urf-odatlarimiz va tariximizning komil ,jasur farzandlari hayotidan , milliy ma`fkura,milliy g`oyalaridan hikoya qiluvchi matnlarga talabalarni faol jalb etish asosida ta`lim -tarbyani birga olib borish .

4.Maktabgacha ta`lim muassasalari diqqat markazidagi masalalardan biri va asosiysi nutq o`stirish bo`lib ,unda so`z ustida ishlash, tovush ustida ishlash , talaffuz ustida ishlash, so`z shakllari va so`z yasash, gap ustida ishlash muhim o`rin tutadi. Shuning uchun darslikda fonetika ,orfoepiya, leksikologiya, morfologiya masalalariga nisbatan nutq o`stirishda kengroq o`rin berildi.

Til hodisalarini bayon etishda ifoda uslubining , aniq va ravshan, tushunarli va ixcham bo`lishiga, misollarni badiiy asarlardan tanlashga, ularning rang-barang va g`oyaviy jihadan milliy muh itimizga mos bo`lishiga alohida e`tibor qaratildi.

Darslikning “Kirish”, “Leksikologiya” “Fonetika”, “Sintaksis”, bo`limlari S.Rahimov, “Morfemika “, “ So`z yasalishi”, “ Morfologiya” bo`limlari B. Umurqulov tomonidan yozilgan .

O`zbek tili O`zbekiston Respublikasining davlat tilidir

Til millatning ulkan boyligi va beباھو mulkidir. Shuning uchun onatilini sevish, pu xta o`rganish, uni billurdek musaffo saqlash, kamol toptirish milliy tilimiz ,ona xalqimiz jonajon Vatanimizda bo`lgan beqiyos muxabbatimiz ramzidir.

Til avlodlarni- avlodlarga, asrlarni - asrlarga bog`laydi , chunki biz va siz tasavvur qilaolmaydigan o`tmish ajdodlarimiz ruhi shu ona tilimizga singdirilgan.

Dunyoga yangi kelgan chaqaloq ham ona tilida alla eshitib orom oladi, har erta tongda televedeniya, radiyo to`lqinlaridan taraladigan Davlat madhiyasini ona tilimizda eshitar ekanmiz, undan faxr etamiz .

Dastavval shuni aytish kerakki, o`zbek tilini XY asrda davlat tili darajasida ko`tarish , uni ravnaq toptirish uchun buyuk bobokalonimiz hazrati Mir Alisher Navoiy ko`p kuch sarf qildi. U o`zining "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Muhokamatul-lug`atayin , "kabi qator o`lmas asarlarini shu tilda yaratdi.

Sulton Husayn homiylik qilib, A. Navoiyning bu sohadagi ishlarini qo`llab -quvatlagan hamda maxsus farmon bilan o`zbek tiliga davlat tili maqomini bergen edi.

O`tgan besh asrdan ko`proq davrda o`zbek tilining ahamiyati kamaygani yo`q. Ammo etmish yillik mustabiq tuzumining siyosati sababli o`zbek tilining ish ko`rish doirasi chegaralanib qoldi va ahamiyati pasayib ketgan edi. Xalqimiz doyim mustaqil bo`lish , erkin yashash yo`lida kurashib keldi va Cho`lpon , Fitrat, A.Qodiriy , A.Avlonyi , G.Gulom, Oybek ,H Olimjon, A. Qahhor kabi siymolar adabiy tilimizning ravnaqi yo`lida tinmay ijod qildilar. Bu kurashlar samarasiz ketmadi.1989 yil 21 oktyabrda O`zbekiston Oliy Kengasining XI sessiyasida O`zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqidagi qonuni qabul qilindi. Bu qonun mustaqillikka erishish arafasida turgan davlatimiz hayotida unitilmas voqeа bo`lib tarixga kirdi.

1990 yil 19 fevralda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 101 -sonli qarori bilan ushbu qonunni amalga oshirish davlat dasturi tasdiqlandi. Shu boisdan davlat dasturida "Davlat tili haqidagi qonun qabul" etilgan kun. "Ona tili kuni" deb e`lon qilindi (1-qism,7-modda) .

Ushbu davlat tili haqidagi qonunning asl mohiyati nimalardan iborat edi.?

1.Qonun 30 moddadan iborat bo`lib , avval o`zbek tilining o`z qadr -qimmati, hududini ,o`rnini tiklaydi. Qonunning 1- moddasida O`zbekiston Respublikasining davlat tili o`zbek tilidir deb ko`rsatilgan. Shu bilan birga O`zbekiston o`zbek tilini butun choralar bilan rivojlantiradi va uning siyosiy ,

ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining barcha sohalarida to`liq amal qilinishini ta`minlaydi deb uqtiriladi
(1- modda) .

2.O`zbek tili o`zbek xalqining ma`naviy mulkidir va shu boisdan uning ravnaqi , qo`llanishi va muhofazasini ta`minlashga oyid barcha masalalar O`zbekiston Respublikasining huquqiy doirasiga kirishi ko`rsatilgan .
(2-modda.)

3.O`zbekiston Respublikasining barcha korxona, muassasa,tashkilotlarida ish respublika davlat tilida olib boriladi (7- modda) bu esa xalqimiz uchun yangiliklar yaratdi.

4.O`zbekiston Respublikasining hunar -texnika, o`rta maxsus va oliv o`quv yurtlarida ular qaysi mahkamada bo`lishiga qaramay, respublika davlat tilida o`qitiladi .(14-modda .)

5.Respublika miqyosidagi eng yirik anjumanlardan kichik yig`ilishlargaCHA davlat tilida olib boriladi. (5- modda) deb ko`rsatilishi o`zbek tilining salohiyatini yana ham oshirib yubordi.

Xalqimizning orzu- istaklari, maqsadlari ifoda qilingan bu qonun o`zbbekiston Respublikasi mustaqilikk erishgandan so`ng qayta ko`rib chiqildi.

1995 yil 21 -dekabrda “O`zbekiston Respublikasi ning “Davlat tili haqida”gi Qonunning yangi tahriri ishlab chiqildi bva amalda qo`llash uchun joriy etildi. Yangi tahrirdagi Qonun 24 bobdan iborat bo`lib, unga mustaqillik ruhi bilan sug`orilgan bir qancha o`zgarishlar kiritildi.

“Davlat tili haqida”gi Qonunni amalga oshirish sohasida otgan o`n yildan ortiq davrda katta ishlar qilindi.

BIRINCHI BO`LIM

2-s TILSHUNOSLIK DAN UMUMIY MA`LUMOT *TILSHUNOSLIK FANI VA UNING SOHALARI.*

Tilni ilmiy asosida o`rganuvchi mustaqil va aniq fan tilshunoslik yoki lingvistika deyiladi. Lingvistika termini lotincha **lingvo -til, tika** ta`limot kabi tushunchalarni anqlatadi. Tilshunoslik fanining o`rganadi-gan sohasi ijtimoiy hodisa sanalgan tilning o`zidir. Bu fan tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari hamda uning qonuniyatlarini ilmiy asosida tekshiradi va xulosalar chiqaradi.

Tilshunoslik jami tilni qaysi nuqtai nazaridan o`rganishda qarab muayan (xususiy), umumiyligi va qiyosiy tilshunoslik kabi sohalarda bo`linadi. **Muayan** (xususiy) tilshunoslik aniq birorta til (masalan o`zbek tili) ning lug`at tarkibi, fonetik tizimi va grammatic qurilishi, uning shakllanishi hamda taraqqiyot yo`llari, boshqa tillarda munosabati kabi masalalarni ilmiy asosiga o`rganish orqali uning tovush tizimini tekshiradi va grammaticasini yaratib beradi.

Umumiy tilshunoslik esa, umuman tilning kelib chiqishi yani paydo bo`lishi, uning ijtimoiy mohiyati, til bilan taffakurning o`zaro munosabati, tillarning taraqqiyot va shakllanish yo`llari, uning jamiyat hayotida tutgan o`rni, vazifasi, fonetik, leksik, grammatic qonuniyatlarini, tillarni tekshirish va tasnif qilish usullarini umumlashtirish asosida ilmiy xulosalar chiqaradi.

Qiyosiy tilshunoslik esa birdan ortiq (qardosh fyo qarindosh yoki qarindosh bo`lmagan) tillarning fonetik leksik, grammatic xususiyatlarini o`zaro chog`ishtirib qiyoslab o`rganish orqali ular orasidagi o`xshash va noo`xshash lingvistik hodisalar haqida ma`lumotlar beradi.

Tilshunoslik fanining boshlang`ich bosqichi **tilshunoslikka kirish** hisoblanadi va u tilning boshqa hodisalar ichida tutgan o`rni, tuzilishi umuman, til haqidagi fanning asosiy tushunchalarini o`rganadi. Shuning uchun bu kurs ma`lum bir til hodisalarini lug`at tarkibi va fonetik tizimi, grammatic qurilishini ilmiy asosida o`rganish, o`zlashtirish uchun zamin yaratadi.

Tilshunoslik fanining echilmagan masalalarini ilmiy asosida hal etish uchun tarix, etnografiya, arxeologiya, fiziologiya kabi fanlarning xulosalaridan foydalaniladi. Masalan, tilning paydo bo`lishi, uning shakllanishi va taraqqiyoti kabi hodisalarini to`g`ri anglamoq uchun, avvalo er yuzida odamlarning paydo bo`lishi, ularning jamiyat bo`lib yashay boshlashiga oid masalalarni puxta bilish shart va buning uchun tarix, etnografiya, arxeologiya fanlariga asoslanish kerak bo`ladi.

Inson tili tovush tilidir. Bu masalada nutq tovushlarining hosil bo`lishi va ularning vazifalarini to`g`ri fikrlash uchun odam anato-miyasi va fiziologiyasi fanlari asoslarini yaxshi bilish shart.

3-s **TIL IJTIMOIY DOIM O`ZGARIB, RIVOJLANIB TURUVCHI HODISADIR.**

Til faqat insonga va insoniyatga xos tabiat tomondan ato qilingan **buyuk ehsondir**. Ana shu buyuk ehson kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi bo`lib, jamiyat uchun xizmat qiladi.

Til faqat jamiyatda, odamlar jamoasi orasidagina mavjud , chunki til orqali insonlar o`z fikrlarini bildiradilar , fikr almashadilar gapla-shadilar. Til doimiy to`xtovsiz ravishda o`zgarib turuvchi, taraqquy etib boruvchi hodisadir.

Tilning taqdiri jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog`liqdir Jamiyat yo`q ekan , til ham bo`lmaydi va aksincha til bo`lmasa jamiyatda rivojlanish ham yo`q insoniyat uchun fikr almashish doimiy va hayotiy zaruratdir. Til jamiyatning asrlar davomidagi butun tarixi jarayonida shu jamiyatda yashovchi minglarcha avlodlar tomonidan yaratilgan bo`lib ,jamiyat va uning a`zolari uchun baravar xizmat qiladi.

Tilning **adabiyot, sa`nat, umuman madaniyat** kabi ijtimoiy hodisalardan farqi shundaki, ular ma`lum bir sinfning manfaatini ko`zlaydi, uning mafkurasini targ`ib qiladi, til esa jamiuatdagi barcha kishilar uchun bir xil xizmat qiladi.

Til fikr bilan chambarchas bog`liqdir.Til ong kabi qadimdan mavjud. Fikr, ong paydo bo`lishi bilan til ham paydo bo`lgan. Bizning fikrlarimiz til (nutq) orqali ro`yobga cfhiqadi,boshqalarga anglashiladi, oydinlashadi ongimizdagи fikrlar oldindan taylor holda mavjud bo`lmaydi, fikrlar so`z vositasida shakllanadi, so`z tushunchalarini ifodalaydi. Ammo ibtidoiy til tuzilish jihatidan sodda mazmun jihatdan murakkab bo`lgan .

Davrlar o`tishi bilan fikr, tushuncha rivojlangani sari til ham rivojlanib boradi.O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so`ng o`zbek tili lug`at tarkibining beqiyos boyigani buning yorqin dalilidir . Ammo tilning grammatik qurilishini va tovush tizimi sekinlik bilan o`zgaradi.

4-S. TILNING TUZILISHI.

Ijtimoiy hodisa mahsuli bo`lgan til o`zining tuzilishiga ko`ra juda murakkabdir. Bu fikr dunyodagi hamma tillar uchun ta`alluqli . Tilning bir-biri bilan uzviy bog`langan **tovush tizimi**, **lug`at tarkibi** va **grammatik qurilishi** mavjud bo`lib, ular birgalikda bir butunlikni tashkil etadi va uning negizida tilning tizimi hosil bo`ladi .

Har bir til (masalan, o`zbek tili) ning **fonetik tuzilishi**, **lug`at tarkibi** va **grammatik qurilishi** ma`lum qonun-qoidalar asosida bir-biri bilan bog`lanib, ularning har qaysisi alohida tizimni tashkil etadi. Tilning tovushlari so`zlari; grammatik qurilishi ma`lum tartibdagi qonunlarda ega va ularning har biri alohida tizimni tashkil qilib o`zaro bir-biri bilan uzbiy bog`liq .**Nutq tovushlari** so`zlar , grammatika shakillarni hosil qilishda muhim moddiy manba bo`lib xizmat qiladi. Chunki nutq tovushlarisiz tilning o`zi ham bo`lmas edi, sababi tovush bo`lmasa so`z tuzib bo`lmaydi. **Lug`at tarkibi** esa tilning so`z xazinasi bo`lib, u til uchun qurilish materiali sanaladi. Fikrni ifoda qiladigan gapdan so`zlardan va ularning birikuvidan hosil qilinadi.

Tilda fikr almashish, aloqa (komunikatsiya) qilish til orqali bo`ladi. Gaplar esa so`zlardan , so`zlarning o`zaro grammatik aloqada kirishuvidan hosil bo`ladi. Ana shu grammatik qurilish tufayli tilning so`z xazinasi fikr ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Demak , grammatika so`zlarning o`zgarishi, gap tuzish qoidalarini belgilaydi.Har bir til (masalan o`zbek tili ham) o`zining tarkibiy qusmlari bilan bir butun tizimni tashkil qiladi.Tilda tovush, lug`at tarkibi, grammatik qurilishi bir biri bilan o`zaro zinch bog`langan.

6-s

TILNING KELIB CHIQISHI

Tilning qachon paydo bo`lganligini dastlabki tilning fonetik , so`z boyligi, grammatik xususiyati nimalardan iborat ekanligini bilish mumkin bo`lmasa ham , kishilik jamiyatining paydo bo`lishidagi inson hayotining muayan shart -sharoitlari haqidagi ilmiy farazlarga asoslanib tilning kelib chiqish masalasini olimlar ilmiy jihat dan asoslab berishga harakat qilib kelmoqdalar.Tabiiyki, qadi mgi ibtidoiy jamoa tillarining qachan paydo bo`lganligi ular qanday til ekanligfi, ularning lingvistik xususiyatlari nimalardan iborat ekanligi to`g`risida ma`lumot beruvchi hech qanday dalillar yo`q. Ammo biz kishilik jamiyatida tilning paydo bo`lishiga sabab bo`lgan shart-sharoitlar haqida, tilning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan, ayniqsa taffakkur bilan bo`lgan munosabatlari to`g`risida fikr yuritishimiz mumkin bo`ladi. Shuni aytish lozimki tilning paydo bo`lish masalasi qadim zamonlardan buyon kishilarni doimo qiziqtirib keladi.

A n t i k davrlarda ham tilning kelib chiqishi haqida bir qancha nazariyalar yuzaga kelgan. Antik faylasuflardan bu masalada bir biriga qarama -qarshi bo`lgan ikki hil nazariyani ilgari suradilar.Ularning ba`zilari til yo`li bilan paydo

bo`lgan, ya`ni so`z bva prefmetlar o`rtasida to`g`ridan to`g`ri bo`lganligi uchun kishilar predmet bva naarsalarni tabiiy fgolda bilib olishfgan, ya`ni til ilofhiy bir kuch tomonidan yaratilgan deb isbotlamoqchi bo`ladilar.Bu guruhdagi faylasuflarni biz fanda idealistlar deb nomlab keldik. Ayrim faylasuflar til kishilarning o`zaro bir-biri bilan kelishishi natijasida paydo bo`lgan, ya`ni tilni ijtimoiy mehnat yuzaga keltirgan, degan nazariyani yaratganlar va ular materialistlar deb nomlanadi. Mana shu bir-biriga qarama-qarshi bo`lgan ikki nazariyaning o`zaro kurashi natijasida boshqa bir qancha qarashlar ham yuzaga kelgan va ular hamon kurashib kelmoqdalar. Ularning ayrimlari tilni kishilarning o`zaro aloqa qilish ehtiyojidan kelib chiqqan deb hisoblasa ba`zilari ayrim shaxslarning o`z fikrini avval o`zi uchun keyin boshqalar uchun bildirish natijasida kelib chiqqan deb hisoblaydi. Shu nazariyalarga ko`ra abvvalo ularni ikki guruxga ajratibb, tilshunoslik fanida ularning birinchisini **Ishtemoiy nazariya**, ikkichisini individual nazariya deb nomlanadi. Individual nazariyaga ko`ra tilning paydo bo`lishi to`g`risida **ovoz(tovush)** ga taqlid va undov nazariyasi yuzaga kelgan.

Ovoz tovushga taqlid nazariyasiga ko`ra til kishilarning o`z atrofidagi predmetlarning chiqargan tovushiga taqlid qilishdan kelib chiqqan degan fikrni ilgari suradilar buning uchun **shar-shar, taq- tuq, fdupur-dupur, g`iz-g`iz, ku-ku**, kabi bir necha taqlidiy so`zlarni misol qilib keltiradilar. Holbuki bunday so`zlar hamma tillarda bo`lsada juda oz chilikni tashkil etadi.

Un dov nazariyasiga ko`ra go`yo til kishilarning ichki tuyg`ulari hibs -hayajon va qaxr g`azabi; ixtiyorsiz g`ayri tabiiy baqirishi natijasida paydo bo`lgan emish. Buning uchun **uh, uf, oh, voy-voy** kabi sanoqli so`zlarni ko`rsatadilar .Bu esa noto`ri nazariyadir. Tilning pay do bo`lishi haqida fanga zid bo`lgan **mehnat qiyqiriqlari, imo ishora nazariyalari ham mavjud**. Shuni eslatish lozimki, ehftimol dastlab paydo bo`lgan tilda bizning hozirgi tilimizdagidek alohida narsalarni bildiradigan so`zlar bo`lmagandir, o`sha davrdagi insonlarning tovush chiqaradigan butun a`zolari hozirgidek takomillashmagandir va shu sa banli tilfda dastlab paydo bo`lgan so`zlarning talaffuzi aniq bo`lmagandir. Ammo mehnat qilish mehnat quollarini yasash jarayonida odamlar borgan sari uyushib boradilar, natijada kishilik jamiyatni yuzaga keladi, jamoa bo`lib mehnat qilish jarayonida bir -biriga nimanidir aytish zarurati tug`iladi. Bu zaruriy ehtiyoj esa tilni yaratadi.Til bilan aayni bir vaqtida tafakkur paydo bo`ladi.Dabvrlar o`tishi bilan jamiyatda yuz bergen buyuk o`zgarishlar til va tafakkurning takomilla borish uchun shart-sharoit yaratib beradi.

TILLARNING TARAQQIYOTI

Yuqorida aytib o`tilganidek, til taraqqiyoti juda murakkab hodisa bo`lib, ayni paytda uning taqdiri jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog`langan. Til asta-sekinlik (Evolyusiya yo`li) bilan taraqqiy etib boruvchi hodisadir . Ma`lumki, kishilik jamiyati bir tekistda rivojlanib bormaganligi sabab li tillarning taraqiyot yo`llari ham har xildir.

Hatto kishilik jamiya ti XXI asrga qadam qo`ygan hozirgi zamonda ham taraqqiy etgan millatlar bilan birga, xalq tili darajasiga o`sib etishmagan ibtidoiy jamoa davridagi qabilaviy jamiyat sharoitida yashovchi **Yangi Giveniyadagi papauslar, Shimoliy Meleniziya** orollarda yashovchi polonestlar kabi qabilalar ham mabjud.

Jamiyat taraqiyotining ma`lum bir davriga kelib ayrim tillar aloqa qilish doirasidan chiqib ketadi va **got lotin poloves** kabi o`lik tillarga aylanib qoladi.

Kishilik jamiyati tarixi shuni ko`rsatadiki jamiyat a`zolarining avval urug`dosh tili -qabila tili keyin elat millat tillari paydo bo`ladi. Har qaysi qabila o`ziga xos nom va hududlarni egallaydi. Qabila tili esa shu jamiyat jamoasining asosiy aloqa vositasi bo`lib xizmat qiladi. Til taraqiyotidagi birinchi yo`nalish **differensiatsiya** (ajralish) ho disasidir. Qabiladagi kishilar soni ko`payishi bilan qabila aholisi o`tiroqlashib qolgan hudud qabilaning turli iqtisodiy narsalarga bo`lgan ehtiyojini qondira olmaydi va boshqa bir qancha sabablar orqasidan qabila bo`lib keta boshlaydi.

Turli qabilalar bo`linib chiqandan so`ng O`zлari ajralib chiqqan oldingi qabilaning tilidan foydalana beradi. Ammo shunga qaramay ma`lum bir sgart-sharoitlar natijasida ularning tillarida farqlar paydo bo`ladi.Asta sekin jamiyat taraqiyotining muayyan bir bosqichida har bir yangi qabila o`z tiliga ega bo`ladi. ya`ni **shevalar, lahjalar**, vujudga keladi.

Bu esa tillarning shakllanishidagi birinchi eng asosiy yo`ldir.Tillarning taraqiyotidagi ikkinchi yo`l **Integratsiya (qo`shilib ketish)** dir. Jamiyat taraqiyotining ma`lum bir davriga kelib turli o`bektiw sabablarga ko`ra umumiyy dushmanidan, tabiiy ofatlardan saqlanish uchun bazi qabilalar qo`shilib ketadi va qarindosh qabilalarning uyushmasi (itifoqi)paydo bo`ladi. Natijada asta sekin uyushgan jamiyat sharoitlari hamma a`zolari uchun tushunarli bo`lgan umumiyy til yuzaga keladi.

Jamiyat taraqiyotining keyingi bosqichlarida hudud jihatidan bir muncha mustahkamlangan davlatlar paydo bo`ladi. Davlat paydo bo`lishi xalqlar o`rtasida turli -tuman munosabatlarning rivojlanishini olib keladi.Buning natijasida davlat hududida yashovcfhi barcha kishilar uchun muhim aloqa vositasi bo`lib hizman qiladigan xalq (elat) tili vujud ga keladi.Umumiyy bir til davlatning shart-sharoitlariga qarab shu davlatda yashovchi asosiy xalqlarga tushunarli bo`lishi mumkin. Jamiyat tarixida tillarning keyingi taraqiyoti milliy tillarning yuzaga kelishi bilan bog`liqdir.Shunday qilib millat paydo bo`lishi bilan birga milliy til ham yuzaga keladi. Milliy tilning yagonaligi xalq (elat tilining) tarixiy

taraqiyoti orqasida shaklanadi.Buni o`zbek tili misolida yaqqol ko`rish mumkin.Milliy til shevalar bilan o`zaro bog`lan gan holda taraqiy etaveradi. Shuni aytish lozimki davrlar o`tishi bilan ma`lum bir ijtimoiy tizim o`rniga boshqasi kelishi bilan tilda yangi so`zlar , iboralar paydo bo`ladi. Tilning lug`at tarkibi va grammatik qurilishi takomillashadi boyib boradi, lekin u o`z fonetik tizimini, asosiy leksik tarkibi bva grammatik qurulishini saqlab qoladi.

7-S.

D U N Y O T I L L A R I N I N G T A S N I F I

Tarixning guvohlik berishicha, o`z tiliga ega bo`lmagan biror ta eng kichik , juda ibtidoiy jamoa ham bo`lmagan. Tilshunoslikka oid mavjud adabiyotlarga ko`rsatilishicha, taxminiy hisoblarga ko`ra er yuzida 5926 dan ortiq til shevalar mavjud bo`lib, shundan 500 tasi o`rganilgan.Masalan, Sudandayashaydiganlar 117 tilda, Hindistonda 1000ga yaqin, **Dig`istonoda** 100dan ortiq, Kongada 500 ,Indaneziyada 250 xildagi tillar da gaplashish e`tirof etiladi. Dunyodagi xitoy, ingliz, Hind, ispan, rus, fransuz, o`zbek tillarida millionblab so`zlovchilar bo`lgani holda, kamasin, karagas tillarida juda ozchilik odamlar so`zlashadilar. Ammo hali oz sonli kishilar so`zlashadigan kamasin, karagas kabi tillar ham mavjud, ammo ularning soni ko`p-ozligidan qat`iy nazar har-bir tilning o`z tarixi, qonuniyati bor va ular o`z tillarini qalbida avaylab asraydilar.

Tillarni tobiyy yoki ijtimoiy belgilarini hisobga olgan holda guruhlarga ajratish tasnif deyiladi. Er yuzidagi tillarni tekshirish, o`rganish XVIII asrdan boshlangan va qiyosiy tarixiy metod asosida tillarning fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari bir -biriga taqqoslab o`rganilgan.

Bu metodning asoschilari sifatida R. Raskin(Daniya),G` Bopp, Ya Grimm (Olmoniya), A. Vostokov (Rossiya) kabi olimlarni ko`rsatish mumkin. Dunyodagi hamma tillar eng asosiy belgilariga ko`ra ikki xil tasnif qilinadi.

1. G e n e l o g i k (kelib chiqish manbasiga ko`ra) tasnif , bu tillar orasidagi fonetik , leksik , grammatik o`xshashlikka asoslanadi.

2.M o r f o l o g i k tasnif tillarning tuzilish tomonidan o`xshashligiga asoslanadi. Bu tasnifga ko`ra tillar ikki turga ajratiladi: 1) Qo`shimchali (affiksli) tillar. Bunday tillarda nutqdagi so`zlar bir-biri bilan turli qo`shimchalar orqali beriladi. Bu tillar ham o`z navbatidayana ikki guruhga bo`linadi:

1.Agglyutinativ tillar. Ushbu guruhga turkiy, fin-ugor, dravid, yanon, manjur tillari kiradi va ularning xususiyati shundaki, qo`shimchalar o`zak yoki negizga qo`shiladi. Masalan, o`zbek tilidagi suv so`ziga turli qo`shimchalar qo`shganda ham uning shakli o`zgarmaydi. Masalan, suvchi, suvla, suvsiz kabi vahokazo.

2.F le k t i v t i l l a r . Bu guruhga hind-evropa, son tillari kiradi, ularda so`z yasash va turlash so`z tarkibidagi undoshlarni o`zgartirish yo`li bilan

amalga oshiriladi. **Qo`shimchasiz tillar.** Bu guruhga amorf va polisintetik tillar kiradi.

3. **A m o r f** tillarga xitoy, tay, birma kabi tillar kiradi. Bu tillarda ma`no so`z tartibi ahang va urg`u bilan beriladi.

4. **P o l i s i n t e t i k t i l l a r -A m e r i k a** hindilari chukot, korik kabi tillar kiradi. Gap bir so`z shaklida ifodalanadi. II.

II. Geneologik tasnif. Bu tasnifga ko`ra tillar quyidagi oilalarga bo`linadi. 1). Hind-Evropa; 2) xom-som;3) Kavkaz -iberiy ; 4) ugor- fin ; 5) xitoy -tibet; 6) oltoy; 7) dravid; 8)indonez kabi til oilalaridan iborat.

Shulardan oltoy tillari oylasi ikki guruhga bo`linadi; 1) turkiy tillar 2) mo`g`il manjur tillari: Turkiy tillarga o`zbek, qozoq, qirg`iz, turkman, qoraqalpoq, uyg`ur, ozarbayjon , Ammo hozirgi caqtida tarixi o`rganilib, bir- biri bilan qarindosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilarfdaan iborat deb qaraladi.

I. **Hind-evropa tillari oilasi;** bunda hind, eron, slavyan, boltiq, gerbman, ke`lt, yunon, alban, ahman kabi til guruhlari kiradi.

II. **Xom-som tillari oilasi:** abxaz, abazin, adigey, kabardin- cherkas, chechen, ingush, avar , dargin, lazgin, lak, gruzin kabi tillardan iborat.

III. **Ugor- jin tillari oilasi turkumiga:** ug ofin, bvenger, (mojar), mansi, xanti, eston, komi- nermyak, komi- ziryan, udmurd, mari kabi tillar kiradi.

IV. **Oltoy tillari ollasiga:** ozarbayjon, turk, turkman, o`zbek, qozoq qirg`iz, tatar, boshqird, uyg`ur, chubvash, yoqut, qoraqalpoq, tuva, qumiq; Mo`g`ul- manjur guruhiga esa mo`g`ul, buryat, qalmiq, tugus, evan, nanay, udey kabi bir qancha tillar mavjud.

Xitoy- tibet tillari oilasiga: tay-xitoy va tibet tillari guruhlari kiradi va unda xitoy, dungan, vietnam, birma kabi yuzlab tillar mavjud.

Dravid tillari oilasiga: tamil, malayalam, kannora, telugu, va raxun kabi bir qancha tillar kiradi.

Indoneziya tilari oilasiga kiruvchchi: Avstraliya, Pap ua, Bantu, Paleofika, Poleosiyo, BBChukot, Eskimos, Amerika hindilari kabi tillar guruhlari bor.

Bundan tashqari hech qanday tillar gueuhida kirmagan uzoq Sharqdagi yapon, ruykuyu, qu riya, ayn, burjaskiy kabi tillar ham borigini aytib o`tish kerak.

TURKIY TILLAR HAQIDA TUSHUNCHА

Turkiy tillar oltoy tillar oilasifga mansub bo`lib bu tilda so`zlashuvchilar son jihatidan slovyan tillaridan ikkinchi o`rinda turadi. Turkiy tilda so`zlashuvchi xalqlar ayrim manbalarda 40, ba`zi adabiyotlarda 60-70 ta ko`rsatiladi.

1992 yil 4-8 maydaa Turkiya davlatining moy taxti Anqarada bo`lib o`tgan Turkiy xalqlarning kongressida tashkiliy qo`mita raisi Ayla Qutli turkiy tilda so`zlashuvchi xalqlarining sonini 200 milion deb e`lon qilgan edi.

Turkiy tilda so`zlashuvchilar MDFX davlatlaridan tasqari Turkiya Shaarqiy Turkiston, Evropa, Amerika, Afrika, Avstraliya mamlakatlarida ham yashayotganligi haqida ma`lumot bor. Turkiy tillarga mansuvb tillarni bir oilaga kirituvchi V.A.Bobogorodiskiy, V.VRadlov, F.F. Korsh, N.FA. Baskalov kabi turkolog olimlar turkiy tillarni turlicha tasnif qiladilaar.

Bular orasida N.A. Baskaakovning tasnifi ko`pcfhilik olimlar tomonidan tan olingan. Baskakov tasnifiga ko`ra turkiy tillar ikki tarmoqqa ajratiladi. Turkiy tillarning g`arbiy xun tarmog`i- bunga quyidagi guruhalr kiritiladi.

1) Bulg`or tillari gurihi qadimda o`lik hazar, bo`lg`or va hozirgi chubvash tilidan iborat.

2) O`g`iz tillari gurihi bunda turkman, truxman, gagaus, turk ozarbayjon tuva, tillari;

3) Qipchoq tillari- qaray (Litva, Ukraina Qrimda) qo`miq (Dog`istonda)qorachoy, bbalgar (Kabvkazda), Qrim tatar, boshqirt, no`g`ay qoraqalpoq, qozoq, qirg`iz kabi tillar.

4) Qarluq tillari gurihi - o`zbek, uyg`ur tillari kiradi

Turkiy tillarning sharqiy xun tarmog`i- bunda quyidagi guruhdagi tillar kiradi: 1) Uyg`ur- turkiy tillari bunda qadimfgi Urxun Enasoy bitiklari tili, hozirgi tuva, tufalar (karagas) tillari;

2) Yoqut tillari gurihi; 3) Xakas tillari gurihi- bularga xakas, kamasin, sho`r, chulin, oltoy, sari uyg`ur tillari; 4) Qirg`iz- qipchoq tillari guruhiba esa qirqqiz oltoy tilining janubiy shevalari kiradi.

Turkiy tillar boshqa tillar oilalari dan aglyutinativ tizimga kirishi fonetik jihatdan singarmonizm qonuning mabvjudlifgi, qarashlilik kategoriyasining bo`lishi, grammatic jins kategoriyasining bo`lmasligi ko`makcfhilarning qo`llanishi, gap bo`laklarining qattiy bir tartibda kelishi so`zlarning ko`p ma`noli bo`lishi kabi lingvistik xusussiyatlari bilan arq qiladi.

4.Dunyo tillari tasnifi haqida to`lib ma`lumomt olish uchun qarang: M.Mirzaev, S. Usmonov, I. Rasulov. O`zbek tili, Toshkent, 1970, 11-15 betlar; O. Azizov. Tilshunoslikka kirish, Toshkent, 1996 ,144-164 betlar; G. Abdurahmonov, S.Mamajonov. O`bek adabiy tili va adabiyoti, Toshkent, 1995,5-9 betlar.

Hozirgi o`zbek tilshunoslik fanining sohalari va taraqqiyoti

Jahon tilshunoslik fani yutuqlari asosida tilning barcha xususiyatlarini ilmiy o`rganish natijasida o`zbek tilshunoslik fanining birqancha sohalari yaratildi, ular qo`yidagilar; fonetika , imlo va talaffuz (orfografiya va orfoepiya), Leksikologiya, fraziologiya, leksikografiya (Lug`atshunoslik), morfemika, so`z yasalishi, grammatika (morfologiya, sintaksiz), punktuatsiya (tinish belgilari) dan iborat.

Fonetika —nutq tovushri; orfografiya- to`g`ri yozuv, imlo qoidalari; orfoepiya- to`g`ri talaffuz qoidalari; Leksikologiya- so`z ma`nolari; frazeologiya-iboralar; Leksikografiya- lug`at tuzish qoidalari; morfemika- so`zning morfemalari; so`z yasalishi- o`zbek tilida so`z yasash usullari, morfologiya- so`z shakllari va turkumlari; sintaksiz- gan qurilishi; punktuatsiya- tinish belgilari haqidagi nazariy va amaliy masalalarni o`rganadi. Endilikda o`zbek tilshunosligi zamonaviy lingvistikaning muhim yo`nalishlari va tarmoqlarini o`ziga joylagan, filologik fan darajasiga o`sib etdi. Buning isboti uchun quyidagi sohalarni ko`rsatish mumkin.

Hozirgi zamon o`zbek tili fonetikasi sohasida SH. Shoabdu-rahmonov V. V. Reshetov, A. Mahmudov, S. Otamirzaeva, A. Abduazizov; hozirgi zamon o`zbek tili morfologiya va sintaksizi- A.G`ulomov, M. Asqarova, G` Abdurahmonov, A. Hojiev, N.Mahmudov, U.Tursunov, A. Nurmatov,A. Berdialiev; hozirgi zamon o`zbek tili leksikologiya va frazeologiasi - F. Kamol, S. Usmonov , SH.Rahmatullaev
S. Ibrohimov, O. Azizov , E. Begmatov.O`zbek adabiy tili orfografiyasi va orfoepiyasi- G` O`lim,A. Alaviy, O. Hoshim, A. Borovkov,O. Usmon, Z.

Ma`rubov.O`zbek tili dialektologiyasi- SH.Shoabdurahmonov, F. Abdullaev, M. Mirzaev, B. Jo`raev, A. SHermatov, X. Doniyorov, A. Ishaev; O`zbek tili uslubinati-G` . Abdurahmonov, R . Qo`ng`irov, I. Quchqortaev, M. Mukarramov, B. O`rinboev, A. Mamajonov, A.

Mamatov, B. Yo`ldoshev, S. Karimov; o`zbek tili tarixi- H. Nematov , A. Rustamov, SH .SHukurov, S. Ashirboyev, Q. Mahmudov, E. Fozilov, H. Dadaboyev, o`zbek tili punktuatsiyasi- G`oziyev, K.Nazarov va boshqalar.

Xususan pedagogika va boshlang`ich ta`lim fakul`tetlari uchun M. Mirzayev, S. Usmonov, R. Ikromova, A. Azizova, D. Muhamedovalar ”O`zbek tili” (1970,1983) darsliklarini yaratdilar.

5-S. O`ZBEK MILLIY VA ADABIY TILI.

Millat uchun umumiyl bo`lgan til milliy til deb hisoblanadi.Hozirgi o`zbek milliy tili o`zbek millatining hammasi uchun umumiyl va yogona tildir. Tarixdan ma`lumki o`zbek xalqi Markaziy Osiyoning qadimgi xalqlaridan biri

bo`lib , uning tili XI-XII asrlarda turli tarixiy sabablarga ko`ra xalq tili sifatida shakllana boshladi. Jamiyatning muayan bir bosqichida urug` qabila, elat tillari xalq tiliga, xalq tillari esa milliy tillariga aylanadi. Demak , milliy til millatning paydo bo`lishi bilan uyzaga keladi, u shu tilning adabiy til shaklini va uning barcha mahalliy ko`rinishlarini o`zida aks ettiradi:

Adabiy til deb qoidalashtirilgan ma`lum qonunlarga bo`ysundirilgan til ko`rinishiga aytildi. Adabiy tilning ikki shakli bor; **1) og`zaki; 2)_yozma**. Adabiy tilning og`zaki shakli nisbatan ancha qadimiydir. U nutq tovushlari , ohang , urg`u kabi vositalarga asoslanadi va uni **to`g`ri** talaffuz qoidalari belgilab beradi.

Adabiy tilning yozuv shakli harfiy vositalarga asoslanadi va uning qoidalari orfografiya (imlo) belgilab beradi. O`zbek milliy adabiy tili O`zbekiston Respublikasining Davlat (rasmiy)tili hisoblanadi.

O`zbek milliy tili uch 1 a h j a n i o`z ichiga o l a d i :

1). qorluq lahjası; 2) qupchoq lahjası ; 3) o`quv lahjası . Ularning har qaysisi o`nlab shevalarni o`z ichiga oladi va o`ziga xos fonetik , leksik -grammatik xususiyatlarga ega. Hozirgi o`zbek adabiy tili, asosan , Toshkent, Farg`ona kabi tayanch shahar shevalariga asoslanadi.

Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. O`zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qachon qabul qilindi va uning mohiyati nimadan iborat ?
2. Tilshunoslik fani nimani o`rganadi va qanday sohalarga bo`linadi ?
3. Til ijtimoiy, o`zgarib turubchi hodisa ekanligini qanday izohlaysiz ?
4. Hozirgi o`zbek adabiy tili qanday tuziladi?
5. Milliy va adabiy til tushunchalarini izohlang?
6. Tilning paydo bo`lishi haqida qanday nazariyalar mavjud ?
7. Tillar taraqqiyotida qanday bosqichlar mavjud?
8. Dunyo tillari qanday tasnif etiladi?
9. O`zbek tili qarindoshlik jihatidan qanday tillar oilasiga kiradi.?
10. Adabiy tilni ta`riflang ? O`zbek adabiy tili taraqqiyot bosqichlarini aytинг?
11. Umumxalq tili va milli til nima va ular adabiy tildan qanday farqlanadi?
12. Sheva, lahma atamalarini tushuntirish?
13. O`z shevangizni adabiy tildan farqlay oladigan belgilarini aytинг?

AMALIY MASHQLAR

- 1- mashq. Ajratib ko`rsatilgan so`z larning mohiyatini tushuntiring.
- I. O`zbekiston Respublikasining “davlat tili haqidagi Qonun 1999 yil 21 oktabrda qabul qilindi. 2. “ Davlat tili haqida “ gi Qonunning 1995 yil 24 dekabrda yangi tahriri qabul qilinbdi va u 24 moddadan iborat.
3. Til ijtimoiy hodisadir. Til aloqa, aralashib quroli sifatida insonlarga xizmat qiladi.
4. Tilning tovush tizimi, lug`at tarkibi grammatik qurilishi bir bu tunlikni tashkil etadi.
5. Til inson larning bir- biriga nimanidir aytish zaruriyatidan kelib chiqqan.
6. Hozirgi o`zbek milliy tili o`zbek millit ining barchasi uchun umumiy va yagona tikdir.

L E K S I K O L O G I Y A

1. LEKSIKOLOGIYA HAQIDA UMUMIY MA`LUMOT.

Leksikologiya grekcha (leksikos) "lug`at (so`z)ga oid (logoz) "ta`limot", "fikr" kabi tushunchalarini anglatadi. Leksikologiya tilshunoslikning lug`at tarkibini tekshiradigan bo`limidir. O`zbek tili leksikologiyasi esa o`zbek tili lug`at boyligini o`rganadi.

Demak, tildagi so`zlar yig`indisi leksika va uni o`zgaruvchi ta`limot esa leksikologiya deb yuritiladi. Turg`un iboralar ham o`z xususiyatiga ko`ra leksikologiyada tekshiriladi.

L e k s i k a atamasi adabiy tilning lug`at tarkibi ma`nosida ham, biror sheva so`zlari (Toshkent shevasi), biror kasb- hunar (kashta do`zlik yoki bog`dorchilik), ayrim shoir uoki yozuvchi asarlari (G. G`ulom) leksikasi ma`nosida ham ishlatilaveradi. Leksikologiya so`z larni ichki va tashqi tomondan tekshirish xususiyatiga ko`ra bir qancha sohalarga bo`linadi.

1.S e m a s i o l o g i y a .gr. Semasia "belgi", tamg`a, logos (ta`limot) tushnchalarini bildiradi.U so`z va iboralarning ma`no xususiyatlarini tekshiradi. Masalan, paxta so`zi oq rangdagi yumshoq predmet, texnika o`simligining bir turi ma`nosini bildiradi. Bu esa shu so`zning asosiy belgisidir.

2.E t i m o l o g i y a - g r e k c h a (etymon) haqqiqat va (logos) ta`limot demakdir. So`slarning kelib chiqishi, ularning fonetik va semantik tuzilishida davrlar o`tish bilan qanday o`zgarishlar yuz berganligi, qaysi tilga oid so`z ekanligini tekshiradi. Masalan, apel`s sin so`zi aslda inglizcha apel-olma, sin(chin) Xitoy yani "Xitoy olmasi" nomini ifodolovchi apelsin tarzida hind-evropa tillaridan bizgacha etib kelgan.

3.Onomosiyalogiya- grekcha (anoma) nom, (logos) ta`limot degan ma`noni anglatadi va hozirgi o`zbek tilshunosligimizda nomshunoslik haqidagi soha hisoblanadi.

Bu ta`limot, asosan, atoqli otlarini tekshiradi. Masalan, Safar (safar oyida) juma (juma kunida) tug`ilgan bolalarga qo`yiladi.

O`zbek leksikologiyasi davr nuqtai nazaradan ikki turga bo`linadi:

- 1) tarixiy leksikologiya;
- 2) hozirgi leksikologiya.

9-S. SO`Z TIL VA NUTQNING ENG MUHIM VA ASOSIY BIRLIGI SIFATIDA

Leksikologiya so`zni o`rganar ekan, birinchi navbatda so`zning o`zi va uning mohiyati, belgilari nimalardan iborat ekanligini izohlashga to`g`ri keladi. Borliqdagi predmet, narsa, hodisalar haqidagi tushunishlarni ifoda qilish uchun tovush qobug`iga, semantik tomoniga ega bo`lgan til birligi so`z deyiladi.

So`z til va nutqning eng muhim hamda asosiy birligi sanaladi. **So`z til unsiri** sifatida nomlash, atash (nominativ) vazifasini bajaradi. Masalan, tog` daraxt, osmon, predmet, qizil, oq(bildi), keldi, yozdi(harakat) kabilar. **So`z nutq** unsuri sifatida aloqa (kommukativ) vazifasini bajaradi ya`ni ular ma`lum qoidalar asosida birikib so`z birikmasi va gapni hosil qiladi. Masalan, **O`zbekiston gullagan diyor gapida** uchta so`z birikib bir gapni tashkil etgan.


So`z bir qancha o`z i g a xos shakliy belgilarga ham ega;

1. So`z xotiramizda taylor holda mavjud. Nutq jarayonida keraklisini ishlatalamiz.

2. So`z o`zining tovush qobig`iga ega, uning tovush tomoni fonettikada o`rganiladi.

3. So`z gap ichida yoki undan ajratib olingan holda ishlatilishi mumkin. Masalan, olmish yoshli otangdan osh so`rama? -gap; uning tarkibidagi, olmish yosh ota, och, so`ramoq esa so`zlardir.

Semantik xususiyatga esa bo`lgan so`z turli grammatik shakllarda qo`llanish imkoniyatiga ega .Masalan,



5. Mustaqil harbir so`z o`z urg`usiga ega; kitob, tolzor, gulasta, binokor, o`qimoq kabi.

6. So`z ma`no va grammatik belgilarining o`xshashligiga ko`ra turkumlarga bo`linadi. Masalan, tog`, tosh(ot), katta; kichik (sifat kabi.)

7. So`z emotsiyal -ekspessiv ma`no noziklik bildirish xususiyatiga ham ega . Masalan, toychog`im , bo`talog`im (farzandni erkalatish).

SO`Z NING O`Z VA KO`CHMA MA`NOSI

So`z ning nutq (gandan) tashqarida alofhida olingan holda ifodalaydigan ma`fnosi so`zning o`z (to`g`ri) ma`nosi deyiladi. Oltin olma olqish ol (Maqol) Oltin- qimmabaho metalarning bir turi (o`z ma`nosida), kumush qoshiq birikmasida -kumush o`z ma`nosida qo`llangan. So`zning gap ichi (kont ekstdan o`z ma`nosidan tashqari boshqa ma`nolarini ifoda-lashi ko`chma ma`no deyiladi. Masalan: Oq oltindan tog`dfay xirmon yaratdik, kumush tola etkazib beramiz gaplaridagi olftin va kumush so`zlari ko`chma ma`nolarbdir. So`zning o`z yoki ko`chma ma`noda qo`llanganligini kontekst (gap) belgilaydi.

KO` PMA`NOLI BVA BIR MA`NOLI SO`ZLAR

Tilda so`zlearning bir yoki bir necha ma`noga ega bo`lishi so`z ma`nolarining o`zgarishi bilan bo`g`liq hodisadir. Chunki kishilar o`zaro so`zlashuv, aloqa qilish jarayonida bir so`zni bir necha ma`noda qo`llaydilar. Shuning na tijasida ko`p ma`noli so`zlar paydo bo`ladi. So`zning qanday ma`no bildirishi gap ichida aniq anglashiladi. Boshqacha aytganda, so`z alohida olinganda bir xil ma`noni, gap ichida boshqacha ma`noni anglatish mumkin.

Bosh ba yasama ma`nolar sababli birdan ortiq ma`noga ega bo`lgan so`zlar ko`p ma`noli (polistmantik) so`zlar deyiladi. Alohida olingan yoki gap ichida ham qaysi ma`nofda ishlatilsa, shu ma`no uning bosh ma`nosi sanaladi.

Qolgan ma`nolar esa yasama ma`nolar deyiladi. Yasama ma`nolar gapda ma`lum bir nutqi y sharoitda yuzaga keladi.

O`zbek tilidagi ko`pchilik so`zlar ma`nolidir. Masalan: bosh so`zining o`z ma`nosi- kalla (Gavdaning bosh qismidir. Ko`rdinki, osh, ko`tarma bosh (Maqol). Ammo bu so`z turli so`z birikmalariga turlicha ma`no ifodalaydi: bosh masala birikmasida so`z birikmasida asosiy va muhim masala; bosh ko`tarmoq-qo`zg`almoq, harakatga kelmoq, bosh yo`l -asosiy fyo`l, bosh tegfirmون- birinchi yoki yuqorida joylashgan tegirmon; bosh qo`shmoq-birikmoq, bosh egmoq-bo`ysinmoq, bosh farzand- birinchi yoki katta farzand, bosh bo`lmoq- rahnamolik qilmoq, bosh- boshiga o`z -o`ziga, kabi ma`nolarni anglatadi.

Quyidagi o`yin so`zining ma`nolarini qiyoslang. 1. Birorta mashg`ulot turi: futbol o`yiniga qatnashdik. 2. Raqs o`yininig bir turi: nazokat kasb etib, Gulsunbibib yo`rg`alay ketdi. (A.Qodiriy.) 3. O`ziga xos jozibali, lekin betartib harakat: o`ynab o`ting shabodalar (qo`shidan).

4. Fsahna yoki boshqa tomoshalar ko`rinishi: Bolalar teatrning oldiga kelganlarida, o`yin boshlanishiga buchinchi signal- qo`ng`iroq habm berikgan edi.(Oydin).5. Ko`ngil ochish va ermak maqsadidagi mashg`ulot:u juda zerikib nima o`yin o`ynashini bilmas edi. (Oybek) Gap ichida habm, gapdan tashqarida ham aynan bir ma`noni ifodalovchi so`zlar bir ma`noli (manoseman tik- grekcha

mono “bir xil,” sema- “belgi”) so`zlar deyiladi. Bir ma`noli so`zlarga asosan, ilm fan, tebxnika, adabiyot, san`at va boshqa sohalarga oid atamalar kiradi. Bunday atamalarni ko`chma ma`noda ishlatib bo`lmaydi. Qiyoq: fonetika, unli, undosh, morfema, nibbiyat, matematika va boshqalar.

10-SS. SO`Z MA`NOLARINING KO`CHISH USULLARI

O`zbek tilida so`z ma`nolari to`rt xil usul bilan ko`chadi:1) metafora, 2)vazifadoshlik,3) metonimiya 4)sinekdoha,

Metafora gr. metaphor ”ko`chirma” demakdir. So`z ma`nolarining predmet, narsa, hodisalarning tashqi shakli o`hshashligi va ichki belgiga asoslanib ko`chishiga metafora deyiladi.

Bu usul bilan nom ko`chishi predmetlar, hodisalar orasidagi nisbiy o`xshashlikka ko`ra bo`ladi va ularning shakli rangi, harakati ikkinchi shunday predmat belgisi bo`lgan nomni oladi.

Metafora yo`li bilan ma`no ko`chishiga predmetlar uchun umumiyl belgi tushunchada saqlanadi . Masalan, qozonning qulog`i odam qulog`iga, o`zining tashqi belgisi ko`rinishi bilan o`xshaydi.

Metofora ko`proq quyidagilarga; 1) odamning tana a`zolari (qo`l, oyoq, bet, yuz, lab, tish, elka), 2) kiyimlar va ularning biror qishiga (yoqa, etak), 3) hayvon, parranda, va hashoratlarning biror a`zosi(qanot, dum, tumshuq, shox), 4)o`simlikning va uning qismi (ildiz, tomir), 5) qurol (nayza, pichoq), nomlariga asoslanadi. Masalan , qishlog`imiz tog`ning etagiga joylashgan. (H. G`) Uyimiz daryo yoqasidadir.

Qish chalar cholg`sins, esar ellar

Ko`k va erda qor kular, o`ynar (H.O.)

Lab bo`lib ko`ringan g`uncha ekan,

Yuzi bo`lib ko`ringan dil. (U.)

Vazifadoshlik (funksiadoshlik) Bir pedmetning vazifasini ikkinchi bir predmet bajarishi natijasida avvalgining nomimni keyingisi ifodashi asosida ham ko`chishi vazifadoshlik deyiladi. Bu usul bilan ma`no ko`chish bir tomondan metaforaga o`hshasa ham , u metaforadan vasifa bajarish xususiyatiga asoslanishi bilan farq qiladi. Masalan,qanot (qush), qanot (samolyot), o`q (kamon), o`q (harxil qurollar o`qi , qalam (yozuv quroli), qalam (qashga qo`yiladigan bo`yoq), o`t bog`lagan qanotlar (H. O.),qalam-qoshiqqa tekizgil qalamni (Amiri) aytilgan so`z , otilgan o`q(Maqol).

Metonomiya. gr.”meta” qayta, anoma -”nom” demakdir predmet, narsa, hodisalarining makon va zamondagi bog`lanishidan birining nomini, ikkinchisiga ko`chirish asosida yuzada keladigan ma`no metonimiya deyiladi.Bu usul bilan nom ko`chishda tashqi ichki belgidagi o`xshashlik hisobga olinmaydi balki ular orasidagi doimiy aloqaning mavjudligi hisobga olinadi, shunga ko`ra quyidagi ma`nolarni ifodalaydi:

1) o`rin munosabati (ko`za, piyola, samovar) masalan, toldirib quy qadahlarni yangrasin gulyor,(qo`shiq),2) joy, tashkilot so`zidagi doimiy aloqaga ko`ra (shahar, tashkilot)

Ko`zimning oldidan o`tadir g`amgin ,
Navoiy tobutin ko`tahgan Hirot. (A.E.)

3) muallif bilan asari orasidagi doimiy aloqa

Fuzuliyni oldim qo`limga
Majnun bo`lib yig`lab qichqirdi
Va Navoiy tushib yo`limga
Faryoq bilan o`rnidan turdi (H. O)

4).Boshqa hodisalar bilan uzviy aloqa asosida ko`chadi.

O`n to`qqizga chiqasan bugun ,
Uzoqdaman. Yo`q menda toqat (H.O)

S i n e k d o h a . gr. “ sinekdohe” birga anglamoq demakdir.” Butun nomi bilan qismni yoki ,aksincha, qism nomi bilan butunni ifodalash asosida so`z ma`nolarining ko`chishi sinekdoxa deyiladi. Sinekdoxa qisman o`rin anglatish munosabatuga ko`ra metoniniyaga kiradi. Bu usul bilan ma`no ko`chishini quyidagicha izohlash mumkin. odam a`zolari (qo`l, bosh) o`n qo`limga uzuk taqing qizlarim (butun), besh qo`l barobar emas (maqol) gapida qo`l sozi (butun nomi)barmoq ma`nosini (butunning qismini) anglatadi. Chorva tuyoqlarini ko`paytiramiz (gazetadan), har boshidan yuz lirdan sut sog`ib olamiz (radiyo eshitish).

Sinekdoxa quyi dagi munosabbat larga asoslanadi:

1. Odam a`zolari: o`n qo`lni og`zingga solma.
2. Kiyim va uning qismlari:Hisobidan afdashgan cho`ntagidan ayrilar.
(Maqol.)
3. Predmet, yarsa, qurol: xamiq uchdan patir,o`roq-o`roqchi .
- 4.Hayron, paranda a`zolari: qizil ishton (qush) , tulki(tulki terisi).
5. Darabxt va mevasi Namanganning olmasi hil-hil pishibdi.(qo`shiq).

11-S. SO`ZLARNING SHAKL VA MA`NO MUNOSABATLARIGA KO`RA TURLARI.

O`zbek tili leksikasidagi so`zlar o`zaro turli munosabatda bo`ladi. Ayrim so`zlar ma`nolari jihatidan o`zaro teng bo`lsa, bazilari shakli jihatidan bir xil bo`ladi yoki ayrim so`zlar ma`nosiga ko`ra bir -birlarini inkor qiladi. Shu xususiyatlariga ko`ra so`zlar bir necha guruhlarga bo`linadi; 1) omonim, 2) sinonim, 3) antonim, paronimlar.

Omonimlar-gr. homos “bir xil”,anoma”nom”demakdir. Shakli bir xil, ma`nosи harxil lug`aviy birliklar omonimlar deyiladi. Shakli bir xil deyilganda so`zlarning aytilishi va yozilishi aynan bir xil bo`lishi nazarda tutiladi.Masalan;ko`r (“ko`rmaydigan”, “ko`rmoq”ma`nosidagi fe`l o`zagi), ter (“peshona teri-ot,”termoq” termoq fe`l o`zagi),yuz(“100”,”bet”)

,qirq(“40”, “kes”),olma(“meva”, felning bo`lishsiz shakli) chang(“cholg`u asbobi”, “to`zon”, chop(“yugur”, “maydala”)bog’ (“mevazor”, bog`laydigan-narsa” tut (daraxt turi, “tut”) kabi Misollar;

Sayru jahon ayla, go`zallikni ko`r,
kimki go`zal narsani ko`rmas u ko`r. (Nabibiy).

Omonimlar o`z mano xususiyatlariga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi; 1) lug`atiy omonimlar; 2) Grammatik omonimlar. **Lug`atiy omonimlar.** Shakli bir xil so`z va iboralar lug`aviy omonimlar deyiladi. Bunday omonimlar ham ikki turga bo`linadi. 1) Leksik omonimlar; 2) frazeologik omonimlar.

Leksik omonimlar. Aytish, yozilishi va barcha grammatic shakillari bir xil, ma`nosi har xil so`zlar leksik omonimlar deyiladi. Misollar;

Ko`nglima har yonki boqsam dog`i bor,
Har necha dardimni desam, dog`i bor.
Gulcha tanga bori ishqing yor edi,
Biz sori bo`ldi firoqning dog`i bor. (Lutfiy.)

1-misrada dog`i (yara), 2-misrada dog`i(yana), 4-misrada dog`i (tog`)
ma`nolarida qo`llangan.

Necha dedim ul sanamga;bormog`in,
Qilmadi ul tark oxir bormog`in,
Munchalik xudroylik ko`rg`azdi ul,
Aql hayrat qildi, tishlab bormog`in. (A. N.)

1-misrada bormog`in (bermagan), 2- misrada bormog`in (borish odatini), 3-misrada bormog`in (barmoq) ma`nolarida ishlatilgan.

Qo`lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil bolam, yomonlikni ot,
Nasihatim yod qilib ol farzandim
yozg`iz yursa chang chig`armas yaxchi ot.

1-misrada ot (nom), 2- misrada ot (tashla), 4-misrada ot (ish hayvonning bir turi).

Fraseologik omonimlar. Shakli bir xil iboralar frazeologik omonimlar hisoblanadi; Masalan, qo`l ko`tarmoq (ovoz bermoq), qo`l ko`tarmoq (taslim bo`lmoq), ko`zi yorimoq (farzand ko`rmoq), ko`zi yorimoq (tuzalmoq), bosh ko`tarmoq (kasaldan turmoq), bosh ko`tarmoq (g`alayon qilmoq).

Grammatik omonimlar. Shakli bir xil ,lekin har xil grammatic vazifa bajaruvchi qo`shimchalardir. Ularni affiks omonimlar ham deb yuritiladi. Masalan , so`z yasovchi qo`shimchalar doirasida.

-m qo`shimchasi harakat natijasi oti yasaydi; bog`lam , to`plam; **-m-egalik** (so`z o`zgtartiruvchi) olmam, onam; loq (so`z yasovchi) o`tloq; loq (shakl yasovchi qizaloq bo`taloq) kabi.

Grammatik omonimlar ikki turga bo`linadi: Shakli bir xil, vazifasiga ko`ra farq qiladigan qo`shimchalardir. Grammatik omonimlar ikki turga bo`linadi.

1) Affiksal (qo`shimcha) omonbimlar

. Masalan-chi qo`shimchasi 1) vazifasiga ko`ra shaxs oti yasaydi: ishchi, suvchi; 2) modal shakl yoki qo`shimcha ma`no hosil qiladi; ayt-chi bbva boshqalar. 2) Sintaktik omonimlar. Masalan-sa: payt ma`nosida: Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam.(F.F.) Shart: uy ozoda bo`lsa, ko`ngil ravshan bo`ladi. Tilda omonimlar quyidagi yo`llar bilan yuzaga keladi.

1. Fonetik taraqqiyot natijasida har xil talaffuz qilinuvchi so`zlarning bir xil fonetik qobiqqa ega bo`lishi natijasuda. Masalan: o`r- kesmoq, o`r- qir, tepalik, p`r- qaysar, o`t- olov, o`t- maysa, ko`kat, o`t- harakat, o`t- kishi a`zosi.

2. Ko`p ma`noli so`zlarning semantik tuzilishida ma`no munosa batining kuchsizlanishi sababi. masalan: ko`k (osmon) ko`k (rang), ko`k (maysa), ko`k (ko`kat), ko`k (motam libosi), kun (sutkaning yorug` qismi), kun (quyosh), kun (tirikchilik) bva boshqalar.

3. Ma`lum so`z asoslaridan yangi so`z yasalishi natijasida. Masalan: oylik (maosh- ot turkumi), oylik (o`lchov, muddat- sifan turkumi).

4. Boshqa tildan o`zlashgan so`zning ilgari shu tilda mavjud bo`lgan boshqa so`z bilan talaffuz jihatidan mos kelib qolishi. Masalan: to`n (kiyim), ton (ohang), tom (kitob jildi), tom (uy usti) va boshqalar.

Sinonimlar gr. “Sunonimos” bir ma`noli demakdir. Shakli har xil , bir umumiyl tushuncha (ma`no) ifodalovchi, faqat qo`shimcha ma`no nozikligi bilan farqlanadigan lug`aviy birliklar sinonimlar deyiladi. Sinonim so`zlar odatda ,bir so`z turkumiga oid bo`ladi. Masalan, jahon, dunyo, olam, qayg`u, g`am , alam, xesh, qarindosh, kuch, quvvat, mador.

Ovozdangina hosil bo`lib og`iz bo`shlig`ida to`sqliarga uchramay-digan nutq tovushlari unli fonemalar deyiladi . Hozirgi o`zbek adabiy tilida unli fonemalar soni oltita; **a, i, e (ә), u, о́, о**. Bu unlilar hozirgi o`zbek yozuvida quyidagi harflar yordamida ko`rsatiladi; **a, i, e, u, о́, о**, **я, ў, йу**. Amaldagi kirill alifbosi bo`yicha; **а, у, ә, о, ў, ё, ў, я, е, ј**.

Unli fonemalar uch tomondan tasnif etiladi:

1. Tilning to`g`ri (gorizontal) harakatiga ko`ra:

- 1) til oldi (old qator) unlilar: a, u, e.(e)
- 2) til orqa (orqa qator) unlilar: o, o`, u.

2. Tilning tanglay tomon ko`tarilishi (vertikal) harakatiga ko`ra:

- 1) Yuqori ko`tarilish(tor) unlilar: i, u
- 2) O`rta ko`tarilish (o`rta keng) unlilar; e,o`
- 3) Quyi ko`tarilish (keng) unlilar: a, o

3. Lablarning ishtirokiga ko`ra :

- 1) lablangan unlilar: u, o`, o
- 2) lablanmagan unlilar: a, e, i

Unli fonemalar o`zining quyidagi muhim belgilari bilan undoshlardan farq qiladi.

1) unlilar faqat un(ovozi) dan hosil bo`ladi:

2) og`iz bo`shlig`ida to`sqliarga uchramaydi:

3) un paychalar tebranadi:

4) og`iz ochilishi darajasi harxil bo`ladi:

5) ohandor bo`ladi:

6) unlilarni cho`zib talaffuz qilish mumkin va boshqalar.

Harbir til o`ziga xos unlilar tizimiga ega. Tildagi unlilar tizimi vokalizm (lat. vokalis ovozi) deyiladi. Unli va undosh tovushlar O`zaro munosa batda bo`ladi, ammo ularning qaysi biri etakchi hisoblanadi ?

Bu savolga shunday javob qilish mumkin aslida til uchun ularning har ikkalasi ham teng qimmatga ega, ular tilning asosiy birligi so`z larni hosil qilishda bir xil xizmat qiladi. Lekin nutq jarayonida unlilar undoshlarga nisbatan salmoqli o`rin tutadi. Bu esa unlilarning ovozdorligi bilan belgilanadi.

O`zbek tilidagi unli tovushlarni jadvalda quyidagicha tasvirlash mumkin

Tilning tog`ri (gorizontal) harakatiga ko`ra		Tilning ko`tarilish (vertikal) harakatiga ko`ra		Lablarning ko`ra		ishtirokiga
Til oldi (old qator)	a, i, e	tor unlilar	i, u	lablangan		o, u, o`
Til orqa (orqa qator)	o, o` , u	O`rta-keng qo`yi keng	ə(e), o` a, o	lablanmagan		a, i, ə(e)

28 s.

AYRIM UNLILAR TAVSIFI

A, unlisi til oldi, keng, lablanmagan fonemadir. Bu unli so`zdagi o`rniga qarab ikki xil talaffuz etiladiMasalan, gala , dala, ana, mana kabi so`zlarda til oldi, ə, tovushga yaqin aytiladi **q**, **g`** x kabi til orqa tovushlar bilan yonma -yon kelgan qars, qalin, g`araz, xari kabi so`zlarda orqa qator unli tusini oladi.

I unlisi til oldi, tor lablanmagan fonema, so`zning turli o`rinlarida turlicha aytiladi. Masalan: siz, biz, idish, ildiz, kabi so`zlarda **i** old qator tovushdir; qiz, qirmiz, qilich, qing`ir, g`isht kabi so`zlarda til orqa tovush tarzida aytiladi.

Ə (e) unlisi o`rta keng, til oldi, lablanmagan tovushdir. Bu unli ayrim so`zlar tarkibida **i** tovushi bilan almashib turadi.Masalan: direktor-direktir, elektir- iliktir, mehmon-mihmon, deyman-diyman kabi.

O unlisi keng, til orqa, lablangan tovushdir.Bu unli ham urg`usiz bo`g`inlarda, ko`pincha, ruscha so`zlar tarkibida **i** tovushiga aylanadi. Masalan: traktor-traktir, sovet-sovit, rektor-rektir kabi.

O`unlisi o`rta keng, til orqa, lablangan tovushdir. Bu unli sodda so`zlarning birinchi bo`g`iniga keladi. O`g`ri, o`rin, o`g`il, o`qish kabi.

U unlisi orqa qator, tor va lablangan tovushdir, bu unlini talaffuz qilganda, tilning to`g`ri vertikal harakati tanglay orqasida qaratilgan bo`ladi, vertikal harakati esa tanglayga tomon ko`tariladi, lablar chuchayadi. Masalan: ulug`, urug` kabi so`zlarda til orqa, ulkan, unsiz kabi so`zlarda til oldi tomon talaffuzga moyil bo`ladi.

29 s UNDOSH FONEMALAR VA ULARNING TASNIFI

Ovoz va shovqindan hosil bo`lib, og`iz bo`shlig`ida to`sqliarga uchraydigan nutq tovushlari undosh tovushlar deyiladi. Hozirgi o`zbek adabiy tilida undosh fonemalar 21 ta; b, v, g, d, z, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x ch, sh, q, h, ng, bo`lib, qoyidagi harflar orqali ifoda etiladi; b, v, g, d, j, z, y, k, l, m, n, p, s, t, x, ch, sh, q, g` ,h, hg.

Undoshlarni tasnif qilish unlilarga nisbatan ancha murakkabdir, chunki undoshlar paydo bo`lishi jarangliligi, jarangsizligi, ovozning ishtiroki kabi belgilari bilan unlilarga qaraganda turlichadir.

Undoshlar talaffuzida faol ishtirok etgan azolar ham turlicha harakat qilishi mumkin. Masalan, t, d undoshlari talaffuzida tilning oldingi qismi faol ishtirok etsa **b**, **p** tovushlari hosil bo`lishida lablar ishtirok etadi. Undosh tovushlarning talaffuzida faol ishtirok etgan azolar shu tovushning hosil bo`lish o`rnii hisoblanadi. Shunga ko`ra t, d undoshlari til undoshlariga, b, p undoshlari esa lab undoshlariga kiradi.

Undosh tovushlar nutq a`zolarining biror erida to`sinqqa uchrab o`tishlari (shovqin hosil qilishlari) bilan o`ziga xos xususiyatga ega. Undosh tovushlar tovush psychalarining harakati va holatiga, havo oqimi og`iz bo`shligining qayeriga to`ziqqa uchrashishiga faqat shovqindan ustunligiga talaffuz usullariga ko`ra bir-birlaridan farqlanadi.

1. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra;
2. Hosil bo`lish (artikulatsiya) o`rniga ko`ra;
3. Hosil bo`lish (artikulatsiya) usuliga ko`ra;

1. Undoshlar ovoz va shovqinning ishtirokiga ko`ra ikkiga bo`linadi: a) shovqinlilar ; b) sonorlar .

Shovqinlilar tarkibida shovqinning miqdori ovozga nisbatan ko`proq bo`lgan yoki ovoz qatnashmagan tovushlar **b, v, g, d, j, z, y, k, p, s, t, f, x, ch, sh, q, g` ,h** kabi undoshlardir.

Shovqinli undoshlar ham o`z navbatida ikkiga bo`linadi;

1. **jarangli undoshlar:** **b, v, z, d, j, g, g` , y, m, p, n, r, l, ng.**
2. **jarangsiz undoshlar:** **p, f, s, t, sh, ch, k, q, x, h.**

Undoshlarni jarangli va jarangsizlarga ajratishda quyidagi sabablar nazarda tutiladi:

a) jarangli undoshlarni talaffuz etganda, tovush paychalari qatnashib taranglashadi va ular orasidan o`tayotgan havo oqimi tovush paychalarini titratadi. Jarangsizlarni talaffuz qilganda esa ovozdorlik sezilmaydi, chunki havo oqimi tovush paychalarini titratmaydi va taranglashmaydi; b) jarangli undoshlarni talaffuz qilganda jaranglashish seziladi. Shovqinli undoshga ovoz qo`shiladi. Lekin ovoz miqdori shovqinga nisbatan kam bo`ladi. v) Jarangsiz undoshlar faqat shovqindan hosil bo`ladi va ovoz mutlaqo ishtirok etmaydi.

Sonor undoshlar tarkibida ovoz miqdori shovqinga qaraganda ko`p bo`ladi. SHuning uchun ham ular undoshlar ichiga ovozliroq bo`lib unlilarga yaqin turadi. Ammo tarkibida qisman bo`lsa ham, shovqin ishtirok etgani uchun sonorlar undoshlarga kiradi. O`zbek tilida sonorlar beshta **-m, ng, n, l, r**.

Boshqa undoshlarning hammasi shovqinlilar hisoblanadi.

II. Hosil bo`lish o`rniga ko`ra undoshlar uch turga bo`linadi: 1) Til undosh lari; 2) Lab undoshlari; 3) bo`g`iz undoshlari.

1. **Til undoshlari** to`rt xil; 1) til oldi; **d, j, z, e, n, r, s, t, ch, sh**; 2) til o`rta **y**, 3) til orqa; **k, g, ng**, 4) chuqur til orqa undoshlari: **q, g`, x**.

2. **Lab undoshlari** bevosita lablar ishtirokida hosil qilinuvchi tovushlar bo`lib, ularga **b, p, m, v, f**, undoshlari kiradi. Bular ham o`z navbatida ikki turga bo`linadi; 1) lab -lab undoshlari; **b, p, m**, 2) lab-tish undoshlari: **v, f**. Lab undoshlari boshqa tillardan o`zlashgan so`zlar tarkibida keladi. masalan, vagon, vaqt, fazo, farmon, telefon kabi.

3. **Bo`g`iz undoshlari h.** Bu tovush bo`g`iz boshlig`ida hosil bo`ladi.

III. Hosil bo`lish usuliga ko`ra undoshlar uch turga bo`linadi: 1) portlovchilar; 2) sirg`aluvchilar; 3) portlovchi -sirg`aluvchilar.

1. **Portlovchi undoshlar** ikki nutq a`zosining o`zaro jipslashuvi va o`pkadan chiqayotgan havo oqimining ana shu a`zolarga zarb bilan urilib, portlab o`tishidan hosil bo`ladi; Bunga: **b, g, d, j, k, p, t, ch, q** undoshlari kiradi. Portlovchilar ham o`z xususiyatiga ko`ra ikki turga bo`linadi: a) **sof portlovchilar: b, g, d, k, p, t, q**. b) qorishiq portlovchilar; **ch, j, (d+j)**.

II. **Sirg`aluvchi undoshlar** ikki nutq a`zosining o`zaro yaqqinlashuvi va havo oqimining ana shu ikki a`zo orasidan ishqalanib-sirg`alib chiqishi bilan hosil bo`ladi va unga **v, j** (jabra so`zidagi), **z, y, s, f, x, sh, g`, h** undoshlari kiradi.

Masalan, havo oqimining ikki lab o`rtasidagi yoki pastki lab bilan yuqori tishlar orasidagi tor oraligdan sirg`alib o`tishi **v, f**, undoshlarini; til bilan yuqori milk o`rtasidagi tor oralig`dan sirg`alib o`tishi **j, z, s, sh** undoshlarini tilning o`rta qismi bilan qattiq tanglayning o`rta qismi orasidagi tor oralig`dan sirg`alib o`tishi **Y** undoshni; tilning o`rta qismi bilan tanglayning orqa qismi o`rtasidagi tor oralig`dan sirg`alib o`tishi **g`, x** undoshlarini: bo`g`izdagi un paychalari orasidagi tor oralig`dan sirg`alib o`tishi **h**, undoshini hosil qiladi.

III. **Portlovchi - sirg`alubchi** undoshlar portlash va sirg`alish jarayonining bir vaqtida yuz berishi natijasida vujudga keladi. Bularga **m, n, ng, r** undoshlari kiradi.

Bu undoshlar hosil bo`lish uculiga ko`ra portlovchilar sirg`aluvchilardangina emas, hatto o`zaro ham farqlanadi. Masalan, **m** undoshning hosil bo`lishida havo oqimining bir qism og`iz bo`shlig`idan lablarning to`sиг`iga uchrab, qisman portlab, havo oqimining qolgan qismi burun bo`shligidan sirg`alib chiqadi **n** undoshida esa til uchi yuqori tishlarga va milkka tegib yarim portlash yuz beradi, havo oqimining qolgan qismi burun bo`shlig`i orqali sirg`alib chiqadi.

Havo oqimining burun bo`shlig`i orqali sirg`alib chiqishi ng, (n+g) tovushini ham hosil qiladi. Shuning uchun bunday tovushlar burun undoshlari deyiladi; **I** undoshini hosil qilishda til uchi yuqorida tomon bukilib, milkka tegadi, lekin havo oqimining tilning ikki yonidan sirg`alib o`tishi uning og`iz bo`shligidan bir qism portlab, biir qism sirg`alib o`tishiga olib keladi, shu sababli **u** yon tovush deb ataladi, **r** undoshlarini hosil qilishda o`pkadan chiqayotgan havo to`lqini tilning uchiga zarb bilan kuchli uriladi va uni titratadi, tilning titrab turishi havo oqimining og`iz bo`shlig`idan ham portlab, ham sirg`alib chiqishiga sabab bo`ladi va shunga ko`ra u titroq tovush yuritiladi.

Portlovchi- sirg`aluvchi tovushlarning hosil bo`lishida port- lovchilarga xos ikki nutq a`zosining jiplashuvi, ham sirg`aluvchilarga o`xshash ikki nutq a`zosi orasidagi tor oraliqdan (yoki burun bo`shlig`idan) sirg`alib o`tishi yuzaga keladi.

a r.	jarangsiz	f	f`	s sh			x	h	sirg`-alu vchi lar	l a r.
	sonorlar	m		n	ng				buru n undo shlar i	port-lov -
				p					titroq undo sh	chi- sirg`alu v
				l					yon undo shi	chi- lar.

30 s.

NUTQNING FONETIK JIHATDAN BO`LINISHI

Inson nutqi faqat uzliksiz davom etadigan tovushlar oqimidan iborat bo`lmay, balki ohang butunligi, takt, tovush, so`z va bo`g`in kabi turli hajmdagi fanetik bo`laklardan tashkil topgan.

Nutqning ohang butunligi (frazasi). Nutqning ikki to`xtam orasidagi butunlik bo`lib, u ko`pincha tugal bir gapga teng bo`ladi. Masalan: Jismimiz yo`qalur \ o`chmas nomimiz ,\ G`alaba to`yida bo`larmiz \ biz ham (H.O.)

Takt. Ohang butunligining ikki qisqa to`xtam orasida keluvchi va bir bosh urg`u bilan aytuvchi bo`ladi takt deb ataladi. U ohang butunligi(frazasi)ning bir qismi bo`lib, qisqa ohang bilan ajratib aytildi. Masalan, Dunyoda (bir o`lka bor \ biroq\ bitilmagan) dostondir bori.

Tovush. Nutq a`zolarining bir marta harakat qilib o`rniga qaytishi (ekskursiya va rekursiya) paytida yuzaga keladigan ohang birligidir.

So`z. Nutqining alohida bir urg`u bilan aytildigan bo`lagi bo`lib, u takt ichiga yoki o`zicha mustaqil keladi. Bir takt ichida bir nechta so`z bo`lishi mumkin .Masalan: Men ne uchun \ sevaman O`zbekistonni\ (A.O.) Birinchi taktda to`rtta, ikkinchi taktda esa bitta so`z bor.

Bo`g`in. Bir zarb bilan aytildigan tovushlar yoki ayrim bir tovush bo`g`in deyiladi. So`zlarni talaffuz etganimizda o`pkadan chiqayotgan havo oqimi muayan or alig`da bolinib - bolinib, goh kuchli, goh kuchsiz zarb bilan o`tadi va u bo`g`inni hosil qiladi. Masalan, bolalar so`zida uch bo`g`in bor:

bo-la-lar. Birinchi, ikkinchi bo`g`inlar ikkita tovushdan, uchunchi bo`g`in esa uch tovushdan tashkil topgan.

O`zbek tilida bo`g`inlarning soni so`z tarkibidagi unli tovushlar miqdoriga bog`liq ya`ni so`zda nechta unli bo`lsa bo`g`inlar ham shuncha bo`ladi. Ayrim bir unli tovush ham mustaqil bo`g`in bo`laoladi, ammo undosh tovush yakka holda bo`g`in bo`laolmaydi, faqat undoshlar unlilar bilan birlashtirishda bo`g`in tashkil qiladi.

Bo`g`in turlari. O`zbek tilida bo`g`inlar qanday tovush bilan kelishiga ko`ra ikki turga bo`linadi; 1) ochiq bo`g`in . Unli tovush bilan tugaydigan bo`gin ochiq bo`g`in deyiladi . masalan, o-na, lo-la, to-la.

2) yopiq bo`g`in . undosh tovush bilan tugaydigan bo`g`in yopiq bo`g`in hisoblanadi. Masalan, mak-tab, daf-tar.

Bo`g`inlarning tuzilishiga ko`ra turlari. Tarkibidagi bo`g`inlar soniga ko`ra so`zlar turlicha bo`ladi; 1) bir bo`g`inli so`zlar; 2) ikki bo`g`in so`zlar; 3) uch bo`g`inli so`zlar; 4) ko`p bo`g`inli so`zlar. Bir bo`g`inli so`zlar; qism, qir, tog`, bog```, tol, oz, ol, osh, ikki bo`g`inli so`zlar; lo-la, to-la, bo-la, mak-tab, daf-tar: uch bo`g`inli so`zlar: sa-o-dat, ka-mi-la. Ko`p bo`g`inli so`zlar; mu-o-ma-la, o-ri-yat-li, til-shu-nos-lik, a-da-bi-yot-shu-nos-lik, mak-kor- o-na va boshqalar.

So`z tarkibidagi unli va undosh tovushlarning o`rinlashish tartibiga ko`ra quyidagicha bo`ladi . Bunda unlilar uchun **v-** vokal (ovozli) birinchi harfi, undoshlar uchun c-consonant (shovqinli) birinchi harfi olinadi:

Masalan: unli-undosh; ol, osh- vc+ vc

undosh + unli+undosh : bog`, tog`: cvc+ cvc

unli+undosh+ unli: o-na, o-ta: v+cv, v+cv

undosh+ unli+ undosh+ unli: lo-la, bo-la: cv+cv, cv+c unli+ undosh+ undosh: ost, ust: vcc, vcc; undosh+ undosh+unli+ undosh+ undosh: sport, spirt:ccvcc, ccvcc.

Bo`g`inning amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat: 1) yozuvda so`zning bir qatorga sig`may qolgan qismi ikkinchi qatorga bo`g`in asosida ko`chiriladi; 2) barmoq vaznida yoziladigan she`r misralari bo`g`in sonining teng bo`lishiga asoslanadi; 3) birinchi sinf o`quvchilarini savodga o`rgatish davrida so`zlarni bo`g`inlarga bo`lib o`qish va yozish asosida savodi chiqariladi.

Ammo o`zbekcha so`zlarda bo`g`in qator kelgan qo`sh undoshlar bilan boshlanmaydi va so`z oxirida ikkitadan ortiq undosh qator kelmaydi va boshqalar.

t\r	Tamoyil	Izoh	Misollar
I	Unchilik tamoyili	So`z tarkibidagi unlilar asosiy bo`g`in belgilash. Unli bo`g`in hosil qilubbychi vosita hisoblanadi.	lo-la, o-na, sa-o-dat
II	Espirator	Nafasning bo`linishiga asoslanadi. Talaffuz jarayonida nutq oqimining	Besh fyufz yil-lar ti k-lol-dik-mi, Navo iy- ning

		har bir kichik bo`linishi bo`g`in sanaladi. Bunda muvofiq bo`g`in bir nafas bilan talaffuz qilinuvchi eng kichik aonetik butunlikdir.	hay-kali-ni. (Shuk-rullo)
III	Sonorlik btamoyili	Ovoz darajasiga asoslanadi. Bir nafas bilan talaffuz qilinuvchi eng kichik aonetik butunlikda bir tovush o`zining ovozligi bilan cho`qqi hosil qiladi. Bo`g`in sonbi ovozlilik cho`qqisi bilan be lgilanadi.	mo- yayd, ba-land.
IV	Muskul kuchlanish tamoyili	Nutq oqimining kuchli boshlanib, kuchsiz tugash qismi. Uning ch o`qqisi (markazi)da bo`g`in fhosil qiluvchi tovush mayjud bo`ladi, bunga muvofiqundoshlar kuchli tougovchi bva ikki cho`qqili turlarga bo`linadi	ke-la-man, ay-ta-man, bo-ra-man,

32 s.

URG`U VA UNING TILLARI

So`z bo`g`inlaridan biri yoki gap tarkibidagi bo`laklardan birining boshqalariga qaraganda cho`ziq (kuchliroq) ovoz yoki ohang bilan talaffuz qilinishi urg`u deyiladi. Urg`u tushgan bo`g`in urg`uli bo`g`in hisoblanadi, urg`u odatda, unli tovushga tushadi. Masalan: daraxtlar kurta`k chiqara boshladi.

Urg`u o`z sifatiga ko`ra ikki turga bo`linadi: 1) so`z urg`usi; (yoki leksik urg`u), 2) gap urg`usi(uoki logik urg`u). So`z bo`g`inlaridan biriga tushadigan urg`u so`z(lensik) urg`u deyiladi. Masalan: bola, lola, kitob, ishchilar, talabalar, mulkdor. So`zlarga qo`shimchalar qo`shilishi bilan urg`u ham shunga mos holda ko`chadi. Masalan: g`alla -g`allakor, paxta-paxtakor.

Ko`pgina so`zlarda urg`u oxirgi bo`g`inda bo`lgani uchun o`zbek tilining so`z urg`usi bog`liq urg`u sanaladi.

Shuningdek, urg`usi birinchi yoki o`rtadagi bo`g`iga tushsadigan so`zlar ham o`zbek tilida anchagina bor. Bunday so`zlar tubandagi turkumlarda kuzatiladi:

- 1) ravishlarda: yangi hozir, doim hamisha.
- 2) olmoshlarga: hamma, barcha, nimadir, biroq, bir narsa;
- 3) modal so`zlarda; albatta, e`htimol, aftidan,
- 4) ayrim yordamchi so`zlarda; ammo, lekin, ha`tto, ba`lki .

O`zbek tilida urg`u olmaydigan unsurlar ham bor. Bunda-ku, -u,-ю, mi, chi kabi yuklamalarni ko`rsatish mumkin; sen-ku, bordim-ku, aytsam-chi, siz-chi, bormi ?

Bulardan boshqa, o`zbek tilida bir qancha qo`shimchalar urg`u olmaydi; Masalan: -cha, day, (dek); va bo`lishsizlik qoshimchalari -ma; kesimlik qoshimchasi: -dir, -man, -san, -miz, siz, kabilar, Misollar: Shamolday uchadi yosh

qizcha; qamishday qomati bor, ismini bilolmadim, bu Vataning egasi bizmiz; oltin olma, olqish ol kabi.

Gap (logik) urg`u. Gap bo`laklaridan birining boshqalariga nisbatan kuchli ohang bilan aytilishi logik (gan) urg`usi deyiladi. Misollar:

1. **Bugun** majlis bo`ladi (ertaga emas balki bugun) 2. Bugun **majlis** boladi (faqat majlis bo`ladi), 3. Bugun majlis **bo`ladi** (bo`lmaydi emas, bo`ladi) gan so`zlarning turli bo`g`inlariga tushishi mumkin bo`lgan urg`u erkin urg`u deyiladi. Masalan, gazeta, respublika, vistavka, la`mpa, ruchka, auditoiriya, konstitutsiya va boshqalar.

33 s. NUTQ TOVUSHLARINING O`ZGARISHI

Nutq jarayonida so`z tarkibidagi tovushlarning bir -biriga o`zaro ta`siri natijasida ro`y beradigan o`zgarish tovush o`zgarishlari deyiladi. Masalan, tovushlar yakka holda emas, balki so`z tarkibida ma`lum bir tartibda joylashgan holda talaffuz etiladi.

Bu esa tovushlarni turli o`zgarishlarga olib keladi. Masalan: universitet so`ziga o`rin kelishigi qo`shimchasi-da, chiqish kelishigi qo`shimchasi- dan qo`shilganda so`z oxiridagi (**t**) tovushi qo`shimchasidagi (**d**) undoshiga ta`sir qilib, uni (**t- ga**) aylantiradi; yozilishi universitetda, universitedan = aytilishi universitetta, universitetan kabi.

Tovush o`zgarishlari ikki turga bo`linadi; a) kombinator o`zgarishlar; b) pozitsion o`zgarishlar:

Talaffuz paytida so`z tarkibidagi u yoki bu tovushning o`zaro ta`siri natijasida ro`y beradigan o`zgarish kombinator o`zgarish deb yuritiladi.

Kombinator o`zgarishlar quyidagi turlarga bo`linadi; 1) assimilatsiya; 2) dissimilatsiya; 3) metateza.

34s. Assimilatsiya lat. O`xhashlik degan ma`noni anglatadi. So`z tarkibidagi noo`xhash tovushlarning talaffuz jarayonida o`xhab ketishi assimilatsiya deyiladi. Masalan, (o`tni > o`tti ; tn>tt; iishchi) ichchi; sh> ch) ch>ch; aytdi aytdi td> tt, uch-so`m > ussom; ch, > ss va boshqalar.

Assimilatsiya hodisasi o`xhatish xususiyatiga ko`ra ; 1) progressiv assimilatsiya so`z tarkibidagi oldingi tovush o`zidan keyingi tovushni o`ziga o`xhatib oladi: otdan> ottan ; tilakga > tilakka, kg> kk, otni> otti, tn> tt; 2) regressiv assimilatsiya so`z tarkibidagi oldingi tovushni keyingi tovush o`ziga o`xhatib oladi.

Assimilatsiya tovushlarning butunlay uoki qisman o`xhab qolishiga ko`ra ikki xil ; a) to`liq va b) to`lisiz assimilatsiya a) to`liq assimilatsiyada so`z tarkibidagi noo`xhash tovushlar talaffuz jarayonida butunlay bir-biriga o`xhab qoladi; to`khan, to`kkan; kg> kk ; iishchi- ichchi shch> chch, sizni, sizzi, zn> zz, bizni, bizzi kabi; to`liqsiz assimilatsiya no o`xhash tovushlar qisman bir-biriga o`xhab ketadi; toshishgan> toshkan. shg> shk, mazkur, maskur; zk> sk, toshgan, toshkan, shg, shk, kabi.

35 s. Dissimilatsiya -lat dissimlatis so`zidan “noo`xshashlik” demakdir. So`z tarkibidagi o`xshash undoshlarning talaffuz paytida bir- biriga o`xshamay qolishi dissimilatsiya deyiladi. Masalan: zarar, zaral, zarur, zaril, rr> rl, hodisasi yuz bergen.

Bu hodisa ham ta`siriga oluvchi tovush o`rniga ko`ra ikki xil: a) progresiv dissimilatsiyada kkita o`xshash tovushning keyingisi oldingisiga o`xshamay qoladi: birorta, bironta. b) regrissiv dissemlatsiyada esa oldingin tovush keyingisiga o`xshamay qoladi: direktor, dilektor, koridor, kolidol.

36 s Metateza - lat. metatez - “o`rin almashtirmoq” demakdir. Nutq jarayonida so`z tarkibidagi tovushlarning o`rin almashtirish hodisasi metateza deyiladi. Masalan, qayroq> qayroq; yomg`ir> yg`mir, **uch>ru mq>g`n**. Bu hodisa zamon munosabatiga ko`ra ikki xil . a) diaxron(tarixan almashuv) sarimsoq> samirsoq, aylan> aynal; b) sinxron (hozirgi holat) to`g`ri, torg`i, ahvol, avhol kabi.

Almashinuvchi tovushlarning joylashuviga ko`ra ikki xil: a) kontakt (yonma - yon tovushlar) o`hshaydi, oxshaydi, to`g`ra> to`rg`a; v) distakt (tovushlar va bo`g`ilar osha almashish) aylana> aynala, sarimsoq> samirzoq va boshqalar.

37 s. Pozitsion o`zgarishlar. Tovushning so`zdagi o`rni urg`uli yoki urg`usiz bo`g`inga kelish bilan bog`liq o`zgarishlar pozision o`zgarishlar deyiladi. Bu o`zgarishlarni jadvalda shunday ko`rsatish mumkin.

	tovush ortishi	so`zning qaysi o`rnida ortirishiga ko`ra	proteza epenteza epiteza	istarap-shtrafuruz-rus pikir-fikr,hukumiron-hukmron. bangka-bank,kioska-kiosk
		So`zning qaysi o`rnida tush-ushiga ko`ra	prokopa sinkopa anakopa	irik-yirik,iyna-yigna traktir-traktor go`sh-go`sht,sus-sust
pozit-sion	tovush tushishi	Yonma-yon kelgan unlidan qaysi birining tushishiga ko`ra ikki o`xshash bo`g`indan biri- ning tushuishiga ko`ra	sineresiz eliziya ganlogiyya	malo:at>malohat,qiro-t-qiroat saralayaq- sarioloq borolmadi-boraolmadi kattaka-kattaka katta aka bilatta-biladida
reduk-si ya	reduksiya	Tovushning kushsiz pozitsiyada to`liq talaffuz qilinmasligi		bilak, tilak, biroq

38 s.

FONETIK YOZUV (TRANSKRIPSIYA)

Og`zaki talaffuzda tovushlarning turlicha o`zgarishlarini ularning har-xil shaklda va ma`noda aytilishini yozuvda (tashlab) ko`rsatish uchun qabul qilingan maxsus belgilar fonetik yozuv transkripsiya deb ataladi.

Fonetik yozuv (transkripsiya) ning bir necha turlari bor; bulariga fonetik, fonologik, fonematik transkripsiylar kiradi va ular orasida eng anig`i fonetik transkripsiya sanaladi. Uning vasifasi tildagi tovushlarni to`liq hamda barcha nozikliklari bilan ifodalab berishdir.

Fonetik transkripsiyanan, asosan, shevalarni o`rganishda keng qo`llaniladi. Unda harbir tovushning turlicha talaffuz qilinishi ifoda etiladi. Masalan: unlilar uchun;

a(ә) -til oldi, lablashmagan, keng **unli** : әк ә, **d ә к ә, t ә к ә, k ә ll ә;** a`-til orqa, lablashmagan keng unli:ota, bola, tash, bash.

Bu unli qipchoq lahjasi shevalarga xos unli.

o -til orqa, keng, lablanshan unli bo`lib, asosan, tayanch shahar shevalariga xos: кэ (Toshkent), balic? (Samarqand, Buxoro), anor (Qarshi) kabi.

ә - til oldi, o`rta keng, lablanmagan unli. Bu unli o`zbek tilining hamma shevalarida uchraydi: тәк, ber, әл.

o`- til oldi, o`rta keng, lablashgan (ab.orf o`): Masalan: o`rmek, o`rdek, o`pke, o`ktem, ormala.

o-til orqa, lablashgan, o`rta keng unli (ad. orf.u). Adabiy tildagi o` tovushning til orqa juftligidir. o`rtoq, qo`laqoch (qo`lyog`och), to`l, o`roq, qo`l.

V- til oldi, lablashgan, tor unli (ad. orf. u) O`zbek tilining hamma shevalarida uchraydi: kul, gul, sumbula.

y-til orqa, lablashgan, tor unli (ad. orf. u): bulut, uzun, qul.

(u)- til oldi, lablashmagan, tor unli (ad. orf. i) barcha shevalarga xos: nush, tush, ush.

ы- til orqa, lablashmagan, tor unli (ad. orf. u): qыш, qыз.

Transkripsiyada ayrim shartli belgi va ifodalar ham bor:

> **-biror** fonemaning yoki so`zning boshqa shaklga o`tishini bildiradi: soch> chach, sanch> chach, turur > durur kabi

<- **biror** so`z yoki shaklning qaysi so`z yoki shakldan kelib chiqqanligini ko`rsatadi: “Boy ila xizmatchi” dagi ila > bilan deb ko`rsatiladi.

II- belgisi ikki shaklning vazifa jihatidan tengligini bildiradi: - day II-dek.

I- bir shevadagi shakllarning juftlarini bildiradi: ni -\ны\-\ти\ ты\-\ди

ды: (qipchoq shevalariga xos)

: -- cho`ziqliknini bildiradi: sha: r, ba: r, sa: dat, ma: la: at.

~ -moslik, almashish: qo`lla ~qo`lda.

[.] matndan ajratilgan so`zlarni bildiradi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL BVA TO PSHIRIQLAR

1. Fonetika nimani o`rganadi ?
2. Fonetik vositalar deganda nima tushuniladi?

3. Fonetik birliklarga nimalar kiradi?
4. Tovush va fonema nima?
5. Nutq a`zolari deb nimaga aytiladi?
6. Tovush hosil qilishda qaysi a`zolar faol qatnashadi?
7. Nutq tovushlari qayday hosil bo`ladi?
8. Unli tovushlarni tasnif qiling?
9. Undosh tovushlar qanday hosil bo`ladi va ularni tasnif qiling?
10. Urg`u nima va qanday turlari bor?
11. Tovush o`zgarishlari qanday yuz beradi?
- 12 Kombinator o`zgarish nima va uning turlari qaysilar?
13. Assimlatsiya nima? Dissimlatsiya-chi?
14. Transkripsiya va uning turlarini aytинг?

AMALIY MASHG`ULOT

So`zni fonetik tahlil qilish tartibi

1. So`z tarkibidagi tovush va xarflar sonini aniqlash.
2. Bo`g`inlar va ularning turlarining belgilash;
3. Unli va undosh tovushlarni aniqlash.
4. Ur g`u tushgan bo`g`inni aniqlash

Namuna: Kitob-besh tovush, besh harif, ikki bo`g`in; ki-ochiq bo`g`in, tob-yopiq bo`g`in, i, o, umli; k, t, b, - undosh tovush; i- til oldi yuqori tor lab lanmagan; o-til orqa quyi keng lablangan unli; k- shovqinli, jarangsiz, til orqa , portlovchi; t- sh ovqinli, jarang siz til oldi, portlovchi ; v- shovqinli, jarangli, lab tovushi, portlovchi:

15-mashq. Quyidagi so`zlarni ogzaki fonetik tahlil qiling. Talaba, paxta, to`garak, tovush, fonetika.

16-mashq. So`z ma`nosini o`zgartiradigan harflarning taaqiga chizing.

Yala	yalla
chini	chinni
qatiq	qattiq
tila	tilla
ila	illa
cho`qi	cho`qqi

Bo`g`inlarga ajrating. Bu so`zlarning qaysilarini bir yo`ldan ikkinchi yo`lga ko`chirish mumkin emas? nega? ong, tong, singil, ko`ngil, ming, engil, tenglaama, yangi, tanga, tengi, so`ngra, so`nggi mening, sening, tongi,

GRAFIKA VA ORFOGRAFIYA

Grafika grekcha “graphikos” so`zidan olingan bo`lib, yozuv degan tushunchani bildiradi. Tildagi tovushlarni, belgilarni ifoda etuvchi shakliy vositalar tizimi grafika deyiladi.

Umuman olganda, harflar yoki chiziqlar vositasida aks ettiriladigan shartli belgilarning tizimi grafika hisoblanadi va u harf bilan tovush o`rtasidagi munosabatlarni ifodolovchi qoidalar tizimidir.

O`zbek yozushi hozirgi holga kelgunicha juda uzoq davrni boshidan kechirdi va ko`p o`zgarishlarga uchradi. Chunonchi hozirgi o`zbek grafikasini jadvalda shunday ko`rsatish mumkin: (Fonografik yozuv .)

№	Yozuv tarixi	davrlar	Bu yozuvlarda bitilgan va bizgacha etib kelgan yodgorliklar
1.	O`rxun -Enasoy (turk run yozushi)	VII-VIII asrlar	O`rxun -Enasoy yodgorliklari
2.	Uyg`ur yozushi	VI-XVI asrlar	“Baztiyornoma”, “Me`rosnomma”, “Tazkirai avliyo”
3.	Arab alifbosi asosidagi o`zbek yozushi	VIII asrdan 1929 yilgacha	
4.	Lotin alifbosi asosidagi o`zbek yozushi	1929-1940 yillar	
5.	Rus alifbosi asosidagi o`zbek yozushi	1940 yoldan to hozirgacha	
6.	Lotin alifbosi asosidagi o`zbek yozushi	1996 yil 1-sentyabrdan boshlandi.	

Harf tildagi tovushlarning yozuvdagi ifodasidir. Harqanday shakl yoki belgi harf sanalmaydi. Tovushni talaffuz qilamiz, eshitamiz harfni esa yozamiz va ko`ramiz. Hozirgi o`zbek adabiy tilida amaldagi rus grafikasiga ko`ra unlilar: у, э, а, ў, о, е, ю, я кabi harflar bilan; undoshlar: б, в, г, д, ж, з, й, к, л, м, н, п, р, с, т, ф, х, ц, ч, ш, kabi 23 ta harf bilan ifoda etiladi va 35 ta shakl bo`lib, shundan 33 tasi harf, ikkitasi (ъ, ъ) belgidir.

Hariflarning muayan tartibda joylashtirilishi alfavit deyiladi. Amaldagi rus grafikasiga asoslangan o`zbek alfavitining joylashish tartibi quyidagicha: Аа(а), Бб(б), Вв (в), Гг(г), Дд(д), Ее(е), Ёё(ё), Жж(ж), Зз(з), Ии(и), Йй(й), Кк(ка) Лл (эл), Мм(эм), Нн(эн), Оо(о), Пп(пе), Рр(эр), Сс(ес), Тт(те),

Үу(ү), Фф(әф), Хх(ха), Цц(це), Шш(ше), Ъъ, Ыъ, Ээ(ә), Юю(ю), Я(я), Ёк(ъ), Йи(и), Fj(ђе), Kk(ќе).

O`zbekiston Respublikasi mustaqillik e`lon qilganidan so`ng (1991 yil 31 avgust) lotin yozuvi asosidagi o`zbek alifbosi masalasi kun tartibiga qo`yildi.O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashiining 1993 yil 2-3 sentayabrdagi 12 -chaqriq 13- sessiyasida “Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida” gi qonuni qabul qilindi va ushbu qonunni amalga kiritish tartibi haaqida” gi qarori matbuotda berildi.

1995 yil 6 mayda O`zbekiston Pespublikasi Oliy Majlisining “Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish to`g`risida ”gi Oliy Kengash qaroriga o`zgartirishlar kiritish to`g`risida qaror qabul qildi. Ushbu qarorga ko`ra yangi alifboga o`tishni 1996 yil sentayabridan birinchi sinflardan boshlanishi va unga to`liq o`tish 2005 yilda tugallanishi qayt qilingan edi. Bu alifboda o`zbek tilidagi 3 xil nutq tovushi (ш, ч, ng) hariflar birikmasi bilan quyidagicha ifodalanadi:

- sh harf birikmasi shodi , yozish, sharq? shavkat;
- ch harf birikmasi chol, cho`l, quvonch, ishonch;
- ng harf birikmasi tong, bong, ong, kenglik, tenglik.

Amalda qo`llanayatgan yangi o`zbek alifbosida 29 harf mavjud.har bir harifning ikki xil katta va kichik shakli bor.

ALIFBO

Aa	Bb	Db	Ee	Ff
Aa	Bb	Db	Ee	Ff
Gg	Hh	Ii	Jj	Kk
Gg	Hh	Ii	Jj	Kk
Ll	Mm	Nn	Oo	Pp
Ll	Mm	Nn	Oo	Pp
Qq	Rr	Ss	Tt	Uu
Qq	Rr	Ss	Tt	Uu
Vv	Xx	Yy	Zz	O o`
Vv	Xx	Yy	Zz	O o`
G`g`	Shsh	Chch	Ngng	
G`g`	Shsh	Chch	Ngng	

40 s. Orfografiya- grekcha ”to`g`ri” va “yozaman” tushunchalarini anglatadi. To`g`i yozuv haqidagi qoidalar to`plami orfografiya deyiladi.

Umuman olganda orfografiya adabiy tilning yozuv shakli bilan aloqador bo`lib, u to`g`ri yozish qoidalarini o`rganuvchi ta`limotdir. Insonning hayotida to`g`ri yozish va to`g`ri so`zlashi katta ahamiyatga ega. O`zbek imlosi va uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat.

1. Morfologik yozuv. Bu tamoyilga ko`ra tildagi qo`shimchalar va morfemalar og`zaki nutqdagi aytilishga qarab emas, balki aslicha yoki qabul qilingan qoidalarning biriga ko`ra yoziladi.

Masalan, 1) oftob, shitob, kitob, aylab, gulob kabi bir qator so`zlar oxiridagi **b** undoshi **p** tarzida talaffuz qilinsa ham, asliga muvofiq b yoziladi;

2) obod, gulband, dilband, shod, xursand kabi so`zlar oxiridagi **d** undoshni **t** sifatida aytilsa ham **d** yozuladi;

3) seshamba, shanba, chorshanba, aylanma, dumbul,sunbul kabi birqator so`zlar seshanmmi, shammi, chorshami, aylamma, dummul, summul aytilsa ham aslicha yoziladi:

4) uch, to`rt sonlariga- ala qo`shimchasi qo`shilganda uchchala, to`rttala tarzida aytiladi; ammo asliga muvofiq ch va bir t bilan yoziladi. Misollar: maktabga, savod, orenburg kabilar.

Hozirgi o`zbek imlosida morfolofik tamoyil asosiy va etakchi hisoblanib, yozuvda muhim o`rin tutadi.

2. Fonetik yozuv. So`z va so`z tarkibidagi qo`shimchalarning talaffuziga ko`ra yozilishi (yozilishi) fonetin tamoyil deyiladi;

Masalan, 1) ong so`ziga fe`l yasovchi **la** qo`shimchasini qoshish bilan yasalgan so`z onglia tarzida emas, balki angla deb aytiladi va shunday yoziladi;

2) **to`qi, o`qi**, tani kabi fe`l shakllariga **-v** qo`shilsa, to`quv, o`quv, tanuv safatida aytiladi va shunday yoziladi;

3) **q, k**, undoshlari bilan tugagan bir qator so`zlarga egalik qo`shimchasi qo`shilganda **-q, k** tovushlari **g`, g** tarzida aytiladi va shunday yoziladi: toychog`im (toychoq + **im**) bilagim(bilak-im) tilagim (tilak + im), so`rog`im(so`roq + im);

4) burun, qorun, o`rin, ko`ngil, singil, bo`g`iz, o`g`iz kabi so`zlarga egalik qo`shimchalari qo`shilganda, ikkinchi bo`f`indagi **i** va **u** unlisi talaffuzda ham, yozuvda ham tushib qoladi: burun+ burni, qorin+ **i** = qorni, o`rin+ **i** - o`rini, ko`ngil + **i** = ko`ngil, singil + **i** = singli, bo`g`iz + **i** = bo`g``zi, o`g`iz + **i** = og`zi va boshqalar.

3. Tarixiy -an`anaviy yozuv. Bu tamoyilga ko`ra, boshqa tillardan ozlashgan so`zlar hozir ham o`tmishdagi shakliga muvofiq va mansub bo`lgan tildagi shaklini o`zbek imlosida saqlagan holda yoziladi. Masalan,

1) direktor,iliktir, redaktor, projektur tarzida o`zbek tilida talaffuz qilinuvchi so`zlar direktor, elektr, redaktor, projektur tarzida aslicha yoziladi. Bundan tashqari o`zbek adabiy tilning qadimdan mavjud bo`lgan ayrim an`analari ham hozirgi she`riyat tilida saqlanib qolgan .

Masalan: 1) hozirgi tilmiz va shevalarimizda maqsad ma`nosini bildiruvchi - gani shakli o`rnida-gali, -q`ali,-qali,- kali shakllari saqlanib qolgan: Oydek yuzingni ko`rgali keldim, shirin labingdan so`zgali keldim (Qo`sinq);

2) hozirgi-kelasi zamon sifatdoshini yasovchi - -(ar) ning ur shakli ham mumtoz adabiyot tilida ishlatilgan.Bu shakl ba`zan hozirgi yozuvda ham o`z holicha qo`llanadi: O`zbekiston deya atalur uni sevib el tilga olur. (H. O.)

Qilib to`y so`ng bo`lurmiz birga doim,
Seni ko`p ko`rmasin menga xudoyim.

(Navoiy dramasidan)

3) -mi yuklamasi o`zbek tilida ba`zan -mu tarzida ham ishlatilishini ko`ramiz: Qora qoshing oy yuzingda hilol emasnu.(A. Po`lat.)

4). Shakliy yoki etimologik yozuv. Bu tamoyilga asosan, so`zlar yoki grammatic shakllar qaysi xalqning tilidan va yozuvidan olingan bo`lsa, o`sha shaklni saqlab qolish tushuniladi. Masalan, an`ana, she`r kabi arabcha, student, rejisyor kabi baynalminal so`zlar manba tilda aslida qaysi shaklda yozilgan bo`lsa, o`zbek tilida ham o`sha shaklda yoziladi.

5). Farqlash (differentsialash) yozuvi.

Bu tamoyilga ko`ra, shaklan yaqin yoki o`xshash bo`lgan so`zlar yozuvda ma`lum sharflar kiritish orqali farqlab yoziladi. Masalan, asr-asir, afzal-abzal, asl-asil, she`r-sher, qad-qat, nasha- nash`a kabi va boshqalar.

O`zbek tilining asosiy imlo qoidalarining tasdiqlash to`g risida 1995 yil 24 avgustda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori e`lon qilindi. Shu asosda professor Sh. Rahmatullayev tomonidan “O`zbek tilining asosiy imlo qoidalari” nashrga taylorlandi (Toshkent, “O`qituvchi” nashriyoti, 1995 yil) U bilan alohida tanishib chiqish tavsiya e`tiladi

41s.Orfoepiya haqida umumiylar ma`lumot .Orfoepiya -grek. “orfos”, “to`g`ri”epos “nutq” tushunchalarini bildiradi.Adabiy tilning to`g`ri talaffuz qilish qoidalari haqidagi qoidalalar orfoepiya deyiladi.

U milliy til (masalan, o`zbek milliy adabiy tili) doirasida yagona hamma uchun umumiylar bo`lgan talaffuz me`zonlarini belgilab beradi.

Adabiy til uchun to`g`ri yozish (orfografiya qanchalik muhim bo`lsa, to`g`ri talaffuz qilish ham shunchalik zarurdir. Chunki adabiy tilning mavjud bo`lishi uchun uning ham yozuv shakli ham og`zaki shakli bo`lishi shart va bularning birortasi bo`lmasa adabiy til mezonlari bo`lmaydi. So`zlarni to`g`ri talaffuz qilish u qaysi sheva shakilida bo`lishidan qat`iy nazar, radio,televedeniye, anjumanlar turli yig`imlardagi ma`ruzachilar uchun asosiy mezon bo`lishi shart.

Ma`lumki, o`zbek tili xilma-xil shevalarga boy til va uchta dialektni: 1) qorluq, 2) qipchoq, 3) o`g`iz o`z ichiga oladi.Ularning har-qaysisida yozlab shevalar mavjud, ular ayrim fonetik, leksik, morfologik belgilari bilan o`zaro o`xshash va noo`xshash xususiyatlarga ega.

Demak, ulardagi barcha noo`xshash belgilarrni adabiy til uchun me`zon qilib olib bo`lmaydi.

Shuning uchun adabiy tilning talaffuz me`zonlari shu tilning tovush tizimi asosida yaratiladi.Tildagi tovush o`zgarishlari bilan yuzaga keladigan hodisalar ma`lum bir tartibga keltiriladi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilining asosiy orfoepik (to`g`ri talaffuz)me`zonlari quyidagilardan iborat.

41, s. Unli tovushlar orfoepiyasi i unlisi: 1) til, bir, chit, bitta, sigir, tikka kabi so`zlarda qisqa talaffuz qilinadi; 2) **q, g` , x** kabi chuqur til orqa undoshlardan keyin kelganda i (ruscha ы) ga moyil til orqa tovush tarzida aytildi: **qir, qil, qiz, qizish, xirmon, xiron, sag`ir, yag`ir;** 3) ilmoq, ilm, iliktr, ilhom, pirim, murshiq, ahil, saxiy, yozgi, SHokir, litr kabi so`zlarda nislatan cho`ziqroq aytildi va u tovushidan oldin masalan, ziyrak, biyron, tiyin kabi so`zlarda cho`ziq aytildi (zi-rak, bi-ron, ti-n).

u unlisi:1) butun, tutun, kuch, uch, uz, uchqun, usul kabi so`zlarda qisqa aytildi:

2) tuyg`un, Uyg`un (taxallus) uyg`ur, o`quv, jur`at, surat kabi so`zlarda nisbatan cho`ziqroq talaffuz qilinadi:

3) ko`p bo`g`inli so`zlarning ikkinchi , uchunchi bo`g`ilarida :uskina, ustun, uzim, uzuk, tuzim, tunika, tushincha, huzur (yozilishi): uskuna, ustun, uzum, uzuk, tuzum, tunika,tushuncha, huzur:

4) ba`zi so`zlarning ikkinchi bo`g`inida **u** unlisi i unlisi bilan barabar qo`llanaveradi, lekin yozuvda u unlisining o`zi yoziladi: sovin \\\ sovun, gurich\\\gurunch, dovil \\\ dovul, durkin\ durkun kabi:

o` unlisi 1) to`r, zor, bor, g`or, yo`l kabi bir bo`ginli, cho`loq, mo`yna, olxo`ri kabi ikki va ko`p bo`g`inli so`zlarda qisqa talaffuz etiladi;

2) ayrim bir bo`g`inli takroriy so`zlarning birinchi qismiga; mo`-l, ko`-l, ko`-p, sho`-x, to`-q (yozilishi: mo`l. ko`l, ko`r, ko`p, sho`x, to`q), ikki bo`g`inli lo`nda(lo`nda) zo:rg`a(zo`rga`) kabi so`zlarning birinchi bo`g`inida cho`ziq aytildi:

a unlisi: 1) ayt, ayb, alam, azamat, dala, qala, dard, paykal kabi so`zlarda a unlisi yumshoq aytildi: 2) **q, x, g`** kabi til orqa undoshlar yonma-yon kelganda a unlisi qattiq talaffuz qilinadi: 3) anor, qanor, faol, bahor, nahor kabi so`zlarda a unlisi o tarzida aytildi:

o unlisi: 1) oybarchin, ohak, oy, oz, ol, omon, olcha kabi so`zlarning birinchi bo`g`inga o unlisi quyi keng, qisqa lablanmagan tovush tarzida aytildi: 2) davo, rabo, zabol, zebo, aslo, shifo, ato kabi so`zlarning ikkinchi bo`g`inida o unlisi bir oz cho`ziq talaffuz qilinadi va boshqalar.

Ayrim undoshlar orfoepiyasi. **b** undoshi ba`zi so`zlarda sirg`aluvchi v kabi aytildi; morboz <morvoz, dorvoz<dorboz, masxaraboz< masxaravoz, bedanaboz> bo`danaboz, shohboz> shovvoz:

v unlisi; o`zbekcha so`zlarda ikki lab orasida hosil bo`ladi va jarangli talaffuz qilinadi: navbog`, novot,sov, saylov ; ruscha- baynalminal so`zlarda v undosi f tarzida aytildi: vistavka, aftomat, aftolafka, aftir kabi

Sirg`aluvchi j undoshi tojikcha va baynalminal so`zlarda aynan talaffuz qilinadi; jiyda, jurnal, ajdar, juyri, buyujet kabi;

ng harf birikmasi: 1) ong, tong, so`ng, keng, ming, lang, ko`ngil, singil kabi holatda bir tovush (burun tovushi) sifatida aytildi;

2) tangens , kotangenis, shanga, kongress kabi o`zlashgan so`zlarda n va g undoshlari alohida talaffuz qilinadi.

x va **h** undoshlari hosil bo`lish o`rniga ko`ra ikki xil tovush bo`lsa-da, ba`zan og`zaki nutqda bir xil aytishini kuzatiladi. Bu esa so`zlarning ma`nosini buzishga olib keladi: xol (yuzdagi xol), hol (ahvol), xush(yaxshi), push (sezgi), xolsiz (xoli yo`q), holsiz (majolsiz).

Ayrim qo`shimchalar orfoe piyasi

-Lar ko`plik qo`shimchasi so`z qanday tovush bilan tugashidan qat`iy nazar, bir shaklda (-lar) talaffuz qilinadi: bolalar, lolalar, tog`lar, ular kabi. Ammo qorliq lahjasida kiruvchi ko`pgina shevalarda **-lar** qoshimchasini-la, -na tarzida, qinchoq lahjasida kiruvchi shevalarning ko`pida -nar, dar tarzida aytilishi kuzatiladi.

Kelishik qo`shimchalaridan : qaratqich -ning qo`shimchasi qipchoq lahjasiga oid ko`pgina shevalarda - ning , \\\ding, ting\\\ тъинг; tushum kelishigi -ni esa r ti\\\ ты\\\ -di\\\ды tarzida talaffuz etiladi; jo`nalish kelishigi-ga-qa-ka qo`shimchalari adabiy talaffuzda ham o`shanday tartibda aytildi: o`rin -payt kelishigining qo`shimchasi jarangsizdan so`ng- ta, qolgan hollarda -da aytildi: **ishta, paytta kelatta**(yozilishi ; ishda, paytda, keladiga) kabilar.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Grafika nima? Qanday shakllar grafika hisoblanadi?
2. O`zbek orfografiysi nimani o`rganadi?
3. Harf deb nimaga aytildi? qanday belgilar harf hisoblanadi?
4. To`g`ri yozish qanday ahamiyatga ega?
5. O`zbek yozuvi tarixini qisqacha izohlab bering?
6. Amaldagi yozuvimiz qanday grafikaga asoslangan?
7. O`zbek orfografiyasining qanday tamoyillari bor?
8. Fonetik yozuv nima? Morfologik yozuvichi?
9. To`g`ri talafuz qoidalarini qaysi ta`limot o`rganadi?
10. Unlilar talaffuzini tafsif qiling?
11. Undoshlar talaffuzini ayting?
12. Orfografiya va orfoepiyaning o`zaro munosabatini ayting?

AMALIY MASHG`ULOTLAR

17-mashq. Ushbu so`zlarni ko`chiring va to`g`ri talaffuz qilishni mashq qiling. Muammo, muomala, mudofa, matbuot, san`at, sanoat, siyrat, surat, sur`at, jur`at, taajjub, taalluqli, muassasa, matbaa, televedeni ye, intervju, mubvaffaqiyat, kug`rofiya, unibversitet .

18-mashq. O`qing . Undagi so`z larni to`g`ri va tez o`qishga harakat qiling.

Tilimi tilimni ming tilim qilgan,
Qirqmalar bog`la di yokim qovg`aga
Asalfjon, shakarjon paspurti bilan
Bebilet jo`naydi do`stga sovg`aga.
(G` . G` .)

Grammatika. Morfologiya va uning sintaksis bilan aloqasi **Reja:**

1. So`zning leksik va grammatik ma'nolari
2. Grammatik shakl
3. So`z shakllari (sintetik shakl, analitik shakl, aralash shakllar, juft shakllar)
4. Grammatik kategoriya
5. So`zning morfologik tarkibi

АДАБИЁТЛАР:

У.Турсунов, Ж.Мухторов, Ш.Ращматуллаев. Щозирги ызбек

адабий тили. Т.: 1992. 187-188-бетлар.

Ёрмат Тожиев. Ўзбек тили морфемикаси. Т.: 5-9-бетлар.

Ш.Шоабдурашмонов, М.Ас=арова, А.Щожиев ва бош=алар.
Шозирги ызбек адабий тили. Т.: 1980. 158-159-бетлар.

А./уломов, Н.А.Тихонов, Р.+ын\уров. Ўзбек тили морфем
лулати. Т.: 1977.

Morfemika so`zning ma`noli qismlari haqidagi ta`limotdir. So`zlarning grammatik tarkibi o`zak va turli morfemalardan tashkil topib gapda so`zlar turli grammatik shakllarda ham, o`zgarmagan holda ham qo`llaniladi. So`zlarning o`zgarmagan shakli assiy, ya`ni lug`aviy ma`noli qismidir. Turli grammatik shakllar esa lug`aviy ma`noga qo`shiladigan qo`shimcha ma`nolardir. Masalan, **Uyimizning** so`zidagi **uy** so`zning ma`noli qismi **-imiz**-egalik ma`nosini, **-ning** kelishik, ma`nosini ifodalagan.

So`zlar o`zgarmagan shaklda qo`llanib, qo`shimcha olmasa, u ma`noli qismlarga bo`linmaydi. Agar so`z tuzilishida qo`shimcha ishtirok etsa, u turli grammatik ma`nolarni ifodalaydi. So`zning ma`noli qismi ikki tarkibdan : so`z va qo`shimchalaridan tashkil topadi. So`zning o`zi ham muayyan ma`noli qismidir.

Bu qism so`zning, boshqa ma`noli qismlarga bo`linmaydigan, ushbu so`z asosida yuzaga keladigan turli shakllarning hosil bo`lishi uchun asos bo`ladigan qismidir.

So`zning eng kichik ma`noli, boshqa ma`noli qismlarga bo`linmaydigan shakli **morfema** deyiladi. Morfema -grekcha “**shakl**” demakdir. Ya`ni so`zning turli ma`noli shakllari morfema hisoblanadi. Biroq so`z shakllari ma`no va vazifa jihatidan o`zaro farqlanadi. Shunga ko`ra morfemalar ikki xil: 1) **o`zak morfema**, 2) **affiksal morfema**.

O`zak morfema so`zning asl, lug`aviy ma`nosini ifodalovchi qismi, shuning uchun morfemaning bu turi asosiy morfema deb yuritiladi. O`zak morfemalar so`z yasalishi uchun ham: **bilimdon**, **do`stlik**; shakl yasalishi uchun ham: **bilimdonroq**, do`stliklar, so`z o`zgarish uchun ham: **bilimdondan**, do`stlikdan asos bo`ladi. O`zak morfemalar so`zning asl lug`aviy ma`nosini ifodalagani uchun u so`zning o`zagi hamdir. So`z shakli xuddi shu o`zakdan boshlanadi.

So`zning lug`aviy ma`nosi bilan bog`liq bo`lgan turli grammatik ma`nolar qo`shadigan qisim affiksal morfema deyiladi. Affiksal morfemalar mustaqil holda ma`no ifodalamaydi. Shuning uchun yordamchi morfemalar deb yuritiladi. So`zlarning morfemalarga bo`linishining asosida lug`aviy va grammatik ma``nolarning ifodalanishi yotadi.

O`zak va affiksal morfemalar boshqa turli xildagi qo`shimchalarni qo`shilishi uchun asos bo`ladi. Masalan: **kitobxonlarga** so`zidagi - xon qo`shimchasi uchun kitob (o`zak) asos bo`lsa, -lar qo`shimchasi uchun kitobxon so`zi, ya`ni bir o`zak, bir affiksal morfema asos bo`lgan. So`zlarning morfologik

jihatdan tuzilishi lug`aviy va grammatik ma`noli qismlardan tashkil topganligi uchun ham ular farqlanadi. Lug`aviy ma`noli qism so`z yasalishi, qo`shimchalar qo`shish uchun asos. Shuningdek bu qism shakl yasalishi va so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarni ham qabul qiladi. So`zlarning, qo`shimcha oladigan qismi negiz deyiladi. Masalan, **bilimdonlik** so`zidagi bil (o`zak), bilim negizdir. Chunki shu qism -don qo`shimchasini qo`shilishiga asos bo`ladi. -lik qo`shimchasi uchun bilimdon so`zi negizdir. Negiz qaysi qo`shimchalar bilan yasalishiga ko`ra uch xil: **lug`aviy negiz, morfologik negiz, sintaktik negiz.**

So`z yasovchi qo`shimchalar bilan hosil bo`lgan negiz lug`aviy negiz deyiladi: **gul** (li) do`st (ona), do`st (lik), bil(im-li) kabi.

Shakl yasovchi qo`shimchalar bilan hosil bo`lgan negiz morfologik negiz deyiladi: **do`st** (lar), **yaxshi** (roq), **bor** (**moqda**) kabi.

So`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar bilan hosil bo`lgan negiz sintaktik negiz deyiladi: **kitobdan**, **kitobim** kabi. Ba`zan so`zlarda bir turdag'i qo`shimchalar birdan ortiq holda keladi. Masalan: **bilimli** so`zida -im va -li so`z yasovchi qo`shimchalari mavjud bo`lsa, **uyimdan** so`zida -im va -dan so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalari mavjud.

Ko`rinadiki bilimli so`zida ikkita lug`aviy negiz, uyimdan so`zida ikkita sintaktik negiz mavjud.

Negiz tuzilishiga ko`ra ikki xil: tub va yasama bo`ladi.

Tub negiz so`zning qo`shimcha olmagan qismidir. U so`zning o`zak morfemasiga mos kelib ma`noli qismlarga bo`linmaydi. Masalan, **bor** -**moq**, o`**qi-moq**, **ish-ga** so`zlaridagi lug`aviy ma`noli qismlar shu so`zlardagi o`zak morfema va tub negizlardir.

Yasama negiz so`zlarni qo`shish orqali hosil bo`ladi. Masalan, **kurash** (**chan**), **ep** (**chil**), **kuz** (**gi**), **ishbilarmon** kabi . Yasama negiz ham sodda , qo`shma va juft bo`ladi.

Tub so`zga yasovchi qo`shimchalar qo`shish bilan hosil bo`lgan negiz sodda negiz deyiladi: **Mehnat** -**kash**, **bog`** -**bon**. Ikki yoki undan ortiq so`zlarning qo`shilishidan hosil bo`lgan negiz qo`shma negiz deyiladi: **mirzaterak**, **belbog`** lkki so`zning o`zaro teng bog`lanishidan hamda takrorlanishidan hosil bo`ladigan negiz juft negiz deyiladi: **ota-** **ona**, **baxt-saodat**, **tez-tez**.

QO`SHIMCHALAR VA ULARNING TURLARI

Qo`shimchalar ma`no va vazifalariga ko`ra uch xil: 1) **so`z yasovchilar**, 2) **shakl yasovchilar**, 3) **so`z o`zgartiruvchilar**.

O`zak yoki negizga qo`shilib uning ma`nosini bilan bog`liq bo`lgan yangi ma`noli so`z yasaydigan qo`shimchalar **so`z yasovchi** qo`shimchalar deyiladi: **ish-chi**, **gul-li**, **gul-la**, **qish-ki**, **mard-ona**, **qahramon-larcha**, **majbur -an** kabi . So`z yasovchi qo`shimchalar yordamida bir so`z turkumidan boshqa turkumlarga xos so`zlar yasaladi: masalan, **suv**, **chiroy**, **odam**, **harakat -ot**;

suvali, chiroyli, odamsimon, harakatchan- sifat; **och, buz, kes, uch, - fe`l;** **ochiq, buziq, kes-kir, uchqur-** sifat.

Shuningdek, so`z yasovchi qo`shimchalar bilan bir so`z turkumidan shu turkumga xos so`zlar yasaladi: **ish, suhbat, vatan, yo`l, kitob -ot; ishchi, suhbatdosh, vatandosh, yo`ldosh, kitobxon-** ot. So`z yasovchilar yordamida qo`shma (toshkentlik) juft (ota -onali) so`zlar ham yasaladi. Shu bilan birgalikda bir so`zga birdan ortiq so`z yasovchi qo`shmacha qo`shilgan holda ham so`zlar yasaladi. Masalan, **terimchi** so`zidagi **ter - fe`l, terim-ot, terimchi** -otdir. Bir so`zga birdan ortiq qo`shimchalar qo`shilib so`z yasalsa, bunday qo`shimchalar so`z tarkibini murakkablashtiradi.

Shu bilan birgalikda ayrim so`z yasovchi qo`shimchalar tarkibi ikki yoki undan ortiq so`z yasovchi qo`shimchaga mos keladi, biroq bir qo`shimcha vazifasini bajaradi.

Shunga ko`ra so`z yasovchi qo`shimchalar ikki xil: **Sodda qo`shimchalar, murakkab qo`shimchalar.**

Bitta tarkibdan iborat bo`lgan qo`shimchalar sodda qo`shimchalar deyiladi: **-chi, -dosh, -z or, -shunos, -lik.**

-Ikki yoki undan ortiq qo`shimchalarining birikuvidan tashkil topgan, bir qo`shimcha vazifasini bajaruvchi qo`shimchalar murakkab qo`shimchalar deyiladi: -chilik, garchilik, lan kabi. Masalan, **chorvachilik, loygarchilik, o`ylan** so`zlari tarkibidagi -chilik (ch-lik), -garchilik (gar-chi -lik), -lan (la- n) qismlardan tarkib topgan bitta murakkab qo`shimchadir. -chilik qo`shimchasi ayrim so`zlarda tarkiban ajralishi mumkin bo`lsa -da, : **suv- ch-lik , o`quv -chi-lik** ko`pgina so`zlarda bu qo`shimchani qismlarga ajratib bo`lmaydi: **chorvachilik, bog`dorchilik kulolchilik** kabi.

So`z yasovchi qo`shimchalar so`z yasashdagi darajasi jihatidan uch xil: **unumli qo`shimchalar, kam unum qo`shimchalar, unumsiz qo`shimchalar.**

Ko`plab so`zlarning yasalishi uchun ishtirok etadigan qo`shimchalar unumli qo`shimchalar deyiladi. Unumli qo`shimchalarga: ot yasovchi **-chi** (**terimchi, ishchi, xizmatchi**); mavhum ot yasovchi **-lik** (**do`stlik, tinchlik**); **sifat yasovchi -li** (**kuchli, bilimli**) ; **-ma** (**aylanma yo`l, yasama kulgi**), nisbiy sifat yasovchi **-gi** (-ki , -qi) (**kuzgi- qishki**); fe`l yasovchi **-la** (**oshla, suvla, ishla**) **kabilar** kiradi.

Kam miqdordagi so`zlarning yasalishida ishtirok etadigan qo`shimchalar kam unum qo`shimchalar deyiladi. Ot yasovchi: **-dosh -kash, -bon,-boz, -dor, -im, -gich,** -sifat yasovchi: **-siz, -chil,-aki, -chog, -chak; fe`l yasovchi: -ik, -ig, -lan, -lash; ravish yasamasi: -an, -lab, -ona** qo`shomchalari kam unum qo`shimchalardir. Hozirgi kunda yangi so`z yasamaydigan qo`shimchalar unumsiz qoshimchalar deyiladi: **-ag`on, -a, -g, -v, -g`oq, -gir, -qiz, -chil, -chan** qo`shimchalari unumsiz qo`shimchalardir. So`z yasovchi qo`shimchalar omонимлик, sinonimlik, va antonimlik xususiyatlariiga ham ega.

Shaklan bir xil bo`lib turli turkumlardagi so`zlarni yasaydi qo`shimchalar

omonim qo`shimchalar deyiladi: **oq: o`roq, boshqoq -ot ; qo`rqoq, tarqoq -sifat , - ch: sog`inch -ot; tinch -sifat.**

- **ma: surma, turma -ot; osma, cho`zma-sifat.**

So`z yasovchi qo`shimchalar shakl yasovchi qo`shimchalar bilan ham omonim bo`la oladi. Masalan, **qushcha, uycha** so`zlaridagi **-cha** shakl yasovchi, **yangicha, eskicha** so`zlaridagi **-cha** so`z yasovchidir.

Shaklan har xil bo`lib, bir hil ma`noli so`zlarni yasovchi qo`shimchalar sinonim qo`shimchalar deyiladi. Sifat yasovchi : **-li, -ser, -dor: unumli, serunum, unumdor; -be, -siz: beaql, aqlsiz;- li, - ba, - mand davlatli, badavlat, davlatmand;** **-no, -siz: noinsof, insofsiz** kabilar sinonim qo`shimchalardir.

Bir -biriga zid ma`nolarni ifodalovchi so`zlar yasaydigan qo`shimchalar antonim qo`shimchalar deyiladi.

- **li, -siz: aqli -aqlsiz;**

-**no, -li: noinsof -insofli;**

-**be, -li : bebaxt -baxtli.**

So`zlarning lug`aviy ma`nosini o`zgartirmay ularga turli ma`no bo`yoqlari beruvchi, grammatik ma`no ifodalovchi qo`shimchalar shakl **yasovchi** qo`shimchalar deyiladi. Shakl yasovchi qo`shimchalar yangi so`z yasamaydi, balki so`zning shaklini hosil qilib turli grammatik ma`nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Shakl yasovchilar turli so`z turkumlarida turlicha vazifalarni bajaradi. Masalan, otlarda kichraytish -erkalash: **qushcha, toylog`, qo`zichoq, bolagina; ko`plik: kitoblar, uylar** kabi ma`nolarni ifodalasa , sifatda sifat darajalarini hosil qiladi: **qizilroq, oqish, ko`kmtir.**

Shu xususiytlariga ko`ra shakl yasovchilar ikki xil: **kategorial shakl yasovchi va nokategorial shakl yasovchilar.**

Kategorial shakl yasovchilar biror grammatik kategoriya xos shakllarni yasaydi. Otlardagi ko`plik, fe`llardagi shaxs -son, zamon, mayl nisbat shakllarini yasovchi qo`shimchalar kategorial yasovchilardir. Masalan, bolalar so`zidagi **-lar** ko`plik kategoriasini, **boraman** so`zidagi **-man** shaxs -son kategoriyasini hosil qiladi.

Ma`lum biror grammatik kategoriya xos bo`lmagan shakllarini hosil qiluvchi qo`shimchalar nokategorial shakl yasovchilar hisoblanadi. Masalan, otlardagi kichraytish -erkalash qo`shimchalari sonning ma`no turini hosil qiluvchi qo`shimchalar, sifatdagi daraja, fe`lning xoslangan shakllari qo`shimchalari nokategorial shakl yasovchi qo`shimchalardir.

Nutqda so`zlarni boshqa so`zlar bilan munosabatini (bog`lanishini) ta`minlaydigan qo`shimchalar so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar deyiladi. So`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar grammatik ma`no ifodalaydi. Shuning uchun bunday qo`shimchalar sintaktik vazifa bajaradi. Masalan, **Shohning qoshlari chimirilib, mo`ylovlarini uchi pastga osilib qoldi. (P. Q.)** Ushbu dapdag'i so`zlarni bog`lashda **-ning , -larini, -i , -ga** qo`shimchalarini muhim o`rnii bor. Agar gap tarkibidan shu qo`shimchalar chiqarilib tashlansa, undagi so`zlar

o`zaro bog`lanmaydi, natijada fikr i fodalanmaydi. Bu holat so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarning grammatik ma`nosiga nisbatan ham sintaktik vazifasini muhim ekanligini ko`rsatadi.

So`z o`zgartiruvchilarga otlardagi kelishik, egalik, fe`llardagi shaxs-son qo`shimchalari kiradi. Bu qo`shimchalar xarakteriga ko`ra ikki xil: **turlovchi qo`shimchalar, tuslovchi qo`shimchalar**.

Ot va otlashgan so`zlarga qo`shilib, ularni boshqa so`zlar bilan birikishini ta`minlaydigan qo`shimchalar **turlovchi** qo`shimchalar deyiladi. Otlardagi egalik va kelishik qo`shimchalari turlovchilardir.

Fe`llarga qo`shilib shaxs -son ma`nosini ifodalovchi qo`shimchalar **tuslovchi qo`shimchalar** deyiladi. Fe`llardagi shaxs-son qo`shimchalari tuslovchilardir.

So`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarining qo`llanishi boshqa qo`shimchalarga nisbatan kengdir. Ular qaysi turkumga taalluqli bo`lsa, shu turkumdagи barcha so`zlarga qo`shiladi. Masalan, **uyning, uyim, uygа bolaning, bolam, boladan, bordim, o`qidim, ishladim** kabi. Boshqa qo`shimchalarda bu xususiyat nisbatab chegaralangan. (otlardagi ko`plik qo`shimchasi bundan mustasno).

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Morfema nima ?
2. So`zlar morfologik jihatdan qanday qisimlardan tashkil topgan?
3. Qo`shimchalar ma`no va vazifasiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?
4. Qanday qo`shimchalar so`z yasovchi qo`shimchalar deyiladi?
5. So`z yasovchi qo`shimchalar so`z yasalisdagi darajasiga ko`ra necha xil?
6. So`z yasovchi sinonim, omonim, antonim qo`shimchalar qaysilar?
7. Shakl yasovchilarning vazifalari nimalardan iborat?
8. Kategorial va nokategorial shakl yasovchilar qaysilar?
9. Qanday qo`shimchalar so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalarga kiradi?

AMALIY MASHQLAR **Morfemik tahlil tartibi**

1. Morfemalarni aniqlash
2. O`zak va affiks morfemalaarning ajratish.
3. Affiks morfemalarni turlarini aniqlash.

Namuna: bilimdonlikdan so`zida beshta morfema bor.dan; bil- o`zak, - im, -don, -lik, -so`z yasovchi affiks morfema, barcha affiks morfemalar tuzilishiga ko`ra

sodda. Mardlarcha mard-larcha; mard-o`zak ,larga-affiks morfema , bo`lib -lar, cfha qismlardaan tashkil topgan murakkab affiks morfemadir.

19-mashq. So`zlarni o`zak va affiks morfemalarga ajrating.Affiks morfemalarning turini aniqlang.

1. Devorlarni nurab qolagan hovlining kunday nomonidagi ayvonga keksagina bir xotin kamzuliga tugma qadab o`tiribdi. (S.A.) 2. Chindan ham paxta urug`lifgiga ma`lum davrda kechirilmas katta bo`shliq yuzaga kelishiga yo`l qo`yib berilgani uchun ham hozir o`sha bo`shliqni v ilft egallab turibdi. (O`O) . 3. - Aqllik kishilarining urug`lari usftidan qilgan ishlari albatta noma`qul bo`lmas, -dedi.(A.Q.)4. Eshiklari nafis o`ymakorliklar bilan bezangan ichidagi oltin kumush buyumlar ko`zni qamashtiradigan ko`shkda hozir B oburni faqat bitta xona o`ziga tortar edi. (P.Q.)5. Daryoning quyi tomonida ko`ringan sel oqimi o`rkach- urkach to`lqinlari bilan yuqoriga qarab bostirib kelardi.(T.M.)

20-mashq. So`z larni morfemalarga ajting. Kategorial va nokategforial shakl yasovchi morfemalarni aniqlang?

1. Mehnatning tagi rohat (Maqol). 2. Aytishga ham tilim bormaydi. (P.Q.). 3 Ba`zi me`morlar o`zlarini podshoxlardan ham baland qo`yarkan .(P.Q.)4. Xotirjam bo`lingf, hozir dori qildim, endi tuzaladi.(S.A.)5. Tushga yaqin qishloqdan to`qq izga arava keldi. (S.A.)

SO`Z YASALISH

43 s. SO`Z YASALISHI HAQIDA MA`LUMOT

So`z yasash yangi ma`noli so`z hosil qilish demakdir. So`z yasalishi lug`aviy ma` noning ozgarishi asosida vujudga kelib, yasama so`z ko`pincha bir turkumdan boshqa turkumga ko`chadi. Shu ma`noda so`z yasash hodisasi so`zning grammatik jihatidan o`zgartiradigan hodisadir. Masalan, **gul** so`zi ot turkumiga xosligi uchun otga xos ko`plik qo`shimchasini oladi turlanadi: **gullar**, **gullarnning**, **gullarga** kabi. Bu so`zga fe`l yasovchi **-la** qo`shimchasi qo`shilganda hosil bulgan so`z ko`plik va kelishik qo`shimchalarining olmaydi, turlanmaydi, balki tuslanadi. Chunki bu holatda so`z grammatik jihatdan o`zgarib, bir kategoriyan dan boshqa kategoriya o`tadi.

Bir turkumdan boshqa turkumga o`tganda so`zlarda hosil bo`ladigan o`zgarishlar kategorial o`zgarishlar deyiladi. Masalan, **tasodifan** so`zining o`zagi (tasodif) ot, unga yasovchi **-an** qo`shimchasi qo`shilganda so`z boshqa kategoriya o`zgaradi. **Uzumzor** so`zidagi yasovchi **-zor** qo`shimchasi otdan ot yasagan. Bunda kategoriya o`zgarmagan.

So`z yasalishi bilan bog`liq ravishda so`zning lug`aviy va grammatik ma`nolari ham o`zgarishi mumkin. So`z yasalish til uchun ijobjiy hodisadir. U tilni lug`aviy jihatdan boyituvchi manbalardan biridir.

So`z yasash tildagi boshqa sohalar bilan xususan lug`at va grammatika bilan uzviy bog`liq. Chunonchi yasama so`z avval tilda mavjud bo`lgan lug`aviy vositalardan hosil bo`ladi. Masalan, tilda **kitob**, **chiroy** so`zlar mavjudligi uchun shu so`zlar asosida **kitobxon**, **chiroyli** kabi so`zlar yasalgan. So`z yasalishi asosida so`z ma`nosи o`zgaradi, yangi ma`noli so`z hosil bo`ladi. Bu holat so`z yasalishi bilan leksikologiya orasida uzviy bog`liqlikk mavjudligini ko`rsatadi. Ma`lumki, so`z yasalishida ko`pincha qo`shimchalar ishtirok etadi, yangi yasama bir turkumdan boshqa turkumga ko`chadi. Bu holat so`z yasalishining grammatika bilan ham bog`liqligini ko`rsatadi.

So`z yasalishi natijasida so`zning shakli o`zgaradi. Yangi ma`no bilan birgalikda yangi shakl vujudga keladi. So`z yasalishi paytida hosil bo`ladigan shakl bilan so`z o`zgartiruvchi va shakl hosil qiluvchi qo`shimchalar orqali vujudda keladigan shakl orasida o`xshashlik bor. Shuning ichin so`z yasalishi ham shu turdagи boshqa hodisalar singari morfologiyaning tekshirish ob`ektidir.

Tilda so`z yasash vositalari va usullari xilma-xil. O`zbek tilida so`z yasalishining asosiy ikki usuli mavjud.

1. **Morfologik (affiksasiya) usuli.** 2. **Sintaktik (kompozitsiya) usuli.**

O`zak va negizga so`z yasovchi qo`shimchalar qo`shish bilan yangi so`z yasash **morfologik usul bilan** so`z yasash deyiladi. So`z yasalishida qo`shimchalar ishtirok etganligi uchun bu usul affiksatsiya usuli hisoblanadi. So`z yasovchi qo`shimchalar o`zakka : **gulli, gulla, ishla, paxtakor**, shuningdek negizga: **bilimli, hosildorlik, chidamlilik** ham qo`shiladi.

So`z yasovchi qo`shimchalar asosan o`zak va negizdan keyin qo`shiladi. O`zakdan oldin qo`shiluvchi -old yasamalar o`zbek tili uchun xos emas. Biroq sifat turkumiga mansub bir qator so`zlarning yasalishida ola qo`shimchalar ishtirok etadi. Masalan **badavlat, serhosil, nohaq** kabi. Morfologik usulda so`z yasalishdagi muhim shartlardan biri so`z bilan yangi yasama orasida bog`liqlik bo`lishdir. Masalan, **oshpaz, gulzor** so`zlaridagi o`zak va yasovchi qo`shimchalar orqali hosil bo`lgan qismlar: **osh-oshpaz, gul-gulzor** ma`no jihatidan bir -biriga bog`liqdir.

Morfologik usul bilan so`z yasalishining shakllari ham rang -barang. Masalan, **paxtakor**, so`zida o`zak + qo`shimcha, serdaromad so`zida qo`shimcha, + o`zak, **bil-im-li** so`zida o`zak + negiz+ qo`shimcha, **nohaq lik** so`zida qo`shimcha + o`zak+ qo`shimcha shakllari mavjud.

Morfologik usul bilan so`z yasalishi ot, sifat, fe`l va **ravish** turkumlari uchun xos.

Sintaktik usul bilan so`z yasashi ham unumdon usullaridan sanaladi. Ikki yoki undan ortiq so`zlarning o`zaro qo`shilishi natijasida so`z yasalishi **sintaktik usul** bilan so`z yasalishi deyiladi. Sintaktik usul bilan **qo`shma va juft so`zlar yasaladi**. O`zbek tilida bulardan tashqari so`z yasalishining yana bir qator usullari mavjud.

Chunonchi, bir turkumdagи so`z boshqa turkumga ko`chadi va o`z ma`nosini o`zgartiradi. Masalan, **barно** (sifat), **Barно** (ot), **to`xta** (fe`l), **To`xta** (ot). Shuningdek, bir turkumdagи o`zaro so`z o`z ma`nosini o`zgartirishi, boshqa ma`no ifodalashi mumkin. Masalan, uzdi (ipni uzdi), **uzdi** (orani uzdi) **yozdi** (xat), **yozdi** (barg), **yetdi** (manzilga), **yetdi** (maqsadga). So`z yasaalishidagi bu usul lug`aviy -semantik usul deyiladi.

O`zbek tilida so`z yasalishining yana **bir usuli -abbreviatura usulidir**. Bu usul bilan qisqartma so`zlar hosil bo`ladi: **BMT, MDH, DAN** kabi. Bu usul bilan so`z yasash faqat ot turkumi uchun xosdir. So`z yasash usullaridan yana biri -konversiya usulidir. Bu usulga ko`ra bir -kategoriyaga mansub so`z boshqa kategoriyadagi so`z o`rniga qo`llaniladi. Masalan, mard maydonda bilinar gapidagi mard so`zi aslida sifat turkumiga xos bo`lib, otga ko`chgan, “odam” ma`nosida qo`llangan. Bu holat sifatdoshlarda ham mavjud: **o`qigan -o`zar kabi**.

So`zlarning tuzilishiga ko`ra turlari

So`zlar tuzilishiga ko`ra : **sodda, qo`shma va juft** bo`ladi. Birgina o`zakdan tashkil topgan so`zlar sodda so`zlar deyiladi. **kitob, yozmoq, katta, unumli, majburan**. Sodda so`zlar **tub va yasama** bo`ladi. Tarkibida so`z

yasovchi qo`shimchalar bo`limgan so`zlar tub so`z deyiladi. **yaxshidan, ko`pdan dalalardan** kabi.

So`z yasovchi qo`shimchalar yordamida yasalgan so`zlar **yasama** so`z deyiladi: **paxtakor, kutubxona, kitobxon** kabi.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil ma`noli so`zlarining ma`no va grammatic jihatidan birikishidan tashkil topgan so`zlar **qo`shma so`zlar** deyiladi.

Qo`shma so`zlar so`z birikmalariga o`xshab ketsa -da, ular orasida keskin farq mavjud. Binobarin, qo`shma so`zlar tarkibidagi so`zlar ma`no jihatidan yaxlit holda bo`lib ularda hokim, tobelik munosabatlari bo`lmaydi. Masalan, **toshbosar** so`zning tarkibi mustaqil ma`noli **tosh** va **bosar** so`zlarining birikuvidan tashkil topgan qo`shma so`z bo`lsa, tosh devor birikmasida tosh devor so`zning aniglovchisi bo`lib , hokim va tobelik munosabati asosida shakllangan.

O`zaro grammatic tenglanish munosabatlari yoki takrorlanish asosida birikuvchi so`zlar juft so`zlar deyiladi.

Juft so`zlar quyidagicha hosil bo`ladi:

a) o`zaro ma`nodosh bo`lgan so`zlardan tashkil topadi: **baxt -saodat, shod -xurram, zavq -shavq:**

b) zid ma`noli so`zlardan tashkil topadi: **katta -kichik, yaxshi -yomon, oq -qora;**

v) ma`nosi bir- biriga yaqin bo`lgan so`zlardan tashkil topadi: **ota -ona , aka-uka, opa- singil kabi;**

d) so`zlarni takrorlash natijasida hosil bo`ladi: **uzun -uzun, tez-tez, bora-bora, kula, -kula, tog` -tog` kabi.**

e) Biri mustaqil ma`no bildiradigan ikkinchi mustaqil holda ma`no bildirmaydigan so`zlarning birikmasidan tashkil topadi: **kiyim- kechak** kabi.

Takrorlanish asosida hosil bo`ladigan juft so`zlar quyidagi shakllarda bo`ladi. 1. O`rin -payt va jo`nalish kelishiklari shaklida: **qo`ldan -qo`lga, yildan yilga.** 2. Birinchi so`zning tarkibida - ma qo`shimchasi kelib, ikkinchi so`z bosh shaklda bo`ladi: **so`zma-so`z, izma -iz, zo`rma -zo`r.**

3. Takrorlangan so`zlar tarkibida ayrim tovush o`zgarishlari yuz beradi: **non -pon, ovqat -povqat.** Juft so`zlar tarkibi doimo bir xil so`z turkumlaridan iborat bo`ladi: **aka -uka** (ot + ot), **yaxshi -yomon** (sifat +sifat), **u - bu** (olmosh +olmosh), **kecha -kunduz** (ravish+ ravish).

Ayrim juft so`zlar tarkibidagi so`zlarni o`rnini almashtirib qo`llash mumkin: **asta- sekin** (sekin -sata), **baland -past** (past -baland), biroq ko`prina juft so`zlarda bunday o`rin almashtirish imkonи bo`lmaydi:

bosh -qosh, opa -singil, ko`z -quloq, og`iz -burun.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. So`z yasalishi nima?
2. O`zbek tilida so`z yasalishining faol usullari qaysilar?
3. So`zlarning tuzilishiga ko`ra qanday turlari bor?
4. Sintaktik usul bilan qahday so`zlar yasaladi?

AMALIY MASHQLAR

So`z yasalish tahlil

1. Yasama so`z usul asos bo`lgan so`z va yasovchi qo`shimcha

2. Yasama so`z usullari(morfologik va sintaktik usul)

navuna:Ishonchsiz yasama so`z uchun asos bo`lgan so`z ishon, fe`l turkumiga xos, ot yasovchi- ch qo`shimchasi yordamida mavhum ot yasalgan. Ishonch so`zidan sifat (ishonchfhsiz)so`zi yasalgan. Ushbu so`z tarkibida ikkita so`z yaasalgan .So`z yasalishining har ikkalasi

haam morfologik usul bilan yuzaga kelgan.

21- mashq. Yasama so`zlarni aniqlab, yasalish usullarini izohlang.

1.Saroy qop-qorong`i tinch uyquda, ammo bu ftingchlikni saroy otxonasidagi otlarning kurt-kurt xashak chaynashlari va atrofdagi xo`rozlarning qichqirishlarigina buzar edilar. (A.Q.) 2. shiklari nafis uymakorliklar bilan bezangan, ichidagi oltin- kumush bu yumlar ko`zni qamashtiradigan ko`shkdfaa hozir Boburni faqat bitta xona o`ziga tortar edi.(P.Q.)

3. Ulug`bek yulduzlar sirin fosh etib, so`nik shamoldifdddta qadim etdi bosh. (G`G.)4. Kunlar bir-biridan farqsiz, ammo hayotda yangiddan-yangi manzaralar vujudga keltirib o`tar edi.(A.Q.)5. Qizi 1 bar kash day oy shoshilmay osmonlay boshladi. (S.A.)

22- mashq. Quyidagi so`zlardan morfologik usul bilan so`zlar yasang.

Bil, butun, yaqin, yuz, uzoq, top, chop, buyuk, yuza, chiroy, tort, ko`z, bosh, ych, iroda, ishonch, inson, qajramon, qo`rq, zarar, qishla, mard, hazil, baland, mehmon, daromat, yog`in, tun, kitob.

23-mashq. Qo`shma va juft so`zlarga misollar toping va ular yordamida gaplar tuzing,

Grammatika ikki qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiya so`zlarning tuzilishi va o`zgarishi, so`z turkumlarini o`rganuvchi sohadir. So`z turkumlari va ularning xususiyatlarini tekshirish morfologiyaning muhim vazifalaridandir. Ma`lumki, so`zlar turli grammatic ma`nolarni ifodaladi. Grammatik ma`no ifodalashiga ko`ra so`zlar har xil shakllarda bo`ladi. So`zlardagi bunday shakllarni ham morfologiya o`rganadi. Morfologiya atamasining **morfo -shakl, logos -so`z** ekanligi ham uning so`z shakllari haqidagi ta`limot ekanligini ko`rsatadi.

Til sathi sifatida **morfologiya** nisbatan gamrovdor bo`lib, so`z shakllari, so`zlarning tuzilishi va o`zgarishi, so`z turkumlari, ularning qonuniyatlarini o`rganuvchi ta`limotdir.

So`z shakllari. So`z shakllari hodisasi tilshunoslikdagi o`ziga xos hodisalardan biridir. Unda ma`lum so`zning o`z lug`aviy ma`nosini saqlagan holda turli shakllarda qo`llanilishi tushuniladi. Masalan, **kitob, kitobi, kitobdan, kitobimiz.**

So`z shakllarining o`zgarishi dastlab shu so`zning lug`aviy ma`nosiga daxldor bo`lib, uni qaysi turkumga mansubligini belgilaydi va shu turkumga xos qo`shimchalar asosida o`z shaklini o`zgarturadi.

Masalan, **daraxt, odam**, gul so`zları ot turkumiga xos bo`lib o`z shaklini otga xos bo`lgan kelishik, egalik, ko`plik qo`shimchalarini olgan holda o`zgartiradi: **daraxtim, daraxtlar, daraxtning**. Sifat turkumida xos so`zlar esa shu turkumga xos daraja hosil qiluvchi bositalarni qabul qilgan holda o`z shaklini o`zgartiradi. Masalan, **qizil, qizg`ish, qizilroq**. So`z shakllarini o`zgarishidagi bu holat belgilangan, turg`un holat emas. So`z shakllarini o`zgarishi uchun asos bo`ladigan qo`shimchalar, so`zlarning muayyan turkumda taalluqli ekanligini belgilashda muhim bo`lsa -da, boshqa turkumga xos qo`shimchalarni ayniqsa, otlardagi kelishik, egalik ba`zan ko`plik qo`shimchalarini boshqa turkumdagagi so`zlar olgan holda o`z shaklini o`zgartradi. Masalan, **kattaning, kattalar, mening, ko`pdan** va boshqalar .

So`z shakllaning o`zgarrishi ikki holatni yuzaga keltiradi. Birinchidan, so`z shakli o`zgarganda, so`zdagi asosiy ma`noga qo`shimcha ravishda grammatic ma`no ifodalanadi. Masalan, **bolalar** so`zidagi --lar qo`shimchasi orqali ifodalanigan ma`no ko`plik ma`nosidir. Ikkinchidan, so`z shakllining o`zgarishi gapda so`zlarning o`zaro birikishini ta`minlaydi: **ishdan kelmoq** birikmasidagi -dan qo`shimchasi ushbu so`zlarni biriktirgan.

Ko`rinadiki, so`z shakllarini o`zgarishi natijasida **morfologik shakl** va **sintaktik shakl** vujudga keladi. Morfologik shakl yasovchi qo`shimchalar yordamida, sintaktik shakl esa so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar orqali hosil bo`ladi. Bundan tashqari tilda so`z yasalishi uchun xizmat qiladigan so`z yasovchi qo`shimchalar mavjud bo`lib, ular bir butun holda so`zning morfologik tuzilishini belgilaydi.

Grammatika tilshunoslik fanining nazariy bo`limlaridan biri bo`lib, gapda so`zlarning o`zgarishi va birikishi haqidagi qoidalarni o`rgatadi. Grammatika atamasining ikki ma`nosi mavjud .Birinchidan grammatika tilning muayyan tarkibiy qismi -grammatik qurilishini ifodalasa, ikkinchidan shu grammatik qurilishga xos qoidalarni umumlashtirib, uni ilmiy asosda o`rganuvchi fanni bildiradi.

Tilning grammatik qurilishi grammatikaning tekshirish obektidir. Ma`lumki, har qanday tilning o`ziga xos grammatik qurilishi mavjud bo`ladi. Tilning grammatik qurilishi muayyan tilning boshqa tillardan farqlovchi o`ziga xos belgilaridan biridir. Shu boisdan grammatika tilning eng yuqori, oliv shaklidir. Binobarin grammatikasiz fikr ifodalab bo`lmaydi. Tilning grammatik qurilishi o`z -o`zidan vujudga kelmaydi. U nutq jarayonida tilning fonetik valug`viy tomonlari bilan bog`liq holda borliqdagi narsa va hodisalarni umumlashtirish asosida vujudga keladi. Biroq grammatika tilning boshqa sohalariga, chunonchi, lug`at tarkibida ko`ra ham keng qamrovlidir.

Chunki grammatikada faqat so`zlar emas , balki ular orasidagi munosabatlar ham ifodasini topadi ya`ni tildagi har bir so`z lug`aviy ma`no ifodalaydi. Biroq bu ma`nolarning o`zi bilan fikr ifodalanmaydi. Ko`rinadiki, so`zlar nutqda grammatik jihatdan shakllangan bo`lsa o`zaro bir-biri bilan bog`lansagina fikr ifodalash uchun xizmat qiladi. Shunday ekan har qanday so`z birikmalari va nutqning asosida so`z yotadi. Shu jihatdan tilning grammatik qurilishi lug`at tarkibi bilan chambarchas bog`langandir.

Grammatika tilning eng oliv ko`rinishi sifatida yakka birliklar asosida emas umumlashmalar asosida vujudga keladi. Masalan, **kitob**, **daraxt**, **bola**, **talaba**, **gul so`zları** turli predmetlarning nomini bildiruvchi so`zlardir. Biroq ular grammatikada bir grammatik kategoriya -ot turkumidir. Bu holat grammatik umumlashmadir. Shu asosida grammatika tildagi so`zlar uchun umumiyo bo`lgan hodisalarni o`rganish asosida ularni muayyan tizimda birlashtiradi. Ikkinchidan grammatikadan tashqarida so`zlar til uchun oddiy material, ular grammatik munosabatlar asosida birikadi. Demak, grammatika tildagi lug`aviy materiallarni ma`lum maqsadlarga ko`ra ishlatish vazifasini ham bajaradi.

Tilning grammatik qurilishining muhim xususiyatlaridan biri uning takomillashib o`zgarib borishidir. Bunday o`zgarishlar jamiyat taraqqiyotidagi ob`ektiv qonunlar asosida vujudga keladi. Ammo tilning grammatik qurilishi til uchun umumiyo bo`lgan normalarga qoidalarga bo`ysinadi. Masalan, adabiy tilda eganing gapning birinchi qismida kelishi yoki aniqlovchining aniqlanmishdan oldin kelishi: **keng dala**, **moviy ko`l**, **ulkan tog`**, qaratqich bilan qaratomishning shaxs va sonda moslashib kelishi: **mening do`stim**, **uyning eshigi**, **kitobining varagi** -til normalari asosidagi hodisalardir. Bu normalar grammatikada ham grammatik qurilishga xos qonun qoidalari asosida o`z ifodasini topadi.

46 s. SO`ZNING LUG`AVIY VA GRAMMATIK MA`NOLARI

So`zlar ob`ektiv bog`liqdagi narsa va hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalaydi. Bunday tushunchalarning ifodalanishi so`zning lug`aviy ma`nosidir. Masalan, **paxta** so`zi asosida oppoq, yumshoq predmetni tushunilishi shu so`zda mavjud bo`lgan lug`aviy ma`nodir.

So`zlar lug`aviy ma`no ifodalashiga ko`ra tilda o`ziga xos mustaqillikka ega bo`lgan, lug`aviy jihatdan shakllangan birliklardir. Lug`aviy ma`no so`zlarning birlamchi, asosiy, nitqdan tashqaridagi ma`nosi bo`lib, shu ma`no orqali so`zlar narsa -hodisalar haqidagi tushunchalarni ifodalaydi. Tushuncha esa narsa -hodisalarning kishi ongida aks etishidir. So`zlar lug`aviy ma`nosiga ko`ra leksikalogenianing tekshirish ob`ektidir.

Nutqda so`zlar faqat lug`aviy birlik bo`lib qolmaydi, balki nutq vositasiga aylanadi, ya`ni o`zaro birikadi, bog`lanadi. Bu jarayonda so`zlar turli qo`shimcha ma`nolarni ifodalaydi. Turli munosabatlarni bildiruvchi bunday ma`nolar lug`aviy ma`nodan tashqaridagi qo`shimcha grammatik ma`nodir.

Grammatik ma`no so`zning shakliy ma`nosidir. Masalan, **kitoblar** so`zida grammatik ko`plik ma`nosi mavjud bo`lsa, **kitobning** so`zida kelishik ma`nosi mavjud. Grammatik ma`no o`zaro munosabatlarni ifodalashi bilan birga so`zlar uchun umumiy bo`lgan ma`nolarni ham o`zida birlashtiradi. Masalan, **biz a`lo o`qish uchun harakat qilamiz** gapidagi egalik, shaxs-son va zamon ma`nolari munosabatni anglatsa, **kitobning, uyga, darsdan** so`zlaridagi qo`shimchalar ushbu so`zlar uchun umumiy ma`no -kelishik ma`nosidir. Lug`aviy ma`noga qo`shimcha ravishda bu xildagi turli ma`nolarni ifodalanishi **grammatik ma`no** deyiladi.

Grammatik ma`no umumiyyidir. jumladan, otlardagi egalik, kelishik, ko`plik ma`nolari grammatik ma`nolardir. Grammatik ma`nolarni hosil qiluvchi turli isullar mavjud:

1.Qo`shimchalar. So`zlarning o`zak va negiziga turli qo`shimchalar qo`shishi orqali grammatik ma`no hosil bo`ladi. Masalan, **kitoblar, bolalar, uydan, ishdan, ishga oq yozish kabi.**

2. Yordamchi so`zlar. Yordamchi so`zlar, asosan, ko`makchilar mustaqil so`zlar bilan birikib grammatik ma`no ifodalaydi. Masalan: **Otabek Rahmatning bu so`zini samimiyat bilan qarshi oldi.** (A. Qod).

3. So`z tartibi. So`zlarning gapda o`rin almashuvi grammatik ma`no ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, **uzoqdan katta uy ko`rindi, -uy uzoqdan katta ko`rindi.**

4. So`zlarni takrorlash. Nutqda so`zlarni takror holda ishlatish orqali grammatik ma`no hosil bo`ladi. **Olcha va shaftolilar g`ij -g`ij, shoxlarining boshlari erga (O.)**

5. Ohang. Gap yoki so`zlarni turli ohanglarda aytishli ham grammatik ma`no ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, Fotima keldi. (darak gap) Fotima keldi? (so`roq gap), Fotima keldi ! (his -hayajon gap).

6. So`zlarni juftlash. So`zlarni juftlash ham grammatic ma`no hosil qiladigan vositalardandir. Masalan, **katta -kichik, yaxshi -yomon** kabi so`zlarning juftlanishi natijasida **kattalar ham kichiklar ham, yaxshilaru yomonlar ham, xullas, hammaning ifodalanishi ham grammatic ma`nodir.**

47 s. SO`ZLARNING GRAMMATIK SHAKLI VA GRAMMATIK KATEGORIYALAR

So`zning o`z lug`aviy ma`nosini yo`qotmagan holda turli shakllarda qo`llanishi so`zning grammatic shaklini tashkil etadi .Masalan. **kishining, kishiga, kishilar.**

Grammatic shakl ma`no ifodalash uchun xizmat qiluvchi muhim qismdir. Masalan, **keldi, yozdi** so`zlariga **-m, -k** qo`shimchalari qo`shilganda birinchi shaxsning birlik va ko`plik ma`nolari anglashilsa shu so`zlarga **-ng -ing** qo`shimchalari qo`shilganda ikkinchi shaxsning birlik va ko`plik ma`nolari ifodalanadi. Ushbu misollardan ko`rinadiki turli grammatic ma`nolarni ifodalashda shakl asos bo`lib xizmat qiladi.

Grammatic shakl nutqdagi so`zlarning bir -biriga turli munosabatini ham ifodalaydi. Masalan, **kitobning varag`i** birikmasida tobeklik ma`nosi mavjud bo`lsa, **ota va bola** birikmasida tenglik ma`nosi mavjud.

Grammatic shakl so`zning lug`aviy ma`noli qismi orqali, shuningdek, unga qo`shiladigan grammatic ma`no orqali hosil bo`ladi. Demak, so`zlar nutqda yo`lug`aviy ma`no ifodalash shaklida, yoki grammatic ma`no ifodalash shaklida qo`llaniladi.

So`zlarning lug`aviy ma`nosi bilan birgalikda nutqdagi boshqa so`zlarga munosabatini ifodalaydigan qo`shimcha ma`noga mos holati so`zning grammatic shakli deyiladi.

So`zning grammatic shakli ikki xil:

a) so`zning modal shakli; b) so`zning so`z o`zgartirish shakli.

Lug`aviy ma`noga mos keladigan, turli munosabatlarni ifodalaydigan shakl so`zning modal shaklidir. Masalan, **bola-bolalar** (birlik va ko`plik), **qush -qushcha** (kichraytish), **o`qi** (aniq nisbat), **o`qit** (orttirma nisbat) shakllaridir.

So`z o`zgartirish shakli grammatic munosabatlarni vujudga keltiruvchi shakldir. Bu shakl nutqda so`zlarning o`zaro munosabatlarini (bog`lanishini) ifodalaydigan shakldir. Masalan, **Kumushning bu holi bechora onaning yuragini ezar!**(A. Qod.) gapidagi **-ning,-ni** so`z o`zgartruvchi qo`shimchalar so`zlarning birikishi uchun muhim vazifa bajaradi.

So`zning grammatic shakllari tuzilishiga ko`ra uch xil: **sintetik shakl analitik shakl, aralash (analitik -sintetik) shakl.** Grammatic ma`noning qo`shimchalar orqali ifodalanishi sintetik shaklni vujudga keltiradi. Sintetik shakl so`z o`zgartruvchi qo`shimchalar orqali: **kitobni** (o`qidim), **kitob-dan o`qidim**, hamda shakl yasovchi qo`shimchalar orqali: **ko`kish, ko`kroq, ko`kimtir** hosil bo`ladi.

Mustaqil so`zlarning yordamchi so`zlar bilan birgalikda ishlatalishi analitik shaklni hosil qildi. Masalan, **qalam bilan, bog` tomon, uy sari** kabi. So`zlarni takrorlash bilan hosil bo`ladigan shakl ham analitik shakldir: **uyum -uyum, baland-baland, uzun-uzun.**

Ham qo`shimchalar , ham yordamchi so`zlar orqali ifodalanadigan shakl aralash shakl hosil qilad. **Uyga tomon, yo`lga qadar, toqqa tomon** kabi.

Nutqda so`zlar biror maxsus shaklni olmagan holda ham qo`llaniladi. O`zaro zich bog`lanib, bir xil grammatik ma`no ifodalaydigan shakllar yig`indisi **grammatik kategoriya** deyiladi. Masalan, **egalik, kelishik, son** kategoriyalari ot turkumiga, shaxs -son, nisbat, mayl kategoriyalari fe`l turkumiga xos grammatik kategoriyalardir. Grammatik kategoriya atamasining ikki ma`nosi mavjud. So`zlarning lug`aviy -grammatik jihatdan turkumlarga ajratilishi, so`zlarni kategoriyalarga bo`lish-grammatik kategoriyatadir. Shu bilan birgalikda muayyan turkumning o`ziga xos shakllari, jumladan, otlardagi egalik - grammatik kategoriyatadir.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Morfologiya nimani o`rganadi?
2. Qanday shakllar so`zning morfologik va sintaktik shakli hisoblanadi?
3. Grammatika nimani o`rganadi? U tarkiban qanday qismlardan tashkil topadi?
4. Qanday ma`no so`zning lug`aviy ma`nosi hisoblanadi? grammatik ma`no-chi?
5. Grammatik ma`noning umumiyligi nimada ko`rinadi?
6. Grammatik ma`no hosil qiluvchi vositalar nimalar?

AMALIY MASHQLAR.

Lug`aviy va grammatik ma`no tahlili

1. So`zning lug`aviy ma`nolarini aniqlash. 2. Grammatik ma`no larni ajraring. namuna: kishilarning so`zidagi lug`aviy ma`noli qism kishi- predmetlik tushunchasini ifodalagan. Ot turkumi -lar ko`plik ma`nosini - ning kelishik ma`nosini ifodalagan grammatik ma`nodir.
24-mashq. Berilgan so`zlarni lug`aviy va grammatik ma`no qismlarga ajratib, grammatik ma`nolarni izohlang. Ishimizdan, maqsadga, borayapti, kelmoqchi, yozdirmoq, o`qigan, turganimizda, gullardan, kishini borayapti, qishloqqa, tunashga, yozmoqdalar, do`stligimizga, tinchli gimizning, tinfhamoq, to`lqinlanib boshlariga

SO`Z TURKUMLARI. Ot

Reja:

1. Mustaqil so`zlar haqida ma'lumot
2. Yordamchi so`zlar haqida ma'lumot
3. Alohida guruhni tashkil etuvchi so`zlar
4. Ot. Otning ma'no va grammatik belgilari

So`zlar lug`aviy ma`nolari morfologik be`lgilari va gapda bajaradigan sintaktik vazifalariga ko`ra o`zaro farqlanuvchi turli guruhlarni tashkil etadi.

So`zlarning lug`aviy va grammatik jihatdan farqlanishiga ko`ra bunday guruhlarga bo`linish **so`z turkumlari** deyiladi. Shunga ko`ra, so`zlarni turkumlarga ajratishda quyidagi uch muhim belgi asos bo`ladi.

1. So`zlar ifodalaydigan lug`aviy ma`no turkumlarga ajratishdagi muhim belgidir. Masalan, **uy, er , daraxt, kitob, tosh** so`zları borliqdagi predmetlarni anglatadi. Ularning nomi ekanligi bilan xarakaterlanadi.Bir qator so`zlar shu predmetlarning biror belgisini: rangini, shakl-ko`rinishini, mazasini,

hajm-o`lchamini ifodalaydi: **oq,ko`k, katta, yumaloq, keng, uzun** kabi. Shuningdek, bir qator so`zlar predmetning ish-harakatini anglatса: **bordi, yozdi, o`qidi**, so`zlar ish-harakat yoki belgining belgisini bildiradi: **darrov, sekin, oz, ko`p** va boshqalar.

So`z ma`nolaridagi mavjud bu xususiyatlar ularni turkumlarga ajratishdagi asosiy belgidir. Turkumlarga ajratishdagi ikkinchi va uchinchi xususiyat so`zning shu ma`no tomoniga bog`liq ravishda yuzaga keladi. So`z turkumlarini ajratishda morfologik belgi ham muhimdir. Bu xususiyat muayyan so`z turkumlarida maxsus qo`shimchalar tizimi mavjudligini, ularni asosan shu turkumga xoslanganini ko`rsatadi. Masalan, ot turkumi ko`plik, kelishik, egalik, shakllariga ega bo`lganidek, boshqa turkumlardan farqli ravishda ularda kichraytish -erkalash shakllari ham bor. Shunga ko`ra otlar ko`plikda keladi predmetning kimga, nimaga qarashliliginibildiradi, turlanadi. Shuningdek maxsus ot yasovchi qo`shimchalarining mavjudligi, ot turkumi morfologik jihatdan to`la shakllangan turkum ekanligini ko`rsatadi.

Fe`l turkumida morfologik ko`rsatkichlar boshqacha -zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kabi shakllar fe`lning o`ziga xosligini ta`minlaydi. Fe`llar tuslanadi, shaxs va sonni ifodalaydi. Maxsus fe`l yasovchi qo`shimchalarning mavjudligi bu turkumdagи so`zlarning ham turkumlanish uchun to`la shakllanganligini ko`rsatsa fe`lning xoslangan shakllarini hosil qiluvchi qo`shimchalar mavjudligi fe`lning sintaktik vazifasini yana ham kengaytiradi.

So`z turkumlariga ajratishdagi belgilardan biri so`zning gapdagi sintaktik vazifasi bilan bog`liq. Masalan, bosh kelishikdagi ot ega vazifasini bajarsa, qaratqich kelishigidagi ot-aniqlovchi, boshqa kelishikdagi otlar to`ldiruvchi va hol vazifalarida keladi. Sintaktik jihatdan biror gap bo`lagi vazifasida kelish muayyan so`z turkumi uchun qotib qolgan holat emas.

Chunonchi, sifat gapda aniqlovchi vazifasida kelar ekan. Bu sifatning boshqa sintaktik vazifa bajarmasligini ko`rsatmaydi. Binobarin, sifatlar ham gapda to`ldiruvchi: **kattani katta deydilar** (Maqol), otlashganda ega: **yaxshi eydi oshini, yomon eydi boshini**(Maqol) vazifalarida qo`llaniladi.

Ko`rinadiki, so`z turkumlarining sintaktik vazifalari shu turkumdagи so`zlarning lug`aviy ma`nosiga mos holda bo`ladi. Xullas, so`z turkumlarini ajratishda shu uch belgiga tayaniladi. Biroq bu belgilar barcha so`zlarda bir xil emas. Masalan, ot, fe`l turkumlari uchun har uchala belgi etakchi bo`lsa, olmosh va son uchun bu belgilar o`ta past darajada uoki sifat ravishda sintaktik belgi kuchli bo`lganidek, morfologik belgi u darajada emas.

O`zbek tilida so`z turkumlari 12 ta bo`lib ular quyidagi guruhlarga bo`linadi.

- 1. Mustaqil so`zlar.**
- 2. Yordamchi so`zlar.**
- 3. Modal so`zlar.**
- 4.Undov so`zlar.**
- 5.Taqlidiy so`zlar.**

So`z turkumlarining barchasi gramma tik shaklga ega, biroq lug`aviy , gramma tik ma`nosi va vazifasiga ko`ra turlichadir.

1. So`z turkumlari ma`no ifodalashiga ko`ra quyidagicha:

- a) **nomlovchi so`zlar:** ot, sifat, son, fe`l, ravish.
- b) **ifodalovchi so`zlar:** undov, modal so`z, yuklama, taqlidiy so`z.
- c) **ko`rsatuvchi so`zlar:** olmosh, bog`lovchi, ko`makchi.

2. Morfologik jihatidan o`zgarishiga ko`ra quyidagicha:

- a) **morfologik jihatdan o`zgaradigan so`zlar :** ot, sifat, son, olmosh, fe`l.
- b) **morfologik jihatdan o`zgarmaydigan so`zlar:** ravish , bog`lovchi, ko`makchi, yuklama.

3. Gapda sintaktik vazifa bajarishiga ko`ra quyidagicha:

- a) **Sintaktik vazifa bajaradigan so`zlar :** ot, sifat, son, olmosh, fel, ravish, taqlidiy so`z.
- b) **Sintaktik vazifa bajarmaydigan so`zlar:** ko`makchi, bog`lovchi, yuklama, undov so`z. Modal so`zlar garchand gap bo`lagi bo`lmasada, gapda kirish, so`z vazifasini bajaradi.

Lug`aviy va gramatik ma`noga ega bo`lib, gapda biror gap bo`lagi vazifasini bajaradigan so`zlar **mustaqil so`zlar deyiladi**.

Mustaqil so`zlarda yuqorida sanab o`tilgan har uch xususiyat u yoki bu darajada mavjud. Masalan, **ot va fe`llarda** barcha turdag (so`z yasovchi, shakl yasovchi, so`z o`zgartiruvchi) qo`shimchalarni olgan holda qo`llanish xususiyati mavjud bo`lganidek, **olmosh va sonda** bu xususiyatlar deyarli yo`q, yoki mustaqil so`zlardan **olmosh** lug`aviy jihatdan atama bo`la olmasligi bilan ham ajralib turadi. Ular gapda ot, sifat, son o`rnida qo`llanib, narsa- hodisaning nomi, miqdori belgisi bo`lmaydi.

O`zbek tilida mustaqil so`zlar: **ot, sifat, son, olmosh, fe`l, ravish.**

Lug`aviy ma`noga ega bo`lмаган, so`z va gaplarni o`zaro bog`lash, ularga qo`shimcha ma`no berish uchun ishlatilib, gapda biror gap bo`lagi vazifasida qo`llanilmaydigan so`zlar **yordamchi so`zlar deyiladi**. Yordamchi so`zlarga **ko`makchi, bog`lovchi, yuklama** kiradi.

Yordamchi so`zlar lug`aviy ma`no anglatmaydi. Masalan, **uchun, ammo, sayin, bilan, va** deganda hech narsani tushunmaymiz. Biroq, til tizimida bu so`zlarning ham o`ziga xos o`rni bor. Binobarin, ular so`z va gaplarni o`zaro munosabatlarini uyushtiradi (ko`makchi), so`z va gaplarni o`zaro bog`laydi (bog`lovchi), so`zlarga, ba`zan gapga qo`shimcha ma`no beradi (yuklama).

Shunga ko`ra yordamchi so`zlar ham til tizimidagi o`ziga xos xususiyatlari mavjud bo`lgan so`zlardir.

Modal so`zlar. So`zlarning fikrga yoki fikrning borliqqa bo`lgan munosabatini ifodalaydi. Garchand, modal so`zlar lug`aviy ma`no bildirmasa-da, turli modal ma`nolarni: **tasdiq, inkor, taxmin, gumon** ma`nolarini ifodalaydi. Gapda esa kirish so`z, yoki kirish gap vazifasida keladi.

Modal so`zlar ma`no ifodalashi (modal ma`no bo`lsa ham), gapda vazifa bajarish (kirish so`z bo`lsa ham) jihatidan yordamchi so`zlardan alohida ajratib tursa- da, gap bo`lagi bola olmasligi jihatidan yordamchi so`zlarga yaqindir.

Undov so`zlar so`zlovchining his -tuyg`ularini ifoda etadi. Ular buyruq-xitob, haydash -chaqirishning atamasi bo`lmasa ham ularning ifodasi bo`la oladi.Masalan, **oh**, **uf**, **e**, **eh** undovlari zavqlanish, charchaganlik, ajablanish, hayratlanish, kabilarni anglatsa, kisht, pisht, esa haydashning ifodasidir.

Taqlidiy so`zlar tovushga, sharpaga bo`lgan shartli taqlidni anglatadi.Taqlid asosida kishida tushuncha hosil bo`ladi. Masalan, **taqir-tuqur**, **gup-gup**, **g`uj-g`uj** so`zlari kishi ongida qandaydir tushunchalarni olib keladi. Ular gapda biror gap bo`lagi vazifasida keladi. Umuman, undov va taqlidiy so`zlar ayrim xususiyatlariga ko`ra mustaqil so`zlarga yaqin.Shuning uchun bu so`zlar gap bo`lagi vazifasida ham., o`zi mustaqil so`z-gap shaklida ham keladi. Biroq bu so`zlarda mustaqil so`zlardagidek xususiyatlar to`la shakllanmagani holda yordamchilarga hos belgilar ham mavjud.

OT

OTNING MA`NOSI VA GRAMMATIK BELGILARI

Predmetning nomini bildirib, grammatic son, egalik va kelishik ma`nolarini ifodalaydigan so`zlar turkumi ot deyiladi. Otlar kim? nima? qayer? kimlar? nimalar? so`roqlaridan biriga javob bo`ladi.

Otlar ma`no xususiyatlariga ko`ra turlicha.Binobarin otlar:

- a) jonli predmetlarni: **odam**, **qish**, **baliq**; b) borliqdagi harsa - predmetlarni: **daraxt**, **uy**, **ko`cha**, **bino**, **qir**, **tosh**, **yo`l**; d) osmon jismlarini: **oy**, **quyosh**, **yulduz**; e) vaqt va hodisalarini: **yoz**, **qish**, **zilzila**, **bo`ron**, **dovul**, **toshqin**; f) mavhum tushunchalarni: **do`stlik**, **boylik**, **sevgi**, **sadoqat**, **shavq** kabilarni ifodalab, ularga nom bo`ladi.

Ot turkumiga xos muhim morfologik xususiyatlar otlarda grammatic son, egalik va kelishik kategoriylarining mavjudligidir. Shuningdek maxsus ot yasovchi qo`shimchalarning mavjudligi otlarning morfologik jihatdan to`la shakllangan so`z turkumlardan biri ekanligini ko`rsatadi.Masalan, **tadqiqotchilarimizning** so`zidagi-chi yasovchi, **-lar**, **ko`plik**, **-imiz** egalik,

-ning, kelishik ma`nolarini ifodalovchi shakllardir. Ko`rinadiki, otlarda so`z shakllarini hosil qiluvchi har uchala turdagи qo`shimchalar: so`z yasovchi, shakl yasovchi, so`z o`zgartiruvchi qo`shimchalar ham mavjud.

Egalik va kelishik qo`shimchalari otlarning boshqa so`zar bilan munosabatini t`aminlaydi, sintaktik qamrovini kengaytiradi.

Otlar gapda turli vazifalarda keladi. Biroq otning gapda ega vazifasida kelishi asosiy sintaktik belgidir. **Domla** kechasi bilan o`ylab, oxiri ilmiy kengash majlisiga borishga qaror qildi. (O.Yo.) Shuningdek otlar gapda to`ldiruvchi: Endi onaga qo`shilib qiz yig`lar, **qizga qo`shilib** ona yig`lardi. (Ch.), aniqlovchi: Tog`a **ot** jilovini do`nglikka burdi. (S.A.), Humoyun bu suvchi yigitning irodasiga so`zsiz bo`ysundi. (P.Q.) hol: Katta **zalda** noyibning o`zi ovqat sto li ketida choy ichib va gazet ko`rib o`tirardi (Ch.) va kesim shu kabi sintaktik vazifalarni bajaradi.

OTNING MA`NO TURLARI

Otlar ma`no va grammatic xususiyatlari ko`ra ikki xil : **atoqli otlar, turdosh otlar.** Predmet, narsa-hodisalarga atab qo`yilgan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar bir turdagи predmet, narsa-hodisalardan birini ajratib ko`rsatadi. Atoqli otlarga quyidagilar kiradi. 1. Kishi ismlari va familiyalar: **O`tkir, Shokir, Nafisa, Fotima** kabi 2. Geografik nomlar: **Toshkent, Farg`ona, Pomir, Sharq , G`arb** kabi.

3. Daryo, dengiz, ko`l nomlari (gidronimlar) : **Amudaryo, Orol dengizi, Sevan ko`li.** 4. Afsonaviy, hamda diniy tasavvurlar bilan bog`liq bo`lgan nomlar (teonimlar): **To`maris Shiroq, Kayumars, Iso, Muso, Zulfiqor (qilich), duldul** kabi. 5. Osmon jismlari nomlari (astronomimlar): **Zuhro, Hulkar, Mirrix , Mars, Etti qaroqchi.** 6. Aholi yashaydigan kichik joy nomlari (oykonimlar , ko`chalar, bekatlar nomlari, (dramonimlar), tepaliklar, chuqurliklar, qirlar nomlari (oronimlar), uy hayvonlari va qushlarga atab qo`yilgan nomlar (zoonimlar), jurnal, badiiy asar nomlari, oliy organ va tashkilotlar, orden va medallar nomlari atoqli otlardir.

Atoqli otlar o`zbek tili lug`at tarkibini boyituvchi manbalardan biri bo`lib , tilda avvaldan mavjud bo`lgan so`zlar asosida hosil bo`ladi. Biroq atoqli otlar o`z xususiyati va yozilishiga ko`ra tildagi boshqa so`zlardan farqlanadi.

Atoqli otlarni turdosh otlardan farqlovchi muhim belgilardan biri ko`plik shakllarida ishlatilatilmasligidir.

Tilda mavjud otlarning katta qismini turdosh otlar tashkil etadi. Bir *turdagи predmet, narsa -hodisalarning umumiy nomini bildiradigan otlar turdosh otlar deyiladi. Masalan, **yulduz, daraxt, tepa, ko`l, daryo, qir, ko`cha, shahar, odam** kabi.

Turdosh otlar birlik va ko`plik shakllarida ishlatiladi. Bir xildagi predmetlarni ifodalash asosida atoqli otlar turdosh otlarga o`tadi. Masalan, **rentgen, amper, muslimka** (bug`doy nomi), shuningdek, yakka predmetlarni ajratib ko`rsatish asosida turgan otlar atoqli otlarga aylanadi. Masalan, o`ktam

(epchil), **O`ktam** -ism, lola (gul), **Lola-ism, gulchehra** (gul yuzli),**Gulchehra-ism** kabi.

Turdosh otlar ifodalaydigan tushunchasining xususiyatiga ko`ra ikki xil: **aniq otlar va mavhum otlarda bo`linadi** .

Aniq otlar shaxsni, predmetni anglatadi.Aniq otlarni ko`rish, sanash va ushslash mumkin: **uy, odam, eshik, tikuvchi, suvchi, kitob, tosh** kabi.

Mavhum tushunchalar,belgilar va holatni predmet sifatida anglatadigan otlar mavhum otlar deyiladi: **shodlik, baxt, zavq, shavq, ishonch, go`zallik** kabi. Mavhum otlar asosan birlik shaklda qo`llaniladi,ko`plikda qo`llanilganda bunday otlarning ma`nosi nisbatan mavhumlik darajasini yo`qotadi. Masalan **tuyg`ular, ishonchalr, shodliklar** kabi. Faqat so`nggi paytlarda uning dilida hatto o`zi cho`chiydigan noaniq ,mavhumroq allaqanday notinch tuyg`ular uyg`onib halovati yo`qoldi.(O.Yo.)

Mavhum otlar tub va yasama shaklarda ham mavhumlikni ifodalayadi .Biroq tub va yasama so`zlarda mavhumlik darajasi bir xilda bo`lmaydi .Binobarin ,tub holda mabhum ma`no ifodalavchi so`zlarda mavhumlik darajasi nisbatan past. Chunki, bunday otlarni aniq otlar singari sanash, ko`rish mumkin bo`lmasa-da, ularning manosida aniqlik mavjudligini sezish mumkin.

Masalan, **kurash, sevgi, baxt, zavq**, kabi mavhum otlarning ma`nosi nisbatan aniq. Bunday otlar ko`plik sonda ham qo`llanilishi mumkin: **kurashlar, zavqlar** kabi.

Turdosh otlar birlik shaklda predmetlarning to`dasini yoki yakka predmetlarni anglatadi. Shunga ko`ra turdosh otlar ikkiga bo`linadi: **yakka otlar, jamlovchi otlar**.

Bir turdag'i predmetlardan birini ajratib ifodalaydigan otlar yakka otlar deyiladi: **daftар, qalam, soat, eshik** kabi.Shaklan birlikda bo`lib, mazmunan ko`plikni bildiradigan otlar jamlovchi otlar deyiladi.Masalan, **el, оло мон, то`да, poda, armiya, xalq** kabi.

OTLARDA SON KATEGORIYASI

Otlarning birlik va ko`plik shakllarida ishlatilishi grammatik son kategoriyasi deyiladi.Son kategoriyasi otlarning muhim morfologik belgilaridan bo`lib birlik va ko`plik shakllari asosida son kategoriyasi vujudga keladi. Otlarning birligi biror vositasiz ifoda etiladi. Ya`ni otning ko`plikni bildiruvchi -lar qo`shimchasi mavjud bo`lmagan holati birlikdir: **kiyim, uy, ovqat, o`quvchi, kitobxon, murabbiy** kabi.

Otlarning ko`pligi -lar qo`shimchasi bilan ifodalanadi: **o`quvchilar, kitoblar** kabi. Ko`plikning -lar qo`shimchasi orqali ifodalanishi morfologik usul bilan ifodalangan ko`pliklir. Bundan tashqari otlarda ko`plikni hosil qiluvchi boshqa vositalar ham mavjud. Chunonchi, **el, olomon, xalq** kabi o`zi birlikda bo`lib , mazmuman ko`plikni bildiradigan so`zlar ham mavjul. Bunday ko`plik lug`aviy -semantik usul bilan hosil bo`lgan ko`plikdir.

Otlarning ko`pligi miqdor bildiruvchi so`zlarni otlardan oldin keltirish bilan ham hosil bo`ladi: **ko`p odam, bir talay ish, bir necha kun** kabi. Ko`plikning bunday ifodalaniishi sintaktik usul bilan ifodalangan ko`plikdir. Sintaktik ko`plik otlardan oldin sonlarni: **o`n kishi, yuz xonadoni, olmoshlarni qancha ish, shuncha odam, necha kun** keltirish bilan ham hosil bo`ladi. Masalan, Ikromjon qishloqda shuncha odam borligini bilmas ekan .(S.A.)Shuningdek, ot oldidan so`zlarni takrorlash orqali ham sintaktik ko`plik hosil bo`ladi: **savat -savat meva, uzoq-uzoq yo`l**. Otasining har qadamida allaqanday kishilar bilan uzoq-uzoq so`zlashuvidan zerikardi. (A.Q.)

Lug`aviy -semantik va sintaktik usul blan ifodalangan ko`plik so`zning morfologik tuzilishi bilan bog`lanmagan holda, morfologik ko`plik so`zning tuzilishi bilan bog`liq. Shuning uchun -lar qo`shimchasi bilan hosil bo`ladigan ko`plik so`zlarning ma`no xususiyati bilan bog`liqdir. Shu bilan bиргаликда **-lar** qo`shimchasi o`zbek tilida ko`plikni hosil qiluvchi etakchi vositadir. Biroq, bu qo`shimcha barcha otlarga qo`shilavermaydi, yoki qo`shilganda ham doimo ko`plik ma`nosini ifoda etavermaydi.

-- **lar** qo`shimchasining barcha otlarga qo`shilmasligi hamma otlarning ham grammatik ko`plikda qo`llana olmasligini ko`rsatadi. Chunonchi, donalab sanalmaydigan otlarga **-lar** qo`shimchasi qo`shilganda ko`plikni emas, balki narsa-predmetning turini xilini anglatadi. Shunga ko`ra **-lar** qo`shimchasi ko`plikdan tashqari yana quyidagi ma`nolarni ifodalaydi.

1. Donalab sanab bo`lmaydigan predmet nomlariga qo`shilganda ularning turli-tumanligini, har xillagini bildiradi: **tuzlar, sutlar, bug`doylar, yog`lar, unlar, qirqmalar** (qovun turi). Tilimi tilingni ming tilim qilgan, **Qirqmalar** bog`ladi yukin qovg`aga .(G` . G`.)

2.Mavhum otlarga qo`shilganda, shu otdan anglashilgan ma`no kuchayadi. Masalan, Ming turlik **xayollarga** borib qaytdi .(A.Qod.) Qizlar undan-bundan uzoq gapplashidi, **orzularga** berilishdi.(O.)

3. Predmetlarning noaniq bo`lgan ko`p miqdorini ifodalaydi. **Suhbatlar** goh qizib, goh davom etardi . (O.)Biz bo`lajak adiblar, turmushning botqoq **erlarinigina** emas, undan chiqish yo`llarini ham ko`rsatishimiz mumkin. (A.Q.)

4.Qarindoshlik ifodalovchi otlarga egalik qo`shimchalaridan keyin qo`shilib hurmat ma`nosini ifodalaydi: **otamlar, onamlar** kabi.

5.Shaxsni anglatuvchi so`zlarga qo`shilib, piching, kesaatish va hurmat ma`nolarini anglatadi. O`zimning bu xizmatim evaziga bir mukofat olish muddaosida bo`limganimdan va nimaiki **janoblari** yo`lida mashaqqat chekkan bo`lsam.. (A.Qod.) Yangi podsho Nizomiddin **hazratlarining** el-yurtga osh berishi va ochlarga non ulashishi haqidagi xabarni butun shaharga tarqatdilar. (P.Q.)

6. Payt, vaqt bildiruvchi so`zlarga qo`shilib, taxmin ma`nosini ifodalaydi.Masalan, Shu gapdan bir hafta chamasi keyin va chorlar kutishning beshinchi **kunlari edi**.(A. Qod.)

7. Juft predmetlarni bildirgan so`zlarga qo`shilganda ko`plikni emal, balki ularning ikkitaligini ta`kidlash ma`nosini ifodalaydi: **ko`zlar, quloqlar, qoshlar, lablar, torlar** kabi. Masalan, Tanburning mo`jizakor torlaridan quyilgan musiqa mavjud havoni to`ldirdi. (O.) Beka beginning ko`zlaridagi tikanlar sal kamayganday bo`ldi. (P.Q.)

8. Kishi organizmi a`zolariga qo`shilganda ta`kid kuchayadi: **yuraklar, tillar, burunlar.**

9. Atoqli otlarga qo`shilganda umumlashganlik, o`xshaganlik ma`nolari anglashiladi. Ajoyib naslsiz sizdagi talant, **Amular, Sirlarning** mazmunidan mo`l. (G` .G` .)

10. Aniq va mavhum otlarga qo`shilib, hurmat -izzat ma`nolarini ifodalaydi. **Xotiralariga** malol kelmagay, hazrat.(O.) **Qadamlariga** hasanot, ko`p xursand bo`ldik .(O.)

OTLARDA EGALIK KATEGORIYASI

Predmet yoki predmetlik tushunchalarining uch shaxsdan biriga tegishli ekanligini ifodalovchi shakllar egalik kategoriysi deyiladi. Otlardagi egalik uch shaxsni, birlik va ko`plikni ifoda etadi.O`zbek tilida egalik ma`nolari morfologik va sintaktik usullarda ifodalanadi.

So`z o`zak, negiziga maxsus qo`shimcyalar qo`shish orqali egalikning hosil bo`lishi morfologik usul bilan ifodalanishdir. Predmet, narsa-hodisani uch shaxsdan biriga qarashlilagini belgilaydigan qo`shimchalar **egalik qo`shumchalari deyiladi.**

Egalik qo`shimchalari predmetning shaxsga yoki predmetga qarashli ekanligini ko`rsatib, shaxs va son ma`nolarini ham ifodalaydi. Egalik qo`shimchalari so`zning qanday tovush bilan tugashiga ko`ra ikki shakllidir.

shaxslar	birlik	ko`plik
I shaxs	-m (-im)	-miz (-imiz)
II shaxs	- ng (-ing)	-ngiz (-ingiz)
III shaxs	-si (-i)	-si- i (-lari)

Egalik qo`shimchalarining III shaxsli ko`pincha birlik va ko`plikda farqlanmaydi. Masalan, **uning kitobi, ularning kitobi.** Ba`zan III shaxs ko`plikda **-lar** qo`shimchasi ham qo`llaniladi: **ularning ishlari** kabi

So`zlarga egalik qo`shimchalari qo`shilganda, ko`pgina so`zlar o`zagida o`zgarish bo`lmasa-da, ayrim so`zlarning o`zagida o`zgarish yuz beradi.Masalan, **aka, uka, daftar, gul** so`zlariga egalik qo`shimchalari qo`shilganda (akam, gulim) o`zak aslidagidek qoladi. Biroq **og`iz, burun,**

ko`ngil, singil, qishloq so`zlariga egalik qo`shimchasi qo`shilganda o`zakda o`zgarish bo`ladi: **og`zim, burnim, ko`nglim, qishlog`im** kabi.

Egalik qo`shimchasini olgan so`zlar boshqa so`zlar bilan quyidagicha birikadi. Egalik qo`shimchasini olgan ot ko`pincha qaratqich kelishigidagi ot yoki otlashgan so`zlar bilan bog`lanadi. Shu boisdan egalik qo`shimchasini olgan so`zning kelishikli so`zga qarashli ekanligi ifodalanadi. Egalik qo`shimchasining qaratqichli so`z bilan bog`lanishi juda ko`p uchraydigan holatdir. Bu **navning ahamiyatini** hozir aniq baholash qiyin, albatta (O`U.) Movarounnahrda esa **Shayboniyzodalarining hokimiyyati** parcha- parcha bo`lib zaiflashib bormoqda. (P.Q.)

Egalik qo`shimchalarini qaratqich kelishigi qo`shimchasini olgan ot bilan birikishi, shu qo`shimchalarni ifoda jarayonini kengaytiradi. Zero , egalik qo`shimchalari faqat tegishlilik, mansublik ma`nolarini bildiradi. Masalan, **ish joyi, bahor payti, kuz havosi** kabi birikmalarda mansublik ma`nosi mavjud bo`lsa, **maktabning bog`i, Alining ukasi** kabi birikmalarda qarashlilik ma`nosi mavjud.

Egalik qo`shimchasining ko`proq qaratqichli so`z bilan birga qo`llanishi egalik vositalari hamda qaratqich kelishigining o`zaro bog`liqligini ko`rsatadi. Qaratqich va egalik qo`shimchalarini olgan so`zlar: **mening o`rtog`im, mening o`rtoqlarim** tipida qaratqich va qaralmish birlikda, qaratqich birlikda, qaralmish ko`plikda yoki **ularning o`rtog`i** tipida, qaratqich ko`plikda, qaralmish birlikda kelishi mumkin.

Egalik qo`shimchalarini olgan so`z son, ot, sifat yoki olmoshdan so`z bo`lsa chiqish kelishigi qo`shimchasini olgan so`z bilan birikadi: **talabalardan biri, yaxshisidan yaxshisi, hunarmandlardan ko`pi** kabi.

Bundan tashqari egalik qo`shimchasini olgan so`z bosh kelishikdagi so`z bilan birikadi. Bu xildagi birikshida ham qarashlilik ma`nosi ifodalanadi. Masalan, **Kampir qiziga javob** topolmadi, allanimalar deb ko`ngillab savatdagi zog`oralarni yoyib qo`ydi-da, oshxona yig`shtirgani ketdi.(O.) Qarashlilik ma`nosi ifodalanmaydi: Tuhmat balosidan meni faqat **Humoyun hazratlari** qutqargaular, -dedi-yu, Agradan qochib chiqdi.(P.Q.) Egalik qo`shimchalari shaxs ma`nosini ham, son ma`nosini ham ifodalaydi. Egalik qo`shimchalarining shaxs ma`nolari birlik va ko`plikda bir xil: **-m, -ng, -i (-si)** qo`sijimchalari shaxs ko`rsatkichlaridir. Masalan, akam, akang, akasi so`zlarida har uchala shaxs ifodalangan . Bu qo`shimchalar uchta shaxsda birlik va ko`plikni ifodalash uchun asos bo`lsada, shaxs qo`shimchalarining o`zi ko`plikni ifodalay olmaydi. Ko`plikni ifodalash uchun shaxs qo`shimchalariga kop`lik ifodalovchi -iz son qo`shimchasi qo`shiladi. Masalan, **aka+m-iz, aka-ng-iz** kabi.

Egalik qo`shimchalarining I, II shaxslari ko`p jihatdan bir-biriga mos, III shaxs esa farqlanadi. Masalan, son qo`shimchalari I, II shaxsda bir bo`lsa, (**-iz**) III shaxsda boshqachadir (**-lari**).

Shuningdek, egalik qo`shimchalari I, II shaxsda predmet, narsa-hodisaning kimga, nimaga tegishli ekanligini aniq ko`rsatib turadi: kitobim, kitobing kabi. Bu

xildagi ifodalarda qaratuvchi shaxslar (men, sen) aniq. III shaxsda esa qaratuvchi shaxs u olmoshi bilan ham, boshqa kishi otlari bilan ham ifodalanadi: **uning kitobi- Nafisaning kitobi** kabi.

I, II shaxs egalik qo`shimchalari predmetni, narsani shaxsga tegishli ekanligini ifodalaydi: **akam, akang** kabi. Predmetning shaxsga tegishli ekanligi III shaxs egalik qo`shimchasi orqali ham ifodalanadi: akasi kabi.

Shu bilan birgalikda III shaxs egalik qo`shimchasi ko`proq shaxsga tegishli bo`lmagan narsa predmetlarni ifodalaydi. Masalan, **kitobning varag`i, matabning bog`i** kabi.

Egalik qo`shimchalari ko`plik ifodalovchi **-lar** qo`shimchasidan keyin qo`shiladi.

Ishxona rahbarlari to`yxonaga ancha barvaqt borishdi. Osmon xuddi tomlarga tegib turganday (A.Q.)

O`zbek tilida egalik ma`nosi ot va olmoshlarga -ni', -ki qo`shimchasini qo`shish bilan ham ifodalanadi: **kitob meniki, kitob seniki**. Bu qo`shimcha u olmoshiga qo`shilganda mavhum egalikni hosil qiladi: **kitob uniki** kabi.

52 s. OTLARDA KELISHIK KATEGORIYASI

Ot yoki otlashgan so`zlarining boshqa bir so`zga tobelligini ifodalaydigan kategoriyalar kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik ot bilan otni, ot bilan fe`lni yoki boshqa biror murkumdagagi so`zni o`zaro ma`no sifatlarini ko`rsatib, shu so`zning gapdagagi vazifasini belgilaydi/ Otlarning kelishik qo`shimchalarini olib o`zgarishi turlanish deyiladi. Shu boisdan kelishik qo`shimchalari turlovchi qo`shimchalardir Kelishik shaklidagi so`z boshqa so`zlar , bilan grammatik aloqaga kirishadi. Kelishikli so`zning gapda biror gap bo`lagi vazifasida kelishi qaysi kelishik shaklida qo`llanishi bilan bog`liq.

Masalan, **Peshonasini** stulning suyanchig`iga qo`yib sukutga g`oydan Otaq`o`zi nogohon “dik“ etib o`rnidan turdi. (O.Yo.) gapidagi peshona so`zi **-ni** qo`shimchasi bilan stul so`ziga, stul so`zi esa -ning qo`shimchasi bilan suyanchiq so`ziga, **suyanchiq** so`zi -ga qo`shimchasi bilan qo`yib so`ziga, **o`rni** so`zi **-dan** qo`shimchasi bilan ko`pincha sintaktik vazifani beigilovchi shakllar turdi so`ziga tobedir. **Otaq`o`zi** so`zi kelishik qo`shimchasiga ega emasligi uchun hokim holatda qo`llanilgan. Kelishik shakllari so`zlarni o`zaro aloqasini

ta`minlab, to`ldiruvchi (peshonasi, suyanchig`iga , sukutga), aniqlovchi (stolning) hol (o`rnidan) vazifalarida kelgan.Kelishiklar ko`pincha sintaktik bvazifa bajaruvchi shakllar hisoblanadi. Biroq ma`lum bir kelishikdagi shakl gapda turli gap bo`lagi bo`lib kelishi mumkin. Masalan, Vatanni **kelgindilardan** ozod qilish-dunyodagi eng katta mardlikdir!(P.Q.) Sal vaqt o`tgach **qishloq kasalxonasidan** chaqirilgan vrach va hamshira ayol qutichalarini ko`targanicha chiqib kelishdi.(O` U.) Ushbu gaplardagi chiqish kelishigi qo`srimchalarini qo`srimchasini olgan so`zlar to`ldiruvchi va hol vazifalarida kelgan. Kelishik qo`srimchasini olgan so`zning turli vazifalarni bajarishi qaysi turkumdagagi so`z bilan bog`lanishiga ham bog`liq. Bu hol, ayniqsa, o`rin-payt va chiqish kelishigi qo`srimchalarida yaqqol seziladi. Ushbu qo`srimchalarni olgan ot yoki otlashgan so`zlar, harakat nomi bilan bog`lansa hol vazifalarida keladi. Shuningdek, Orin -payt, chiqish kelishiklari qo`srimchasini olgan so`z o`rin, payt ma`nolarini ifodalasa hol: Bular mehmonxonaning **quyirag`idan** joy oldilar. (O.) Boshqa ma`nolarni ifodalasa to`ldiruvchi vazifasini bajaradi.

O`zbek tilida mavjud olti kelishik kelishik kategoriyanı tashkil qiladi: **bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo`nalish kelishigi, orin-payt kelishigi, chiqish kelishigi.**

Har bir kelishikni aks ettiruvchi maxsus qo`srimchalar mavjud bo`lsa-da, bosh kelishikda bunday qo`srimcha yo`q. Shunga ko`ra bosh kelishikdagi so`z boshqa kelishiklardan farqli ravishda o`zi bog`langan so`zni o`ziga tobelaydi. Shuning uchun bosh kelishik asosiy kelishik, qolganlari esa vositali kelishikdir.

Kelishik shakllarini olgan so`zlar boshqa so`zlar bilan quyidagicha bog`lanadi.

1. Kelishiklar ot bilan otni bog`laydi. **Ikromjonning yuragi kuyardi** (S. A)
 2. Kelishiklar ot bilan fe`lni bog`laydi. Aziz **elkasini qisdi.** (O` UO.), Eshon **boshini qimirlatdi.** (O.)
 3. Kelishiklar ot bilan boshqa so`zlarni ham o`zaro bog`laydi. Iyul` **kunlarining birida** (A.Q.)
- Eavfi **umumiyyadan tashqari** (P.Q.) va hokazo.

Ot bilan otni bosh va qaratqich kelishiklari, ot bilan fe`l va boshqa turkumdagagi so`zlarni bosh, tushum, jo`nalish, o`rin-payt, chiqish,ba`zan qaratqich (**kunlarning biri mehnatning zo`ri**) kelishiklari o`zaro bog`laydi.

Bosh kelishik. Bosh kelishik shaxsni, predmetni narsa-hodisani nomini atab, **kim? nima?** so`roqlariga javob bo`ladi. Bu kelishikning maxsus qo`srimchasi yo`q.Bosh kelishikdagi so`z boshqa so`zlarga hokim bol`ganligi sababli, gapda ega bo`lib keladi. Masalan, **Ota qo`zi eshikni** sharaqlatib yopib, uydan chiqdi. (O.Yo.). Bosh kelishikdagi so`z bundan tashqari boshqa bir qator vazifalarda keladi.

1. Kesim bo`lib keladi . Siz sara **dehqonmisiz.** (T. Mal.)
2. Bosh kelishikdagi ot izohlovchi bo`lib keladi. U erda ham Mahamat **chatoq** hadeganda gapga ko`navermaydi. (O` UO.) San`atshunoslik doktori, **professor**

Rasul Nuriddinov bugun ishdan juda yaxshi kayfiyatda qaytdi. (O.Yo). 3. Undalma bo`lib keladi. **Ha , qizim**, birovni kutib turibsani? (O.YO.) Esingni yig`, **bolam**, ona o`z bolasiga yomonlikni ravo ko`rmaydi. (S. A.)

4. Nominativ gap bo`lib keladi: Amakijon. Choy- moy ichib keting, amakijon!(O.Yo.)

5. Bosh kelishikdagi so`z ko`makchilar bilan bog`lanib yoki takrorlangan holda kelib aniqlovchi, to`ldiruvchi, hol vazifalarini bajaradi. Shu **mehnat bilan** yurtning mushkulini oson qilmoqchi(S. A.) To`lanboy Nizomjon ag`dargan erga razm solib boshini **sarak -sarak** qilib qo`ydi. (S. A.)

6. Bosh kelishikdagi ot sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi. **Po`lat pichoq** qinsiz qolmas. (Maqol.) **Mehnat kuzagining** to`yin fayzidan, qolmagan daryodil erlar bebahra.(G` .G` .).

Sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelish asosan otga xos xususiyat emas.Biroq, ba`zan ot turkumidagi so`z otga bog`lanib, o`zi bog`langan so`z anglatgan predmetning nimadan ekanligini bildiradi va sifatlovchi aniqlovchi bo`lib keladi. Oshpaz **sopol kosada** ichiga mushtumdek lavlagi solingan sho`rva keltirib qo`ydi. (S.A.).

Shuningdek, sifatlovchi sifatlanmish ifodalangan predmetning qanday ishni bajarishini bildiradi. **Terim mashinalari** o`taverib, yaproqlari yulinib cho`p bo`lib qolgan g`ozalarda bir- ikkita, nari borsa uchta ko`sak qolgan.(O.Yo.)

Qaratqich keilshlgl predmetning shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmetga qarashliligini bildiradi. Qaratqich kelishigi **-ning** qo`shimchasi bilan shakllanib **kimning? nimaning** so`roqlariga javob bo`ladi. Bu kelishikdagi so`z o`zi bog`langan so`zni o`ziga qaratadi, qaratilgan so`z egalik qo`shimchasini oladi: **uyning oldi, tog`ning toshi** kabi.

Bu tipdag'i qaratqich va egalik qo`shimchalari shaklidagi bog`lanishlarda qaratqich ikkinchi otga bog`lanib, uni aniqlab, aniqlovchi vazifasida keladi. Kampir **ularning gapidan** Zirillamaga Yo`ldosh Oxunboboev kelganini bildi.(S.A.) Qaratqich kelishigining qo`shimchasi she`riy asarlarda -n shaklida ham qo`llaniladi.

Yigitlik **shotisin** moyalaridan
Asta yuqoriga ko`tarilolding
(G` .G` .)

Shuningdek , badiiy asarlarda bu kelishik qo`shimchasing -**im** shakli ham uchraydi.

O`zbekiston Vatanim **manim** (A.O.)

Manim bu so`zlarimga ishoning, ishonmang ixtiyor albatta sizdadur. (A. Qod.)Qaratqich kelishigi ma`no va shakl jihatidan ikki xil: **belgili qaratqich kelishigi, belgisiz qaratqich kelishigi.**

-ning qo`shimchasi bilan shakllanib, aniq qarashlilik ma`nosini ifodalaydigan shakl belgili qaratqich kelishigi deyiladi. Otaqo`zi tog`asining fe`l-atvorini

yaxshi bilardi.(O. Yo.) Hovlining bir chekkasida yaproqlari shaldirab baland mirzaterak turardi.(O.)

Qaratqich kelishigining qo`shimchasi **-ning** tushib qolgan holat belgisiz qaratqich kelishigidir. Ikkoving **cho`l marshallari** bo`lasan. (S.A.) Bu shakldagi otlar bir-biri bilan o`zaro zich bog`lanadi va ularning orasiga boshqa so`z kiritib bo`lmaydi. Belgisiz qaratqich kelishigida qaratqich shaklidagi ot egalik shaklidagi otga belgi ekanligi ifodalanadi. Bu holatda qarashlilik ma`nosi emas balki aloqadorlik ma`nosi ustun turadi. Chunonchi, keltirrilgan gapdagi cho`l marshallari birikmasida marshal yoki cho`l bir-biriga qarashli emas, ulardagi muayyan aloqadorlik asosida cho`l so`zi marshal so`ziga belgi vazifasini bajargan.

Qaratqich kelishigining belgili va belgisiz kelishi lug`aviy va grammatic ma`nolarga bog`liq. Quyidagi ma`noli so`zlar asosan belgili qaratqich kelishgi shaklida keladi.

1. Shaxs otlarini ifodalovchi so`zlar: Eshonxonning dardi bo`lak.(O.) Yo`ldoshning badanlari jimirlab ketdi. (O` .U.)
- 2.Predmetning shaxs yoki boshqa predmetga tegishli ekanligini ifodalaydigan otlar.Bu **Ikromjonning tovushi** edi.(S.A.) Mana shu narsa, dedi u sher oyoqli bahaybat stolning g`aladonidan kattakon semiz papka chiqarib (O.UO.)3. Butunning qismini anglatgan otlar: **kitobning varag`i, uyning burchagi, qozonning qulog`i.** Sallasidagi olmosdan tashqari belidagi kamariga, **xanjarining** sopi va qiniga qadalgan dur va la`llar tiniq va osuda bir jilo berib turardi.(P.Q.)
4. Qaratqich kelishigidagi ot bilan egalik qo`shimchalarini olgan ot orasiga boshqa so`z kelganda. Ona ko`zi oldida **o`g`lining qop-qora qoshlari**, chaqnagan ko`zlari qoldi. (S.A.) Dadasi erkatoy **o`g`lining bu arzini eshitib**, bir hayratga tushdi, bir quvondi.(O.Yo.)
5. Otlashgan so`zlar qaratqich kelishgi qo`shimchasini olib kelganda. **Kattaning kichigi** bo`lguncha, kichikning kattasi bo`l. (Maqol.)
6. Egalik qo`shimchasi otlashgan so`zlarga qo`shilganda u bilan bog`langan so`z belgili qaratqich kelishigida keladi. **Yaxshining** yomoni bo`lguncha, **yomonning** yazshisi bo`l.(Maqol.)
7. Olmoshlar qaratqich kelishigida kelganda. **Bizning** fakul`tetda ham majlis bor. (A.Q.) Chunki ne qilsa ham ular **mening** yurtdoshlarim.(P.Q.)

Belgisiz qaratqich kelishigi quyidagi bog`lanishlarda qo`llaniladi:

- 1.Bir predmet yoki narsa ikkinchisiga umumiylit asosida bog`langan bo`lsa. Lekin undan beridagi chiroqsiz **uy ayvonida** qandaydir sharpa sezildi. (P.Q.) Uning yozuvchilik ishidagi kamoloti va o`qishi qanday ekanini bilmoqchi.(A.Q.)
2. Mavhum otlar o`zaro bog`lanib kelganda: **dil quvonchi , vijdon amri, odam zoti.** Manzura ko`r emas, kar ham emas, dunyoning **odam zotiga** vafo qilmasligini ko`rib eshitib turibdi. (T.Mal.)

3. Predmetning belgisi sifatida qo`llangan so`zlarda . Viloyatda **er islohatini** o`tkazish uchun ko`p yillar kerak(A.Q.) Lekin u o`z **vatanida** yashamoqda edi.(P.Q.)

Tushum kelishigi. Shu kelishikidagi so`zdan anglashilgan harakatni o`ziga olgan predmetni ifodalaydi. Tushum kelishigidagi ot **kimni? nimani?** so`roqlariga javob bo`lib, **-ni** qo`shimchasi bilan shakllanadi . Masalan, Ikromjon eshikdan **chehrasini** ohib kirdi. (S.A.) Mulla Fazliddin nuql ovozini kamaytirib, qandaydir xabar sezib gapirmoqchi edi.(P.Q.) She`riy asarlarda tushum kelishigi qo`shimchasining **-n, -in** shakllari ham uchraydi. Masalan, Yulduzlar **ertagin** eshitib, o`zimni ko`klarda sezaman.(E.V.) Ko`chatlar **qomatin** eslatganidek , Nafasin ufurar tong otar eli.(G` . G`.)

Tushum kelishgidagi so`z gapda vositasiz to`ldiruvchi bo`lib keladi. Masalan, odamzodning bisotida bu **dardni** engillatadigan gap bormi? (S.A.) . Tushum kelishigi ma`no va shakl jihatidan ikki xil: **belgili tushum kelishigi, belgisiz tushum kelishigi.** **-ni** keilshik qo`shimchasin olib kelgan shakli belgili tushum kelishigidir. Mashina keng **maydonni** bir aylanib, klub yoniga o`ng qo`lga burildi. (O.Yo.) Tushum kelishigi qo`shimchasi **-ni** mavjud bo`lmagan shakl belgisiz tushum kelishigidir. Belgisiz tushum kelishigidagi ot fe`l kesimga bog`lannib keladi.

Ular ma`no va grammatik jihatdan zinch bog`langanligi uchun ularning orasiga boshqa so`z kiritib bo`lmaydi.

Tushum kelishigi quyidagi holatlarda belgili shaklda keladi:

1. Shu kelishikdagi so`z atoqli ot bo`lsa: Otaqo`zi **Fazilatini** ham, o`g`li **Qodirjonne** ham, qizi Latofatni ham odam qatorida ko`rmaydi. (O.Yo.)

2. Shu kelishikdagi so`z kishilik, o`zlik ko`rsatish olmoshlari bilan ifodalansa. Fazilat **o`zini** qo`yarga joy topolmay qoldi.(O.Yo.) Qizlarning ota-onasi **bizni** bu yerga olib qolmoqchi emas. (T. Mal.)

3. Shu kelishikdagi so`z otlashgan bo`lsa. U o`zidan **boshqani** o`ylamaydigan bir xudbin ekan.(O.Yo.) 4. Shu kelishikdagi so`z harakat nomi bilan ifodalansa. Manzura o`g`lidagi **o`zgarishni** sezib, xatosini tuzatmoqchi bo`ldi.(T. Mal.)

Jo`nalish kelishigi. Shu kelishikdagi otdan anglashilgan ish -harakatning kimga? nimaga? tegishli ekanligini , ish -harakatning bajarilish vaqtini ifodalaydi. Masalan, bu uyni **qishloq kutubxonasiga** aylantirmoqchimiz.(O. Yo.)

Haydar hovliga **kirishga** chog`lanib, usti boshini ko`zdan kechirdi. (T.Mal.) **Oqshomga** yaqin **villaga** Muzaffarxon bilan Gulzor begin kelishdi.(T. Mal.) Jo`nalish kelishigi **-ga** qo`shimchasi bilan shaklanib, **k**, tovushi bilan tugagan so`zlarga qo`shilgandab aytildi bva sdhunday yoziladi. Masalan, Inson **ko`kka boqar doimo, Tintuv qilar ocmomni faqat.**(E.V.) **g`** undoshi bilan tugagan so`zlarga qo`shilganda **h`** aytildi va shunday yoziladi.

Qishloqqa kelganda uni ko`rmay, bir-ikki kun uning bog`ida bo`lib, tongotar suhbatlar qurmay ketmas edi. (O.Yo.)

Jo`nalish kelishigi qolgan barcha hollarda **g** yoziladi. so`zlar quyidagi ma`nolarni anglatib, turlidi sintaktik vazifalarda keladi.

1. Harakatning bajarilishi uchun ishtirok etgan shaxs, predmetni anglatadi. Jo`nalish kelishigining bu ko`rinishi **kimga? nimaga?** so`roqlaridan biriga javob bo`lib, gapda to`ldiruvchi vazifasini bajaradi. Masalan, Bundan tashqari otalik muhabbatini va mas`uliyatini **menga** tashlab ketgan(A.Q.) Ikki tomonda ikki o`q-yoyga o`xshab salohu kamonlarini taqib, bellarini siqib, bog`lab olgan yigitlar o`z yuzboshilarini saqlab shay turardilar.

2. Harakatning bajarilish o`mini bildirib, **qaerga? qaerda?** so`roqlaridan biriga javob bo`lib, gapda o`rin holi vazifasida keladi. Masalan, **Yulduzlarga** kemalar yo`llab, jonzod izlar cheksiz fazoda. (E.V.) **Yozyovonga** ikkoving komandirlik qilasan. (S.A.)

3. Harakatning bajarilish vaqtini ifodalab, **qachon? qachongacha?** so`roqlariga javob bo`ladi. **Tushgacha** uch yarimni yasab qo`yan bo`lsang, **kechgacha** yerni timdalab tashlamasang, deyman, -dedi Ikromjon.(S.A.)

O`rin -payt kelishgi. Shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmet, ish-harakatning bajarilish o`mini, vaqtini bildiradi.O`rin -payt kelishgi **-da** qo`shimchasi bilan shakllanib, quyidagi ma`nolarni ifoiaydi.

1.Harakatning bajarilish o`rnini bildirib, **qaerda?** so`rog`iga javob bo`ladi va gapda o`rin holi vazifasini bajaradi. **Ko`chada** tirik bir jon ko`rinmas, hammayoq jimjit. (O.Yo.) Besh yigit odamlarning ko`ziga tashlanmaslikka tirishib qishloqdan yakka-yakka chiqishdi-yu, **to`qay ichida** uchrashishdi. (P.Q.) 2. Harakatning bajarilish paytini bildirib, qachon? so`rog`iga javob bo`ladi va gapda payt holi vasifasini bajaradi. Bobur bugun peshinda ishongan beklarini to`plab, mashvarat o`tkazdi.(P.Q.) U yolg`iz farzandini qorong`u tunda dushman ko`payib ketgan shaharga chiqarishni istamas edi.(P. Q.)3. Harakatning bajarilishi uchun ob`ekt bo`lgan predmetni bildirib, **nimada?** so`rog`iga javob bo`ladi va gapda to`ldiruvchi bo`lib keladi.Shunga qaraganda yovning **rejalarida** qandaydir bir o`zgarish yuz bergen edi.(P.Q.).4. Harakatning bajarilishi holatini ifodalab, **qanday? qay holatda?** so`roqlaridan biriga javob bo`ladi va gapda ravish holi vazifasida keladi. Haydar apil-tapil kiyinib ariqdan hatlab o`tdi-da, paxsa devor bo`ylab o`sigan **olchalar panasida** cholning hovlisiga qaradi. (O.Yo.)

O`rin- payt kelishigi predmet ma`nosini bildirib **kimga? nimada?** so`roqlaridan biriga javob bo`lsa, gapda to`ldiruvchi, ish- harakatning bajarilish o`mi, payt, holatini bildirib, **qaerda? qancha? qanday?** so`roqlariga javob bo`lsa hol vazifasida keladi.

Chiqish kelishgi. Shu kelishikdagi otdan anglashilgan predmet ish-harakatning yuzaga chiqish o`rnini, vaqtini, sababini bildiradi. Chiqish kelishigi **-dan** qo`shimchasi bilan shakllanadi.

Chiqish kelishigi shaklidagi so`z quyidagi ma`nolarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatning boshlanish o`rnini bildirib, **qaerdan?** so`rog`iga javob bo`ladi va gapda o`rin holi vazifasini bajaradi.

Derazamdan tushgan tola nur Somon yo`li kabi tovlanur. (E.V.)**Klubdan** chiqqan kishilar to`da-to`da bo`lib simyog`och tagida gaplashib turishibdi. (S.A.)2. Ish-harakatning bajarilish paytini bildirib, **qachon? qachondan?**

so`roqlaridan biriga javob bo`ladi va gapda payt holi vazifasida keladi. Jannat hola **kechadan beri** supurgi tegmay ivirsiб ketgan uyni yig`ishtirayotgan edi.(S.A.) 3. Ish -harakatning bajarilishiga sabab bo`lgan vositani bildirib, **kimdan? nimadan?** so`roqlariga javob bo`ladi va gapda to`ldiruvchi vazifasida keladi. Ishlaydi. Bor kuchi bilan ishlaydi. **Rohatidan** kechadi, uyqusidan kechadi.(S.A.) Zuhrabegim **xayolidan** o`ziga tayanch izlar ekan yaqinda Buxoroni olib, endi Samarqandga qo`sish tortib kelishi kutilayotgan Shayboniyxon esiga tushdi. (P.Q.)

4. Chiqish kelishidagi so`z predmet ma`nosiga ega bo`lib, harakatning bajarilishga sabab bo`lgan shaxsni, predmetni ifodalasa gapda to`ldiruvchi, o`rin payt holat ma`nolarini ifodalasa hol vazifasida keladi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. So`z turkumlari qanday belgilarga ko`ra ajratiladi?
2. Ot turkumining o`ziga xos muhim xususiyatlari nimalarda ko`rinadi?
3. Qanday otlar atoqli otlar hisoblanadi?
4. Turdosh otlarning qayhay turlari mavjud?
5. Grammatik son kategoriyasi nima?
6. Egalik kategoriyasi deb nimaga aytildi?
7. Egalik qo`shimchalari qanday ma`nolarni ifodalaydi?
8. Kelishik kategoriyasi nima?
9. Kelishiklar va ularning shakllari qanday?

53 s.

OTLARNING YASALISHI

Otlar yasalish xususiyatlari ko`ra boshqa turkumdagи so`zlarga nisbatan alohida ajralib turadi. Chunonchi, otlarda yasovchi qo`shimchalar ko`p bo`lib, ular ishtirokida ko`plab yangi so`zlar yasalganidek, so`z qisqarishini asosida yangi so`zlar yasalishi ham ot turkumiga xosdir. Shu boisdan ham otlar yangi so`zlar hisobiga tez boyib boruvchi turkumdir. Otlar asosan **morfologik** va **sintaktik** usullar bilan yasaladi. So`z o`zak, negiziga maxsus so`z yasovchi go`shimchalar qo`shish bilan ot yasalishi morfologik usul bilan yasalishdir. Ot yasovchi qo`shimchalar yordamida ot, sifat, son, fe`l va boshqa turkumlardan ot yasaladi. Masalan, **ishchi** (otdan), **terim** (fe`l dan) , **birlik** (sondan), **yaxshilik** (sifatdan).

Morfologik usul bilan quyidagi ma`nolarni bildiruvchi otlar yasaladi.

1. Shaxs otlari
2. Narsa - quroi otlari
- 3.O`rin - joy otlari
4. Mavhum otlar

Shaxs oti yasovchi qo`shimchalar. Bu guruhdagi otlar katta miqdorni tashkil qilganidek, turli ma`nolarni ham ifodalaydi. Shaxs oti yasovchilar orasida eng faol va turli ma`nolardagi otlar yasovchi qo`shimcha

- **chi** qo`shimchasi. Bu qo`shimcha barcha so`z turkumlari va boshqa tillardan kirgan so`zlarga ham qo`shilib quyidagi ma`nolarni ifodalovchi otlar yasaydi .

1. -chi qo`shimchasi: a) ot va fe`l negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan narsa, predmet bilan shug`ullanuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: **ishchi, suvchi, terimchi, o`quvchi, o`qituvchi** kabi.

b) Ot, sifat, son negizlarga qo`shilib negiz anglatgan predmet, narsa-hodisaga mansub ekanlikni ifodalovchi otlar yasaydi: **Tursunoychi, musobaqachi, a`lochi, og`machi, o`n mingchi.**

d) Fe`l va sifat negizlarga qo`shilib negiz anglatgan belgi, xususiyatga egalikni bildiruvchi otlar yasaydi: **yozuvchi, sinovchi, qiziqchi, yolg`onchi** kabi. 2) kasb-hunar yoki mutaxassislikni ifodalovchi so`zlarga qo`shilib, negiz orqali anglashilgan kasb-korga egalikni bildiruvchi otlar yasaydi: **pichoqchi, suvoqchi, tilchi.** 2. **-dosh.** Bu qo`shimcha negiz anglatgan shakl yoki predmet bilan birgalik ma`nosidagi otlar yasaydi. a) Yashash joyda fikrda birgalikni ifodalovchi otlar yasaydi: **vatandosh, mahalladosh, fikrdosh, suhbatdosh.** b) qarindoshlik jihatdan birlikni bildiruvchi otlar yasaydi: **qarindosh, qondosh, jondosh.**

-dosh qo`shimchasi bilan o`rinda birlik: **sinfidosh, vatandosh;** paytda birlik: **zamondosh, asrdosh,** holatda birlik: **fikrdosh, suhbatdosh** kabi otlar yasalganidek, ayrim tilshunoslik atamalari ham hosil bo`lgan: **sifatdosh, ravishdosh** kabi.

3. -kash. Bu qo`shimcha tojik tilidan o`zlashgan bo`lib, tojikcha kashidan “tortmoq” so`zining o`zbek tilida affikslashgan shaklidir. -kash qo`shimchasi asl ma`nosiga mos holda “yurgizuvchi” ma`nosidagi otlar yasaganidek : **tuyakash, aravakash,** “biror ish bilan shug`ullanuvchi” ma`nosidagi otlar ham yasaydi: **mehnatkish, chizmakash.**

4. -bon. Negiz orqali anglashilgan predmetni qo`riqlovchi, qarovchi ma`nosidagi otlar yasaydi: **darbozabon, bog`bon.**

5. -dor. Tojikcha “ushlamoq” so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali anglashilgan narsaga egalikni ifodalovchi otlar yasaydia; **puldor, mulkdor, chorvador, aybdor.**

6. -boz. Negiz orqali anglashilgan predmet bilan shug`ullanuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: **nayrangboz, masxaraboz, dorboz, kaptarboz.**

7. -paz. Tojikcha “ pishirmoq” so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali anglashilgan taomni pishiruvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: **oshpaz, somsapaz, kabobpaz.**

8. -shunos. Tojikcha “bilmoq” so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali anglashilgan sohani egallaganlik ma`nosidagi otlar yasaydi: **tilshunos, adabiyotshunos, o`lkashunos** kabi.

9. -parast. Negiz orqali anglashilgan ishga berilganlik ma`nosidagi otlar yasaydi: **amalparast, mansabparast** kabi.

10. **-furush.** Tojikcha “sotmoq” so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali ifodalangan predmetni sotuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: **nosfurush, qovunfurush.**

11. **- parvar.** Tojikcha “saqlamoq” so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali ifodalangan predmetga sodiqlik ma`nosidagi otlar yasaydi: **vatanparvar, xalqparvar, ma`rifatparvar** kabi.

12. **-xo`r.** Tojikcha “emoq” so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali ifodalangan taomni ko`p eyuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: **oshxo`r, samsaxo`r** kabi. Shuningdek, ishyoqmaslik, dangasalik ma`nosini ifodalovchi : **nonxo`r, yuvindixo`r;** yomonlik ma`nosidagi: **odamxo`r, qonxo`r;** mehribonlik ma`nosidagi: **g`amxo`r, kabi** otlar yasaydi:

13. **-soz.** Tojikcha “ yasamoq” so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali ifodalangan narsani tuzatuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: **soatsoz, aravasoz, mashinasoz.**

14. **-do`z.** Tojikcha “tikmoq” so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali anglashilgan narsani tikuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: **do`ppido`z, mahsido`z, etikdo`z kabi.**

15. **-xon.** Tojikcha “o`qimoq” so`zidan o`zlashgan bo`lib, negiz orqali anglashilgan narsani o`qish bilan shug`ullanuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: **gazetxon, kitobxon.**

16. **-gar, -kor, -kar.** Negiz orqali angshilgan predmet bilan qiziquvchi, u bilan shug`ullanuvchi ma`nosidagi otlar yasaydi: **zargar, kimyogar, san`atkor, paxtakor, miskar.**

Narsa - qurol otib yasovchi qo`shlmchiar. Narsa -qurol otlari asosan ot va fe`l negizlaridan yasaladi. Narsa -qurol otlarini yashashda fe`l negizlar ancha faoldir .Qo`yidagi qo`shimchalar narsa- qurol otlari yasovchi qo`shimchalardir:

1. **-gich, -kich, (-g`ich, -qich).** Fe`l negizlariga qo`shilib, narsa otini yasaydi. Bu qo`shimchalar turli negizlarga qo`shilishiga ko`ra turli variantlidir: **suzgich, o`tkazgich, ko`rsatkich, chizg`ich, ochqich, tutqich** kabi.

2. **-ma.** Fe`l negizlarga qo`shilib narsa otlari yasaydi, **qaynatma**, joy otini yasaydi: **bostirma.**

3. **-k, -ik, uk, -uq, iq, -oq, -ak.** Fe`l negizlarga qo`shilib, quyidagi ma`nolarni ifodalovchi otlar yasaydi.

a) mehnat qilish uchun ishlatiladigan predmetlar otini yasaydi: **kurak,, elak, g`ildirak, o`roq;** b) inson uchun zarur bo`lgan narsa otlarini yasaydi **taroq, to`shak, sochiq, pichoq;** d) mavhum otlar yasaydi: **chaqiriq, hayqiriq, tilak.**

4. **-m, -im, -um.** Fe`l negizlarga qo`shilib, narsa oti yasaydi: **kiyim:** harakat oti yasaydi: **terim, chiqim;** sifat negizga qo`shilib mavhum ot yasaydi: **oqim** kabi.

5. **-gi, -ki, -qi, g`i.** Bu qo`shimchalar fe`l negizlarga qo`shilib, narsa-qurol oti yasaydi: **supurgi, suzgi, chopqi, cholg`i** kabi.

6. **-indi.** Fe`l negizlarga qo`shilib, narsa otini yasaydi: **yuvindi, chiqindi** kabi.

7. **-in (-un).** Fe`l negizlarga qo`shilib, negizdan anglashilgan mehnat jarayonlari otini yasaydi: **ekin,yig`in.**

8. **-kin, gin.** Fe`l negizlarga qo`shilib, narsa otini yasaydi: **toshqin, to`lqin, qirg`in.**

9. **-don.** Ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali anglashilgan predmetni saqlash uchun ishlataladigan narsa otini yasaydi: **tuzdon, siyohdon.**

O`rin -joy otiari yasovchi qo`shimchalar. Bu qo`shimchalar bilan negiz orqali anglashilgan predmet ko`p bo`lgan, shu predmet o`sadigan yoki saqlanadigan joy nomlari yasaladi.

1.-**zor.** Ot negizlariga qo`shilib, negiz orqali anglashilgan predmet o`sadigan joy nomlari yasaladi: **paxtazor, lolazor, o`rikzor, olmazor** kabi.

2. **-loq.** Ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali anglashilgan predmet ko`p bo`ladigan joy nomlari yasaladi: **qumloq, toshloq, o`tloq.**

3. **-iston.** Ot negizlarga qo`shilib, atoqli otlar yasaladi: **O`zbekiston, Guliston, Turkiston.**

4. **-goh.** Ot negizlarga qo`shilib, qisqa muddatda yashash, tunash, sayr qilish, o`ynash uchun zarur bo`ladigan joy nomlari yasaydi: **qarorgoh, xobgoh, sayrgoh, o`yingoh.**

Mavhum ot yasovchi qo`shimchalar. Tubandagi ot yasovchi qo`shimchalar turli turkumdagи negizlarga qo`shilib, mavhum ot yasaydi.

1 **-lik(-liq).** Bu qo`shimcha mavhum ot yasovchi eng faol qo`shimcha bo`lib, quyidagi negizlardan ot yasaydi:

a) sifatlarga qo`shilib belgi, xususiyat ifodalovchi otlar yasaydi: **go`zallik, yaxshilik, soflik;**

b) otlarga qo`shilib holat ifodalovchi mavhum ot yasaydi: **yigitlik, do`stlik, dushmanlik;**

v) shaxs otlariga qo`shilib, o`zak orqali anglashilgan predmet, soha bilan shug`ullanuvchi ma`nosidagi mavhum ot yasaydi: **binokorlik, tuproqshunoslik, manbashunoslik, pichoqchilik, zargarlik;**

g) ravishga qo`shilib, harakatning mavhum miqdorini: **tezlik ,ko`plik,** songa qo`shilib, uning mavhum miqdorini: **onlik, yuzlik** bildiruvchi otlar yasaydi.

d) **-liq** qo`shimchasi bor modal so`ziga qo`shilib mavjudlik ma`nosidagi ot yasaydi: **borliq.**

2. **-chilik.** Bu qo`shimcha murakkab qo`shimcha (chi+lik) tartiblaridan tuzilgan bo`lib, ot, sifat negizlarga qo`shilib kasb-hunar bildiruvchi mavhum ot yasaydi: **to`qimachilik , paxtachilik , chorvachilik ,dehqonchilik, pichoqchilik, suvoqchilik.**

3. **-garchilik.** Bu qo`shimcha ham murakkab (gar-chi-lik) tarkiblardan tashkil topgan bo`lib, holat bildiruvchi mavhum ot yasaydi: **yog`ingarchilk, loygarchilik.**

4. **- ch (inch).** Fe`l negizlarga qo`shilib, kishidagi ruhiy holatni bildiruvchi mavhum ot yasaydi: seving, ishonch, quvonch.

5. **-sh(-ish).** Fe`l negizlarga qo`shilib harakat oti yasaydi: **yig`ilish , tug`ilish.**

Sintaktik usul bilan qo`shma va juft otlar yasaladi. Iksi yoki undan ortiq so`zlarning o`zaro ma`no va grammatik jihatdan birikishi asosida vujudga kelgan otlar qo`shma otlar deyiladi. Qo`shma otlar tarkibi quyidagi so`zlardan tashkil topadi.

1. Ot+ otdan: **belbog`, qo`lqop, muzqaymoq, toshko`mir, Sirdaryo.**
2. Sifat+ otdan: **oqqush, oqsoqol, qizilo`ngach, sassiq popushak.**
3. Son+otdan: **to`rt burchak, uchburchak, To`rktko`l, Besh buloq.**
4. Ot+ fe`ldan : o`rnbosar, beshiktervatar, muzyorar, kunga boqar kabi.

Qo`shma otlar quyidagicha yoziladi:

1. Iksi yoki undan ortiq so`zlarning birikuvidan tashkil topib, bir ma`no ifodalaydigan , bir urg`u bilan aytildigan, otlar qo`shilib yoziladi: **kunga boqar, oshqozon, belbog`, gultojixo`roz, Jarqo`rg`on** kabi.
2. Iksi yoki undan ortiq so`zlarning birikuvidan tashkil topib, alohida urg`u bilan aytildigan, tarkibli qo`shma otlar ajratib yoziladi: **xalq xo`jaligi, Markaziy Osiyo, Qarshi cho`li kabi.** Iksi so`zning o`zaro grammatik jihatdan teng bog`lanishidan hosil bo`lib, bir umumiylar ma`no anglatuvchi otlar juft otlar deyiladi: **ota-on, aka-uka kabi.**

Juft otlar tarkibi quyidagicha so`zlardan tashkil topadi.

1. O`zaro ma`nodosh bo`lgan so`zlardan: **mehr- shafqat, kuch-qudrat, shon-sharaf, baxt-saodat.**
2. Bir -biriga yaqin ma`noli, aralash tipdagisi so`zlardan: **ota-on, aka-uka, qozon-tovoq, uy-ro`zg`or.**
3. Tarkibidagi birinchi so`z mustaqil ma`no bildiradigan, ikkinchi so`z ma`no bildirmaydigan so`zlarning birikishidan: **bozor-o`chor, don-dun, kiyim-kechak** kabi.

Takror otlar ham tuzilishi jihatidan juft otlargaga mansub. Biroq ular yasama ot sirasiga kirmaydi. Chunki, takror otlar tarkibidagi ikkinchi so`z fonetik jihatdan o`zgargan holda qo`llanilsa - da, birinchi so`z ifodalagan ma`nodan boshqa ma`noni bildirmaydi. Zero, birinchi so`z ifodalagan ma`no takror otlardagi asosiy ma`no bo`lib qoladi: **non-pon, tosh-posh, kitob-mitob** kabi.

Qisqartma otlar. Nutqda qisqalikka erishish maqsadida bir qator tarkibli otlar qisqartirilib qo`llaniladi. Bunday otlar qisqartma otlar deyiladi. Masalan, **BMT, DAN, MHD** kabi.

So`zlarni bu tipda qisqartirib qo`llash faqat ot turkumiga xos. So`z qisqarishi ham yasalishning bir turi bo`lib, unga abbreviatura usuli deyiladi.

Qisqartma otlar quyidagicha shakllardan iborat bo`ladi:

1. So`zlarning bosh harflari olingan holda so`z qisqartiriladi .Bunday qisqattmalar bosh harflar bilan yoziladi. **GES, BAA**(Birlashgan Arab Amirligi).
2. Birinchi so`zning birinchi bo`g`ini, keyingi so`zlarning bosh harflari olingan holda so`zlar qisqartiriladi; **O`zR, O`zRFA, O`zMU** kabi .

TILLARDA MODAL SHAKLLARNING YASALISHI

Modal shakllarning mavjudligi otlarning morfologik jihatdan o`ziga xos muhim belgilaridan biridir. Modal shakllar otdan anglashilgan ma`noga turli his-hayajon ma`nolarini qo`shadigan shakllardir. Modal shakllar yordamida lug`aviy ma`noga qo`shimcha ravishda erkalash, kichraytirish, hurmat kabi modal ma`nolar hosil bo`ladi. Otlarning modal shakllari maxsus modal ma`no hosil qiluvchi qo`shimchalar va so`zlarni qo`shish bilan hosil bo`ladi.

Modal ma`no hosil qiluvchi qo`shimchalar yordamida kichraytirish -erkalash ma`nolaridagi otlar hosil bo`ladi. Shuning uchun bunday qo`shimchalar **kichraytish- erkalash** qo`shimchalari deyiladi.

Quyidagilar otlarning modal shaklini hosil qiluvchi kichraytish- erkalash qo`shimchalaridir:

1. - **cha qo`shimcha.** Otlarga qo`shilib predmetning kichikligini ifodalovchi modal shakl hosil qiladi: **qushcha, kitobcha, qizcha.** Ayrim so`zlar tarkibida bu shakl kichraytish ma`nosini ifodalamaydi. Chunki, - cha qo`shimchasi ravish yasovchi: **o`zbekcha, ko`kcha** so`zlaridagi -cha qo`shimchasi bilan shakldoshdir.

2. **-choq, chak qo`shimchasi.** Bu qo`shimcha kichraytish ma`nosidagi: **qo`zichoq, toychoq,** erkalash ma`nosidagi **qo`zichoq** (bolalarga nisbatan ishlataliganda), **kelinchak** modal shakllarini hosil qiladi.

3. **-loq qo`shimchasi.** Kichraytish: **qizaloq**, erkalash: **toyloq, bo`taloq** (bolalarga nisbatan) modal shakllarini hosil qiladi.

4. **-gina (-kina, - qina) qo`shimchasi.** Erkalash, hurmatlash ma`nosidagi modal shakllar yasaydi: **bolagina, qizgina, otiginam** kabi.

Otlarning modal shakllari erkalash, hurmatlash ba`zan kesatish ma`nolarini ifodalovchi so`zlarni kishi ismlariga qo`shish natijasida ham hosil bo`ladi. Bunday so`zlar alohida qo`llanilganda mustaqil ma`noli so`zlar bo`lib, kishi ismlariga qo`shilganda affikslashadi va modal ma`no hosil qiladi. Masalan jon: **Azizjon, Ergashjon, xon: Dilbarxon, E'tiborxon, oy: Tursunoy, Naziraoy, niso: Xayriniso, Mehriniso, toy: Olimtoy** kabi.

Shuningdek, ayrim modal shakl hosil qiluvchi vositalar hurmat va kesatish ma`nolarini ham ifodalaydi. Masalan, **Poshsho ona, kelin poshsho** kabi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Otlar qanday usullar bilan yasaladi?
2. Morfologik usul bilan qanday ma`noli otlar yasaladi?
3. Sintaktik usul bilan-chi?
4. Otlar tuzilishiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?
5. Qaysi shakllar otlarning modal shakllari hisoblanadi?

AMALIY MASHG`ULOT OTLARNI TAHLIL QILISH TARTIBI

1. Otlarning ma`nosiga ko` raa turi.

2. Kelishikdagi shakli.
3. Grammatik son shakli.
4. Egalik shakli
5. Tub va yasamaligi .
6. Qaysi usul bilan yasalganligi.
7. Tuzilishi jihatidan turi.
8. Gapdagи vazifasi.

Namuna: Xizmarchilar keldilar. Xizmatchilar-ot, turdosh ot, aniq ot, bosh kelishikda, ko`plikda, egalik affiksi olmagan, sodda, yasama, morfologfik usul. Sirdaryo- ot, atoqli ot, bosh kelishikfda, birlik, egali qo`shimchasi olmagan, qo`shma, yasama, sintaktik usul bilan yasalgan.Gapda ega vazifasida kelgan.

25- mashq. Otlarni topib ma`nosiga ko`ra turlarini aniqlang .

1. Kiyimidan yigit ko`proq stulentga o`xshar edi.(A.Q.) 2. Oftob qizdirgan dala yo`lida chap qo`lini shohi qiyiq bilan bo`yniga osib olgan yigirma yoshdagi bir yigit sog` qo`li bilan velosipedini enkazib kelmoqda.(S.A.)3. Tillafkori tolorda o`ltirgan belimning jussasi kichkina ko`rinsa ham , Hamida bonu uchun ayol zoti orasida undan salobanli si va qudratlisi yo`q. (P.Q.)4. Mehnatdadir dalaning barcha Ma jnun, La aylosi, Farhod er sug`o radi, qulqoq ochadi Shirin.(G`G`.)5. Kampir ning so`rog`iga arobvakash xazillashib javob berdi.(Ch.) 6. Otabek ota-onas orzusig`a o`z ta`biricha jonsiz haykal bo`lib rizoliq berdi.(A.Q.)7. Darbozasi sharqi-janubiga qaratib qurilgan bu dong`dor saroyni Toshkent, Samarqand bva buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki huj rani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to`la. (A.Q.)

26-mashq. Egalik va kelishik shaklidagi otlarni aniqlab, ularni izoh lang. Endi, biz tashqari hovlini quyib mehmobxonaning yonidan ichkariga kiramiz.Ichkari hovlining yo`lagi ham narigisidek usti va bag`ri yoguq-qorong`u, yo`lakning nihoyatiga borib o`ngga yurilsa otxonaga, chapga yurilsa birinchi martabba kir ga nimizdek ulug` bir hovliga chiqarmiz.

Hovlining to`rt tarafi turlik ehtiyyot binolari bilan va to`rdagi binoning ikki biqini katta uylar bilan o`ralg`on bo`lib shu ikki uyning orasig`a o`lturgan koshinkor va naqshin chorxari ayvon bu havlining birinchi martaba ko`zga chalinadig`on ortiqliqlaridandir. (A.Qod.)

27- mashq. Tub va yasama otlarni aniqlang.

Yasalish usullarini izohlang.1.

U qabulxona eshigi oldida merobvsib turib qoldi bva maqsadsiz ravishda yo`lakdagи kreslolarning biriga borib o`tirdi. (O`U.)2. Xonzoda begin shuni o`ylab, o`yinni hayajon bilan kuzatgani sari qizlar xaf-xatarni unitib, to`daga dadil tashlanishlar, qamchi o`rniga chovgoncho`p bilan otlari sag`risiga urib, muxoki tomonga hamla qilishardi. (P.Q.) 3. Quvasoy botqog`ining ustidan o`tgan manaa shu uzun yog`och ko`prik ham mulla fazliddin chizib bergen tarh bo`yicha qurilgan (P.Q.)

4. Tabholik- shoirga dil ehtiyoji,
- Xayolga oshnolik- buyuk baxtingiz

Qo`nar boshinizga shuxrat gultoji

Tashbeh izlamoqqa qolmas vaqtingiz. (E.V.)

28-mashq. Otlarni morfologik jihatdan to`liq tahlil qiling.

- 1.Tillakori mollarda o`ltirgan beginning jussasi kichkina ko`rinsa ham, Xamida bonu uchun ayol zoti orasida undan salobatlisi va qudratlisi yo`q.(P.Q.)
2. Bolasining chophonini boshiga yopinib olgan xotin o`tirgan eridan so`radi.(S.A.)
3. Qo`sinqning ovjini shirali ovoz bilan Ma`murjon hofiz yakka aytar di. (S.A.)
4. Shaharning shimolidagi ko`rkam chorborg` baland devor bilan o`ralgan, darvozalarga soqchilar qo`yilgan.(P.Q.)
5. Mardlik maydonida bel sinash uchun jasur o`zbek xalqining o`g`li otlandi.(G` .G` .)

S I F A T

54 s. SIFATNING MA`NOSI VA GRAMMATIK BELGILARI

Predmetning belgisini bildiradigan so`zlar turkumi sifat deyiladi. sifat **qanday? qanaqa?** so`roqlaridan biriga javob bo`ladi.Sifat belgi sifatida predmetning rangini (**oq, qizil, ko`k, sariq**), shakl-ko`rinishini (**yumaloq, yapaloq, yassi, uchburchak**), hajm- o`lchovini(**tor, keng, katta, kichik**), maza-tamini (**shirin, nordon, mazali**), sifatini, xususiyatini(**oddiy , kamtar, dono, aqlii, tadbirkor**), xarakterini (**ziqna, xasis, bosiq, sho`x, ko`ngli ochiq**),

o`rin yoki vaqtga bo`lgan munosabatini(**uydagi, kuzgi, bahogi, kechki**) ifodalaydi.

Sifat narsa-hodisadagi, predmetdagи belgini bildirgani uchun gapda doimo ot bilan bog`lanib keladi: **keng xona, yaxshi joy, qizil olma, moviy ko`l** kabi.

Sifatlar o`ziga xos morfologik xususiytlarga ega. Sifatning muhim morfologik belgisi, predmet belgisining boshqa predmet belgisiga qiyoslab darajalab ko`rsatishidir. Shu boisdan sifatlarda boshqa turkumlardan farqli ravishda daraja, ozaytirma va kuchaytirma shakllar mavjud. Shuningdek sifatiar zo`z yasovchi, shakl yasovchi qo`shimchalar tizimiga ham ega.

Sifatlar gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi. **Og`ir tabiatlik, ulug` gavdalik, ko`rkam va oq yuzlik, kelishgan qora ko`zlik mutanosib qarashlik va endigina murti sabz urgan yigit** (A.Qod) Hol va kesim vazifalarida keladi: **Mag`rur holda cho`ntagidan bitta o`n so`mlik chiqarib, bo`lingan to`p ustida tashladi.** (F. Mal.) **Chodirning ichi o`rdaday keng tagiga somon va poxol to`shalib** ustiga brezent tashlangan.(O.UO.)

Sifatlar otlashganda ega, qaratqichli aniqlovchi, to`ldiruvchi vazifalarida keladi: **Mard maydonda bilinar. (Maqol.) Kattaning kichigi bo`lguncha, kichikning kattasi bo`l.**(Maqol.) Yaxshini yaxshi deydilar (Maqol.) kabi.

ASLIY VA NISBIY SIFATLAR

Sifatlar ma`no xususiyatlari ko`ra har xil.Binobarin, ayrim sifatlar predmet belgisini bevosita ifodalasa, ayrim sifatlar belgini boshqa predmetga yoki o`ringa, paytga nisbatlash asosida ifodalaydi. Shunga ko`ra sifatlar ma`no jihatdan ikkiga bo`linadi: **asliy sifatlar, nisbiy sifatlar.**

Bevosita belgi anglatib, belgini darajalab ko`rsataoladigan sifatlar **asliy sifatlar** deyiladi: **uzun, katta, qizil, shirin, yaxshi, mulojim, ixcham** kabi.

Predmet belgisini o`rin yoki raytga ba`zan boshqa predmetga o`xshatish, nisbatlash asosida anglatadigan sifatlar nisbiy sifatlar deyiladi.

Nisbiy sifatlar maxsus sifat yasovchi qo`shimchalar yordamida yasaladi: **-li, -iy (-viy), - lik, simon, gi -ki -qi: -dagi, -** qo`shimchalari nisbiy sifat yasovchi qo`shimchalardir.

Bu qo`shimchalar yordamida quyidagi ma`nolarni ifodalovchi sifatlar yasaladi.1. Predmetga nisbat berish ma`nosini bildiruvchi nisbiy sifatlar: **mevali baraxt, ilmiy ish, tarbiyaviy ahamiyat** kabi.

2. Vaqtida nisbat berish ma`nosidagi nisbiy sifatlar : **kuzgi bug`doy, tungi yog`du., kechagi gap** kabi.

3.Orinda nisbat berish ma`nosidagi nisbiy sifatlar: **janubiy kenglik, sho`rchilik qiz, uydagi ish** kabi.

4. Nisbiy sifat yasovchi qushimchalar yordamida yasalgan sifatlar : a) predmetga xoslikni: **tarihiy kun, ma`naviy mezon:** predmetga o`hshashilkni: odamsimon, butasimon: biror narsaga mo`ljallangan yozgi ta`til, kuzgi ekln: biror joylik ekanlikni: toshkentlik, samar qandlik ham bilaradi.

Asliy va nisbiy sifatlar belgini darajalab, kuchraytirib yoki aksincha kamaytirib ko`rsatishi hamda modal ma`no bildirishiga ko`ra o`zaro farqlanadi. 1. Asliy sifatlar belgini darajalab ko`rsata oladi: **yaxshi- yaxshiroq -juda yaxshi.**

Nisbiy sifat yasovchi qo`shimcha bilan yasalgan sifatlarga belgini darajalab ko`rsatish xususiyati maavjud emas: kuzgi, osamsimon. 2. Asily sifatlar modal ma`no ifodalaydi: yaxshigina, ochiqqina kabi. Nisbiy sifatlarga bu xususiyat mavjud emas, fogatli qo`shimchali nisbiy sifatlarga modal ma`no mavjud: **chiroyligina, bilimligina** kabi.

Sifatlar otga bog`lanish bilan birgalikda ba`zan fe`lga ham bog`lanib kelishi mumin.O`shanda biz **yosh edik**, -dedi Saidiy uzoqqa qaraganday (A.Q.) Nisbiy sifatlar fe`lga bog`lanmaydi.

55 s.

SIFAT DARAJALARI

Predmetdagi belgini boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatlab farqlash hodisasi sifat darajalari deyiladi. Sifat darajalari predmetdagi bir xil belgini bir -biriga chog`ishtirish, solishtirish asosida yuzaga keladi. Sifatlarga uch xil daraja mavjud : **oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja.**

Predmet belgisi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmasa oddiy daraja deyiladi: **katta, uzun, keng, epchil.** Predmet belgisini boshqa predmetdagi shunday belgiga qiyoslanishidan **qiyosiy** va **orttirma** daraja sifatlari vujudga keladi. **Qiyosiy daraja.** Predmet belgisini boshqa predmetdagi shunday belgidan ortiq yoki kamligini bildiradigan daraja qiyosiy daraja deyiladi.Qiyosiy daraja sifatlarga - **roq** qo`shimchasini qo`shish bilan shakllanib: a) belgini oddiy darajadagi sifatlarga nisbatan ham kamligini ifodalaydi.

Masalan; **bu yo`l,narigi yo`lga nisbatan qisqaroq, bu uy narigi uyga nisbatan pastroq.** b) belgini ortiqligini ifodalaydi. **Bu o`zidan ham ko`ra Saidiyga qattiqroq ta`sir qildi.**(A.Q.) **Havo musaffo bo`lgani uchun pastda yoqilayotgan olovning tutuni odatdagidan tiniqroq** ko`rindi.(P. Q.)

Belgini yanada ortiqligini ko`rsatishda- roq qo`shimchali sifatdan oldin yana ham so`zları keltiriladi. **Nigora bu sehrli manzarada, oydinda yana ham sirliroq tuyilgan ko`hna qorg`onga tikilib uzoqroq turadi.** (O. Uo.)

Orttirma daraja. Predmet belgisini boshqa predmetdagi xuddi shunday belgidan juda ko`p eanligini ifodalaydigan daraj orttirma daraja deyiladi. Orttirma daraja oddiy daraja sifatlaridan oldin **eng , juda g`oyat, g`oyatda, nihoyatda, benihoyat** so`zlarini keltirish bilan hosil bo`ladi.

U Unsunga juda qadrli, va qadrdon.(O.) Zumrad Manzuraning gaplarini bugun **g`oyat loqaydlik** bilan tingladi. (O.) Yo`l tor, juda kichkina bo`lgani uchun hozir birinchi navbatda podshoh oilasi va Boburga **eng yaqin kishi** bo`lgan eshik og`a, Qosimbek chiqishmoqda edi. (P.Q.) Qiyosiy daraja sifatlar

morfologik usul bilan, orttirma daraja sifatlar esa sintaktik usul bilan hosil bo`ladi.

56 s.

SIFATLARNING YASALISHI

Boshqa so`z turkumlari singari sifatlar ham asosan morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Morfologik usul bilan sifat yasash eng sermahsul usuldir. So`z o`zak, negiziga maxsus sifat yasovchi qo`shimchalar qo`shish orqali yangi sifatlar yasalishi morfologik usul bilan sifat yasalishi deyiladi. O`zbek tilida sifat yasovchi qo`shimchalar boshqa turkumlardan farqli ravishda o`zakdan oldin va o`zakdan keyin qo`shilgan holda ham sifat yasaydi. O`zakdan oldin qo`shilib sifat yasovchi qo`shimchalar tojik tilining ta`siri natijasida yuzaga kelgan.

O`zakdan oldin qo`shilib sifat yasobvchi qo`shimchalar:

1. **-ser.** Ot turkumidagi so`zlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan predmetning ko`pligini ortiqligini bildiruvchi sifat yasaydi: **sersuv, serdaromad, sergap** kabi.
2. **-be :** Otlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan predmetga ega emaslikni bildiruvchi sifat yasaydi: **beor, benomus, betayin, bebaxt**.
3. **-ba:** Otlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan predmetning ortiq ekanligini bildiruvchi sifat yasaydi: **badavlat, basavlat, baquvvat**.
4. **-no:** Ot va sifat o`zaklarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan pred-metning yo`qligini, mavjud emasligini bildiruvchi sifat yasaydi: **nohaq, noinsof, noloyiq, noqulay** kabi.
5. **-bad:** Ot negizlarga qo`shilib, salbiy belgi bildiruvchi sifat yasaydi: **badbashara, badxulq.** O`zakdan keyin qo`shilib sifat yasovchi qo`shimchalar:
 1. **-li** qo`shimchasi. O`zbek tilidagi sifat yasovchi eng mahssuldor qo`shimcha bo`lib, asosan ot, qisman sifatdosh va ravishdoshlarga qo`shilib sifat yasaydi.
 - a) o`zakdan anglashilgan ma`noda ega ekanlikni ifodalovchi sifat yasaydi: **aqliy yigit, mevali bog`, bilimli talaba**.
 - b) **-r (-ar)** qo`shimchali sifatdosh shakliga qo`shilib, undan anglashilgan belgiga ega ekanligini ifodalovchi sifat yasaydi: **tushunarli kitob, qiziqarli suhbat**.
 - v) **-sh (-ish)** qo`shim chali ravishdoshga qo`shilib o`zakdan anglashilgan ish-harakatga ega ekanlikni bildiruvchi sifat yasaydi: **borishli , kelishli o`qimishli kabi**.
 2. **-siz:** ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmetga ega emaslik ma`nosidagi sifatlar yasaydi: **suvsiz, ishsiz, mazasiz, kuchsiz** kabi.
 3. **-chan:** ot, harakat nomi va ravishdoshlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan ma`noning ortiqligini bildiruvchi, sifatlar yasaydi: **qiziquvchan, talabchan**.
 4. **-chil:** ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet belgisini ortiq ekanligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: **epchil, dardchil**.
 5. **-aki:** ot va sifat negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet belgisining soxtaligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: **qalbaki,zo`raki, yuzaki**.

6. **-ag`on:** fe`l negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosiga ega ekanlikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: **bilag`on, topag`on.**

7. **-mon (-man):** Bu qo`shimcha bilan belgini ortiq ekanligini ifodalovchi sifatlar yasaladi. -mon qo`shimchali sifatlar -ag`on qo`shimchali sifatlarga sinonimdir: **bilarmon, toparmon, bilag`on , toparg`on**

8. **-ma:** fe`l negizlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan harakatning natijasida hosil bo`lgan belgini ifodalovchi sifatlar yasaydi: **qaynatma sho`rva, qovurma go`sht, yasama tish, uydirma gap.**

9. **-in:** ot, va fe`llarga qo`shilib sifatlar yasaydi: **erkin odam, tekin daromad, to`kin kuz.**

10. **-parvar:** ot negizlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosi bilan bog`liqlikni ifodalovchi sifatlar yasaydi: **vatanparvar,adolatparvar, xalqparvar.**

11. **-parast:** ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosiga moyillikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: **mansabparast, shuhratparast, uyquparast.**

12. **-xo`r:** ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmetni yaxshi ko`rvuchi, uni xushlovchi ma`nosidagi sifatlar yasaydi: **oshxo`r,**

go`shtxo`r. Bu qo`shimcha orqali yasalgan sifatlar ko`chma ma`nolarda ham ishlatalidi: **odamxo`r, g`amxo`r, qonxo`r, nonxo`r**(“hech ish qilmaydigan kishi” ma`nosida) kabi. 13. **- mang:** ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosining ortiq ekanligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: **davlatmand, hunarmand** kabi.

14. **-don:** Ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosining ortiqligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: **bilimdon, gapdon,**

15. **-dor:** ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosining ortiqligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: **bo`ydar, etdar, puldar, moldor.**

16. **-dek, -day:** ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmetga o`xhashlik ma`nosini bildiruvchi sifatlar yasaydi: **asalday qovun, gulday qiz, tog`day elka** kabi.

17. **-k, -q, -ik, -iq, -uk, -uq, -oq, -ak:** fe`l negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan harakat yoki holatining natijasini bildiruvchi sifatlar yasaydi: **kemtik, qaynoq, bo`liq, o`sinq, tuzuk, chinqiroq, hurkak.**

18. **-qoq, g`oq:** fe`l negizlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan harakat belgisini ortiq ekanligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: **botqoq er, tirishqoq odam, urishqoq bola.**

19. **-choq, -chiq, -chak,** fe`l negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan belgining ortiq ekanligini bildiruvchi sifatlar yasaydi: **maqtanchoq, toyg`onchiq, kuyinchak.**

20. **-g`in, g`un, -kin, -qin:** fe`l negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan harakat, holat bilan bog`liqlik ma`nosidagi sifatlar yasaydi: **so`lg`in, turg`un keskin, jo`shqin.**

21. -qir, -qur, -gir, -kir: fe`l negizlarga qo`shilib negiz orqali ifodalangan harakat holatning ortiqligini bitiruvchi sifatlar yasaydi: **topqir, chopqir, uchqur, sezgir, olg`ir, o`tkir.**

Quyidagi qo`shimchalar o`zakdan keyin qo`shilib nisbiy sifat yasovchi qo`shimchalardir.

1. -iy (-biy): ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmetga aloqadorlik ma`nosidagi sifatlar yasaydi: **ilmiy, tarixiy, oilaviy, tashkiliy.**

2. -simon: ot negizlarga qo`shilib , negiz orqali ifodalangan predmet ma`nosiga o`xhashlikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: **odamsimon, butasimon, tuxumsimon, toshsimon** kabi.

3. -lik: ot negizlarga qo`shilib, negiz orqali ifodalangan predmetga xoslik ma`nosidagi sifatlar yasaydi: **toshkentlik, farg`onalik** kabi.

4. -gi, -ki, -qi: ot ravish, va ko`makchilarga qo`shilib, orin, payt va joyga xoslikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: **kuzgi, qishki, tashqi, ichki, hozirgi.**

5. -dagi: ot negizlarga qo`shilib, o`ringa xoslikni bildiruvchi sifatlar yasaydi: **uyqagi, ko`chadagi.**

Sintaktik usul bilan qo`shma va juft sifatlar yasaladi. Ikki yoki undan ortiq so`zlardan tashkil topib, bir belgi anglatiladigan sifatlar qo`shma sifatlar deyi ladi. Qo`shma sifatlar tarkiban quyidagicha bo`ladi:

1) ot+ ot shaklida: mehmondo`s, sohibjamol, jigarang.

2) sifat+ot shaklida: sof-dil, oq ko`ngil, olijanob.

3) son+ot shaklida: uchburchak, besh xonali.

4) ot+ fe`l shaklida: tinchliksevar, erksevar.

5) ravish +fe`l shaklida: ertapishar, kechpishar.

Bir umumiy belgi asosida ikki sifatning teng bog`lanishidan hosil bo`ldan sifatlar juft sifat deyiladi. Juft sifatlar quyidagicha hosil bo`ladi:

1. Ma`nodosh yoki ma`nosi bir-biriga yaqin bolgan sifatlarning birikuvidan: tinch-totuv, egri-bugri, qing`ir- qiyshiq.

2. Qarama -qarshi ma`noli sifatlarning birikuvidan : yaxshi-yomon, katta-kichik, uzun-qisqa.

SIFATLARDA MODAL SHAKLLAR

Sifatlarda darajalardan tashqari belgining ortiq yoki kamlik ma`nolari ham ifodalananadi. Bu xilda belgi ifodalananishida muayyan belgi boshqa predmet belgisiga qiyoslanmaydi.Bunday shakllar sifatlarning modal shakllari deyiladi.

Sifatning modal shakllariga qiyidagilar kiradi:

a) belgining kuchaytiruv shakli, b) belgining kamlik shakli,

d) belgining noaniqlik shakli, e) belgining ko`plik sh akli.

1. Belgining kuchaytiruv shakl belgini ortiq darajada ekanligini ifodalaydi. Belgining ortiqligi quyidagicha hosil bo`ladi:

a) oddiy daraja sifatlarning birinchi bog`ini olinib, sifatning to`liq shaklidan oldin keltirish bilan: **qip-qizil, sap-sariq, ko`m-ko`k, dum-dumaloq.**

b) oddiy darajadagi, sifatlarni takrorlash bilan: **uzundan -uzun, ochiqdan-ochiq, to`ppa-to`g`ri.**

d) oddiy darajadagi sifatlardan oldin belgini kuchaytiruvchi so`zlarni keltirish bilan: **o`ta pastkash, g`irt yolg`on, liq to`la, tim qora.**

Belgining kuchaytiruv shakli sintaktik usul bilan hosil bo`ladi.

2. **Belgining kamlik shakli** asosan rang bildiruvchi sifatlarda mavjud bo`lib, bunda belgining odatdagidan kamligi ifodalanadi. Belginng kamligi morfologik usul bilan hosil bo`ladi.

Belgining kamligi rang bildiruvchi sifatlarga **-sh, -ish, -mtir, -imtr, g`imtir** qoshimchalarini **qo`shish bilan hosil bo`ladi:** **ko`kish, ko`kimtir, sarg`imtir, qizg`imtir.**

3. **Belgining noaniqlik shakl** sifatlarning juftlashishi asosida vujudga keladi. Ayrim tovush o`zgarishi asosida juftlashgan sifatlar noaniq belgini hosil qiladi: **g`adir -budir, chala-chula.**

4. **Belgining ko`pligi** sifatlarni takrorlash orqali ham hosil bo`ladi: **uzun-uzun, katta-katta, og`ir - og`ir.**

Sifatlarda -gina (-kina- qina) qoshimchasini qo`shish orqali ham sifatlarning modal shakli hosil bo`ladi: **yaxshigina uy**, o`g`rigina bola (“Mening o`g`rigina bolam”G`G`.) G`uzardagi samovarda **g`aribgina** bo`lib o`tirgan ekan.(S.A.) **Sifatlarning otlashishi.** Sifatlarning gapda ot bajaradigan vazifani bajarib, otning so`rog`ini olib kelishi sifatlarning otlashishi deyiladi. Otlashgan sifatlar o`zining asl mohiyatini, yani predmet belgisini ifodalash xususiyatini yo`qotadi.

Otlashgan sifatlar gapda ega: **Yaxshi** eydi oshini, **Yomon** eydi boshini(Maqol.),qaratqichli aniqlovchi: kechalari uxlamay, shu **yolg`izimning** umrini uzun qil, deb yig`lab chiqadi. (S.A.) to`ldiruvchi: **yaxshini** yaxshi deydilar.(Maqol.) vazifalarida keladi.

Sifatlar tuzilishiga ko`ra sodda: **yaxshi, keng, chiroqli, bilimli, zukko; qo`shma: rahmdil, shifobaxsh, oq ko`ngil, sof dil, shirin so`z, och sariq; juft: katta-kichik, oq-qora, uzoq -yaqin oq** bo`ladi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sifatlar belgi sifatida nimalarni bildiradi?
2. Sifatning o`ziga xos morfologik belgilari nimalardan iborat?
3. Sifatning ma`no jihatidan qanday turlari mavjud?
4. Sifatlar gapda qanday vazilarni bajaradi?
5. Sifat darajalari nima? Sifatlarda qanday darajalar bor?
6. Sifatlar qanday usullar bilan yasaladi?
7. Sifatning qanday modal shakllari bor?

AMALIY MASHQLAR

Sifatlarni tahlil qilish tartibi

1. Sifatning ma`nosiga ko`ra turlari
 2. Darajasi (Oddiy, qiyosiy, orttirma)
 3. Tuzilishiga ko `ra turi.
 4. Yasalishiga ko`ra turi.Yasalish usullari
 5. Gapdagи o`zi uch to`rt kundan beri ga`latiroq bo`lib yuribdi.(S.A.)
g`alatiroq- sifat, asliy sifat qiyosiy daraja, sodda, tub, sifatlovchi- a niqlovchi vazifasifda .
- 29-mashq. Sifatlarni topib, qanday belgi bildirganini aniqlang, o`zi bog`langan so`z bilan birgalikfda ko`chirib yozing.
1. Osmon boyagina feruza shihsadek tip-tiniq edi.(O`U.)2. Og`ir tab`iatlik, ulug` gavdalik , ko`rkam va oq yuzlik, kelishkan qora ko`zlik, mutanbosib qora qoshlik va endigina murtisabza urgan bir yigit. (A.Qod.) 3. Baland kungurador devor bilan o`ralib, yuksak burjlarga to`p o`rnatilgan o`rdadan hovlining har joy-har joyida tosh fonuslar miltirab turardi.(O.Yo.) 4. Egnilariga qizi, ko`k, yashil, movut va kimxo b to`n kiyib, qora qunduz telpak va bo`rklarini boshlariga bostirib olgan boshqa amirlar ham nag`al qoqilgan etiklari bilan marmar zina larni taq-taq bosib, pastga tushib ketishdi. (O.Yo.)
- 30-mashq. Sifatlarni topib, sifat darajalarini aniqlang.

1. Shu sababli habm keyingi fikrini anchamujmalroq shaklda bayon etdi.(O`U.)2. Otalar o`az bolalarini dunyodagi bolalarning eng zo`ri, eng xushbichimi deb biladi.(S.A.) 3. Yarim ro`zg`ori qishloqfda qolib juda besaramjon bo`lib ketishdi.(S.A.) 4. -To`xta, to`xta, ona, durustroq qaragin, juda chiroyli.(S.A.)5. Bu erdagи eng ulkan va salobatli bino- to`rt qavatli ko`k saroy edi.(P.Q.) 6. Aslida esa soch-soqoli oppoq, nimjongina bir cholni ko`rdi.(O.Yo.) 7. U qosh-ko`zları ,qop-qora, qiyg`ir burun, xush surat xotin bo`lsa ham,farishtasi yo`q, chehrasi sovuq ayol edi.(O.Yo.)

SON

57 s. SONNING MA`NO VA GRAMMATIK BELGILARI

Predmetning son-sanog`i, miqdori va joylashish tartibini bildiradigan so`zlar son deyiladi. Sonlar **qancha?** **necha?** **nechanchi?** so`roqlaridan biriga javob bo`ladi. Sonlar otga bog`lanadi va ot ifodalagan predmetning miqdorini, tartibini bildiradi: **ikki o`rtoq, uch dugona, beshinchi sinf** kabi.

Sonlar otga bog`lanmagan holda qo`llanilsa son ifodalaydigan miqdor mavhum bo`ladi. Masalan, **ikki karra** , **ikki to`rt**. Sonlarning bu xildagi mavhum holda qo`llanishi arifmetik hisob-kitoblar uchun xosdir.

Sonlar tildagi eng kam tub so`zları mavjud so`z turkumlaridan hisoblanadi. Binobarin boshqa so`z turkumlaridan son yasalmaydi. Hozirgi o`zbek tilida faol ishlatiladigan 22 ta tub son mavjud: **bir, ikki, uch, to`rt, besh, olti, etti, sakkiz,**

to`qqiz, o`n, yigirma, o`ttiz, qirq, ellik, oltmis, etmis, sakson, to`qson, yuz, ming, million, milliard.

Qolgan sonlar shu sonlarning o`zaro qo`shilishidan hosil bo`ladi. Masalan, **o`n besh, bir yuz qirq, ikki ming birinchi yil** kabi.

Sonlar harf bilan ham: **o`n, ming** raqam bilan ham: **10,1000** yoziladi. Raqam asosan arifmetik hisob-kitoblarda ishlatiladi. O`zbek tilida sonlarni qo`llashda ikki hil raqamdan foydalilaniladi.

1. Arab raqamlaridan. Bu raqam yillarni chislolarni ifodalashda ishlatiladi: **1999 yil- ayollar yili. 9 may -xotira va qadrlash kuni.**

2. Rim raqamidan. Bu raqamdan asrlarni, oylarni, s`ezd, konferensiya, sessiya, chaqiriq sanalarini ko`rsatishda foydalilaniladi. **VI asr, 10.III.2001 yil, XXI chaqiriq X sessiya kabi.**

Sonlar so`z turkumlari orasida o`zining nisbatan mavhumligi bilan ajralib turadi. Chunki sonlar ifodalarydigan miqdor tushunchasi mavhum bo`ladi. Masalan, **uch, besh, o`n besh** kabi sonlarda faqat miqdor tushunchasi bor. Biroq bu niqdor nimaning miqdori ekanligi noaniq, mavhum. Sonlar ot bilan bog`langandagina bu miqdor nimaning miqdori ekanligi oydinlashadi: **besh battar, o`n kishi** kabi. Sonlar so`z turkumi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Sonlar boshqa so`z turkumlaridan yasalmaydi, biroq sondan boshqa turkumdagagi so`zlar yasaladi: **bir+ ik (fe`l,) uch+ lik, (sifat)** 2. Sonning muhim morfologik belgilaridan biri turlanmasligidir. Ular ot oldidan kelib, otning miqdorini sanog`ini ifodalab, aniqlab keladi: **besh kishi, o`n otliq, yuz uy.**

3. Sonlar otlashganda ot bilan bog`lanmaydi. Bu hollarda sonlar ot kabi kelishik qo`shimchalarini olib gapda ot bajaradigan vazifalarda keladi. Masalan, **oltovlon** ola bo`lsa og`zidagini oldirar. (Maqol.)

4. Sonning modal shakllari songa maxsus son shaklini yasovchi qo`shimchalar qo`shish bilan hosil bo`ladi; **to`rt + ta, uch+ ala, besh-ov, olt+ovlon, yuz+larcha** kabi.

5. Ko`pincha son bilan ot orasida maxsus sanoq bildiruvchi so`zlar (numerativlar) ishlatiladi: **uch kilogramm yog`, o`n gektar yer.**

Sonlarning qo`llanilishi birlik, yuzlik va minglik tizimi bo`yichadir. O`ndan yuzgacha bo`lgan sonlarni ishlatishda katta sonlardan boshlab aytildi: **o`n besh, ellik uch, to`qson olti.** Yuzdan yuqori sonlarni aytishda kichik sonlardan boshlab aytildi: **bir yuz ellik, bir ming to`qqiz yuz ellik.**

Sonlar quyidagi sintaktik vazifalarni bajaradi:

1. Ot oldidan kelib aniqlovchi vazifasini bajaradi: **O`rta bo`yli** yo`g`on gavdali ko`k movut avrali po`stin kiygan, **qirq besh yoshlardagi** bir kishi kirdi. (A. Q.)

2. Fe`l oldidan kelib hol vazifasini bajaradi. Fikrlar tuyg`ular o`ylar sonsiz **bir -biriga ularshib** boradi, chuvalashadi. (O.)

3. Ot yoki fe`lga bog`lanmagan holda ega, to`ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi vazifasida keladi: **besh karra besh -yigirma besh, o`ndan beshni olsa besh qoladi..**

Sonlar orasida ma`no va grammatic xususiyatlari jihatidan bir soni alohida ajralib turadi. **Bir** soni bir tomondan sonlarga xos: **bir uy, birinchi uy** xususiyatlariga ega bo`lganidek, sonlarga xos bo`lmagan xususiyatlarga ham ega. Shunga ko`ra bir soni quyidagi ma`nolarda ifodalananadi. 1. Noaniqlik ma`nosini ifodalaydi: Uyimizga **bir kishi** keldi.

2. Miqdor ifodalovchi so`zlarga va so`roq olmoshlariga qo`shilib ko`plikni, ortiqliknini ifodalaydi: **bir talay, bir necha, bir qancha;** ba`zan kamlikni ham ifodalaydi: **bir muncha. Bular tag`in bir muncha** yurgandan so`ng katta darvoza oldida to`xtadilar. (O.)

3. Ot, sifat, fe`1 , ravish oldidan kelib ma`noni kuchaytiradi. **Bir jum** hayratda qolgan chol kalovlanib o`rnidan turdi, ikki qo`llab ko`rishgach, mehmonni taqir po`stakka taklif qildi.(O.)

4. Ayiruv bog`lovchisi vazifasida keladi: **bir yig`laydi , bir kuladi.**

58 s. SONNING MA`NO JIHATIDAN TURLARI

Sonlar ma`no va grammatic xususiyatlariga ko`ra ikkiga bo`linadi: **sanoq sonlar, tartib sonlar.** Predmetning son- sanog`i va umumiyligi miqdorini bildiradigan sonlar sanoq sonlar deyiladi: **uch uy, o`ttiz kishi.**

Sanoq sonlar asosan otga bog`lanib uning miqdoriy belgisini bildiradi va gapda aniqlovchi vazifasida keladi: **besh o`quvchi, o`n bog`.**

Sanoq sonlar sanoq so`zlar (numerativlar) bilan ham qo`llaniladi. Sanoq so`zlar predmetning miqdorini donalab sanash uchun ishlataladigan so`zlardir. Sanoq so`zlar sanoq sonlar bilan birga otga bog`lanib, uning miqdorini bildiradi.

Sanoq so`zlar quyidagicha ma`nolarni ifodalaydi.

1. Predmetning miqdorini bildiradigan sanoq so`zlar: **dona, nusxa, nafar, tup. Masalan, besh tup olma** kabi.
2. Predmetning uzunligini, masofasini bildiradi: **metr, kilometr, qarich, qadam.**
3. Predmetning maydonini bildiradi: **sotix, tanob, gektar.**
4. Suyuqlikning o`lchovini bildiradi: **litr, chelak , flak, stakan, choynak. Masalan, bir choynak choy** kabi.
5. Og`irlilikning o`lchovini bildiradi: **gramm, kilogramm, sentmetr, tonna.**
6. Predmetning qiymatini bildiradi: **so`m, pul, tanga, tiyin.**
7. Vaqtini bildiradi: **minut, sutka, soat , yil.**

Sanoq sonlar ma`nosiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi:

- 1) miqdor son 3) chama son 5) taqsim son.
2) dona son 4) jamlovchi**

Miqdor sonlar predmetning umumiyligi miqdorini bildiradi va barcha xususiyatlari jihatidan sanoq songa mos keladi: **ikki kishi, uch oy, o`n yil** kabi. **Dona sonlar** predmetning donalab sanaladigan miqdorini bildiradi. Sanoq sonlarga **-ta** qo`shimchasini qo`shish bilan hosil bo`ladi: **uch +ta kishi o`nta kitob.**

Dona sonlar sanoq so`zlar: nafar, dona, bet, bosh, nusxa kabilar bilan ham hosil bo`ladi: **uch nafar, o`n dona, yuz bet, ming bosh, besh yuz nusxa** kabi. **Chama sonlar** predmetning taxminiy miqdorini bildiradi va quyidagicha hosil bo`ladi.

1. Sanoq sonda -tacha qo`shimchasini qo`shish bilan: **o`ntacha, yuztacha.**
2. Sanoq songa -larcha qo`shimchasini qo`shish bilan: **o`nlarcha, yuzlarcha.**
3. Sanoq songa **-lab** qo`shimchasini qo`shish bilan: **o`nlab, yuzlab, minglab.**
4. Sanoq songa **-lar (da)** qo`shimchasini qo`shish bilan: uchlarda, beshlarda, **-lab, -larcha** qo`shimchalari **o`n yuz, ming** sonlariga, **- tacha** qo`shimchalari esa barcha sonlarga qo`shiladi.
5. Sonlardan keyin **chog`li** so`zini keltirish bilan. Mashina kuzivida **uch chog`li** xotin, yosh bolalar va uchta sigir bor edi.(S.A.)
6. Ikki sanoq sonni jihatlash bilan: **ikki -uch, o`n -o`n besh** .Ular mirzo darvozasiga yaqinlashganlarida **besh-olti** kishi ot choptirib chiqdi. (P.Q.)

Jamlovchi son predmetning jamlangan to`dalangan miqdorini anglatadi. Jamlovchi sonlar quyidagicha hosil bo`ladi.

1. Sanoq sonlarga **- ov** - qo`shimchasini qo`shish bilan: **ikkov, ichov, oltov.**
 2. Sanoq sonlarga **-ala** qo`shimchasini qo`shish bilan: **uchala, to`rtala, beshala.**
 3. Sanoq sonlarga **-ovlon** qo`shimchasini qo`shish bilan: **to`rtovlon, beshovlon.**
- ov , ovlon** qo`shimchalari ikkidan yettingacha va o`n soniga **-ala** qo`shimchasi ikkidan beshgacha bo`lgan sonlarga qo`shiladi . Ikki, olti, yetti sonlariga **-ov** qo`shimchasi qo`shilganda o`zakdag'i bitta **i** tushib qoladi: **ikki- ikkov, olti- oltov.** Shuningdek, ikki soniga **-ala** qo`shimchasi qo`shilganda ham bitta **i** tushib qoladi: **ikki-ikkala.**

Taqsim son predmetning taqsimlanish miqdorini bildiradi. Sanoq songa-tadan qo`shimchasini qo`shish bilan hosil bo`ladi: **yuztadan, mingtadan.**

Bundan tashqari taqsim sonlar: a) sanoq sonning takrorlanib kelishidan ham hosil bo`ladi: **ikkita -ikkitadan, beshta-beshtadan** . b) Jamlovchi sonning takrorlanib kelishidan hosil bo`ladi: **beshov- beshov, oltov-oltov.Oshni uchala -uchala bo`lib olinglar.**

Tartib son. Predmetning joylashish tartibini bildiradigan sonlar tartib son deyiladi. Tartib son sanoq sonlarga **-nchi** (inchi) qo`shimchalarini qo`shish bilan yasaladi: **uchinchisinf, beshinchidaha, o`ninchi uy.**

Tartib sonlar so`z bilan yozilganda **-nchi** -(inchi) qo`shimchalari so`zga qo`shib yoziladi: birinchi, ikkinchi kabi. Tartib sonlar arab raqami bilan ifodalanganda **-nchi, -(inchi)** qo`shimchalari o`rnida chiziqcha qo`yiladi: 2-sinf,15- xonadan kabi. Yil , oy chislolarda esa chiziqcha qo`yilmaydi: **1999 yil ,10 sentabr.** Tartib son rim raqami bilan ifodalanganda hech qanday belgi qo`yilmaydi: **XXI asr, XV sessiya** kabi.

Tartib sonlar otlashganda gapda ega vazifasida keladi. Tavakkal qilib saharda bir chovut solamiz ulfatlar o`likday qotadi, shunda ishni boshlaymiz -shivirladi, **ikkinchisi.(O.)**

Tartib sonlar gapda asosan aniqlovchi: Kelganidan beri bu taraflarda **birinchi marta** mashina ovozi eshitilishi edi. (S.A.) Chiqish kelishigida tartib sonlar gapda kirish so`z vazifasida kelib, fikrni ifodalanish tartibini bildiradi: **birinchidan, ikkinchidan.**

Sonlar qo`llanilishiga ko`ra ikki xil: butun va kasr sonlarga bo`linadi. Butun sonlar predmetning butunligicha, qismlarda ajratmagan holda ifodalaydi: **besh, o`n, bir yuz ellik.**

Kasr sonlar butunning qismini ifodalaydi: yarim, bir yarim, beshdan bir. Kasr sonlar quyidagicha hosil bo`ladi:

1. Butun son bilan kasr sonning qo`shilishidan : **uch yarim, besh taqsim bir.**
2. Chiqish kelishigidagi son bilan asosiy shakldagi sonning birikuvidan: **uchdan bir, o`ndan ikki.**
3. Mazmunan butun emaslikni bildiruvchi so`zlar bilan: **chorak, yarim.** Butun son bilan kasr son birgalikda qo`llanishi kasrlı son deyiladi: **uch yarim** kabi.

59 s.

SONLARNING TUZILISHIGA KO`RA TURLARI

Sonlar tuzilishiga ko`ra uch xil: **sodda sonlar, qo`shma sonlar, juft sonlar.** Birgina o`zakdan iborat bo`lgan sonlar sodda sonlar deyiladi. O`zbek tilidagi **22 ta** tub son sodda sonlardir. Bu sonlar boshqa qo`shma va juft sonlarni vujudga keltiruvchi sonlardir.

Ikki yoki undan ortiq sonlarning birikuvidan tashkil topib, bir miqdor tushunchasini bildiruvchi sonlar qo`shma sonlar deyiladi: **o`n besh, ellik olti, bir yuz oltmisht** kabi.

Qo`shma sonlar quyidagicha tartibda qo`llanadi: a) katta sonlar oldin, kichik sonlar keyin keladi: **o`ttiz besh, oltmisht olti** kabi.b) oldin kichik sonlar, keyin katta sonlar, undan keyin yana kichik sonlar keladi: **bir yuz ellik, ikki ming bir.**

Ikki sonning ketma -ket kelishi asosida o`zaro teng bog`lanishdan hosil bo`lgan sonlar juft sonlar deyiladi. Juft sonlar quyidagicha hosil bo`ladi:

1. Ikki sonning o`zaro teng bog`lanishidan : **ikki -uch, besh-olti.**
2. Beshliklarning ketma -ket kelishidan : **besh-o`n, o`ttiz- o`ttiz besh.**
3. O`nliklarning ketma-ket kelishidan : **oltmisht-etmisht, sakson-to`qson.**
4. Yuzliklarning ketma-ket kelishidan : **to`rt yuz-besh yuz, olti yuz- etti yuz.**
5. Mingliklarning ketma-ket kelishidan: **ikki ming-uch ming, besh ming- olti ming.**

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Son deb nimaga aytildi?
2. Sonlar yozuvda qanday ifodalanadi?
3. Sonlar so`z turkumi sifatida qanday xususiyatlarga ega?

4. Sonlar ma`no jihatidan necha xil?
Tuzilishga ko`ra-chi?

AMALIY MASHQLAR **Sonni tahlil qilish tartibi**

1. Sonlarning ma`nosiga ko`ra turlari.
2. Sanoq sonning turlari.
3. Numerativ so`z bilan qo`llangan , qo`llanmagani.
4. Sonlarning tuzilishiga ko`ra turlari.
5. Gapdag'i vazifasi.

Namuna: Ikki oradagi sir sirligicha qoldi.(P.Q.) Ikki-son, sanoq son, miqdor son, numerativ so`z bilan qo`llanmagan, sodda aniqlovchi.

31-mashq. Sonlarning topib ma`no jihatidan turini aniqlang.

1. Men ko`rganmen, zarblari bundan o`n hissa ortiq. (P.Q.) 2. Bobur Firdavsiydan , Sa`diydan minglab baytlaarni yod biladi. (P.Q.) 3. Qolgan ikki so`mni Saidiy besh kunga etkazdi, oltincfhi kuni esa och qolib, kechqurungacha yotib uxladi.(A.Q.)4. Ikkovlari ham o`z yulduplariga tikilib nimalarnidir uylashardi.(S.A.)5. Ikkala qiz ham og`iz ochmay jum qolishdi.(Ch.) Dam o`tmay ikkitadan non orasiga qo`yilgan kabobni ko`tarib keldi.(T.Mal.) 7. Birov tosh, birov gul, o`z joyida ikkovi ham yaxshi. (A.Q.)

32-mashq. Sonlarni ma`no va tuzilishi jihatidan turini aniqlang.Gapdag'i vazifasini aytинг. 1. Tun sukutini ot tuyoqlarining dupuri buzdi. Navkarlardan biri oldinda ikkinchisi yonma-yon ot choptirib borardi. (O.Yo.)b 2. Famirzodam, voldangiz ikkovimiz nozik bir muammoga sizning maslahatingizni olgani keldik.(P.Q.) 3. Peshanadagi bittayu- bitta bolani er-xotin ana shunday tashvish, ana shunday mehribonchilik bilan katta qilishdi.(S.A.)4. Uch to`rt kundan beri soqol olishga hafsala qilmagan ellik yoshlardagi kishi Ismoilbey bilan qo`shqo`llab so`rashdi.(T.Mal.)

O L M O S H

60 s. OLMOSHNING MA`NOSI VA GRAMMATIK BELGILARI

Predmet yoki uning biror belgisiga nom bo`lmay predmet yoki belgi tushunchasining mavjudligini bildiradigan so`zlar turkumi olmosh deyiladi.Olmoshlar nutqda ot, sifat, son o`rnida qo`llanilib, ular bajaradigan vazifalarni bajarib keladi. Masalan, **Xonim hazratlari** bugun dafn marosimini o`tkazib ertaga Andijonga kelurlar.**Ulug` onangiz** ham chorborg`dan qo`rg`onga ko`chmoqchi edilar. **Ular** sizni qaerdan topurlar. (P.Q.) Shahrimizda **chiroyli** binolar juda ko`p. Qani edi **shunday** binolar ko`paysa. Birinchi va ikkinchi gapdag'i **xonim hazratlari**, **ulug` onangiz** so`z birikmalari o`rnida keyingi gapda ular olmoshni, keyingi gapdag'i **chiroyli** so`zi o`rnida **shunday**

olmoshining qo'llanishi olmoshlarning ot , sifat, son o'rnida qo'llanilishidan dalolat beradi. Olmoshlar nutqda qaysi so'z turkumi o'rnida kelsa, shunga mos holda ma`no ifodalaydi. nutqdan tashqarida esa olmoshlarning ma`nosi mavhum va umumiyyidir.

Chunonchi, III shaxs birligidagi kishilik olmoshi u orqali shaxslar ifodalansa, ko`rsatish olmoshning xuddi shu shakli orqali barcha predmetlar ko`rsatiladi. Ko`rinadiki, u olmoshining har ikki varianti orqali ko`rsatilayotgan va ifodalangan narsa va predmetlar umumiyyidir.

Olmoshlar boshqa so'z turkumlari o'rnida kelganligi uchun ular bajarayotgan vazifalarni bajaradi.Olmoshlar ot o'rnida kelganda otga xos vaxifani bajarib otlar kabi kelishik va egalik qo'shimchalarini olib o`zgaradi: **mening, meni, menga , manda, mendan, o`zim, o`zing, o`zi** kabi.

``Olmoshlar gapda quyidagi bvazifalarni bajaradi. Ega vazifasida keladi: 1) kishilik olmoshlari ega vazifasida keladi. Siz bizdayin suyagi paxtada qotgan odamlarning so`ziga kiravering. (O. O`.)

2) o`zlik olmoshi ega vazifasida keladi. **O`zim** bilib oldim. (S. A.)

3) so`roq olmoshlari ega vazifasida keladi. **Kim** biladi, balki ranjimas. (S.A.)

4) belgilash olmoshlari ega vazifasida keladi . Hammasi butun, **hammasi bir. (P.Q.)**

5) bo`lishsizlik olmoshlari ega vazifasida keladi. Bandi solar yo`lida boshqa **hech kim** ko`rinmas edi. (P.Q.)

6) gumon olmoshlari ega vazifasida keladi; Asadbek ammamning buzog`iga o`xshab qolibdi, desa **birov** ishonmaydi. (T. Mal.)

Olmoshlar sifat o'rnida ishlatilganda gapda aniqlovchi vazifasida keladi. Endi **bu** yozuvlarni davom ettirib, O'sh to`g`risida bita boshladi. (P. Q.) Shuningdek, olmoshlar gapda to`ldiruvchi va hol vazifasida ham keladi. Ikromjon **unga** piching qildi .(S.A.) Olmoshlar boshqa so'z turkumlari o'rnida kelganligi uchun ularga xos belgilarga ega bo`ladi.Shu bilan bir qatorda o`ziga xos xususiyatlari ham mavjud. Bu holat olmoshlarning kelishik va egalik qo'shimchalarini olib qo'llanishidagi o`ziga hosligida yaqqol ko`rinadi. Olmoshlarni boshqa so`zlardan farqlovchi asosiy belgi uning ma`no xususiyatidagi mavhumlik va umumiylidir. Bu holat olmoshlarning so'z turkumi sifatida ajratilishidagi asosiy mezondir.

Olmoshlar boshqa so'z turkumlaridan yasalmaydi. Ular yasalish xususiyati mavjud emasligi jihatidan songa o`xshaydi.

OLMOSHLARNING MA`NOSIGA KO`RA TURLARI

Olmoshlar ma`no va grammatik jihatdan quyidagi turlarga bo`linadi: **kishilik olmoshlari, ko`rsatish olmoshlari, o`zlik olmoshi, so`roq olmoshlari, belgilash olmoshlari, bo`lishsizlik olmoshlari, gumon olmoshlari.**

Kishilik olmoshlari. Bu olmoshlar nutq jarayonida qatnashadigan, tilga olinadigan shaxs so`zlovchi (**men**, **biz**), tinglovchi(**sen**, **siz**), va o`zga(**u**, **ular**) kabi shaxslar o`rnida qo`llanadi. kishilik olmoshlari birlik va ko`plik sonlarni, uch shaxsni (**I**, **II**, **III**) ko`rsatadi. **Men** olmoshi so`zlovchi shaxs, **sen** olmoshi tinglovchi shaxs o`rnida qo`llaniladi. Qo`y bu gaplarni, **men seni** sog`inib ko`rgani keldim.(O.).

Badiiy adabiyotlarda sen olmoshi harsa -predmetlarga nisbatan ham ishlatiladi. Ey ko`ngil quyoshi, **sen** ham chiqa qol, chaman chimildiqlar muborak endi.(G` .G` .)

Men, **sen** olmoshlarining ko`plik shakli mavjud emas.Shuning uchun ko`plik boshqa so`zlar (**biz**, **siz**) bilan ifodalanadi va bu so`zlar boshqa shaxslar bilan birgalikni bildiradi. **Biz**, **siz** olmoshlari ma`no jihatidan umumiy bo`lgan ko`plikmi ifodalasa -da, ba`zan bu olmoshlar **-lar** ko`plik qo`shimchasini olgan holda ham ishlatiladi: **bizlar** , **sizlar** kabi. Bunday holatda ko`plik ifodalovchi ikki shakl birlashadi biroq, ma`lumki bu shakllarning biri orqali ma`no ifodalanadi,. Bu xildagi bir xil ma`noni ifodalashda ishtirok etadigan ikkita shakl **pleonazm (ortiqcha)** deyiladi.Mana **sizlar** eshitdilaring, komissiya ukam nima dedilar ? (A. Q.)

Ko`plikni ifodalovchi **siz** olmoshi nutqda yakka shaxsni ifodalashda ham ishlatiladi. Bunda uning ko`plik ma`nosi hurmat ma`nosi bilan almashadi. Men o`zimni kimligimni sizga o`zim aytib berdim. Ammo siz o`zingizning kimligingizni aytib bermadingiz .(S.A.) Men olmoshi o`rnida nutqda **biz olmoshi** ishlatiladi va o`rni bilan kamtarlik, mag`rurlanish kabi ma`nolarni ifodalaydi. Masalan, **Seniki minnatli.** **Sen** burnining tagiga soch qoygan quruqlaringdan bittasiga buyurasan. U xo`p deydi-yu, ammo ichida ming`irlaydi.**Bizga** bunaqasi ketmaydi. **Bizga** xolis xizmat kerak.(T. Mal.)

Kishilik olmoshlarining I, II shaxslari insonga III shaxsi insonga va boshqa narsa-predmetlarga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan, **u** bir sayyoradir. Erdek shafaqgun, **u** bir olamdirki, bilmas nihoya .(E.V.) Kishilik olmoshlarining uchinchi shaxs birligi **u** ko`rsatish olmoshi **u** bilan shakldosh. Ular qaysi o`rinda kishilik, qaysi o`rinda ko`rsatish ekanligini matn belgilaydi. U kishilik olmoshi bolsa, **kim? nima?** so`rog`lariga, ko`rsatish olmoshi bo`lsa **qaysi?** so`rog`iga javob bo`ladi. Masalan, U o`ychan odimlab birinchi xonaga chiqdi. (O. Yo.)

Qalandar bilan Ali Qushchi oyoqlarini erga tirab, kiftlari bilan toshni azod ko`targan edi, u ohista qo`zg`alib, “gurs” etib ag`darildi.

(O.Yo.) Kishulik olmoshlari otlardek turlanadi, fe`llardek shaxs-son qo`shimchalarini oladi. Kishilik olmoshlari kelishik qo`shimchalarini olganda ayrim olmoshlar o`zagiga o`zgarish yuz beradi. Chunonchi, qaratqich va tushum kelishigi qo`shimchalari men, sen olmoshlariga qo`shilganda **bitta n** tovushi tushib qolsa, **u** olmoshiga jo`nalis, o`rin-payt va chiqish kelishigi qo`shimchalari qo`shilganda bitta n orttiriladi .

men	sen	u
mening	sening	uning
meni	seni	uni
menga	senga	unga
menda	senda	unda
mendan	sendan	undan

Shaxs- son qo`shimchalari kishilik olmoshlariga quyidagicha qo`shiladi: **menman, sensan.** Kishilik olmoshlari egalik qo`shimchalarini olmaydi. **Sening** so`zidagi **-ing** qo`shimchasi shaklan II shaxs egalik qo`shimchasiga o`xshasa-da, aslida qaratqich kelishgi shakldir.

Kishilik olmoshlarining barcha ko`rinishlari **-ning** qo`shimchasini olgan holda egalik ma`nosini bildiradi: **meniki, seniki, uniki** kabi. Bu qo`shimcha **men, sen** olmoshiga qo`shilganda bitta **i** tovushi tushib qolib o`zakda o`zgarish bo`ladi: **meniki, seniki.**

Ko`rsatish olmoshlari. Predmet, narsa-hodisani ko`rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlar ko`rsatish olmoshlari deyiladi. Ko`rsatish olmoshlari bir turdag'i predmetdan bittasini ajratib ko`rsatish uchun qo`llaniladi.

Bu olmoshlar predmetni so`zlovchi bilan predmet turgan masofaga nisbatan ko`rsatishiga ko`ra o`zaro farqlanadi. Ko`rsatish olmoshlaridan **u, bu, shu, o`sha**, shuningdek, shu olmoshlarining **ana, mana** so`zlari bilan birikuvidan hosil bo`ladi: **ana shu, mana bu, mana shu** kabi. Bu olmoshi o`rnida ba`zan **ushbu** olmoshi ishlatiladi.

Ko`rsatish olmoshlari so`zlovchiga yaqin yoki undan uzoqda turgan narsa-predmetni ko`rsatishiga ko`ra o`zaro farqlanadi. Bu olmoshi so`zlovchiga yaqin bo`lgan, so`zlovchi ko`z oldida bo`lgan narsa-predmetni ko`rsatish uchun qo`llaniladi. Masalan, To bu odam kursiga sekin, ehtiyyotlik bilan o`tirmagunicha hech kim o`tirmadi. (A.Q.) O`z domlasidan **bu savolni** eshitish Azizni dovdiratib qo`ydi. (O`U.) **Shu** olmoshi ham ma`no jihatidan bu olmoshiga yaqin. Kamina ham uch yilcha shu ish bilan shug`ullanib, oxiri natija chiqmay tashlab ketganman. (O`U.) **Bu** va **shu** olmoshlarining arxaik shakllari **bul, shul** badiiy nutqda ko`p ishlatiladi: Notiq dedi: taqdir **shul, bul** jahoniylar iroda, tillar yo`qolur butkul, bir til qolur dunyoda. (E.V.) Mirzo Ulug`bekka **bul** ish etibdir! (O.Yo.) **U** olmoshi so`zlovchiga nisbatan uzoqda bo`lgan predmetni ko`rsatish uchun, yoki oldin bo`lgan voqeani ko`rsatish uchun qo`llaniladi. Nizomjonni kelishini kutib u yondan bu yonga o`trib turdi. (S.A.) Saidakbar eshon u paytlar yosh bola edi. (A.Q.)

O`sha so`zlovchidan uzoqda bo`lgan narsa-predmetni ko`rsatish uchun, yoki ilgari bo`lib o`tgan voqeani eslash orqali ko`rsatish uchun ishlatiladi. Ha, O`rozqul haq, Normurod bundan oltmis yil miqaddam, mardikorlikka ketadidan o`sha mash`um ilon yilidan oldinroq shahar ko`rgan (O.Yo.) **Ana u, mana bu, mana shu, ana osha** olmoshlari tarkibidagi **ana, mana** so`zlari qanday

ma`noli olmoshga qo`shilsa , shu olmosh manosiga mos holda narsa- predmetni ko`rsatishda qo`llaniladi.

Ko`rsatish olmoshlari kelishik: **uning, shuning, o`shaning**; egalik : **inim, bunim, shunim**: ko`plik: **ular , bular shular** qo`shimchalarini olgan holda qo`llaniladi.

Ozlik olmoshi. Aniq yakka shaxsni ajratib ko`rsatish uchun ishlatiladigan **o`z so`zi o`zlik olmoshi** deyiladi. Bu olmosh kishilik olmoshlari (men -o`zim , sen -o`zing) o`rnida, shuningdek ot o`rnida (To`lqin -o`zing) qo`llanib, egalik qo`shimchasini oladi va har uchala shaxsni ko`rsatadi: **o`zim , o`zing, o`zi** kabi. O`zlik olmoshi kelishik qo`shimchalarini oladi: **o`zining, o`zini, o`zida, o`zidan**.

O`zlik olmoshi gapda ega, aniqlovchi, to`ldiruvchi va kesim vazifasida keladi. **O`zlari** ham yoshliklarida chavgon o`ynaganlar.(P.Q.) Bu dunyoda adolat **o`zi yo`q! -dedi.** (P.Q.) Domla Murodxo`ja o`zining yurishi bilangina emas, boshqa yana bir muncha sifatlari bilan ham o`rdakka o`xshardi.(**A.Q.**)

So`roq olmoshlari. Predmet, belgi, miqdor haqidagi so`roqni bildiradigan olmoshlar so`roq olmoshlari deyiladi. So`roq olmoshlari **kim, nima**, (predmet haqida), **qanday, qanaqa** (belgi haqida), **necha , qancha** (miqdor haqida), **qachon, qaerda** (o`rin-payt haqida), so`roqlarni anglatadi. So`roq olmoshlari yordamida so`roq gaplar tuziladi. Lekin bu sandiqlarni **kimga** yasatadi? Oltin va javohirlarni qanday sarf qiladi ? Bu nodir xazinani qaerda yashiradi? (O.Yo.) **Kim, nima, olmoshlari** kelishik va egalik qo`shimchalarini oladi: **kimning, kimim, nimam.**

Kim, nima so`roq olmoshlari gapda ega , kesim aniqlovchi, to`ldiruvchi vazifalarida keladi. **Kim senga** joy beradi? (S.A.) Belgi bildiruvchi qanday, qanaqa, olmoshlari aniqlovchi vazifasini bajaradi. Hamidalar **qanday** chaqqon o`ynashini hazrat bir ko`rsinlar. (P. Q.) O`rin va payt bildiruvchi **qaer, qachon** olmoshlari hol vazifasini bajaradi. U Hamidani g`alaba bilan muborakbod qilgandan keyin, kimning qizi ekanini va Agarda **qaerdan** kelganini so`roy boshladi. (P.Q.)

O`zing qachon kelding, og`a, -dedi, hayron bo`lib Ikromjon. (S.A.)

Belgilash olmoshlari. Predmet yoki shaxsning belgisini, ya`ni biror xususiyatini jamlab yoki ajratib ko`rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlar belgilash olmoshlari deyiladi.

Shunga ko`ra belgilash olmoshlari jamlovchi va ajratuvchi belgilash olmoshlari kabi guruhlarga bo`linadi . Ajratuvchi belgilash olmoshlari so`roq olmoshlaridan oldin har so`zini keltirish bilan hosil bo`ladi: **har kim, har nima, har qanday, har qancha, har qaysi** kabi.

Bu olmoshlar umumiylikni yakka orqali ko`rsatish uchun ishlatiladi.

Predmet yoki belgini butun holda jamlab, umumlashtirib ko`rsatadigan olmoshlar jamlovchi olmoshlaridir: **hamma, barcha, bari, butun**, kabi. Bu olmoshlar otlashganda egalik, kelishik qo`shimchalarini oladi: **barchaning, barchamiz**, kabi. Jamlovchi belgilash olmoshlarida jamlik ma`nosi mujassam

bo`lganligi uchun ular umumlashtiruvchi so`z vazifasida keladi: Qirq yil sultanat tebratib, orttirgan boyligim, rasadxona va kulubxonam, bitilgan va hali nihoyasiga etmagan risola-yu, kitoblarim -**barchasi** sening qo`lingdadir.(O. O.)

Belgilash olmoshlari o`ziga xos sintaktik xususiyatlarga ega:

1. Bosh kelishik shaklida, gapda ega vazifasida keladi. **Hamma** qayrilib qaradi.(A.Q.)
2. Ot oldidan sifatlovchi aniqlovchi vazifasida keladi. Hayhot, **barcha** hunarmandlar, boyonlar g`irt omi.(O.)
3. To`ldiruvchi vazifasida keladi. Vujudi mo`jizaga har bir so`zi harakati hayotga chaqirib turgan shu qizga hamdard bo`lish uchun u **hamma narsaga** tayyor edi.(A.Q.)

Belgilash olmoshlari orasida **ba`zi** olmoshi xarakterli. Bu olmosh jamlovchi olmoshlar sirasiga mansub bo`lib jamlikning ma`lum qismini bildirishi bilan xarakterlanadi. Masalan, Suratlardan **bazilarini** Saidiyga ko`rgani berar, bazilarini esa aynima suratday yashirar, hatto stol ustiga ham qo`ymas edi.(A.Q.)

Bazi olmoshi ko`plik, egalik, kelishik ma`nolarini ifodalaydi: **ba`zilar**, **ba`zilardan** kabi.

Bo`lishsizlik olmoshlari. Mutlaqo mavjud bo`lmagan predmet, miqdorni ifodalash uchun ishlatiladigan olmoshlar bo`lishsizlik olmoshlari deyiladi. Bo`lishsizlik olmoshlari so`roq olmoshlaridan oldin , hech so`zini keltirish bilan hosil bo`ladi: **hech kim**, **hech nima**, **hech qanday**, **hech qancha**, **hech qachon**. Bo`lishsizlik olmoshlaridan **hech kim**, **hech nima**, mavjud bo`lmagan shaxsni, predmetni; **hech qachon**, **hech vaqt** mavjud bo`lmagan paytni; **hech qanday**, **hech qaysi** belgini; **hech qancha** mavjud bo`lmagan miqdorni, **hech qayoqqa** yo`nalishini bildiradi va o`rni bilan ega, to`ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida keladi. Masalan, Hech kim va hech narsa unitilmaydi. U ishlatkan, hech narsani o`ylamasdi. (S.A.) U yoki, bu yoqqa qarab hech kimni ko`rmagandan keyin shoshib qamishlar orasiga kirib ketdi. (S.A.) Ammo u hech qachon Saidiyni kutib turganiga iqror bo`lmas edi.(A.Q.)

Bo`lishsizlik olmoshlari egalik va kelishik qo`shimchalarini olgan holda ishlatiladi: **hech kimning**, **hech kimdan**, **hech kimim** kabi. Bo`lishsizlik olmoshlari inkor ma`nosini bildiradi. Hech so`zi bir va narsa so`zlaridan oldin keltirilganda ham mavjud bo`lmagan narsa ifodalanadi va bo`lishsizlik olmoshi hosil bo`ladi: **hech narsa** kabi. Qalandar esa, garchand madrasani tark etgan bo`lsa ham, ko`nglida Mirzo Ulug`bek hazratlariga **hech bir** gina - qudrati yo`q. (O.Yo.)

Gumon olmoshlari. Mavjud, ammo noaniq bo`lgan predmet, belgi miqdorni taxminlab ko`rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlar gumon olmoshlari deyiladi. Bu olmoshlar predmet shaxs va belgi tushunchasini noaniq noma`lum holda belgilaydi. Masalan, Qorong`u cho`l fonida **u** xuddi ertaklarda tasvirlangan **allaqanday** farishtalarga o`xshab ko`rinadi.(S.A.)

Gumon olmoshlari quyidagicha hosil bo`ladi;

1. So`roq olmoshlari oldidan -alla qo`shimchasini qo`shish bilan: **allanima, allaqanday, allaqachon, allaqaysi** kabi.
2. So`roq olmoshlaridan keyin - dir qo`shimchasini qo`shish bilan: **kimdir, nimadir, qandaydir.**
3. So`roq olmoshlaridan oldin bir so`zini keltirish bilan: **bir nima, bir necha, bir qancha** kabi.

U **bir necha** kungacha shogirdining yuziga tik boqolmay o`zini chetga olib yurdi. (O. Yo.)

4. **Bir so`ziga -ov, -on** qo`shimchalarini qo`shish bilan: birov, biron kabi.

qumon olmoshlari gapda ega, aniqlovchi, to`ldiruvchi vazifalarida keladi. Dahlizning tashqi eshigi ochilib **kimdir** kiradi. (A.Q.) Bu odam, boshqa ko`p kishilarday **birovning** kamolatini ko`ra olmaydigan kishi edi.(A.Q.) Bu qo`shiqlar o`tirganlarning xayolini **allaqayoqlarga** olib ketib qoldi. (A.Q.)

Gumon olmoshlari ko`plik, egalik, kelishik qo`shimchalarini olgan holda qo`shiladi **allakimlar, allakimning, allakimim** kabi.

OLMOSHLARNING TUZILISHIGA KO`RA TURLARI

Olmoshlar turlariga ko`ra **sodda, qo`shma va juft** bo`ladi. Birgina so`zdan iborat bo`lgan olmoshlar sodda olmoshlar deyiladi: **men, sen, kim, nima** kabi.

Bir predmet, belgi yoki miqdorni bildiruvchi ikkita so`zning o`zaro qo`shilishidan tashkil topgan olmoshlar qo`shma olmoshlar deyiladi: **allakim, allanima, allaqanday, hech kim, hech qanday** kabi. Ikkita omosh-ning o`zaro tenglanishidan tashkil topgan olmoshlar juft olmoshlar deyiladi: **u-bu, siz-biz, men- sen** kabi.

Nutqda olmoshlar takror holda ham ishlatiladi: **shu- shu, o`sha-osha** kabi. Bu olmoshlar ham tuzilishiga ko`ra juft olmoshlaridir. Eski o`zbek tilida va badiiy adabiyotlarda men olmoshi o`rnida **kamina, faqir, banda** olmoshlari ishlatildan. Bu olmoshlar ot- olmoshlardir. Bas! **Kamina** o`z boshimni asrab qolmoq murodida ustodning ra`yini qaytargandan ko`ra siz aytgan xurofat gulxaniga yonmog`ni afzal ko`rurmen! (O.O.)

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Olmoshlarning o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Olmoshlarning ma`no jihatidan qanday turlari mavjud?
3. Olmoshlar gapda qanday vqazifalarni bajaradi?
4. Kishilik olmoshlarining otga va fe`lga xos xususiyatlari nimalarda ko`rinadi?
5. Olmoshlar tuzilishiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?

AMALIY MASHQLAR

Olmoshlarni tahlil qilish tartibi

1. Olmoshlarning ma`nosiga ko`ra turlari.
2. Qaysi turkum o`rnida qo`llanganligi.
3. Tuzilishiga ko`ra turlari.
4. Gapdagisi vazifasi.

Namuna: Hech kim dardimni eshitmaydi.(S.A.) Hech kim-olmosh, bo`lishsizlik olmoshi , ot o`rnida qo`llangan, qo`shma, gapda ega vazifasida kelgan.

33-mashq. Olmoshlarni topib, ma`no va vazifasiga ko`ra turini aniqlang.

1. Ana, jadvallarning yonida burchakdagi jovonda, Mirzo Ulug`bekning olti jildlik tarixiy asarlari yonida , uning-Ali Qushchining ham kitoblari turibdi.(O.Yo.)2. Men qayda bilay !-elkasini qisib dedi Ahmad Husayn- mena bu to`g`rida hech nima demadi, mutloq hech nima! (O.)3 . Birdan nimadir shitirlab ketdi.Yigit u yoq -bu yoqqa alangladi(S.A.) 4. Zokir kabinetdan allanechuk charchoqlik his qilib chiqdi.(P.Q.)5. Shu payt hovli tomondan kimningdir jon achchig`ida dodlagan tovushi eshitildi.(A.Q.)6. Mana, kamina aytgan mavlono Ali Qushchi huzuringizga qadam ranjida qildilar hazrati Temur bobo-dedi (O.Yo.)7. Bu gaplarning o`zlariga ham aloqador ekanligini sezishdi-da, birpas jim borishdi.(P.Q.)

34-mashq. Olmoshlarni gapdagisi vazifasini aniqlang, o`zi bog`langan so`z bilan birga ko`chiring.

1. Madomiki mendan gunoh sodir bo`lmadi tekshirsalar haqiqat oldida o`zlar qizarib qoladilar shunday emasmi? (O.) 2. Rahmat o`g`lim qilgan ishlaringni hammasidan xabarim bor.(S.A.) 3. Siz o`zingiz o`zingizni qiyaylo tgan bo`lmang.(PQ.)O`zingiz ishbilarmon qizsiz ! Sizga bizning yordamimiz kerak emas! (A.Q.) 5. Nizomjon o`zingiz qobilligi bilan bu erdagilarga darrov ma`qul bo`la qoldi.Undan hech kim qayerdan kel

ganini, bu erda nima qilib yurganini surishtirmadi.(S.A.)6. -Siz-chi!! Men ham eshindim, siz eng aktivlardan emishsiz. Necha kundan beri izlayman sizni, topolmayman.(O.)

F E` L

61 s . FE`LNING MA`NOSI VA GRAMMATIK BELGILARI

Predmetning ish-harakati va holatini bildiradigan so`zlar fe`l deyiladi. Masalan, **o`qidi, yozdi, keldi, ketdi, uxladi, o`tirdi** kabi. Fe`llar o`ziga xos morfologik xususiyatlarga ega. Binobarin, fe`llardagi o`timli, o`timsizlik, bo`lishli, bo`lishsizlik, nisbat, zamon, mayl kategoriyalari, fe`lning xoslangan shakllarining mavjudligi, tuslanish tuzumi, shuningdek maxsus fe`l yasovchi qo`shimchalar fe`l turkumining morfologik qamrovi kengligini ko`rsatadi.

Fe`llar gap tuzishiga ko`ra ba`zan otlarga ko`ra ham faoldir. Fe`l gapning tuzilishidagi muhim sintaktik asosidan biridir. Fe`llar gapda asosan kesim bo`lib keladi. Xoslangan shakllarning mavjudligi esa fe`llarning sintaktik qamrovini kengaytirgan. Xoslangan shakllar mavjudli uchun fe`l gapda ega, kesim : **birlashgan** -o`zar.(Maqol.) aniqlovchi: **kerilganning** to`yini ko`r maqtanganning uyini ko`r. (Maqol.) to`ldiruvchi: **qo`rqqanga** qo`scha ko`rinar. (Maqol.) kabi vazifalarda keladi.

O`TIMLI VA O`TIMSIZ FE`LLAR

Fe`l anglatgan harakatning predmetga munosabati o`timli, o`timsizlikni hosil qiladi. O`timli - o`timsizlik fe`lning tushum kelishigidagi so`z bilan bog`lanish yoki bog`lanmasligi bilan belgilanadi. O`timli fe`l tushum kelishigidagi so`z bilan bog`lanib, harakatni shu so`z anglatgan predmetga o`tganligini bildiradi. Masalan, Ikromjon **boshini ko`tarib**, uni ko`rdi-yu, mashaqqat bilan o`rnidan turdi. (S.A.) Domla **eshikni qarsillatib** yopdi-da, boshi aylanganday bo`lib devorga suyandi. (O.Yo). Tik, sirg`anchiq qoyatoshga chiqib o`rganmagan savdarlar **jihozlarini olib** kelayotganda juda qiynalib qolishdi.(P. Q.). Harakat predmetga to`la o`tsa, fe`l chiqish kelishigidagi ot bilan birikadi. Faqat idorama-idora yurib ishga sho`ng`ib ketgandagina bu o`ylar sal **yodidan ko`tarilib**, xayoli boshqa narsalarga alahsidi. (O.Yo.)

Biror predmetga o`tmaydigan harakatni bildiradigan fe`llar o`timsiz fe`llar deyiladi. O`timsiz fe`llar tushum kelishigidagi so`z bilan bog`lanmaydi. Otaqo`zi tog`asining ketidan hovliga qaytib kirarkan, gapni nimadan boshlashni o`ylab, yuragi **uvishib ketdi**. (O.Yo.) Nizonjon nimalar **bo`layotganini** tushunolmay, hamon supa oldida garang **turardi** .(S.A.)

Fe`llardagi o`timli-o`timsizlik fe`l ifodalaydigan ma`noga ko`ra qo`shimchasiz mavjud bo`ladi. O`timli- o`timsizlikning bu shakli lug`aviy - semantik shakldir. Masalan, **ol, ber, qo`y, o`qi, yoz, chiz, hayda, so`ra, -o`timli; tur, uxla, o`yna, kel, ket**, kabilar lug`aviy ma`nosiga ko`ra o`timsiz fe`llardir. O`timli- o`timsizlikni hosil bo`lishida fe`l nisbatlarini yasovchi qo`shimchalar

kuchli ta`sir qiladi. O`timli- o`timsizlikning bu yo`l bilan hosil bo`lishi morfologik usul hisoblanadi.

Fe`l nisbatini yasovchilar o`timli- o`timsizlikka tubandagicha ta`sir qiladi.1. O`zlik va majhul nisbat yasovchi qo`shimchalar o`timli fe`lni o`timsiz fe`lga aylantiradi: **ko`r- ko`rin, tara-taran, yuv-yuvin, ech-echin, kiy -kiyin** 2. Orttirma nisbat yasovchilar o`timsiz fe`lni o`timli fe`lga aylantiradi: **yur- yurgiz, kel- keltir, uxla- uxlat, o`yna- o`ynat**. Orttirma nisbat qo`shimchasi o`timli fe`ldan o`timsiz fe`l ham hosil qiladi: **yoz- yozdir, o`qi- o`qit, ter-terdir** kabi.

Qo`shma fe`llarda o`timli- o`timsizlik etakchi fe`lga nisbatan belgilanadi. Agar etakchi fe`l o`timli bo`lsa, qo`shma fe`l ham o`timli: **yozib ber, aytib ber** kabi: etakchi fe`l o`timsiz bo`lsa, butun qism o`timsiz hisoblanadi: **kelib ket, yotib tur** kabi.

BO`LISHLI VA BO`LISHSIZ FE`LLAR

Ish -harakatning bajarilishi haqidagi xabarni bildirgan fe`llar bo`lishli fe`llar deyiladi. Bo`lishlilik ma`nosi fe`lning lug`aviy ma`nosi orqali ifodalanadi. Uni ifodalovchi maxsus qo`shimcha mavjud emas: **o`qidi, yozdi, keldi, ketdi**.

Bajarilmaydigan ish- harakatni ifodalovchi fe`llar bo`lishsiz fe`l deyiladi.

Bo`lishsizlik quyidagi vositalar orqali vujudga keladi.

1. fe`lga **-ma** qo`shimchasini qo`shish bilan : **bormadi, o`qimadi, yozmadi, ishlamadi** kabi. - ma qo`shimchasi murakkab fe`llarning birinchi qismiga qo`shiladi: **o`qimay qoldi, ishlamay qo`ydi, yotmay turdi**.

- ma qo`shimchasi murakkab fe`llarning ikkinchi qismiga qo`shiladi: **olib bormadi, o`qib chiqmadi, so`rab olmadi** kabi. Murakkab fe`llarning har ikkala qismiga bu qo`shimcha qo`shilsa, bo`lishlilik hosil qiladi. Bunday holatlarda ish- harakatning aniq bajarilishi ifodalandi: **bormay ketmaydi, olmay qo`ymaydi**.

-ma qo`shimchasi ritorik so`roq gaplar tarkibida, ham bo`lishlilikni vujudga keltiradi: masalan, **onani kim sevmaydi** ?

2. Bo`lishsizlik sifatdosh shakliga **emas, yo`q** so`zlarini qo`shilishi bilan hosil bo`ladi: **borgan emas, o`qigan emas, yozgan emas, ishlagani yo`q, uxlagani yo`q** kabi.

Na inkor bog`lovchisi uyushiq bo`laklar orasiga kelib, bo`lishsizlik hosil qiladi. **Na o`qiydi, na yozadi**.

deyiladi. Harakat bilan sub`ekt (ega) va ob`ekt (predmet) orasidagi munosabatlar har xil, ya`ni fe`ldan anglashilgan harakat ob`ektga o`tishi: **bolalar kitobni o`qidi**, ob`ektga o`tmay, sub`ektning o`ziga qolishi: , **bolalar yuvindi**, harakat bir necha shazxs tomonidan birqalikda bajarilishi: bolalar bahslashdi, harakat boshqa shaxslarning ta`sirida bajarilishi: **o`qituvchi**, **bolalarga kitob o`qitdi** kabi shakllarda yuzaga keladi. Bunday shaklarning yuzaga kelishida maxsus shakl yasovchi qo`shimchalar ham ishtirok etadi. Biroq, bu qo`shimchalar fe`lning ma`nosini o`zgartirmay , unga qo`shimcha ma`no beradi. Masalan, **o`qidi** - ega tomonidan bajarilgan harakat, **o`qittirdi**, to`ldiruvchi bajaradigan harakatdir. Masalan, **Karim bolalarni o`qittirdi**. Harakatning bajaruvchisi bolalar, biroq harakat boshqa shaxsning - Karimning ta`siri bilan bajarilmogda.

Fe`llarda quyidagi nisbatlar mavjud:

1. Aniq nisbat. 2. O`zlik nisbati. 3. Majhul nisbat.

4. Birgalik nisbati. 5. Orttirma nisbat.

Aniq nisbat. Bu nisbat ega nomonidan bajariladigan harakatni ifodalaydi. Aniq nisbat hosil qiluvchi maxsus vosita yo`q.

U fe`lning negizi orqali ifodalanadi. Fe`lning bunday ko`rinishi juda faol qo`llaniladi. Shuning uchun bu shakl aktiv konstruksiyalar hisoblanadi.Masalan, **bolalar kitob o`qidi**.

O`zlik nisbati. Harakat ega tomonidan bajarilib, yana egaga qaytadi, ya`ni harakatning bajaruvchisi ham, ob`ekti ham bir shaxsning o`zi bo`ladi. O`zlik nisbati fe`l negiziga **-n**, **-in** qo`shimchalarini qo`shish bilan: taran, yuyl, kiyin, shuningdek, **-l**, **-il** qo`shimchalarini qo`shish bilan hosil bo`ladi: **cho`mil** kabi.

Fe`l yasovchi. **-lan** qo`shimchasi bilan yasalgan fe`llar ham o`zlik nisbat bo`ladi: **otlan, jonlan**.

Majhul nisbat. Bu nisbatda harakat bosh kelishik shaklidagi to`ldiruvchi tomonidan bajariladi yoki harakatning bajaruvchisi noaniq bo`ladi. Masalan , **kitob bolalar tomonidan o`qiladi**. Harakatning bajaruvchisi bolalar, biroq bu so`z gapda ega emas, to`ldiruvchi vazifasidadir. Shuningdek, **mix qoqildi** gapida esa harakatning bajaruvchisi noaniq.

Majhul nisbat quyidagicha hosil bo`ladi:

- a) fe`l negizlarga **-l**, **-il**, qo`shimchalarini qo`shish bilan: **ochildi**, **qoqildi**, **qurildi** kabi.b) fe`l negizlariga **-n**, **-in** qo`shimchalarini qo`shish bilan: **ko`rindi**, **bilindi** kabi.

O`zlik va majhul nisbat ayni bir xil qo`shimchalar bilan yasaladi. Fe`lning o`zlik yoki majhul nisbatda ekanligi gapning mazmunidan anglashiladi. Agar harakatni bajaruvchi sub`ekt aniq bo`lsa o`zlik nisbati: **Rustam yuvindi**, harakatning sub`ekti noaniq bo`lsa majhul nisbatdir: **kiyim yuvildi** kabi.Majhul nisbat ko`pincha passiv konstruksiya hisoblanadi.

Birgalik nisbati. Bu nisbat harakatning bir necha shaxs tomonidan birgalikda bajarilishini bildiradi.

Birgalik nisbati quyidagicha yasaladi:

1. Fe`l negizlarga **-sh**, **-ish** qo`shimchalarini qo`shish bilan: **yozishdi**, **kelishdi**, **borishdi**, **ko`rishdi**.
 2. Fe`llarga **-lash** qo`shimchasini qo`shish bilan: **suhbatlashdi**, **gplashdi**, **bahslashdi**. Birgalik nisbatdagi fe`llar quyidagi ma`nolarni anglatadi.
1. Harakatning bajarilishida bir necha shaxs birgalikda qatnashadi. Bunday gaplarda ega ko`pincha ko`plik shaklida ifodalanadi. **Bolalar kitob o`qishdi**. Normurodga qarashli boshqarma xodimlari esa uni vahimali bir sukut bilan **kutib olishdi**. (O.Yo.) Harakat bir necha kishi tomonidan bajarilib, har bir shaxs harakatning egasi bo`ladi. Shuningdek, shaxslardan biri ikkinchisiga nisbatan harakatning ob`ekti bo`ladi. Chunki bunday fe`llarda harakat bajaruvchilarning biridan ikkinchisiga o`tadi. Masalan, Eson Davlat begin mudaarris bilan mazhablar to`g`risida bahslashib o`tirishni istamadi. (P.Q.) Obidov bilan Latofat barobar o`girilib qarashdi. (O. Yo.)

Orttirma nisbat. Bu nisbat harakatni boshqa biror shaxsning ta`siri bilan bajarilishini ifodalaydi, ya`ni harakatning bajarilishi uchun boshqa biror kishi vosita bo`ladi. Orttirma nisbat fe`l negiziga quyidagi qo`shimchalarni qo`shish bilan hosil bo`ladi.

- 1) -t qo`shimchasini qo`shish bilan: **o`qit**, **ishlat**, **gullat**, **bezat** kabi
- 2) **-dir**, **-tir** qo`shimchasini qo`shish bilan: **yozdir**, **kuldir**, **uzdir**, **terdir**, **choptir**, **uzaytir** kabi. **- tir** qo`shimchasi **-t** qo`shimchasi orqali hosil bo`lgan orttirma nisbatdan yana orttirma nisbat hosil qiladi, **o`qit** **-o`qittir**, **kengayt** **-kengaytir**. 3) **-giz**, **-g iz**, **-gaz**, **-qiz**, **-kaz**, **-qaz** qo`shimchalari bilan : **ko`r**, **giz**, **yurg`iz**, **turgiz**, **yotqiz**, **o`tkaz**, **yutqaz**.
- 4) **-ir**, **-ar** qo`shimchalari bilan: **pishir**, **qaytar sat** qo`shimchasi bilan hosil bo`lgan **ko`rsat** fe`li orttirma nisbatdir. Biroq bu qo`shimcha bilan hosil bo`lgan shu nisbatdagi fe`llarning yuzaga kelishi aktiv emas.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Fe`llarning o`ziga xos morfologik xususiyatlari nimalardan iborat ?
2. O`timli va o`timsiz fe`llar nima ? Ular qanday usullarda yuzaga keladi?
3. Bo`lishli, bo`lishsizlik qanday hosil bo`ladi.
4. Fe`l nisbatlari nima? Fe`lda qaysi nisbatlar mavjud?

63 s. FE`LLARNING XOSLANGAN SHAKLLARI

Fe`llar gapda biror gap bo`lgagi vazifasini bajarishga moslashgan xoslangan shakllarga ega. Bu shakllarning mavjudligi uchun fe`llar gapda ega, to`ldiruvchi, aniqlovchi vazifalarini bajaradi. Fe`lning xoslangan shakllari uch xil.

1. Sifatdosh. 2. Ravishdosh. 3. Harakat nomi.

Bulardan tashqari fe`llarning sof fe`l shakli ham mavjud. Bu shakl buyruq- istak, shart mayli shakllarida kelib, gapda faqat kesim bo`lib keladigan shakldir. Bu shakl boshqa fe`l shakllaridek qo`shimchalar orqali hosil bo`lmaydi. Sof fe`lga tuslovchi qo`shimchalar negizga qo`shiladi: **oldim**, **olding** kabi.

Sifatdosh. Predmetning belgisi bo`lgan garakatni bildirib, gapda asosan sifatlovchi - aniqlovchi vazifasida keladigan fe`l shaklidir. Masalan: Imtihon ayni **qizigan** kunlar edi. (A.Q.) Sifatdosh quyidagi xususiyatlarga ega: a) barcha fe`llar singari o`timli -o`timsiz, bo`lishli - bo`lishsiz va zamon ma`nolariga ega: o`qigan - o`timli, **birlashgan** -o`timsiz, o`qigan -bo`lishli, **o`qimagan** - bo`lishsiz, **bo`lgan** -o`tgan zamon, bo`lajak-kelasi zamon kabi; b) sifatdoshlar tuslanib anqlik mayliga xos zamon shaklidagi fe`lni hosil qiladi: **borganman**, **kelganman**, **ko`rganman**;

v) sifatdosh gapda otlashib, ot bajaradigan sintaktik vazifalarni bajaradi. Masalan, **o`qigan -o`zar (Maqol.)**

Sifatdoshlar quyidagicha hosil bo`ladi:

1. Fe`l negiziga **-gan (-kan, -qan)** qo`shimchasini qo`shish bilan: **borgan kelgan**, **tikkan**, **yutgan**, **chiqqan**.
2. Fe`l negiziga **-digan**, **-yotgan**, qo`shimchalarini qo`shish bilan: **boradigan**, **yozadigan**, **keladigan**, **chopayotgan**.
3. Fe`l negiziga **-r**, **-ar** qo`shimchalarini qo`shish bilan: **o`qir**, **aytar**, **kelar**, **uchar** kabi.
4. Fe`l negiziga **-jak (-ajak)** qo`shimchasini qo`shish bilan : **yozajak**, **bo`lajak**, **kelajak**.
5. Fe`l negiziga **-gusi**, qo`shimchalarini qo`shish bilan: **kelgusi**, **borgusi**, **bilgusi**.
6. Fe`l negiziga **-vchi**, **-uvchi** qo`shimchalarini qo`shish bilan: **to`lovchi**, **boruvchi**, **aytuvchi**.
7. Fe`l negizi **-day** qo`shimchasini qo`shish bilan: borday kelday

Sifatdoshlar zamon ma`nosiga ko`ra 3 xil.

1. O`tgan zamon sifatdoshi. 2. Hozirgi zamon sifatdoshi. 3. Kelasi zamon sifatdoshi. O`tgan zamon sifatdoshi fe`li negiziga **-dan (-kan, -qan)** qo`shimchalarini qo`shish bilan hosil bo`ladi va nutq so`zlanib turgan paytdan oldin bo`lgan harakatning belgisini ifodalaydi. Masalan, Otaqo`zi zo`rma - zo`raki **kulgan** bo`ldi. (O. Yo) Rayimberdi tog`aning ham o`g`li urushning boshidayoq frontga ketgan.(S.A.)

Hozirgi zamon sifatdoshi fe`l negiziga **-vchi**, **-uvchi**, **-yotgan** qo`shimchalarni qo`shsihs bilan yasalib , nutq so`zlasnib turgan paytda bo`ladigan harakatning belgisini ifodalaydi. Masalan, Tursunboyning shu qalbaki xo`rsinishi Zebixon ko`ksidagi o`sha har narsani kechira **oluvchi**, har qanday darddan larzaga tushuvchi joyga borib qadalgan edi. (S.A.) Chilonzordagi sarg`ish, qizg`ish, g`ishtin, kulrang, oqish yirik panelli baland uylarning ko`lankalari tobora uzayib **borayotgan payt**. (O` U.)

Hozirgi zamon sifatdoshining **-yotgan** qo`shimchasini olgan shakli egalik va kelishik qo`shimchalarini olgan holda qo`llaniladi. **O`qiyotganimda, yozayotganimda** kabi.

Kelasi zamon sifatdoshi fe'l negiziga **-r (-ar)**, **-digan,-day** qo`shimchalarini qo`shish bilan yasalib, nutq so`zlanib turgan paytdan keyin bo`ladigan harakatning belgisini bildiradi. Masalan, Naymanga borgani **ma`kul bo`lar**. (S.A.) Bobur Farfona vodiysida nimaiki go`zallik ko`rgan bo`lsa, hammasini yozgisi kelar. (P.Q.)

Ravishdosh. Harakatining boshqa bir harakatning belgisi ekanligini anglatib, gapda ergash gapning kesimi yoki hol vazifasida keladigan fe'l shaklidir. Pobiya ko`zaga **qarab** suvga kelganini esladi va uni to`ldirib uylari tomon **ko`tarib** ketdi. (P.Q.) Ravishdosh quyidagi xususiyatlarga ega: a) barcha fe`llar singari o`timli, o`timsiz, bo`lishli, - bo`lishsiz, nisbat, zamon ma`nolariga ega.

Masalan, **yozay-** o`timli, bo`lishli, aniq nisbat, hozirgi zamon; **bormagach** -o`timsiz, bo`lishsiz, aniq nisbat, o`tgan zamon; b) ravisgdoshlar harakat tushunchasini bildiradi. Po`lat sandiqning qulfini **sindirib ochib**, undagi qog`ozlarni titkilayotgan bosqinchilar uy egasini **ko`rib**, derazadan ayvonga sakrashdi. (P.Q.) v) havishdosh holat tushunchasini bildiradi. Tohir **o`ylanib** qoldi. (P. Q.) g) Murakkab fe`lning etakchi qismi bo`lib keladi: **ayta oldi, yozib bordi**. Ravishdosh tuslanish tuslanmasligiga ko`ra ikki xil: **tuslanadigan ravishdoshlar, tuslanmaydigan ravishdoshlar**.

Tuslanadigan ravishdoshlar **-b, (-ib), -a , (-y)** qo`shimchalari bilan yasalib, shaxs-son qo`shimchalarini oladi: **boribman, boribsan, boraman, borasan** kabi. Bu ravishdoshlar tuslovchi qo`shimcha olmagan holda ishlatilib, gapda hol va ergash gapning kesimi vazifasida keladi. Haligi yigit **boshini** ko`tarib, Saidiyga bir qaradi-da, yana o`z ishi bilan mashg`ul bo`ldi. (A. Q.) tuslanganda gapda kesim vazifasida keladi. Odatda olim yo ijod kishisi birorta yirik ishni nihoyasiga etkazganda ruhida katta bir engillik sezadi (O. Yo.)

Tuslanmaydigan ravishdoshlar **-gach (-kach, -qach), -gani (-kani, qani), -guncha,(-kuncha,-quncha)** qo`shimchalari bilan yasalib shaxs-son, va zamon qo`shimchalari olmaydi: **borgach, borgani, borguncha** kabi.

Tuslanmaydigan ravishdoshi gapda hol, ergash gapning kesimi vazifalarida keladi. To ishini bitkazib, qaytguncha qorong`u tushib qolgan edi. (S.A.) U katta ko`chani kesib **o`tgach**, hadeb o`ziga o`zi dalda berishga urindi (O. O.) Ravishdoshlar zamon ma`nosiga ko`ra uch xil: **o`tgan zamon, ravishdoshlari, hozirgi zamon ravishdoshlari, kelasi zamon** ravishdoshlari. O`tgan zamon ravishdoshlari **-b (- ib), -gach, (-kach, -qach)** qo`shimchalari bilan yasaladi. Bu qo`shimchalar bilan yasalgan ravishdoshlar nutq jarayonidan ilgari bo`lib o`tgan harakatni anglatadi. Samarqand podshosi Qo`qonni bosib **olgan** qo`shiniga **talatgan** va Marg`ilonga hujum qilgan edi. (P.Q.) Qanchadan qancha etimlarning boshini silab **ovitgan** (S. A.)

-b (-ib) qoshimchasi bilan hosil bo`lganda ravishdosh -roq qo`shimchasini olib qo`llanishi mumkin: **kechikibroq** keldi. Bu shakldagi ravishdosh ergash gapning kesimi va hol vazifalarida keladi. **-gach (-kach, -qach)** shaklli ravishdosh nisbatan kam qo`llanilib ergash gapning kesimi vazifasida keladi. Ikromjom raisining uyiga mehmon kelishini **tayinlagach**, to`ppa-to`g`ri kolxoz saroyiga kirdi. (S.A.)

Hozirgi zamon ravishdoshlari ish- harakatning nutq so`zlanib turgan paytda bajarilganini bildirib, fe`l negiziga **-y (-a)** qo`shimchasini qo`shish bilan hosil bo`ladi. Bu ravishdoshlar tuslanganda yakka holda keladi: boraman, aytadi kabi. Tuslanmaganda takror holda qo`llanilib, harakatning davom etib turishini bildiradi: **kula-kula, ayta -ayta** kabi. **-y,(-a)** shaklidagi ravishdoshning bo`lishsiz shakli -ma qo`shimchasi bilan yasaladi: **aytmay, bormay**.

-y (-a) qo`shimchali ravishdoshlar murakkab fe`llar tarkibida etakchi bo`lib keladi: **o`qiy, boshladi, ayta oldi** kabi.

Kelasi zamon ravishdoshlari ish- harakatning nutq so`zlanib turgan paytdan keyin bajarilishini bildirib, fe`l negizi **-gani (-kani, -qani) -guncha, (-kuncha, -quncha)** qo`shimchalarini qo`shish bilan hosil bo`ladi.

- gani, (-kani, -qani) qo`shimchalari bilan yasalgan ravishdosh **ish** -harakatining bajarilish maqsadini bildiradi. Boburdan xafa bo`lib, Eson Davlat begimga shikoyat qilgani ketdi. (P.Q.) **-guncha (-kuncha, -quncha)** qo`shimchali ravishdosh ish- harakatning davomiyligini bildiradi: U to hovlidan uzoqlashib **ketmaguncha** hassasining “duk -duki” eshitilib turdi (O`. U.) Bu ravishdoshlarning ham bo`lishsiz shakli **-ma** qo`shimchasini qo`shish bilan hosil bo`ladi: **bormagani, bormaguncha**.

Harakat nomi. Harakat nomi harakat va holatning nomini bildirib, gapda otga xos vazifalarni bajaradi. Harakat nomi bir tomondan fe`lga, ikkinchi tomondan otga xos belgilarga ega. Ular fe`llar singari harakatni bildiradi, o`timli-o`timsiz bo`ladi, nisbat kategoriyasiga va boshqa so`zлarni boshqarish xususiyatiga ega. Axir bugun odamlar cho`lga **ketishadi** (S.A.) gapidagi ketishadi so`zi harakatni ifoda etadi, birgalik

nisbati, cho`l so`zini boshqargan. Harakat nomi otlar singari kelishik va egalik qo`shimchalarini olib qo`llaniladi.

Gapda ot kabi ega, to`ldiruvchi, aniqlovchi vazifalarida keladi: Keyin Hirotg'a Amir Alisherning huzuriga borganda **bu yozuvlari** juda kerak bo`ladiganga o`xshardi (P.Q.) U yozuvga berilib ketib, ko`shk oldigacha chopib kelgan otning dupurini eshitmadı.(P.Q.) Harakat nomi quyidagicha hosil bo`ladi.

1. Fe`l negiziga **-sh, (-ish)** qo`shimnchasini qo`shish bilan: **o`qish, chopish, kulish, gaplashish** kabi. -sh (-ish) shaklidagi harakat nomi ko`p qo`llanilishi bilan harakterlanib, ko`proq otga yaqinligi bilan ajralib turadi.

2. Fe`l negiziga - **v (-uv)** qo`shimchasini qo`shish bilan: o`quv, boruv, keluv. Bu shakl kam qo`llanilishi bilan xarakterlanadi. Keyin ular o`rtasida qandaydir **tortishuv** boshlanadi.(S.A.)

3. Fe`l negiziga **-moq** qo`shimchasini qo`shish bilan: **-moq** qo`shimchasi bilan yasalgan harakat nomi ko`proq fe`lga yaqin bo`lib, u fe`lning noaniq shakli ham hisoblanadi: **bormoq, kelmoq, o`qimoq, aytmoq** kabi. Harakat nomining egalik va kelishik qo`shimchalarini olib qollanilishi o`ziga xosdir. Ular egalik qo`shimchasini olganda harakatning bajaruvchisini bildiradi: **borishim kerak, borishing kerak** kabi. Kelishik qo`shimchalarini olganda esa harakatning bajarilishi usuli, jarayonini bildiradi: **borishning, kelishning**

FE`LLARDA MODAL SHAKLLAR

Fe`ldan anglashilgan ish - harakatning borliqqa munosabatini ifodalaydigan shakllar fe`lning modal shakllaridir. Fe`lning modal shakllari maxsus shakl yasovchi qo`shimchalar, belgining kuchli yoki kuchsizlik shakllari natijasida vujudga keladi. Quyidagi qo`shimchalar fe`lning modal shakllarini hosil qiladi.

1. **-la** qo`shimchasi fe`l negiziga qo`shilib , harakatning takrorlanish ma`nosini ifodalovchi modal shakl hosil qiladi: **quv-quvla, ishqqa-ishqala, sava-savala**.

2. **-gila (-g`ila, -kula, -qila)** qo`shimchasi negizga qo`shilib harakatning kuchliligini, davomiyligini bildiradi: **ez-ezg`ila, turt -turtqila, cho`z-cho`zg`ila, tort- tortqila**.

3. **-nqira (-inqira) -msira (-imsira)** fe`l negizlariga qo`shilib harakatning kuchsizligini bildiradi: **to`xtanqira, chopinqira, yig`lamsira, kulimsira** kabi.

FE`LLARDA SHAXS - SON

Fe`l shakllarida harakatning bajaruvchisi -grammatik shaxs ma`nosi o`z ifodasini topgan bo`ladi. Grammatik shaxs so`zlovchi, tinglovchi va o`zgadir. So`zlovchi va tinglovchi suhbatga bevosita ishtirok etuvchi, o`zga esa suhbatga ishtirok etmaydi. Grammatik shaxs, grammatik son bilan (birlik va ko`plik) birgalikda ifodalanadi.

Grammatik shaxs va son maxsus qo`shimchalar orqali ifodalanadi. Ayni bir qo`shimcha ham shaxsni ham sonni bildiradi. Masalan, **man** qo`shimchasi birinchi shaxsni ham , birlikni ham bildiradi: **boraman** kabi. Shuning uchun bundayn qo`shimchalar shaxs -son qo`shimchalari deyiladi. Fe`llarning shaxs -son qo`shimchalarining olib kelishi tuslanish deyiladi. Shunga ko`ra shaxs-son qo`shimchalari tuslovchi qo`shimchalardir.

Fe`llarning birinchi va ikkinchi birlik shaxs shakli faqat kishilarga nisbatan, uchunchi shaxs esa kishilarga va boshqa jonli va jonsiz predmetlarga nisbatan ham ishlataladi.

O`zbek tilida tuslanishning quyidagi uch guruhi mavjud.

1 guruh tuslanish

	birlik	ko`plik
I	-m	-k
II	-ng	-ngiz
III	-	-(lar)

Bu tuslovchilar **di** va **sa** shakllari bilan tugagan sof fe`llarga qo`shiladi: **bordim, boarding, bordi, bordik, boardingiz, bordilar, borsam, borsang, borsa, borsak, borsangiz, borsalar** kabi .

2- guruh tuslanish

	birlik	ko`plik
I	-man	-mis
II	-san	-siz
III	-	-lar

Bu qo`shimchalar ravishdosh, sifatdosh shakllariga qo`shiladi: boribman, borganman, kabi

3 - guruh tuslanish

	birlik	ko`plik
I	-ay (-ayin)	-aylik
II	-gin	-ingiz
III	-sin	-sinlar

TAKRORLASH UCHUN SAVOLVA TOPSHIRIQLAR

1. Fe`lning qanday xoslangan shakllari mavjud?
2. Qanday qo`shimchalar sifatdosh hosil qiladi?
3. Ravishdoshlarning qanday turlari mavjud?
4. Harakat nomidagi otga va fe`lga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
5. Qaysi shakllar modal shakllar?
6. Tuslanish deb nimaga aytildi?

64 s.

FE`L ZAMONLARI

Ish -harakatning nutq so`zlanib turgan paytga bo`lgan munosabatlarini ifodalaydigan kategoriylar fe`l zamonlari deyiladi. Ish- harakat nutq so`zlanib turgan paytdan oldin, bir vaqtida yoki keyin bajarilishi mumkin. Shunga ko`ra fe`llarda uch zamon shakli mavjud. **O`tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon** . Bu zamon shakllari bir necha turlarga ham bo`linadi. Chunki harakat ma`lum bir paytda so`zlovchining ko`z oldida bajarilishi mumkin bo`lganidek, harakat haqida boshqa biror shaxs xabar qilishi mumkin, yoki harakat nutq jarayonida boshlanib, tugashi yoki keyinchalik ham davom etishi mumkin.

O`TGAN ZAMON FE`LI

Ish -harakatning nutq jarayonidan oldin bajarilganini bildiradi. O`tgan zamon fe`li ko`p shaklliligi, turli-tuman ma`no xususiyatlariga egaligi bilan ajralib turadi. O`tgan zamon fe`lining quyidagi ma`no turlari mavjud.

1. Aniq o`tgan zamon fe`li.
2. Uzoq o`tgan zamon fe`li.
3. O`tgan zamon hikoya fe`li.
4. O`tgan zamon davom fe`li.
5. O`tgan zamon maqsad fe`li.

Aniq o`tgan zamon fe`li ish- harakatning nutq so`zlanib turgan paytdan oldin, so`zlovchi ko`z oldida aniq bajarilganini bildiradi. Bu fe`l shakl fe`l negiziga **-di** qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan hosil bo`ladi.

birlit	ko`plik
I yozdim	yozdik
II yozding	yozdingiz
III yozdi	yozdi (-lar)

Aniq o`tgan zamon fe`li bir vaqtida bajarilgan,davom etmaydigan harakatni ifodalaydi. Yoy o`qi nishon yog`ochiga etib urilgani baralla **eshitildi**. (P.Q.) Endi men o`zimning qilmishimdan pushaymon **bo`ldim**.(A.Q.)

Uzoq o`tgan zamon fe`li nutq so`zlanib turgan paytdan ancha ilgari bajarilgan ish- harakatni ifodalaydi. Kelini Mehriniso Toshkentlik, o`g`li ikkisi o`qish davrida **topishgan** (O.Yo.)

Uzoq o`tgan zamon shakl fe`l negiziga **-gan** qo`shimchasini qo`shish va tuslash orqali hosil bo`ladi.

birlit	ko`plik
I yozganman	yozganmiz
II yozgansan	yozgansiz
III yozgan	yozgan (-lar)

Uzoq o`tgan zamon fe`li ma`no jihatidan quyidagicha:

1. Harakat so`zlovchining ko`z o`ngida bajarilmaydi. Harakatning bajarilishi haqida so`zlovchi eshitgani asosida yoki turli faktlar asosida xabar beradi. Hirotda ta`lim olib kelgan andijonlik me`mor mulla Fazliddin mana shu kumush va marmar hovuzli tillakori shiyponni qurgan paytlarida yosh Boburga Navoiy haqida juda ko`p ajoyib hikoyalari aytib bergan edi.(P.Q.)
2. Harakatning bajarilganligi haqidagi noaniqlik, gumon ma`nolari ifodalanadi. Bu shakl **-gan** qo`shimchasiidan keyin **-dir** qo`shimchasini qo`shilishi bilan hosil bo`ladi: **borgandir**, **o`qigandir** kabi.
3. Nutq jarayoniga nisbatan ancha ilgari yuz bergan harakat ifodalanadi. Ilgari bajarilgan harakat, so`zlovchi ko`z oldida bajarilgan bo`lib dan qo`shimchasi sifatdosha edi to`liqsiz fe`lini biriktirish va tuslash bilan hosil bo`ladi.

birlit	ko`plik
I borgan edim	borgan edik

II borgan eding	borgan edingiz
III borgan edi	borgan edi (-lar)

b) Harakat ilgari bajarilib, so`zlovchi uni keyinchalik xotirlashi orqali ifoda etadi. Bu shakl-**gan** qo`shimchali sifatdoshga ekan to`liqsiz fe`lini biriktirish va tuslash orqali hosil bo`ladi.

birlik	ko`plik
I borgan ekanman	borgan ekanmiz
II borgan ekansan	borgan ekansiz
III borgan ekan	borgan ekan (-lar)

O`tgan zamon hikoya fe`li nutq jarayonidan ilgari bajarilgan ish- harakatni hikoya qilish assosida ba`yon etilishini ifodalaydi. Bu shakl fe`l negiziga **-b (-ib)** qo`shimchasini qo`shish va tuslash orqali hosil bo`ladi.

birlik	ko`plik
I yozibman	yozibmiz
II yozibsan	yozibsiz
III yozibdi	yozibdi (-lar)

Otgan zamon hikoya fe`li **-b (-ib)** shaklli ravishdoshga edi to`liqsiz fe`lini qo`shib, tuslash orqali hosil qilinganda ilgari bajarilgan harakatni aniq eslash ifodalanadi. **Yozib edim, yozib eding.**

O`tgan zamon davom fe`li nutq jarayonidan oldin, ma`lum davr ichida davom etgan yoki takrorlanib turgan ish- harakatni bildiradi. Bu fe`l shakli fe`l negiziziga **-r (-ar)** sifatdosh qo`shimchasini qo`shib, edi to`liqsiz fe`lini keltirish va tuslash bilan hosil bo`adi.

birlik	ko`plik
I yozar edim	yozar edik
II yozar eding	yozar edingiz
III yozar edi.	yozar edi (-lar)

Bu fe`l shaklining quyidagi ma`nolari mavjud .

1. Doimiy davom etib turgan ish- harakatni bildiradi. Bu shakl **-r (-ar)** qo`shimchali sifatdoshga ega to`liqsiz fe`lini qo`shish va tuslash bilan hosil qilinadi: **borar edim, borar eding.**

2. Vaqt -vaqt bilan bajarilib turgan harakatni bildiradi. Bu shakl : a) fe`l negiziga -yotgan qoshimchasini qoshib, edi to`liqsiz fe`lini keltirish va tuslash bilan hosil bo`ladi.

birlik	ko`plik
I kelayotgan edim	kelayotgan edingiz
II kelayotgan eding	kelayotgan edingiz
III kelayotgan edi	kelayotgan edi (-lar)

b) fe`l negiziga - moqda qo`shimchasini qo`shib, edi to`liqsiz fe`lini keltirish va tuslash bilan hosil bo`ladi.

birlik	ko`plik
I yozmoqda edim	yozmoqda edik
II yozmoqda eding	yozmoqda edingiz
III yozmoqda edi	yozmoqda edi (-lar)

O`tgan zamon maqsad fe`li nutq jarayonidan ilgari bajarilishi maqsad qilingan , biroq bajarilib tugallanmagan ish -harakatni bildiradi.

O`tgan zamon maqsad fe`li quyidagicha hosil bo`ladi.

a) fe`l negiziga **-moq** qo`shimchasini qo`shib, edi to`liqsiz fe`lini keltirish va tuslash bilan:

birlik	ko`plik
I yozmoqda edim	yozmoqda edik
II yozmoqda eding	yozmoqda edingiz
III yozmoqda edi	yozmoqda edi (-lar)

b) fe`l negiziga **-digan** qo`shimchasini qo`shib, edi to`liqsiz fe`lini keltirish va tuslash bilan:

birlik	ko`plik
I boradigan edim	boradigan edik
II boradigan eding	boradigan edingiz
III boradigan edi	boradigan edi (lar)

Hozirgi zamon fe`li ish- harakatning nutq so`zlanib turgan paytda bajarilayotganini ifodalaydi. Hozirgi zamon fe`lining quyidagi shakllari mavjud:

1) hozirgi -kelasi zamon fe`li . 2) hozirgi zamon davom fe`li.

Hozirgi kelasi zamon fe`li nutq so`zlanib turgan paytda boshlanib, undan keyin davom etadigan harakatni bildiradi.Bu fe`l shakli fe`l negiziga **-y** (**-a**) qo`shimchasini qo`shish va tuslash orqali hosil bo`ladi.

birlik	ko`plik
I yozaman	yozamiz
II yozasan	yozasiz
III yozadi	yozadi (-lar)
I Oqiyman	o`qiymiz
II o`qiysan	o`qiysiz
III o`qiysi	o`qiysi (-lar)

Hozirgi zamon davom fe`li nutq so`zlanib turgan paytda bajarilishda davom etib turgan ish- harakatni bildiradi. Bu shakl quyidagicha hosil bo`ladi; 1) fe`l negiziga **-yap**, qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan:

birlik	ko`plik
I yozayapman	yozayapmiz
II yozayapsan	yozayapsiz
III yozayapti	yozayapti (-lar)

2. Fe`l negiziga **-moqda** qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan:

birlik

I yozmoqdaman
II yozmoqdasan
III yozmoqda

ko`plik

yozmoqdamiz
yozmoqdasiz
yozmoqda (-lar)

3. Fe`l negizi **-yotib, -yotir**, qo`shimchalarini qo`shish va tuslash bilan .

birlik

I yozayotibman
II yozayotibsan
III yozayotibdi

ko`plik

yozayotibmiz
yozayotibsiz
yozayotibdi (-lar)

Kelasi zamon fe`li nutq jarayonidan keyin bajariladigan ish- harakatni bildiradi. Bu fe`l shaklining hozirgi zamon fe`li bilan bog`liqligi bor. Chunki, hozirgi zamon fe`lining ham nutq jarayonini ifodalash shakli mavjud.

Kelasi zamon fe`lining quyidagi shakllari bor. 1) Aniq kelasi zamon fe`li.
2) kelasi zamon maqsad fe`li. 3) kelasi zamon gumon fe`li.

Aniq kelasi zamon fe`li kelasi zamonda aniq bajariladigan ish - harakatni bildirib, unda istak ma`nosini ifodalanadi. Bu fe`l shaklida harakat nutq jarayonidan keyin bajarilishi aniq sezilib turadi. Aniq kelasi zamon fe`li: a) fe`l negiziga -ajak (yajak)qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan hosil bo`ladi.

birlik

I yozajakman
II yozajaksan
III yozajak

ko`plik

yozajakmiz
yozajaksiz
yozajak (-lar)

b) fe`l negiziga **-gay** qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan hosil bo`ladi.

birlik

I yozgayman
II yozgaysan
III yozgay

ko`plik

yozgaymiz
yozgaysiz
yozgay (-lar)

Kelasi zamon maqsad fe`li bajarilishi maqsad qilib qoyilgan ish harakatni ifodalaydi. Bu fe`l shakli quyidagicha hosil bo`ladi;

a) fe`l negizlariga **-moqchi** qo`shimchasini qo`shish va tuslanish bilan:

birlik

I yozmoqchiman
II yozmoqchisan
III yozmoqchi

ko`plik

yozmoqchimiz
yozmoqchisiz
yozmoqchi (-lar)

b) Fe`l negiziga **-digan** qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan;

I boradiganman	boradiganmiz
II boradigansan	boradigansiz
III boradigan	boradigan (lar)

Kelasi zamon guman fe`li harakatning bajarilishi haqidagi mo`ljalni, taxminni guman tarzida ifodalaydi. Bu shakl fe`l negiziga **-r (ar)** qo`shimchasini qo`shib, tuslash orqali hosil bo`ladi.

I yozarman	yozarmiz
II yozarsiz	yozarsiz
III yozar	yozar (lar)

65 s.

FE`L MAYLLARI

Harakatning voqellika munosabatini ifodalaydigan grammatik shakllar fe`l mayllari deyiladi. Mayl kategoriyalari f`el zamонлари , shaxs- son kategoriyalari bilan uzziy bog`liqdir. Shuning uchun fe`l mayllari harakatning bajarilishini real borliq bilan bog`langanligini bildirib, aniqlik, buyruq -istak , shart kabi ma`nolarni ifodalaydi.

Shunga ko`ra fe`llarda uch mayl bor;

1. Aniqlik mayli. 2. Buyruq -istak mayli. 3. Shart mayli.

Aniqlik mayli uch zamondan birida aniq bajariladigan yoki bajarilmaydigan harakatni bildiradi. Aniqlik mayli fe`lning sifatdosh, ravishdosh shakllarini tuslash bilan hosil bo`ladi. Aniqlik mayli uch zamonni o`ziga aks ettiradi: Ikromjon osmonga qaray-qaray ko`chaga chiqib ketdi.(S.A.) Hozirgidaqa alam o`tib ketgan paytlarda Aziz o`zini -o`zi koyishga ham tushadi. (O`U.) Buyruq- istak mayli ish-harakatning bajarilishi jarayonidagi buyruqni, xohish, istak, iltimos, undash ma`nolarini ifodalaydi. Yaxshilab eshitib, qulog`ingga quyib ol. Amakingning ko`ngli yarimta, yonidan jilma. (S.A.) **Shuni bilib qo`ying** demoqchiman, xolos. (O.Yo.)

Buyruq -istak maylining ikkinchi shaxsi qa`tiy buyruq ma`nosini anglatadi: Tayyormisizlar ? Qani jiyan yuklarni aravaga olib kiraver. (S.A.) Iltimos, undan ma`nosidagi buyruqni anglatadi. O`sh yo`lida bo`lurmiz. Onamga xabar bering. (P.Q.) Tinch ohangdagi hurmat ma`nosidagi buyruqni ifodalaydi: qani bu suratni menga bering mirzom. (P.Q.) Buyruq -istak maylining uchunchi shaxsi asosan buyruq ma`nosini, shunningdek , tinch oghangda aytilganda iltimos, undash ma`nolarini anglatadi: Shoshmang, chiqishsin bular keling, birpas dampingizni oling. (O.Yo.) Buyruq- istak maylining uchunchi shaxsi suhbat jarayonida ishtirok etmagan shaxsga, narsa va hodisalarga qaratiladi: Mayli, dindan qaytganni yana din yo`liga solish **-savob** ish. Shahzoda Temurxon uni o`z odamlari qatoriga olsinlar. (P.Q.)

Shart mayli biror harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart qilib qo`yilgan harakatni ifodalaydi. Fe`lmning shart mayli shakli fe`l

negiziga - **sa** qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan hosil bo`ladi. Shuning uchun- **sa** qo`shimchasi fe`lning shart mayli shakli hisoblanadi.

I yozsam	yozsak
II yozsang	yozsangiz
III yozsa	yozsa (-lar)

Shart mayli shakli quyidagicha ma`nolarni ifodalaydi.

1. Nutq so`zlanib turgan paytdan oldin bajarilishi shart qilib qo`yilgan harakatni ifodalaydi. Bu shakl -sa qo`shimchali fe`lni tuslash va edi to`liqsiz fe`lini keltirish bilan hosil bo`ladi: **yozsam edi, o`qisam edi**.
2. Nutq jarayonidagi harakatni ifodalaydi. Bu shakl -sa qo`shimchasi orqali ifodalanib, shu qo`shimchani olgan fe`l ergash gapning kesimi vazifasida keladi: Agar surat qo`lga tushsa, u qiz ham malomatga qoladi.(P.Q.)
- 3.Maqsad,orzu, xohish -istak ma`nolarini ifodalaydi. Bu shakl fe`lga - sa qo`shimchasini qo`shish orqali , shuningdek -sa qo`shimchasini qo`shib tuslash bilan hosil bo`ladi. Masalan, **aytsam, borsang, kelsam**.
4. Iltimos, maslahat ma`nolarini anglatadi.Bu shakl ham fe`lga -sa qo`shimchasini qo`shish va tuslash bilan hosil bo`ladi. Masalan, **borsang, olsang, yozsang**.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fe`l zamonlari nima?
2. Fe`lda qaysi zamonlar mavjud?
3. O`tgan zamon fe`lining qanday shakllari bor ?
4. Fe`l mayllari deb nimaga aytildi?
5. Fe`l mayllari qaysilar?

66 s.

FELLARNING YASALISHI

Fe`llar asosan ikki usul bilan yasaladi. 1 . Morfologik usul. 2. Sintaktik usul. Morfologik usul bilan fe`l yasalishida so`zlarga maxsus fe`l yasovchi qo`shimchalar qo`shish orqali yangi fe`l yasaladi. Fe`llar asosan ot, sifat, son, olmosh, qisman, ravish, undov va taqlidiy so`zlardan yasaladi. Fe`llar quyidagi qo`shimchalar bilan yasaladi.

1. -la qo`shimchasi. Bu qo`shimcha ko`plab fe`l yasashda ishtirok etishi bilan xarakterlanadi. Chunki, deyarli barcha so`z turkumlaridan -la qo`shimchasi yordamida fe`l yasaladi. Jumladan -la qo`shimchasi bilan otlardan yasalgan fe`llar quyidagi ma`nolarni ifodalaydi. a) negizdan anglashilgan predmet bilan shug`ullanish, unga egalik qilish uni yuzaga keltirish ma`nolaridagi fe`llar yasaydi: **ho`lla, tezla, sekinla, yangila, qorala** kabi.
- b) negizdan anglashilgan predmetga o`xshashlik ma`nosidagi fe`l yasaladi: muzla, elimla, bo`g`izla;

v) negizdan anglashilgan predmetlarning o`rin yoki paytga munosabatini anglatuvchi fe`llar yasaydi: **qishla**, yozla kabi. **-la** qo`shimchasi undov va taqlidiy so`zlarga qo`shilganda ruhiy holat va o`zakdan anglashilgan tovushga o`xhashlikni ifodalovchi fe`llar yasaydi: **ohla, ufla, uhla, shivirla, shitirla, qitirla** kabi.

2) **-la** qo`shimchasi, ot, sifat va taqlidiy so`zlarga qo`shilib, o`zakdan anglahilgan predmetni hosil qilish, predmetga o`xshatish, harakatga o`tish ma`nosidagi fe`llar yasaydi: **oshla, sana, o`yna, bo`sha, guldira** kabi.

3) **-y (-ay)** ot, sifat, ravish negizlardan fe`l yasaydi: **kuchay, qoray, ulg`ay, zo`ray**.

4) **-r (- ar)** qo`shimchasi sifatga qo`shilib, belgiga egalik ma`nosidagi fe`llar yasaydi: **ko`kar, qizar, yoshar**.

5) **-ik (-iq)** qo`shimchasi ot, ravish, son va boshqa so`zlarga qo`shilib o`zakdan anglashilgan predmet belgiga munosabat ma`nosini ifodalovchi fe`l yasaydi: **to`liq, kechik, birlik, chiniq** kabi.

6) **-sira** qo`shimchasi ot va olmosh negizlariga qo`shilib , predmetga munosabat ma`nolarini anglatuvchi fe`llar yasaydi: **suvsira, sensira, uyqisira, yotsira, gumonsira** kabi.

7) **-i** qo`shimchasi ot va sifat negizlariga qo`shilib, negiz anglatgan predmet yoki holatga egalik qilish ma`nosidagi fe`llar yasaydi: **boyi, tinchi**.

8) **-qir, -illa** qo`shimchasi taqlidiy so`zlarga qo`shilib negiz anglatgan ma`noni bajarishni ifodalovchi fe`llar yasaydi: **hayqir, o`shqir, gurilla**, vishilla kabi.

9) **-lan (-lash)** qo`shimchasi fe`l nisbatlarini yasaganidek, ot va sonlardan fe`l yasaydi: **otlan, gapplash, birlash** kabi.

Sintaktik usul bilan murakkab va juft fe`llar yasaladi. Murakkab fe`llarning qismlari har xil . Ularning biri asosiy ma`no anglatib, murakkab fe`lning ma`no ifodalashi etakchi qism vazifasini bajaradi. Ikkinci qism esa qo`shimcha ma`no ifodalab, yordamchi qism vazifasida qoladi. Asosiy ma`no ifodalovchi qism etakchi qism, unga birikkan qism esa ko`makchi qism hisoblanadi.

Murakkab fe`llarning birinchi qismi fe`ldan yoki fe`l bo`lmagan so`zlardan tashkil topadi.

1. Fe`lning ravishdosh shaklidan tashkil topadi: **ayta oldi, yozib oldi, chiopib bordi, kulib qo`ydi** kabi.

2. Fe`l bo`lmagan so`zlardan tashkil topadi: **quloq soldi, buyruq berdi, nazar soldi** kabi.

Qo`shma fe`llarning etakchi qismi fe`l va fe`l bo`lmagan so`zlardan tuzilishi ularni muayyan tiplarga ajratishni taqoza etadi. Shunga ko`ra murakkab fe`llar ikki turga: birinchi tip murakkab fe`llar va ikkinchi tip murakkab fe`llarga bo`linadi.

Birinchi tip murakkab fe`llarning etakchi qismi fe`l bo`lmagan so`zlardan tashkil topadi. Bunday fe`llarning ko`makchi qismi **bo`l, qil, et, ayla, ol, ber, tur, yot, qol, tush, o`t, tashla** kabi fe`llardan tuziladi: **imzo qo`y, quloq sol,**

e`lon qil , va`da ber , kabi. Ikkinchi tip murakkab fe`llarning har ikkala qismi fe`llardan tashkil topadi: **yoza boshladi, olib keldi, ko`rib chiqdi** kabi.

Juft fe`llar fe`llarning takrorlanib kelishidan hosil bo`ladi. Juft fe`llarda ham asosiy ma`no birinchi qism orqali anglashilgan: **oldi- berdi, bordi- keldi, aytdi, -qo`ydi** kabi

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Fe`llar qanday usullar bilan yasaladi ?
2. Fe`l yasovchi qo`shimchalar qaysilar ?
3. Qanday fe`llar murakkab fe`llar hisoblanadi ?

AMALIY MASHQLAR.

Fe`llarni tahlil qilish tartibi

1. Fe`lning o`timli, o`timsizligi, bo`lishli, bo`lishsizligi.
2. Fe`l nisbatilari.
3. Shaxs -son va zamoni.
4. Xoslangan shakllari.
5. Tuzilishiga ko`ra turlari.
6. Tub va yasamaligi.Yasalish usuli .
7. Gapdag'i vazifasi

Namuna: Qorong`u tushganfdan keyin tor ko`chaning qoq o`rtasi ham bir oz oqardi.(A.Q.) Tushgandan- fe`l, o`timsiz, bo`lishli, aniq nisbat, III shaxs, birlik, o`tigan zamon, sifatdosh, sodda, tub, hol.

34-mashq. Fe`llarni topib o`timli va o`timsiz bo`lishli va bo`lishsiz fe`llarni aniqlang. Ular kirgan joy -baland tepalikningyonbag`riga yo`yib kirilgan katta g`or bo`lib, ikki yonida yana ikkita kichikroq ungurlar ko`rinar edi. Yo`lakdan kirgan joydag'i temirchilar asbob uskunalar, bosqon va sandon, uninguning tagida g`ir bolg`a va cho`kichlar, uzun temir qisqichlar, omburlar yotar, chap tomonagi g`orda qozon- tovoq, qumg`on, choydish, har xil obdastalar va boshqa ro`zg`or buyumlari terib qo`yilgan edi. Katta g`orning to`rida, po`stak yozilgan supada, boshiga chambarak qizil qalpoq kiygan, ko`pdan beri qaychi tegmagan soqoli ko`ksiga tushgan bir chol qo`y terisidan tikilgan keng po`stiniga o`ralib, chordona qurib o`tirardi.(O.Yo.)

35- mashq. Ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shaklidagi fe`llarni topib, tahlil qiling? 1. Mirzo Ulug`bek kechasi tong otguncha mijja qoqmay ming xil rejalar tuzib chiqdi. (O.Yo.) 2. Choy ichib o`tirgan odamlarning dilida qandaydir og`ir o`ylar bor edi.(S.A.)3. Bugun ham yo mg`ir quyib turgandan odamlar ishga chiqishmadi.(S.A.) 4. Ular hovliga chiqqanda quyosh bulutlar orasiga kirib ketgan shamol izg`irinday achichiq bo`lib qolgan edi.(P.Q.) 5.Kishi

o`zini gunohkor his qilsa beg`am quvnayotganlarga havasi keladi.(P.Q.) 6 .Jo`nab ketayotganida ko`nglim tinchima di-yu , borib qaray dedim.(A.Q.)

36-mashq. Fe`llarni toping.Fe`1 zamonlarini aniqlab, ma`no jihatidan turini aytинг. 1. Lekin ko`p o`tmay yana qo`ng`iroq jarangladi, yana hamma eshiklar ochildi, yana atrof xushchaqchaq g`ala- g`ovurga tol`di.(P.Q.)2. Bu gaplarning o`zlariga ham aloqador ekanligini sezishdi-da, birpas jim borishdi.(P.Q.) 3. Qishloqdan chiqulguncha yana bir necha joyda to`xtaladi (A.Q.) 4. Oy tikkaga kelib qoldi.(A.Q.)5. Batareyasi topilmaydi.Tugab qolsa olamdan bexabar qolamiz.(S.A.)6. Ishlaydi, ishlab charchamaydi,(S.A.)7. O`qtin-o`qtin uzoqda momaaqaldoqning qarsillagani eshitiladi, chaqmoq ko`rinadi.(O.) 8. Men ham ko`rganman, sayraganini ham eshitganman, -deyman jiddiy tusda. (O.)

37-mashq. Fe`llarni topib, shaxs va sonini aniqlang.

1. Qo`rmang siz emas, boshqalarni aytamen.(O.Yo.)2. Qo`rqma, bolam.Tezda qaytamen. (O.Yo.) 3. O`zing aytding-ku, o`g`lim, bulbul gul ochilganda kelarmish, deb(O.)4. Men ketayapman.Xavotir olmay o`tir.Kelganimdan keyin cho`lga birga chiqib ketasan.(S.A.)5. Jannat xola eshik halqasini qanday tushirganini bilmaydi.(S.A.)6. Yotig`i bilan gaplashish endi esingizga keldimi? 7. O`tiring, tezroq boraylik bo`lmasa.(P.Q.) To`g`ri aytasiz jo`ra, endi qattiq o`tirmasam bo`lmaydi.(P.Q.).8. -Rost, kun isib ketdi, yuring, parkka boramiz bo`lmasa.(P.Q.) 9. Ijozat bersangiz, ketamen, hazratim.(O.Yo.) 10. - Xo`s, shuncha tentib yurib nima orttirganining ko`rib turibman.(S.A.)

38- mashq. Yasama fe`llarni topib yasalish usullarini aytинг.Fe`1 yasovchi qo`shimchalarning tagiga chizing.

1. Zamona zo`rlariga yaqin bo`lgan Hami da yakkalanib, noqulay ahvolga tusha boshladi.(P.Q.)2. Otabekning bu javobidan yolg`iz Akram hojigina emas balki, majlisning boshqa a`zolari ham ajablandilar.(A.Qod.) 3. Aziz bir oz ruhi engillashganday bo`lib ishiga unnadi. (O`U.) 4. Bog`-rog` qildi, yer -suv ko`paytirdi.(Ch.)5. O`zimni oqlamayman.Mayli sen ham oqlama.(T.Mal.) 6. Kundan-kun imkoniyat doirasi toraymoqda .(A.Q.)7. Huvillab qolgan uyda yolg`iz yashash qiyin.(S.A.) 8. Bobul ko`zлari mo`ltirab nimadir demoqchi bo`ldi, ammo behad- og`irlashib ketgan tilini qimirlatolmadi.(P.Q.)9. Ular Mirzo darvozasiga yaqinlashganlarida qal`a tashqarisida birdan karnay va nag`ora chalingani, yuzlab navkarlarning qichqiriqlari eshitildi.(P.Q.)

39- mashq. Fe`llarni topib to`liq morfologik tahlil qiling.

1. Oldinda borayotgan suvoriyalar darvishning ustiga ot soldirib, uni yo`ldan haydashga urinishdi.(O.Yo.)2. Beruxsat kirgizmang deb buyurgan edilar, dedi-da, darvozani ochmadi: - Men hozir ichkariga kirib ruxsat so`rab chiqqayman.(P.Q.)3. Boyag`iga qaraganda anchagina engillanib ichkariga kirdi, harakatlari ham bir muncha o`zgargan edi.(A.Qod.)4. U shoirtabiat bo`lgani uchun ham salga ezilar, salga suyunar, salga qanotlanib, salga bo`shar edi, ayimlar bir shiddat bilan oladigan ishni bu ba`zan rosa mijg`ovlanib, ming o`ylab, ikkilanib oxiri ko`ngliga o`tirishgandagina bir yoqlik qilardi...(O`U.)5.

Kampir qizlarning kulishini eshitganidan keyin, mehmonlarning kimligini anglatdi.(Ch.)

RAVISH

67 s. RAVISHNING MA`NOSI VA GRAMMATIK BELGILARI

Fe`ldan anglashilgan harakat va holatning belgisini o`rnini, paytini, sifatdan anglashilgan belgining belgisini bildiradigan so`zlar ravish deyiladi. Ravishlar ifoda xususiyatiga ko`ra sifatga yaqin, biroq sifat predmetning belgisini ravish esa harakat yoki belgining belgisini ifodalaydi. Shuning ucun sifatlar otga, ravish esa fe`lga sifatga, ravishga ba ba`zan otga ham bog`lanib keladi. masalan, **sekin yurmoq, tez gapirmoq , tez kunlarda, ko`p so`z** kabi.

Ravishlar morfologik jihatdan o`zgarmaydi, ya`ni turlanish va tuslanish xususiyatiga ega emas. Ravishlar ham sifatlar singari belgini darajalab ko`rsata oladi. Rabishlarda belgining kamligi **-roq** qo`shimcha orqali hosil bo`ladi: **ozroq, sekinroq, kamroq** kabi.

- **roq** qo`shimchasi ba`zan belgini kuchaytirib ham ifodalaydi: **tezroq, ko`proq, mo`lroq, ertaroq** kabi.

Belgining kuchliligi ravishlarda **eng, juda, g`oyat, nihoyat, nihoyatda, so`zlarini** ravishdan oldin keltirish bilan hosil bo`ladi: **juda erta, nihoyatda tez, g`oyat do`stona** kabi.

RAVISHLARNING MA`NO TURLARI

Ravishlar ma`no va grammatik jihatdan quyidagi turlarga bo`linadi: **holat (tarz) ravishlari, miqdor-daraja ravishlari , payt ravishlari, o`rin ravishlari, sabab ravishlari, maqsad ravishlari.**

Holat ravishlari ish-harakatning qay holatda qay, tarzda bajarilishini ifodalab, qanday? qay holatda? qay tarzda? so`roqlariga jabhob bo`ladi.

Quyidagilar holat ravishlaridir: **asta , sekin, tez, yayov, birdan, jim, to`satdan, qo`qqisdan, tasodifan, mardona, do`stona, birma -bir, yuzmayuz, elkama- elka, yonma-yon, mardlarcha, yangicha, muzday, qushday** va boshqalar. Holat ravishlari gapda asosan ravish holi vazifasida keladi. Po`lat qoplangan zalvorli eshik asta-g`ichirlab ochldi- yu, qorong`i bo`shliq ko`rindi.

(O. Yo.) Otga bog`lanib aniqlovchi vazifasida keladi. Masalan, Ali Qushchi qo`llarini ko`ksiga qovushtirganicha **muzday devorga** suyanib turardi. (O. Yo.), kesim vazifasida keladi: Osmon boyagina feruza shishadek **tip-tiniq edi.**(O` U.)

Miqdor -daraja ravishlari ish- harakat yoki belgining miqdorini bildirib, qancha? qanday? so`roqlariga javob bo`ladi. Shunga ko`ra bu ravishlar miqdor ravishlari va daraja ravishlari kabi turlarga bo`linadi.

Miqdor ravishlarini predmetning noaniq miqdorini bildiradi: **oz, ko`p, ancha, sal, bir oz, bir muncha, mo`l, kam, xiyla** va boshqalar. Daraja ravishlari harakat va belgining ma`nosini kuchaytiradi: **juda, g`oyat, nihoyat, nihoyatda**, behihoyat kabi.Miqdor -daraja ravishlari gapda asosan ravish holi: Xo`jayin gapimni birov eshitib qolmasin, deganday qaddini sal egib pastroq ovozda qolmasin, dedi. (T.Mal.) aniqlovchi: **-Ma`zur ko`rsangiz-dedi u shoshib - Ko`p mushkul yumush bu.** (O`Yo.) va kesim vazifalarida keladi: Ikkitagina mashinaning boshqa ishlari ko`p. (S.A.)

Payt ravishlari ish- harakatning bajarilish paytini bildirib. qachon? qachndan beri? so`roqlariga javob bo`ladi: **kecha, bugun, erta, indin, sahar, tushda, kechqurun, peshinda, bultur, bu yil, o`tgan yil, bugun-erta, oldin, hozir, keyin** va boshqalar.Payt ravishlari gapda payt holi: Arovalar ham **ertalab** idora oldida bo`ladi. Keta diganlar hozir dalada. (S.A.) vazifasida keladi.

O`rin ravishlari ish-harakatning bajarilish o`rnini bildirib, qaerga? qaerda? qaerdan? so`roqlariga javob bo`ladi: **unda, bunda, u erda, bu erda, nari beri, quyida, yuqorida, chapda, o`ngda** va boshqalar.

O`rin ravishlari gapda o`rin holi vazifasida keladi. -Barakallo, mavlono! qani **yuqori o`t.** (O.Yo.) Ikki soatdan **beri shu erdaman.** (T.Mal.)

Sabab ravishlari ish-harakatning bajarilish sababini bildirib, nima uchun? nima sababdan? savollariga javob bo`ladi: **chorasiz, noiloj, choraszizlikdan, ilojsizlikdan, noilojlikdan** va boshqalar.

Sabab ravishlari sabab hali vazifasida keladi. Ikromjon **noiloj** chodirdan chiqib mashina oldiga keldi. (S.A.)

Maqsad ravishlari ish- harakatning bajarilish maqsadini bildirib, qanday? qay maqsadda? so`roqlariga javob bo`ladi: **ataylab, qastdan, jo`rttaga.** Maqsad ravishlari maqsad holi vazifasida keladi: Zebixon o`rnidan turdi **-da,** etaklarini qoqib , uni masxara qilayotgandek **jo`rttaga** ming turlanib ko`chaning o`rtasidan jo`nab qoldi. (S.A.)

RAVISHLARNING YASALISHI

Ravishlar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Morfologik usul ravish yasashda faol usul hisoblanib , ko`proq holat ravishlari shu usul bilan yasaladi. Ravishlar ot, sifat, olmosh, ravish ba`zan fe`l o`zaklardan yasaladi.Quyidagi qo`shimchalar ravish yasovchi qo`shimchalardir:

1. **-cha** qo`shimchasi ot, sifat, olmosh, fe`l, ravish negizlarga qo`shilib, ravish yasaydi: **o`zbekcha, yangicha, o`zicha, yig`laganicha, kulganicha, hozircha, buguncha** kabi.
2. - **an** qo`shimchasi ot, sifat negizlarga qo`shilib ravish yasaydi: **vijdonan, qisman, majburan, tasodifan** kabi.
3. **-lab** qo`shimchasi ot, sifat, ravish negizlarga qo`shilib ravish yasaydi: **oshlab, tuzlab, yaxshilab, tozalab, ko`plab, tezlab, sekinlab.**
4. **-larcha** murakkab qo`shimchasi ot , sifat negizlarcha qo`shilib ravish yasatydi: **mardlarcha, qahramonlarcha** kabi.
5. **-ona** qo`shimchasi ot, sifat negizlarga qo`shilib ravish yasaydi: **do`stona, bahodirona, mardona otalarcha** kabi.
6. - **lay (-layin)** qo`shimchasi sifatlarga qo`shilib ravish yasaydi: **butunlay, butunlayin, tiriklay, tiriklayin.** Bu qo`shimchalar ravish yasovchi -ligicha qo`shimchasi bilan sinonimdir: **tirikligicha, butunligicha.**
7. - **i (-in)** qo`shimchasi ot , fe`l, ravish negizlarga qo`shilib ravish yasaydi: **qishin, yozin, yashirin, kechir** k abi.
8. - **day (-dek)** qo`shimchasi asosan ot negizlarga qo`shili, harakat yoki holatdagi o``xhashlikni anglatuvchi ravishlar yasaydi: **tog`day, muzday, qushday, paxtaday, gulday** kabi.

Sintaktik usul bilan qo`shma va juft ravishlar yasaydi. Ikki so`zning o`zaro birikuvidan tashkil topgan ravishlar qo`shma ravishlar deyiladi. Qo`shma ravishlar quyidagicha hosil bo`ladi:

1. O`rin-payt, miqdor ma`nosini bildiruvchi so`zlardan oldin **-alla** qo`shimchasini keltirish bilan : **allavaqt, allamahal, allapayt** kabi.

Shu paytgacha to`qayda **allaqancha** erni shudgor qilib qo`yishdi. (S.A.)

2. Payt va miqdor bildiruvchi so`zlardan oldin bir yoki oz so`zlarini keltirish bilan: **bir payt, bir zum, bir mahal, bir talay, oz muncha , birmuncha** kabi.

Ali Qushchi kaltagina cho`qqi soqolini tutamlab, **bir zum** tuynukka tikilib qoldi.(O. Yo).

3. O`rin va payt ma`nosini bildiruvchi so`zlardan oldin **har, hech, bir** so`zlarini keltirish bilan : **har joy, har mahal, har lahza., hech qachon? hech vaqt, bir tomon** kabi. Bu xotin go`yo necha yildan beri **har kun** shu ravishda buni kutib umr o`tkazgan. (Ch.) **Qabulxonaning bir tomoniga** qator stullar terilgan. (O`U.) Ayollar hech qachon ozlarini pastga urishmaydi. (S.A.)

4. Ko`rsatish olmoshlariga **er**, yoq so`zlarini qo`shish bilan: **shu er, bu er, u er, shu yoq, bu yoq, o`sha er** kabi: **-Bu yoqqa** kel bola. (S.A.)

Nizom allaqachon ota- onasini **bu erdan** ko`chirib ketgan va saroyga yaqin joydan shinam uy joy olib bergen.(P.Q.) Zerikkan bo`lsangiz, ertaga boshqa nomerga ko`chiraman. **U er -yaxshi.** (Ch.)

Juft ravishlar ikki so`zning o`zaro teng bog`lanishidan hosil bo`ladi. Juft ravishlar so`zlarning juft kelishi hamda takrorlanishi asosida quyidagicha hosil bo`ladi:

1. Ikki so`zning o`zaro ma`nodoshlik asosida bog`lanishidan: **asta -sekin, ochiq-sochiq.**

2. Qarama-qarshi ma`noli so`zlarning o`zaro birikuvidan: **oldin-keyin, qishin-yozin, kecha-kunduz, ostin-ustin .**

3. Ikki so`zning takrorlanishida birinchi so`zda -ma qo`shimchasining qo`shilishdan: **tarafma- taraf, birma-bir, yakkama-yakka, qo`lma- qo`l.**

4. Ikki so`zning takrorlanishida birinchi so`zda ba`zan keyingi so`zga -dan qo`shimchasini qo`shilishi bilan : **yildan -yilga, qanchadan -qancha, bir-biridan, o`z- o`zidan kabi.**

TAKRORLASH UCUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1 . Ravishlarning o`ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Ravishning ma`no jihatdan qanday turlari mavjud?
3. Ravishlar qanday sintaktik vazifalarni bajaradi?
4. Ravishlar qanday yasaladi?

AMALIY MASHQLAR **Ravishlarni tahlil qilish tartibi**

1. Ravishlarning ma`nosigaa ko`ra turlari.
2. Tuzilishiga ko`ra turlari.
3. Tub va yasamaligi.Yasalish usuli
4. Gapdag'i vazifasi.

Namuna: Hozir ham Azizning dili xuhton.(O`U.)Hozir -ravish, payt ravishi, sodda, tub, hol.

40-mashq. Ravishlarni topib ma`nosiga ko`ra turlarini aniqlang.

1. Bugun peshinda xuddi shunday xabar keldi.(P.Q.)2. Bir ozdan so`ng ancha ko`zi yorishganday y bo`ldi-yu xayolini yana go`za tashvishi egalladi.(O`U.) 3. Aziz shum xabarni eshitgan paytida boyaga birdan yo`lga otlangan bo`lsa, endi ancha o`zini bosib olgaandan keyin esa egadir shoshmasdi.(O`U.)4. Ikkalasi jim qolib o`yga botdilar.(Ch.) 5. Elchi Hosilning mahallasiga etganda chap qolib, atayin o`ng tomonga burildi. (T.Mal.) 6. Sizni ovora qildim. Ammo bunga minglarcha sabab bor. Hozir aytaman. Kecha boraman deb bel bog`laganimda Ilhom meni zarur bir ishga ro`para qilib qo`ydi.(A.Q.)7. Domla bunday qarorga kelishini jo`rttaga hech kimga, haatto Saidiyga ham aytmadni.(A.Q.)8. Anhor qirg`og`i g`ira- shira yorug`. Nizomjon u yoqdan- bu yoqqa yuradi, sal tovush kelsa darrov alanglaydi.(S.A.) 9. Bir ozdan keyin pastdan A`zamjon chiqib keldi.(S.A.)10. Qosimbek bu so`zlarga tezda javob topolmay taradudlanib qoldi.(P.Q.) 11. Bultur Samarqand azimati bilan ketib bizni ko`p sog`intirgan edingiz-ku?(P.Q.)

YORDAMCHI SO`ZLAR

68 s. YORDAMCHI SO`ZLAR HAQIDA MA`LUMOT

Mustaqil so`zlar orasidagi grammatik munosabatlarni ta`minlab, ular orasidagi modal ma`nolarni ifodalovchi lug`aviy ma`noga ega bo`lmagan so`zlar yordamchi so`zlar deyiladi. Yordamchi so`zlar garchand mustaqil ma`no ifodalamasa -da, gapda turli grammatik munosabatlarni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ular so`zлarni o`zaro biriktirish, so`z va gaplarni bog`lash, so`z va gaplarga qo`shimcha ma`no berish vazifalarini bajaradi.

Bajaradigan vazifasiga ko`ra yordamchi so`zlar quyidagicha: **ko`makchilar, bog`lovchilar, yuklamalar.**

69 s. KO`MAKCHILAR HAQIDA MA`LUMOT

Ot yoki otlashgan so`zdan keyin kelib, shu so`zni boshqa bir so`z **bilan** birikishini ta`minlaydigan yordamchi so`zlar **ko`makchilar** deyiladi. Ko`makchi o`zidan oldin kelgan so`z bilan birgalikda fe`lga bog`lanadi. Ko`makchili so`zning boshqa so`z bilan bog`lanishi boshqaruvli bog`lanishdir. Ko`makchilar o`zi bog`langan so`zning ma`nosini to`ldirib, keladi va shu boisdan o`zi bog`langan so`z bilan birgalikda bir gap bolagi bo`lib qoladi. Ko`makchilar lug`aviy ma`no ifodalamaydi, biroq grammatik ma`no bildiradi. Masalan, **uchun-sabab** ma`nosini, **tomon** -yo`nalish ma`nolarini anglatuvchi ko`makchilardir. Masalan, Samiev bu ishning muhimligini bilgani uchun telefon go`shagini ko`tarib, kerakli bo`lim bilan suhabatlashib topshiriq berdi. (T. Mal.) Ko`makchilar ko`pincha kelishik qo`shimchalariga sinonim holda qo`llaniladi. Masalan, xat ruchka bilan yozildi. **Xat ruchkada yozildi. Kitobni o`zim uchun oldim. Kitobni o`zimga oldim.**

Ko`makchi aslida boshqa biror so`z turkumlaridan ko`makchiga aylangan so`zlardir. Ularning ayrimlari o`z mustaqil ma`nosini yo`qotib, ayrimlari mustaqil ma`nosini qisman saqlagan holda ko`makchiga o`tgan. Ko`makchilar mustaqil ma`nolarini yo`qotish xususiyati va qaysi so`z turkumlaridan o`tganligiga ko`ra quyidagicha:

1. Sof ko`makchilar. 2. Ot ko`makchilar. 3. Fe`l ko`makchilar. 4 Ko`makchi otlar. Sof ko`makchilar o`z lug`aviy ma`nolarni butunlay yo`qotib tomanan ko`makchiga aylangan so`zlardir. **uchun, bilan, kabi, sayin, singari, sari, uzra, qadar, orqali, dovr** kabi.

Bu Ko`makchilar boshqa so`zlar bilan birikib, turli grammatik munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ot ko`makchilar ot yoki ravishdan ko`makchiga siljigan so`zlardir: **burun, ilgari, oldin, keyin, so`ng, tashqari** kabi. Fe`l

ko`makchilar fe`lning ravishdosh va sifatdosh shakllaridan ko`makchiga o`tgan: **qarab, ko`ra, yarasha, bo`ylab, qaraganda** kabi. Komakchilar kelishikdagi otlarni boshqa so`zga tomon boshqaradi. Ko`makchilarning kelishikdagi otlarni boshqarishi quyidagicha bosh kelishikdagi so`zni boshqaradigan ko`makchilar: **bilan, uchun,kabi , singari, orqali, sari, bo`ylab , uzra;** b) jo`nalish kelishigidagi otни boshqaradigan ko`makchilar: **tomon, qadar, dovur, qarab,qaraganda, ko`ra, yarasha;** v) chiqish kelishigdagi otни boshqaradigan ko`makchilar: **birin, ilgari,oldin, keyin, so`ng, buyon, boshqa, tashqari.**

Ko`makchi otlar. O`z lug`aviy ma`nosini qisman saqlagan bo`lib, ba`zi xususiyatlariga ko`ra ko`makchiga siljib qolganligi uchun ko`makchi vazifasida qo`llaniladigan otlar ko`makchi otlar deyiladi. Ko`makchi otlar o`zidan oldingi so`zlar bilan qaratqich qaralmish munosabati asosida birikib, butunlikni tashkil etadi. Quyidagi so`zlar ko`makchi otlardir: **old, orqa, ket, o`rta, ich, opa, tag, ust, tepa, to`g`ri, yuza, haq, xusus, huzur.**

Ko`makchi otlar qaratqich, jo`nalish, o`rin -payt, chiqish kelishikkлari qo`shimchalarini olgan holda qo`llanadi. Masalan, Nizomjon nimalar bo`layotganniga tushunolmay, hamon supa **oldiga** garang turardi. (S.A.) Balki u alam **ustiga** yolg`on gapirgandir, a ? (T. Mal.) Tushga yaqin yomg`ir tindi -yu, bulutlar **orasidan** ko`m-ko`k ocmon va issiq yoz oftobi ko`rindi. (P.Q.) Ular ma`no jihatdan quyidagicha: 1. Vertikal yo`yalishdagi o`rinni ifodalovchi ko`makchi otlar: **ost, ust, tag, tepa.**2. Gorizontal yo`nalishdagi o`rinni ifodalovchi ko`makchi otlar: **old, orqa, ort, ket, ora, o`rta, yon, uch, tashqari, huzur.** 3. Fikrning nima haqida ekanligini ifodalovchi ko`makchi otlar: **to`g`ri, xusus, yuza,**

70 s.

BOG`LOVCHILAR HAQIDA MA`LUMOT

So`zlar va qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog`lash uchun qo`llaniladigan yordamchi so`zlar bog`lovchilar deyiladi. Bog`lovchi so`zlar va gaplar o`rtasidagi munosabatlarni ta`minlasa ham ular bilan birlashmaydi. Yakka holda ham biror so`zga qo`shilgan holda ham biror gap bo`lagi bo`lib kelmaydi. Bog`lovchilar qo`llanishiga kora ikki xil: **Yakka bog`lovchilar , takrorlanuvchi bog`lovchilar.**

Yakka bog`lovchilar: **va, ham, hamda, ammo, lekin, biroq, chunki, balki, basharti, shuning uchun** kabi. Takrorlanuvchi bog`lovchilar nutqda takror holda ishlataladi: **yo, yoki, goh, dam, ba`zan, bir, na** (yo, yoki bog`lovchilari yakka holda ham ihlatiladi). Yo boshiga tushgan tashvish bilan bo`lib shogirdini chaqirgani yodidan ko`tarildimikan? (O.Yo.)

Bog`lovchilar gap bo`laklari va gaplarni qay tarzda bog`lashiga ko`ra ikki xil: **teng bog`lovchilar, ergashtiruvchi bog`lovchilar.** Teng bog`lovchilar gap bo`laklari va gaplarni grammatik jihatdan tenglanish asosida bog`laydi. Teng bog`lovchilarning quyidagi turlari bor: **birikiruvchi bog`lovchilar, zidlobv bog`lovchilar, ayiruv bog`lovchilar, inkor bog`lovchisi.**

Biriktiruv bog`lovchilar: va, ham, hamda. Bu bog``lovchilar uyushiq bo`laklarni va gaplarni bog`laydi. Masalan, xayriyatki hukmdorlar oldida hayajonga tushish va ta`zim qilish odat tusiga kirib qolgan.(P.Q.) Bu bog`lovchilar o`rnida **-da, -u, yu** yuklamalari ham ishlatiladi. Haligi yigit boshini ko`tarib Saidiyga bir **qaradi-da**, yana o`z ishi bilan mashg`ul bo`ldi. (A.Q.)

Zidlov bog`lovchilar: ammo, lekin, biroq. Bu bog`lovchilar mazmunan bir-biriga zid qo`yilgan gap va gap bo`laklarini bog`laydi. Tavba ! oradan shuncha yil O`tib ketibdi, **lekin** unutmabdi. (O` U.)

-u, -yu yuklamalari zidlov bog`lovchisi vazifasida qo`llaniladi. Ozroq mizg`ib olmoqchi **bo`ldi-yu**, tanasining zirqirqb og`riganidan ko`zi ilmadi.(S.A.)

Ayiruv bog`lovchilar: yo, yoki, goh, dam, ba`zan, bir. Bu bog`lovchilar asosan takrorlangan holda qo`llanilib, gap bo`laklari va gaplarni bir-biridan ajratish hamda galma-gal yuz beradigan voqeа-hodisalarни ifodalovchi gaplarni bog`lash uchun qo`llaniladi. Saltanat gohi g`amgin kulimsirab goh xomush beg`ubor qizlik onlarini o`ylar edi.(O`U.)

Inkor bog`lovchisi: na. Bu bog`lovchi uyushiq b0`lak va gaplarni bo`lihsizlik, inkor mazmuni asosida bog`laydi. Uning qilayotgan ishlarini ko`rib na yaxshi na yomon derdi. (S.A.)

Ergashtiruvchi bog`lovchilar qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog`lash uchun ishlatiladi: **agar, basharti, chunki, go`yo, go`yoki, garchi, toki, shuning uchun, --ki ,(-kim).** Bu bog`lovchilar qo`shma gap tarkibidagi gaplarni tobelash asosida bog`laydi. Ergashtiruvchi bog`lovchilar gaplarni mazmunan bog`lashiga ko`ra quyidagicha: **aniqlov bog`lovchisi, sabab bog`lovchilar, maqsad bog`lovchisi, chog`ishtiruv bog`lovchilar, shart va to`siksizlik bog`lovchilar.**

Aniqlov bog`lovchisi. -ki (-kim). Bu bog`lovchi eng ko`p qo`llaniliadi. Aniqlov bog`lovchisi deyarli ergashgan qo`shma gaplarning har xil turlarini o`zarbo`lab, gapning biror bo`lagini izohlab, aniqlash uchun ishlatiladi. Oradan ikki oy o`tdi **hamki** inspektor chiqmadi. (A.Q.) **Sabab bog`lovchilar: chunki, shuning uchun, negaki.** Bu bog`lovchilar ergashgan qo`shma gap tarkibidagi asosiy fikrning yuzaga kelishidagi sababni ifodalash uchun ishlatiladi. Nega yaxshi ishlamaydi !.**Chunki** yaxshi savodli siyosiy bilimli **muxbirlar** kam. (A.Q.)

Maqsad bog`lovchisi: toki . bu bog`lovchi maqsad ma`nosini ifodalovchi ergashgan qo`shma gaplarni bog`lash uchun ishlatiladi.

Chog`ishtiruv bog`lochilar: go`yo, go`yoki .Bu bog`lovchilar voqeа-hodisalarни,narsa -predmetlarni o`xshatish uchun ishlatiladi. O`xshatish ergash gapli qo`shma gaplarni bog`lashda qo`llaniladi. “Bog`i maydon” darvozasiga etganda go`yo er yutganday yo`q bo`ldi-qoldi:(O.Yo.)

Bu bog`lovchi ko`pincha voqeа- hodisaning noaniqligini, gumonligini ifodalashda ham qollaniladi. **Go`yo** Shohruh Mirzo Samarqandga tashrif buyurganida mashhur bir temirchiga qilich buyurgan, temirchi esa qilich yasashdan bosh tortgan.(O.Yo.) **Shart va to`siksizlik bog`lovchilar: agar,**

agarda, garchi , basharti. Bu bog`lovchilar yuzaga chiqishi shart bo`lgan voqealodalarining muayyan fikrga zidligini, ammo uning yuzaga chiqishiga to`sinq bo`la olmasligini ifodalaydi.

Shart va to`siksizlik bog`lovchilari shart ba to`siksiz ergash gaplarni o`zaro bog`laydi.

71 s.

YUKLAMALAR HAQIDA MA`LUMOT

Fikrning borliqqa bo`lgan munosabatini bildirib, so`z va gaplarga turli modal ma`no qo`shadigan yordamchi so`zlar yuklamalar deyiladi. Yuklamalar o`zi birikkan gapning ma`nosini ta`kidlab, kuchaytirib, chegaralab, so`zga ishonch, gumon, tasdiq, inkor ma`nolarini qo`shish uchun ishlataladi. Yuklamalar ham gap bo`lagi vazifasida kelmaydi.

Yuklamalar shakl xususiyatlariga ko`ra ikki xil: **so`z yuklamalar, affiks yuklamalar.** So`z yuklamalar **faqat, hatto, agar, havot, nahotki, xuddi.** Bular shakl jihatidan so`zlarga teng kelsa ham vazifa nuqtai nazaridan yuklamadir.

Affiks yuklamalar **-gina (-kina, -qina), -mi, -chi, -a, (-ya), -u, (-yu) , -da, -oq, -yo`q, -ku, -dir.** Yuklamalar quyidagi modal ma`nolarni bildiradi:

1. So`roq va taa`jjub yuklamalari **-mi, -chi, -a (-ya), nahotki.** Bu yuklamalar turli so`zlarga qo`shilib so`roq ma`nosini, **nahot, nahotki** yuklamasi esa taajjubni ifodalaydi. Saltanatning gaplari-chi? Ularda haqiqat yo`gini? (O`U.)2. Kuchaytiruv va ta`kid yuklamalari **-ku, -u, (-yu), -da, oq, (yo`q), -ki (kim), axir, hatto, hattoki.**

Bu yuklamalar ma`noni kuchaytirish, ta`kidlash uchun ishlataladi. Tolmas Azimovday insofli **odamlar-ku**, achinishadi” (O`U.) Bu gal eshik tezda **ochildi-yu**, ichkaridan professorlar chiqib keldi.(O`U.) 3. Ayiruv va chegaralov yuklamalar **-gina (-kina, -qinq) , faqat.** Bu yuklamalr narsa-hodisani boshqalaridan ajratish, ish -harakatni chegaralash uchun ishlataladi. Zebixon bu **pachoqqina ko`rimsizgina** kamgap bolaning ichida shuncha gap borligini bilmagan ekan. (S.A.)

4. Aniqlov yuklamasi **xuddi.** Gap mazmunidan anglashiladigan voqealodisani boshqasiga o`xshatish uchun ishlataladi. Osmon xuddi tomlarga tegib turganday. (A.Q.)

5. Gumon yuklamasi **-dir.** Bu yklama gumon, noaniqlik ma`nolarini ifodalaydi . Shu payt birdan qo`shiq tindi. **Nimadir** shitirladi. (S.A.)

Affiks yuklamalardan **-gina (-kina, -qina), -dir, -oq(-yo`q), -mi** so`zlarga qo`shib yoziladi. **Shu kuniyoq** havoning aynib qolganligiga qaramasdan Naymanga qarab ketdi. (S.A.) **-ku, -chi, - da, -u (-yu), -a (-ya)** yuklamalari so`zlardan chiziqcha bilan ajratilib yoziladi. To`ppa - to`g`ri kirib kelaverganini-ya . (O`U.) Mulla Fazliddin pastroqda to`xtab, qo`l **qovushtirdi -yu**, engil bir ta`zim bilan javob berdi. (P.Q.)

So`z yuklamalari **axir, hatto, hattoki, faqat, nahot, nahotki, xuddi** alohida holda yoziladi. Hosili o`rib olingan bug`doyzorlarda, **hatto** olis

yaqindagi bog`larda biron-bir odam qorasi ko`zga chalinmas, **hatto** qirlarda mollar ham ko`rinmas edi.(O.Yo.)

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yordamchi so`zlar deb nimaga aytildi ?
2. Ko`makchilar qanday bazifalarni bajaradi ?
3. Ko`makchilarning qanday turlari bor ?
4. Qanday so`zlarga bog`lovchilar deyiladi ?
5. Bog`lovchilarning qanday turlari bor ?
6. Bog`lovchilarning gapdagi vazifalari nimalardan iborat ?
7. Yuklamalar ma`no xususiyanlariga ko`ra necha xil ?
8. Yuklamalar qanday yoziladi ?

AMALIY MASHQLAR.

Ko`makchi, bog`lovchi va yuklamalarni tahlil qilish tartibi.

1. Qaysi yordamchi so`z
2. Ko`makchining qaysi kelishik shaklidagi so`z bilan kelishi.
3. Bog`lovchining ma`nosi va turi
4. Yuklanamaning ma`nosi va tuzilishiga ko`ra turi.

Namuna; T o`g`risi ham Hasanalining bu kelishi Ziyo aka ucchun yot bir ish edi.(A.Qod.) Inson va butun jonivorlar shunga iqror.-sen-chi?(A.Q.)

Uchun- ko`makchi, sof ko`makchi, bosh kelishikdagi so`zni tobelagan.

Va-bog`lovchi, teng bog`lovchi, biriktiruv bog`lovchi si, yakka bog`lovchi. -chi - yuklama, affiks yuklama, so`roq yuklamasi.

41-mashq. Yordamchi so`zlarni topib, ma`no jihatidan turlarini aniqlang.

1. -Kutilmagan bir baxt- dedi va o`zining otidek bir narsaning tovish kabi qilib kulib yubordi.(A.Qod.) 2. O`g`lim, hali san eshitdingmi, yo`qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo`ydik.(A.Qod.)3. Bu uy, bu tashvish hatto darvozada kutib turgan uch nafar suvoriyni ko`rganda ham xayolidan ko`tarilmadi.(O.Yo.)

4. Ibnsof kerakku -ya. Lekin, bunaqa fursat lar kam uchraydi.(Ch.)5. Tomoshani-ku, ko`rib maza qildi.Ayni choqda tomosha nima bilan tugashini fahmlab javoblarini ham puxtalab qo`ydi.(T.Mal.) 6. Yaxsh i aytib qo`yaman.Lekin... o`rtog`ingizni so`roqqa chaqirishga to`g`gri keladi-da .(T.Mal.)7. Avval tuzalsin-chi ?U tuzalishi mumkindir ammo o`g`li tirilmaydi-ku? Yo tiriltirish qo`lingizda keladimi?(T.Mal.) 8. U eshikdan kirishi bilan opasi bo`yniga osilib yig`ladi va oshxonaga olib kirdi.(A.Q.) 9. E-ha, sening bu tilagingni o`rbnlatmoq uchun

men bir umr mehnat qilmog`im kerak-ku!(P.Q.)10. U bir mufddat dadasingning o`t chaq nayotgan ko`zlariga ma`yus boqib turdi-da bitta- bitta bosib yo`lak tomonga yurdi. (S.A.) 11. Nahotki podshoh Bobur sen bo`lsang?! Ha, men podshoh edim! - -hozir-chi? (P.Q.)

72 s. MODAL SO`ZLAR HAQIDA MA`LUMOT

Fikrning voqelikka bo`lgan munosabatini ifodalab, modal ma`no bildiradigan so`zlar modal so`zlar deyiladi. Modal so`zlar gapning biror bo`lagiga, shuningdek butun gapga taalluqli bo`lib gapda kirish so`z vazifasini bajaradi. Modal so`zlar mustaqil va yordamchi so`z orasidagi turkumlardan bo`lib, ma`no ifodalamasligi jihatidan yordamchi so`zlarga yaqin, gapdagi grammatik o`rni, grammatic ma`nosi va grammatic vazifasiga ko`ra mustaqil so`zlarga yaqindir.

Modal so`zlar morfologik jihatdan o`zgarmasligi bilan harakterlanadi. Modal so`zlar gap bo`laklari bilan grammatic jihatdan bog`lanmaydi. Modal so`zlar quyidagi modal ma`nolarni bildiradi:

1. Fikrning aniqligini bildiradi: **albatta, tabiiy, darhaqiqat, haqiqatan, shubhasiz.** Buni saltanat kichikligida tushunmasdi, **albatta.** (O`U.)
2. Fikrning noaniqligini bildiradi: **ehtimol, chamasi, aftidan, shekilli, balki, chog`i** kabi. Yo yaxshi turmushga haqqi yo`qmi, bu qizlarning? men haqqi yo`q demadim, shekilli ? (O.Yo.)
3. Mavjudlik va tasdiq bildiradi: **bor, mayli, xo`p. Odamlar bor, og`zidagini oldirib o`tiradi.** (O`U.)
- Mayli,** tog`a, sen bir narsani bilib aytayotgandirsan. (S.A.)

Menga yomonlikni ravo ko`rmaysan- ku. Xo`p. (S.A.)

4. Afsuslanish, ajablanish, xursandlikni bildiradi: **attang, ajabo, xayriyat, afsus esiz.** Afsuski, yashash huquqi odam bolasiga bir marta berilgan. (S.A.)

5. Fikrga munosabat, umumlashganlik yoki tartibni bildiradi: **demak, xususan, jumladan, masalan, xullas, binobarin, zero, zotan, chunonchi, birinchidan, ikkinchidan.** Xullas, validai muhtaramamizning iltimoslari rad etilurmu? (P.Q.) Demak, bu qiz uni surishtirgan, kimligini bilmoxchi bo`lgan (S.A.)

6. Fikrni eslash ma`nosini bildiradi: **aytganday, darvoqe, aytmoxchi. Ha aytgancha, dadam Nizomga Dildordan xat keldi,** deb aytib keldilar tinch ekanmi? (S.A.)

7. Mavjud emaslikni bildiradi: **yo`q. Yo`q** haqiqat hech qachon o`z-o`zidan yuzaga chiqmagan. (O`U.)

Modal so`zlar gapda kirish so`z bo`lib keladi. Biroq, **bor, yo`q, ehtiimol, chamasi, albatta, shubhasiz, xo`p, mayli, ajabo** kabi modal, so`zlar so`z- gap holida ham qo`llaniladi. -Voajabo! -dedi u bo`g`ilib. (O.Yo.) Xurshida bonu sekin bosh chayqadi: **-yo`q...** (O.Yo.)

TAKRORLAASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Modal so`zlar qanday modal ma`nolarni anglatadi.

2.Modal so`zlarning gapdagi vazifasi nimalardan iborat

Modal so`zlarni tahlil qilish tartibi

1. Ma`nosiga kora turi.

2. Gapdagi vazifasi.

Namuna: Darhaqiqat, Tursunboy nihoyatda ko`rkam yigit bo`lgan edi.(S.A.) Darhaqiqat- modal so`z, fikrning aniqligini ifodalagan, boshqa so`zlar bilan grammatic jihatdan bog`lanmagan, kirish so`z vazifasida kelgan.

42-mashq. Modal so`zlarni topib ma`nosiga ko`ra turini aniqlang? Tushunarli demak, bu hammasi tushunarli. (P.Q.)2. -Albatta, shaharning darbozasi ertalab ochilib, shom bilan yopiladir... (A.Qod.)3. Saidiy undan boshqa bir gap kutgan ekan shekilli, ta`bi xira bo`lib yonboshladi. (A.Q.) 4. Meninngchak, bu ishga ko`nmaydigan odam bo`lmasa kerak.(S.A.) 5. -Afsus, xonim hazratlari, afsus! -dedi.(P.Q.) 6. Ehtimol, ayni shu xususiyatlari Saltanatga qiziq ko`rinib, unga xush yoqgandir.(O`U.) 7. -Xullas,viltga chidamli yangi nav yaratildi, o`rtoqlar! (O`U.)8. Zunnun o`z hunarini ko`rsatmoqchi bo`ldi, shekilli...(Ch.) 9. Aytgancha, qachon kelishadi.(Ch.) 10. -Tuzuk, -dedi qutidor-uning rizolig`ini o`zingiz olmoqchimisiz? (A.Qod.)

73 s.

UNDOV SO`ZLAR HAQIDA MA`LUMOT

His-hayajon va buyruq-xitobni bildirib, gap bo`laklari bilan grammatic jihatdan bog`lanmaydigan so`zlar undov so`zlar deyiladi. Undovlar garchand, his-hayajon va haydash-chaqirish kabi xitoblarni ifodalasa- da, his-hayajon va haydash -chaqirishga nom bo`lmaydi.

Undovlar morfologik belgilarga ega emas, morfologik usul bilan yasalmaydi. Biroq undovlarning takrorlash va juftlash orqali ayrim undovlar hosil bo`lgan: **ehhe, voy-bo`y, voy-voy, e-ha, e-voh** kabi. Undovlarda ohangning roli kuchli. Binobarin, so`zlar ma`lum ohang bilan aytilsagina his-hayajonni ifodalaydi. Masalan, oddiy tarzda o deyilganda tovush ifodalansa, do`sti nodon koshkiydi, ko`zim ko`r bo`lsa-da, seni ko`rmasam? (O.Yo.) gapidagi **o** tovushida kuchli his-hayajon ma`nosi mavjud, shu boisdan u “xafalik”, “afsusslanish” ma`nolarini bildirgan

Undovlar ma`no xususiyatiga ko`ra ikki xil: **his-hayajon undovlari, buyruq- xitob undovlari**. His-hayajon undovlari turli his- tuyg`ularni, kechinmalarni bildiradi: **o, oh, e, eh, uh, ey, voy, dod, he, a, obbo, ha, o`ho`, ehe, attang, vodarig`, rahmat, salom, ofarin, balli, barakallo** kabilar. Bu xildagi undovlarning his-tuyg`u bildirishida ohang muhimdir.

His-hayajon undovlari quyidagi ma`nolarini ifodalaydi :

1. Shodlik, xursandchilik ma`nolarini ifodalaydi. O`ho`, zo`r-ku. Egasi kim ekan? (O`U.) **-Obbo**, azamat -ey! To`rt yarim sotih kelib qoladi. (S.A.) Xafalikni, charchoqni, og`ir ruhiy qiyinchilikni ifodalaydi. Evoh! U ko`pdan beri shahzodadan qo`rqib yurgani bejiz emas. (O.Yo.)

3. Ta`kid va taajjublanish ma`nolarini ifodalaydi. Eh, Aziz, Aziz! hech kim qilmagan ishni qilaman , deb ko`krak mushlab katta ketmay qo`yaqol!.(O`U.) **E**, tavba! Nima va`da bergen ekan, hayronman! (O` U.)

4. Urf-odat ma`nolarini ifodalaydi. Jindek mizg`ib olganingdan keyin idoraga chiqasan **xayr**. (S.A.)

Buyruq -xitob undovlari asosan hayvonlar va qushlarni chaqirish, haydash, harakatlantirish yoki harakatdan to`xtatish uchun ishlatiladi: **beh-beh, bah-bah, tu-tu-tu, chu, ish, pisht, xi-xi, tur, (itni), chigi-chigi, ho`sh-ho`sh, kisht-kisht.**

Buyruq-xitob undovlarining ayrimlari insonga nisbatan ham ishlatiladi. Bunday holda undovlar nom o`rnida ishlatilib, murojatni ifodalaydi: hoy, ey, hey, kabi. **Ey** , jiyan boshimga balo qo`yding -ku. (S.A.)

74 s . **TAQLIDIY SO`ZLAR HAQIDA MA`LUMOT**

Shaxs, predmet va jonivorlarning tovushlariga, harakat va holatning ko`rinishlariga taqlid bildiruvchi so`zlar taqlidiy so`zlar deyiladi. Taqlidiy so`zlar fikrni obrazli, ta`sirchan ifodalash uchun xizmat qiladi. Taqlidiy so`zlar ma`no xususiyatlariga ko`ra ikki xil: **Tovushga taqlid bildiradigan so`zlar , shu`la-harakatga taqlid bildiradigan so`zlar.**

Tovushga taqlid bildiradigan so`zlar: **qars-qurs, gumbur-gumbur, tap-tup, tapur-tapur, gurs-gurs, piqir-piqir, pix-pix** kabi. Tovushga taqlid bildiruvchi so`zlar quyidagicha tovushlarga taqlidlarni ifodalaydi.

1. Insonga xos bo`lgan tovushga taqlid bildiradi: **piq-piq, qiqir-qiqir, inga-inga** kabi.2. Hayvonlarga va parrandalar tovushiga taqlidni bildiradi: **miyov-jmiyov, ku-ku, g`ur-g`ur** kabi. 3. Narsa va predmetlarning harakati natijasida hosil bo`ladigan tovushga taqlidni bildiradi: **pish-pish, qars-qurs, tars-turs, sharaq-shuriq, gusur- gusur** kabi. Shu`la -harakatga taqlid bildiruvchi so`zlar ma`no jihatidan quyidagicha.1. Shu`la-harakatning ko`rinishiga taqlid bildiruvchi so`zlar: **lip- lip, yalt-yult**. U trambay derazasidan **lip-lip** o`tayotgan past -baland hovlilarga tikilganicha indamay ketaverdi. (O`U.) Bittasini qo`liga olib aylantirgan edi, derazadan tushayotgan kichik shafaqda **yalt- yult** nur socha boshladi.(O`U.)2. Predmetning ko`rinishi, paydo bo`lishiga taqlid bildiruvchi so`zlar: **milt-milt, lapang-lapang, mo`lt-mo`lt**. Unga qarab turgan onaning yurak- bag`ri ezilib, ko`zlaridan mo`lt-mo`lt yosh dumaladi. (S.A.)3. Kishi yoki predmetning holatiga taqlid bildiruvchi so`zlar: **lang, dong, hang - mang, pish-pish**.

Dildor taxmondan ko`rpa olib uctiga yopib qo`ydi. O`zi oyoq tomondan pish-pish uqlashiga qarab o`tirardi.(S.A.)4. Narsaning ko`pligiga taqlid qilinuvchi so`zlar: **g`uj- g`uj. G`uj-g`uj** bo`lib kelayotganiga qaraganda yoyilib yurgan qo`ylar emas.(P.Q.) Taqlidiy so`zlar yakka holda: **shaq, qars, gurs, gup, lip, yalt** kabi hamda takrorlangan holda ham qo`llaniladi. Taqlidiy so`lar takrorlangan holda qo`llanilsa so`zlarning ikkinchi qismi fonetik jihatdan o`zgarishi mumkin: **qars-qurs, hang- mang, paq-puq, g`arch-g`urch**.Taqlidiy so`zlar sintaktik vazifa bajarish jihatidan mustaqil so`zlarga yaqin. Chunki

taqlidiy so`zlar gapda barcha gap bo`lagi bazifalarida keladi. Taqkudiy so`zlar otlashganda ega, to`ldiruvchi, o`z holida aniqlovchi, hol , kesim bo`lib keladi. O`rdak va qashqaldoqlarning **g`aq -g`uqi** olamni tutgan.(S.A.) Akajon kallangiz **f`ij - g`ij** aql - da .(T.Mal.) Jannat xola suratni olib, **dag`-dag`** titrab turardi. (S.A.)Taqlidiy so`zlardan ot , sifat, va fe`llar yasaladi: **qarsak, g`urra , yaltiroq, miltira, guppilla** kabi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Undovlarning qanday ma`no turlari bor ?
2. Taqlidiy so`zlar nimalarga taqlid bildiradi ?

AMALIY MASHQLAR.

Undov va taqlid so`zlarni tahlil qilish tartib

1. Undovlarning ma`nosiga ko`ra turlari.
2. Taqlidiy so`zarning ma`nosiga ko`ra turlari.
3. Taqlidiy so`zlarning gapda gi vazifasi.

Namuna: - O, mavlono, mavlono ! Sizday etuk donishmand bu ishda sabiylik qilib dur.(O.Yo.)Unga qarab onasining yurak - bag`ri ezilib ko`zlaridan mo`lt-mo`lt fyosh dumalar edi.(S.A.) O- undov, his-hayajon undovi, og`ir ruhiy qiyinchilikni ifodalash uchun ishlataligancha. Mo`lt- mo`lt- taqlid so`z, inson holatiga taqlid ifodalangan, aniqlovchi vazifasida kelgan.

43-Mashq. Taqlidiy so`zlarni topib, ma`nosiga ko`ra turini aniqlang.Gapdag'i vfazifasini aytin.

1. Uning iyagi qandaydir osilib qolgan, tishlari bir-biriga tegmay shaq-shaq qilar, dir-dir ttragan nogiron qoq suyak vujudi, yonib turgan qo`zları shunday bvahimali va ayanchli edi.(O.Yo.)2, Dukur-dukur oyoq tovushlari yaqinlashib, qufl-kalitlarning sharaq-shurig`i eshitildi.(O.Yo.) 3. Yaproqlari siyraklashib qolgan yarim yalang`och bog` daryodaay sokin shovullar chirs- chirs uzilgan bxazonlar havoda pir-pir uchib oyoq ostidagi “gilam” ustiga unsizgina qo`nar edi. (O.Yo.)

4. Shu asnoda xuddi kutib turganday Rasul Olloyorovich qabulxonasidan dang-dung ovoz eshitildi. (O`U.) 5. Unga jobdirab boqqan Dildorning ko`zlaridan duv -duv yosh oqardi.(S.A.) 6. Boshini eggancha piq-piq yig`lardi u. (G.A.)

44-mashq. Undov so`zlarni topib, ma`nosiga ko`ra farqlanishini aytin.

1. O, bolam, -dedi kampir ishga yaramaydi ! (A.Q.)2.-Yo rabbiy!-estaaning qo`ligagi moychiroq qaltirab ketdi.(O.Yo.03. -Eh xumsa,-dedi yigit va ariqdan sakrab sodiqning yo nig`a o`tdi.(A.Qod.)4 . -O`h, zo`r-ku.egasi kim ekan.(O`U.5. -Obbo betofiq-ey!... deb so`zlanardi.(Ch.)6. Oh, shu topda Saltanatxon bo`lsaydi.(Ch.)7. -Vo darig` ! Vo darig` !-dedi u sahifalarni shapatilab. (T.Mal.)8. -O`h-ho` , juda azamat bo`lib ketibsan-ku...(S.A.) 9. -E voh, ellikka ham to`lmay ketibdilar- a! (P.Q.)

BESHINCHI BO`LIM

SINTAKSIS

75-s SINTSKSIS VA UNING TURLARI

Sintaksis termini grek. **suntaxis** “tuzish” lemakdir. Gap va uning tuzilishi, turlari so`z birikmasini o`rganuvchi gramatikaning bir bo`limi sintaksis deyiladi.

Ma`lumki, kishilar bir -birlari bilan fikr almashadilar; aloqa qiladilar. Bu esa gap orqali ro`yobga chiqadi. Gap o`z navbatida so`zlarining turli sintaktik munosabatlari asosida tuziladi. Ana shu fikr almashuv vositasi bo`lgan gap va so`z birikmasini o`rganish sintaksisning asosiy vazifasidir.

SHunga ko`ra sintaksisning o`rganish sohasi birnecha turlarga bo`linadi.

So`z shakl sintaksisi - har bir gapda ma`lum bir shaklda ishtirot etadigan mustaqil so`zlarni ya`ni gap bo`laklarini o`rganadi. Masalan: oftob olamni yoritadi (gapida oftob -ega, olamni to`ldiruvchi, yorimadi -kesim) kabi.

So`z birikmasi sintaksisi - o`zaro sintaktik bog`lanib, tushuncha ifodalovchi birlklarni o`rganadi. Masalan: rektorning bo`yrug`i, quyoshning tafti, odamlarning fikri, talabaning kitobi.

Gap sintaksisi -o`zaro sintaktik bog`lanib, fikr ifodalovchi birlklarni -sodda va qo`shma gaplarni o`rganadi. Masalan, Bahor keldi.(sodda gap). Bahor keldi, gullar ochildi (qo`shma gap).

Matn sintaksisi- mazmuniy yaxlitlikni tashkil etgan oliy darajadagi kommunikativ butunliklarni o`rganadi. Masalan,Bizning keyingi yillarda erishgan eng katta yutug`imiz - bu umumiylar xonadonimizda qaror topgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikdir.

(I. Karimov). Sintaksisning asosiy birlklari quyidagilar;

1. **So`z (leksema)**- leksik, so`z shakl-grammatik birlik, ma`lum grammatik shakldagi so`z (so`z shakl) gapda ma`lum sintaktik vazifa bajaradi, sintaktik birlik bo`ladi va gap bo`lagi vazifasini bajaradi;

2. **So`z birikmasi** - so`zlar o`zaro sintaktik bog`lanib, tushuncha ifodalovchi birlik- so`z birikmasini hosil qiladi. U gap tarkibida uni hosil qiluvchi unsur hisoblanadi.

3. **Gap- so`zlar sintaktik** bog`lanib xabar bildiruvchi, fikr ifodalovchi birlik yuzaga keladi.

Tushunchalar orasidagi munosabatlarni ifoda qilish uchun ma`no va grammatik jihatdan o`zaro bog`lanib kelgan ikki va undan ortiq mustaqil so`z , so`z birikmasi deyiladi. Masalan: a`lochi talaba, keksa bog`bon, tovushdan tez, oppoq qor, Shohistaning kitobi.

So`z birikmasi kamida ikkita mustaqil so`zning o`zaro grammatik jihatdan bog`lanishidan hosil bo`ladi. So`z birikmasi erkin birikma hisoblanadi va turg`un birikmalardan farq qiladi.

Turg`un birikmalar tarkibidagi so`zlar o`rnini almashtirib bo`lmaydi va ular bir gap bo`lagi vazifasini bajaradi. Erkin birikma tarkibidagi so`zlar o`rnini

almashtirish mumkin va birikma tarkibidagi harbir so`z alohida gap bo`lib kela oladi .Misolarni solishtiring:

Anvarning bu gaplardan keyin hafsalasi pir bo`ldi (gapida hafsalasi pir bo`ldi -kesim, turg`un birikma), Anvarning onasi uyga keldi (Anvarning -aniqlovchi, onasi ega- erkin birikma).

So`z birikmasi nutq birligi va nutq jarayonida yuzaga keladi; turg`un birikma esa til birligidir.

So`z birikmasini gap va qo`shma so`zlardan ham farqlash kerak. So`z birikmasi teng bo`g`langan so`zlardan ham farq qiladi. Qiyoslash uchun misollar: chiroyli kuylakli qiz (so`z birikmasi) chiroyli qizni ko`rdim (gap), eryong`oq (qo`shma so`z), chiroyli (so`z), janoblar va xotinlar(teng bog`lanish) va boshqalar.

SINTAKTIK MUNOSABATLARNI IFODALOVCHI VOSITALAR

Sintaktik aloqalarni ifodalovchi vositalarning turlari va xususiyatlari:

1) **So`z shakl-** bir so`zning boshqa so`zga bog`lanishini ko`rsatadi, gramatik ma`noni bildiradi. Bu esa shakliy -grammatik bosita sanaladi, qo`shimchalar orqali yuzaga keladi:

a) kelishik qo`shimchalari:-ga, -ning, -ni, da, dan, kabi. Masalan, dalaga bormoq, Sanobarning kitobi, uyni supurmoq: b) egalik qo`shimchalari, -im, ing, i, ingiz: Mening uyim ;sening kitobing; ularning ishi; v) tuslovchi shakl- son qo`shimchalari ; **- m, -k, -ing, -ingiz;** men oldim; biz o`qidik; siz keldingiz va boshqalar.

2. **Yordamchi so`zlar** -kelishik qo`shimchalarida o`xshash vazifani bajaradi, otni fe`lga bog`laydi, leksik- grammatic vosita sanaladi:

a) ko`makchilar bilan, uchun, kabi singari sevinch bialn kutmoq bolalar uchun atamoq, tong kabi musaffo;

b) bog`lovchilar uyushiq bo`laklar va gaplarni bog`laydi:

3. **So`z tartibi:** so`zning sintaktik vazifasi maxsus ko`rsatkichlar bilan ifodalaganda tartib bosh rolni o`ynaydi; masalan, qizil olma (birikma) olma qizil (gap), yaxshi odam (birikma), odam yaxshi (gap).

4. **Ohang.-**To`xtamning o`zgarishi birikmaning bog`lanishini o`zgartiradi. Masalan: Besh bolali (yigitcha. Besh). bolali yigitcha. Otabek akam, muxandis bo`ldi. Otabek, akam muxandis bo`ldi. Otabek akam muxandis bo`ldi. va boshqalar.

SO`Z BIRIKMASINING ALOQA TURLARI

So`zlar o`zaro ikki xil usul bilan aloqaga kiradi; a) teng bog`lanish; b) tobe bog`lanish.

Teng bog`lanishda so`zlar bir xil gap bo`lagi bo`lib, sanash ohangi yoki bog`lovchilar yordami bilan birikadi. Masalan. Bu yil -**onalar va bolalar yili**. Muhayo, Surayo, Ra`no, Muqaddas, ko`zlarni yashnatib kiyibsiz atlas (qo`shiq.) kabi gaplardagi onalar va bolalar hamda 2-gapdagি Muhayo, Surayo, Ra`no, Muqaddas so`zлari teng bog`langan.

Ular kesimga nisbatan teng huquqli bo`lib, bir xil gap bo`lagi vazifasini bajaradi. Bunday bo`laklarning o`rni almashtirilgan bilan, ma`no va grammatik holati o`zgarmaydi. Tobe bog`lanisgda esa biri hokim, biri tobe so`zlar aloqada kirishadi.

Ularning biri ikkinchisini to`ldirib, aniqlab izohlab keladi. Shuning uchun aniqlab to`ldirib kelgan so`z tobe, u bilan bog`lanib kelgan so`z hokim so`z bo`ladi va gapda boshqa -boshqa tintaktik vazifa bajaradi. Shunga ko`ra tobelanish turlari quyidagicha bo`ladi:

Moslashuv. Bunday tobelanishning asosiy xususiyati tobelanish bir qismning boshqasini aniqlashga xizmat qildirishidir. Tobe so`z bilan hokim so`z bir-biriga moslashadi, hararat, belgi va predmetning qaysi predmetga tegishliligi ko`rsatiladi. Masalan, mening vatanim, gullarning guli, talabalarning o`qishi. Gullarning guli - Nargis . Bunda guli (hokim) so`z talabi bilan gullarning (tobe so`z) qaratqich kelishik qo`shimchalarini olib kelgan. Dutorimning torlari qo`sh bulbuldek sayraydi kabi.

Boshqaruv. Bu bog`lanishda tobe so`z hokim so`zning talabi bilan o`z shaklini o`zgartiradi. Masalan, Maktabga bormoq, ishdan kelmoq, Ko`chani tozalamoq.

Fe`l boshqaruv va ot boshqaruvi . Masalan: ochilgan gul, sayragan bulbul. Asal qanddan shirin.Sifatli boshqaruv . Masalan, Uyat o`limdan yomon.Kelishikli va ko`makchili boshqaruv . Masalan, Kundan kun sovuq, Yaxshidan ot, yomondan dog` qolar.Baliqning tirikligi suv bilan.

Bitishuv._Bunday bog`lanishda so`zlarning o`zaro aloqasi tartib va ohang orqali beriladi: a) sifatlovchi + sifatlanmish; sifatlovchi vazifasida sifat, son, olmosh, ravish keladi. Masalan: Ko`m-ko`k dala, katta bino, bu uy, beshta talaba, oqar suv, oltin fasl.b)hol + hollanmish: hol vazifasida ravish va ravishdoshlar keladi. Masalan: samolyot tez uchdi. Rangi oqarib ketdi va boshqalar.

Tobe bo`lak vazifasiga ko`ra;

1) aniqlovchi, + aniqlanmish munosabat(tobe bo`lak ot, sifat, son, olmosh, ravish, sifatdosh kabi so`zlar , hokim bo`lak esa ot va otlashgan so`zlardan iborat bo`ladi.) Masalan, tutning bargi, qizil gullar, bitta kitob, o`sha joy, pishiq q`isht;

2) To`ldiruvchi + kesim munosabati (tobe bo`lak otning kelishikli shaklida, hokim bo`lak fe`l, sifat bo`ladi) Masalan: Mardni mehnat engolmas. Qo`rroqqa qo`sh ko`rinar. Yaxshidan ot qoladi.

3) hol - kesim munosabati (tobe bo`lak ravish, ravishdosh va ba`zan otdan, hokim bo`lak esa fe`ldan) bo`ladi. Masalan: To`y kecha o`tdi. Eshik taraqlab yopildi. Olov gurillab yondi. Oftob sekin -asta bota boshladi.

So`z birikmalar tuzilish jihatidan ikki turga bo`linadi :1) sodda birikmalar, 2) murakkab birikmalar.

1.Sodda birikmalar . Tarkibi ikki mustaqil so`zdan iborat bo`lgan birikmalar sodda birikmalar deyiladi. Masalan: yosh olim,katta ko`cha qirra burun odam.

Tobe so`z ajralmas birikmalardan va tobe so`z frazeologik ibora, turg`un birikma va tarkibli nom bilan ifodalanadi. Masalan: Hafsalasi pir bo`lib ketdi. Surxondaryo viloyatining markazi, “O’tkan kunlar” romani. Borsa kelmas oroli.

2. Murakkab birikmalar. Tarkibi uch va undan ortiq so`zdan iborat bo`lgan birikmalar murakkab birikmalar deb ataladi. Murakkab birikmalar:a) sifatlovchili; b) sifatdosh oborotli; v) harakat nomli; g) ravishdosh oborotli murakkab birikma lardan iborat. Misollar: Paxta gulli chinni piyola. Paxta terish uchun keltirilgan mashinalar. Ko`p bolalai oyila va boshqalar.

G A P

77. ss.

GAP HAQIDA UMUMIY MA`LUMOT

Voqelikni va unga bo`lgan munosabatni ifoda qilish uchun grammatic jihatdan shakillangan, ohang va mazmun jihatdan nisbiy tugalikka ega bo`lgan so`z yoki so`zlar bog`lanmasi gap deyiladi.

Ma`lumki, kishilar o`zaro fikr almashadilar aloqa qiladilar, bunday aloqa aralashuv faqat gap orqali yuzaga keladi. Shuning uchun gap fikrni ifoda etuvchi nutq birligidir.

Gapning asosiy belgilari quyidalar:

1. Gap asosan so`zlarning ma`lum grammatic qoidalar asosida birikuvidan hosil bo`ladi. Masalan: Dars boshlandi.

2. Gapning yana muhim belgilaridan biri hukm (phedikativlik)dir. Bunda so`zlovchining aytilayotgan fikriga bo`lgan munosabati ifoda qilinadi. Hukm (predikativlik moddalik, zamon, shaxs-son kategoriylarini o`z ichiga oladi. Hukm so`zlarning predikativ munosabatiga kirishuvi bilan (ega va kesim aloqasi bilan) ifodalanadi. Masalan:

Yoshlar mustaqil vatanga sodiq bo`ling !


3. Gap ohang (intonatsiya) tugalligiga ega. Ohang, bir tomondan, bir qancha so`zlar bir gapni tashkil etganligini ko`rsatsa, ikkinchidan, gapning tugallanganligini ko`rsatadi, bu esa yozuvda turli tinish belgilari orqali ifoda etiladi. Masalan; Ular butun vujudi bilan ishga sho`ng`ib ketishgandi- yu, ammo texnika etishmasdi(CH.A.)

Oltinsoy tongi naqadar go`zal (SH R)Yuragimni hech sezasanmi, men sevaman, sen sevasanmi(qo`shiq) .Birinchi gapda xabar ohangi bo`lgani uchun(.

), ikkinchi gapda his-hayajon ohangi bo`lgani uchun (!), uchinchi gapda so`zoq ohangi bo`lgani sababli (?) belgilari qo`yilgan.

4. Gap fikriy jihatdan nisbiy tugalikka ega. Bu esa ma`lum sharoit bilan bog`liq. Ba`zan bir so`z ham gap bo`lishi mumkin. Masalan; Kuz oltin fasl. Pishiqchilik. To`kin -sochinlik.

Gaplarning umumiyl tasnifini ko`rsatuvchi jadval.



IFODA MAQSADIGA KO`RA GAP TURLARI

Umuman olganda so`zlovchi tinglovchiga o`z fikrini bayon qilish uchun o`z oldiga turli maqsadlarni qo`yadi ya`ni biror voqeal haqida ma`lumot olishni istaydi, yo tinglovchini biror ishini bajarishga undaydi, yoki shu haqda istak bildiradi. Demak so`zlovchining bunday istagi ifoda maqsadiga ko`ra gaplar uch turga bo`linadi: darak gaplar, so`roq gaplar, buyruq gaplar.

Darak gap. Borliqdagi voqeal -hodisa, narsalarni tasdiq yoki inkor yo`li bilan xabar qiluvchi gaplar darak gap deyiladi. Masalan, Mirzo Ulug`bek chashma bo`yiga tiz cho`kib, muzday suvgaga yuvindi, tahorat oldi va movut to`nini buloq atrofidagi sarg`aya boshlagan ajriq zorga yozib, peshin o`qidi. (O.Yo)

Darak gap maxsus ko`rsatkichga ega emas. Darak gap fe`l bilan, ayrim hollarda ot bilan ham ifodalanadi. Masalan, Dunyo xaritasida jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan yangi davlat O`zbekiston Respublikasi paydo bo`ldi. (I. Karimov). Bahor keldi, gullar ochilsa, yana avvalgiday tabiat gullar (H. O.) Darak gapning oxiriga nuqta (.) qo`yiladi.

So`roq gap So`zlovchi uchun ma`lum bo`lmagan voqeа -hodisa, harakat holat haqidagi so`roqni ifoda qiluvchi gaplar so`roq gap deyiladi. Masalan:

Suvdan oldin-- sel kelar,
Tuzdan keyin -- siz kelar.
Suv, tuzga- siz qo`shsak,
Toping, qanday so`z bo`lar ?

(grammatik topishmoq)

So`roq gaplarning tarkibida so`roq olmoshi va so`roq yuklamasi bo`ladi yoki so`roq ohangi bilan talaffuz etiladi. Masalan:

Bor “yalpizda”, yashinda
Ham “yaqin”, ham yashilda
Undan so`ng yozilmasa ,
U qaysi harf ekan-a ?
Bir unli-yu bir undosh ,
Qanday bo`g`in? Ton Yo`ldosh.

(grammatik topishmoq)

So`roq gaplar quyidagi vositalar orqali hosil bo`ladi:

1. So`roq olmoshlari: **kim?** **nima?** **qanday?** **qaysi?** **qancha?** **necha?** **qaerda?** **qachon?** **nega?** **nima uchun?**. Masalan: Tuz qachon bo`ladi tus

Or qachon bo`ladi qor?

(grammatik topishmoq)

2. **-mi, -chi,-a,-ya** yuklamalar: Terma, terim, terimchi, qanday so`zlar? Topingchi?

3. So`roq ohangi: Nahotki, daryolar oqsa teskari(G. G.) So`roq gaplar mazmuniga ko`ra bir necha turga bo`linadi:

1. **Sof so`roq gaplar** tinglovchidan ma`lum bir javobni talab qiladi. Masalan: Qaysi so`zlar turlanadi ? Sen Toshkentda bo`lganmisan? Nimadan xafa bo`lding?

2. **Ritorik so`roq gaplar** . Bunday gaplarning so`rog`i ichida javobi ham anglashib turadi. Uslubiy vosita sifatida nutq uchun xizmat qiladi. Masalan;

Men nechun sevaman O`zbekistonni ?

Tuprog`ini ko`zimga aylab to`tiyo ? (A. O.)

Nechun ftug`ding, meni baxti qaroni?

Balogha muftalo matamsaroni?

Muruvvat bilmagan kunlar uchunmi?

Jafokash, bberaxm tunlar uchunmi?

(“N”)

3. So`roq buyruq gaplar so`roq mazmuni bilan birga buyruq mazmunini ham ifodalaydi. Masalan: Tez-tez yurmaysanmi ? (tez-tez yur)

So`roq gaplarning oxiriga so`roq belgisi qo`yiladi.

Buyruq gaplar. So`zlovchining biror narsaga buyirishi, undashi iltimos qilishi, maslahati kabi fikrlarni ifodalaydigan gap buyruq gap deyiladi.

Buyruq gaplar semantik jihatdan quyidagi guruhlarga bo`linadi:

1) **Sof buyruq gaplar:** Kitobni oxirigacha o`qi ! Bugun o`qishga ertaroq bor ! Darsdan kechikma!

2. Iltimos, yalinish ifodalananadi. Masalan: Ozgina jim o`tir. O`n to`qqizdan oshmay tur go`zal, (H. O.)

3. Maslahat, nasihat gaplar: Masalan: Nasihatim yod qilib ol farzandim (F. Yo)

4. Istak, tilak,maqsad gaplar: Masalan: Mustaqil yurt gullashi uchun tinmay mehnat qiling. Yo siz keling, yo men boray.

His- hayajon ifodalashiga ko`ra gap turlari. Bu jihatdan gaplar ikki turga bo`linadi:

1) his-hayajonga ega bo`lmagan gaplar.

2) his- hayajon yoki undov gaplar. His- hayajonga ega bo`lmagan gaplarga darak gap, so`roq gap, buyruq gaplar kiradi.

His- hayajonli gaplar. Kuchli his- hayajon bilan darak, so`roq, buyruq gaplardan hosil bo`lgan gaplar his-hayajon gap deyiladi. Masalan:

Har aytganning buyuk jangnomha,

Qayga desang qaytmay keturman.

His-hayajon gaplar quyidagi ma`nolarni ifodalaydi.

1. Darak : ə,biz bunaqa imtihomgan endi o`tayotganimiz yo`q!

2. So`roq: Naqadar chiroyli manzar - a? ! (Sh. R.)Ona ! Dunyoda bundan yoqimliroq so`z bormikan? !

3. Buyruq: Baxtimizga mustaqillik omon bo`lsin!

4. Shodlik, quvonch, tantana:

Alisherni alla aytib uxlatgan ona!

Og`ishida Bobur kamolga etgan ona!

Torobiyni ulug` jangga jo`natgan ona!

Sharaf senga, obro` senga, senga tantana!

Sharaflarga muyasarsan ey, ulug` ona ! (M. Sh)

5.Taajjub: Shunday erkin zamonlar ham kelar ekan--a? !

6. Qayg`u, afsus: Esiz taqtir ekan qaydan bilibmiz! (“Havoyi”drammasi).

Harqanday gapning tuzilish jihatidan turlarini uning grammatik asosi belgilab beradi. Gapning grammatik asosini bosh bo`laklar: ega va kesim tashkil etadi. Gap tarkibidagi grammatik asos (ega va kesim) ning ishtirokiga ko`ra gaplar tuzilish jihatidan ikki turga bo`linadi: **sodda gaplar va qo`shma gaplar**.

Bitta grammatik asosiga ega bo`lib ma`lum bir fikr va his- hayajonni ifodalovchi gaplar sodda gaplar deyiladi.

Ikki va undan ortiq grammatik asosdan iborat bo`lib, nisbatan murakkabroq fikrni ifodalovchi gaplar qo`shma gap deyiladi. Masalan:

Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yoqdir bundayin ko`klam.
(H. O.)

Til bilan til dushman bo`lmaydi,
O`ldirmaydi qo`sinqni qo`sinq
(R. H.)

Keltirilgan misollarning birinchisi sodda gap bo`lib, uning grammatik asosi bitta: ega va kesimdan (**yoqdir ko`klam**) ikkinchi gap esa qo`shma gap, uning grammatik asosi ikkita ,1) **dushman bo`lmardi**,2) **o`ldirmaydi qo`sinq**.

Sodda gaplar grammatik asosning tarkibliga ko`ra ham ikki xil: 1) ikki tarkibli gaplar, 2) bir tarkibli gaplar.

Grammatik asosi ikki bosh bo`lakdan (ega va kesim) dan iborat bo`lgan gaplar ikki tarkibli gaplar deyiladi. Masalan: Solihlar esga olinganda Allohning rahmati hozil bo`ladi (Tusiy). Bu gapning grammatik asosi ega (solihlar) va kesimi (hosil bo`ladi) dan iborat.

Grammatik asosi bir bo`lakdan iborat bo`lgan gaplar gap bir tarkibli gap deyiladi. Masalan:

Oyni etak bilan yopib bo`lmas. Bu gapning grammatik asosi faqat kesim (yorib bo`lmasdan) iborat.

Sodda gaplar, ikkinchi darajali bo`laklarning ishtirokiga ko`ra **yig`iq** va yoyiq gaplarga bo`linadi.

Ega va kesimdan tashkil topgan sodda gaplarning bir ko`rinishi yig`iq gap deyiladi. Masalan. Qor tindi. Hamma yoq oppoq.

Tarkibida bosh bo`laklardan tashqari ikkinchi darajali bo`laklar ham ishtirok etgan gaplar yoyiq gap deyiladi. Masaln: Aziz va ulug` bo`lgan

Allohga bir soat astoyidil tavajjuh qilishning quyosh nuri tushadigan barcha narsadan yaxshiroqdir. (Abduni Zajjoj). Bu gapda aziz va ulug` bo`lgan (aniqlovchi), allohga (to`ldiruvchi), bir soat (aniqlovchi) astoyidil tavajjud qilishning (aniqlovchi), yaxshiroqdir (kesim). Shu boisdan bu gap yoyiq gapdir.

GAPNING TUZILISHIGA KO`RA TURLARI JADVALI

№	Predikativ markazlarning	Bosh bo`laklarning	Ikkinci darajali	Zaruriy bo`laklar	Bo`laklarga bo`linish-bo`li
---	--------------------------	--------------------	------------------	-------------------	-----------------------------

	miqdoriga ko`ra	ishtirokiga ko`ra	bo`laklar-ni ng ishtirokiga ko`ra	ishtirok etmasligiga ko`ra	nmasligiga ko`ra
1.	Sodda gap	Bir bosh bo`lakli gap	Yig`iq gap	To`liq gap	Bo`laklarga bo`linadidan gaplar
2.	Qo`shma gap	Ikki bosh bo`lakli gap	Yoyiq gap	To`liqsiz gap	Bo`laklarga bo`linmaydig an gaplar (so`z -gaplar)

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. So`z birikmasi va uning turlarini ayting
2. Gapni ta`riflang? Gap boshqa sintaktik birliklardan qaysi xususiyatiga ko`ra farq qiladi?
3. Gap ifoda maqsadiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?
4. Gapning grammatik asosi deganda nimani tushunasiz?
5. Gaplar tuzilishiga ko`ra qanday turlarga bo`linadi?
6. Gapning grammatik asosini qaysi bo`laklar tashkil etadi?
7. Gaplar tarkibiga ko`ra qanday turlarga bi`linadi?
8. Sodda gap bilan qo`shma gapning qanday farqi bor?

AMALIY MASHQLAR

So`z birikmasini tahlil qilish tarti bi va unga namuna

- 1.Birikmani aniqlash.
- 2.Hosil bo`lish usuli ko`rsatish (moslashuvf, boshqaruv, bitishuv).
3. Hikim so`zning qanday sintaktik vazifa bajarganligiga ko`ra turini aniqlash.
4. So`z birikmasining tuzilishiga ko`ra turini aniqlash.
5. So`z birikmasining tuzilishiga ko`ra turlarini aniqlash. (Sodda yoki murak kab) Masalan: Bo`riboy daladagi ishlarining borishini to`liq tushuntirib beradi.(Gazetadan). 1) fdaladagi ishlar bitishuv, otli (hokim so`z- ot), aniqlovchili (tobe so`z aniqlovchi vazifasida)sodda.
- 2) ishlarning borishi- moslashuv, sodda 3)borishini tushuntirib berdi- boshqaruv, fe`lli (hokim so`z fe`l to`ldiruvchili (tobe so`z- to`ldiruvchi vazifasida), sodda 4) to`liq tushuntirib berdi- bitishuv, fe`lli (hokim so`z- fe`l), holli (tobe so`z ravish holi vazifasida) sodda

45-mashq. O`qing, ushbu keltirilgan gaplardagi so`zlarning o`zaro qanday bog`lanish va uning turlarini ayting.

1. Keyingi o`n yillikda biz qo`lga kiritgan eng buyuk muvaffaqiyat mustaqillik. (Gazetadan)2. Oltinsoy tongi naqadar go`zal (Sh. R.)3. Talabalar berilgan topshiriqlarni hamma bajarib kelganligidan aytishdi.4. Fakul`tet dekani shanbbalikka chiqishni aytdi. 5. O`zbekiston sportchilari olimpiada o`yinlarida katta g`alabani qo`lga kirtdilar (Gazetadan). 6. Ochil bvujudida hayajonli titroq bilan deraza oldiga keldi(P.Q.) Daraxtlarning uchlari asta qimirlaydi (O.)8. O`zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida yuz yillarga teng g`alabalarga erishdi.

79 s.

GAP BO`LAKLARI

Gap tarkibini tashkil etuvchi bo`laklar gap bo`laklari deyiladi. Gap bo`laklari: bosh bo`laklar va ikkinchi darajali bo`laklardan iborat.

Gapning grammatik asosini tashkil etuvchi va predikativ markaz hosil qiladigan bo`laklar bosh bo`laklar deyiladi.

Gapda bosh bo`laklarning mazmunini to`ldirib, aniqlab keladigan bo`laklar ikkinchi darajali bo`laklar deyiladi. Bosh bo`laklar ega va kesimdan , ikkinchi darajali bo`laklar **to`ldirubchi, aniqlubchi**, holdan iborat.

EGA VA UNING I FODALANISHI

Gapda mutloq hokim bo`lib, kesim orqali ifodalanadigan fikrni bildiruvchi bosh bo`lak ega deyiladi.

Ega asosan predmet tushunchasini anglatib, kesim orqali,bildirilgan belgi harakat, holatning kimga yoki nimaga tegishliligini ko`rsatadi va bosh

kelishikdagi so`z bilan ifodalanib, kim? nima? kimlar ? nimalar? qayer? kabi so`roqlardan biriga javob beradi.

Ega quyidagicha ifodalanadi:

1. **Ot bilan:** a) atoqli ot bilan ifodalanadi. Masalan: **Alisher Navoiy** g`azal mulkining sultonidir.

Avaz botqoq va qorong`i yoldan tekis va yorug` maydonga chiqdi (P. Q.) Qorabuloq -juda chiroyli juda so`lim joy (M. Is). b) turdosh ot bilan.

Bunda ari keltiradi bol,

Bunda qushlar topadi iqbol.

1. **Olmosh bilan:** Biz kelgusi asrga o`zimiz bilan nimalarni olib o`tishimiz mumkin va zarur ? (I. K.)

Harkimki vafo qilsa , vafo topqusidir. (Bobur)

1. **Son bilan:** ikki yorti- bir butun (Maqol) **ikki o`nbesh** bir i`ttiz (Maqol).**Harakat nomi bilan:** Ikkilanish yaramaydi.

2. **Sifatdosh bilan:** ishlagan tishlaydi(Maqol).

3. **Sifat bilan:** Yaxshi yetar murodga, yomon qolar uyatga(Maqol.)

4. **Taqlidiy so`z bilan :** Ichkaridan odamlarning shov-shovi eshitildi.

5. **Birikmalar:** O`ylamay gapirgan og`rimay o`lar.(Maqol.)

KESIM VA UNING IFODALANISH

Eganing belgisini, hukmni tasdiq yoki inkor yo`li bilan ifodalaydigan bosh bo`lak kesim deyiladi.Eganing belgisi harakat , holat, xususiyat, sifat kabi mazmunlarni bildiradi.

Kesim egaga tobe bo`lib o`ziga bog`laniib kelgan so`zlarda nisbatan hokimdir. Masaln: Bu yil bahor ancha kech keldi.

Kesim so`z turkumlari bilan ifodalinishiga ko`ra ikki turga bo`linadi: 1) Fe`l kesim, 2) ot kesim .

Fe`l kesim . Fe`l va uning tuslangan shakllari ravishdosh shakli bilan ifodalanib kelgan kesim fe`l kesim deyiladi. Masalan: Haydar ota er ostidan uning yuziga qaradi (A. Q.). Men xayol surib ketdim (H. Q.)

Ot kesim .Fe`ldan boshqa so`zlar bilan ifodalangan kesimot kesim deyiladi. Ular quyidagicha:

ot bilan: Yaxshining gapi- moy, yomonning gapi-loy (Maqol).

Sifat bilan: Mehnat qilgan elda aziz.

Vatan-onha so`zi naqadar aziz

Sensan harnarsadan mo`tabar laziz (U.)

Son bilan: ikki o`nbesh- bir o`ttiz, ikki yorti bir butun. (Maqol)

Olmosh bilan:

Bizda odad mana shu edi,

Ba saodat mana shu edi(H. O.)

Xolmurodning jonajon o`qituvchisi -o`sha(P.T.)

Ravish bilan: Bizda a`lochilar- ko`p.Kerilma qiz, hunaring oz. G`alaba -yaqin.
Harakat nomi bilan: Sevmoq- sevilmoq. **Modal so`z bilan:** O`limdan xabarim bor, lekin bunday ovozalardan xabarim yo`q (A. Q).

Kesim tuzilishiga ko`ra ikki xil bo`ladi: sodda kesim va murakkab kesim . Sodda kesim ikki xil: sodda ot kesim murakkab kesim. Sodda kesim ikki xil: sodda ot kesim va sodda fe`l kesim.

Sodda ot kesim yakka ot, sifat, son olmosh, ravish harakat nomi, undov taqlidiy so`z bilan ifodalanadi: Masalan: O`zbekistonning poytaxti - Toshkent.

Fe`l va uning vazifadosh shakllari bilan ifodalangan kesim sodda fe`l kesim deyiladi. Masalan:

Maktabda o`tkazilgan shaxmat musobaqasida odil yutdi. Shamol umri uchirdi.

Murakkab kesim ham ikki xil : murakkab fe`l kesim va **murakkab ot kesim** ikki va undan ortiq fe`llar bilan ifodalangan kesim murakkab fe`l kesim deyiladi.Masaln:

Uchovlari molxonalarini **ko`rib chiqishdi.** (P. Q.) Ahmad kitobini o`qib tugatdi.Ot yoki bog`lama hamda to`liqsiz fe`l ko`rinishidagi qo`shilma bilan ifodalaydigan kesim murakkab ot kesim deyiladi. Masalan: O`ktam o`nikki yashar bola edi. (O.) Odam qo`li cho`lni **bo`ston qiladi.**Ayrim hollarda yozuvda kesim bilan ega orasida tire ishlataladi.

1) Kesim ot, olmosh. son bilan ifodalanib kesimlik qo`shimchasini olmaganda.

Bu arning xo`jayini - biz. Ikki kara ikki - to`rt.

2. Gapning egasi yoki kesimi harakat nomi bilan ifodalanib, kesimlik qo`shimchasini olmasa :Bir ko`rgan bilish -ikki ko`rgan tanish. (Maqol).

3. Ega ko`rsatishi bilan ifodalanib, kesim tarkibida kesimlik qo`shimchasi bo`lmasa: Bular -mening do`stlarim, och-yalang`och kafangadolar(O.) Bu uy -kimniki.

KESIMNING EGA BILAN MOSLASHUVI

Kesim egaga tobe bo`lak bo`lgani uchun ko`p hollarda shaxs va sonda moslashadi . Masalan; Biz huquqiy demokratik jamiyat qurmoqdamiz . U anchagacha jim o`tirdi . Birinchi gapda kesim egaga tobe muvofiq 1 shaxs **birlikda** ikkinchisida esa III shaxs **birlikda** ishlatalgan Ammo o`zbek tilida kesimning ega bilan son jihatidan mos bo`lishi III shaxsning ko`pligida shart emas, ega III shaxsning ko`plik shaklida bo`lib kesim III shaxsning birlik shaklida ham keladi . Masalan; Hamma chapak chalib yubordi .(M. Is.)Talabalar ta`tilga chiqdi.

Ba`zan ega birlik shaklida, kesim esa hurmat ma`nosini bildirish uchun ko`plik shaklida bo`lishi ham mumkin. Masalan: **Oyim keldilar. Dadang aytdilar.**

Kesim sifat, son, kabi turkumlar bilan ifodalanganda ega ko`plik shaklda bo`lsa ham, kesim birlik shaklda bo`ladi. Masalan: Ular she`ri uchdi ko`p yiroq(A. O.)

Agar ega jamlik ma`nosini bildiruvchi so`z bilan ifodalansa, kesim odatda birlik shaklda keladi. Masalan: **Jamoa yig`ildi. Studentlar darsga kirdi.**

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Gap bo`laklari deb nimaga aytildi?
2. Gapning bosh bo`laklari qaysilar?
3. Egani ta`riflang? uning grammatik ma`nosi nima?
4. Ega qanday so`zlar bilan ifodalanadi?
5. Kesim deb nimaga aytildi?
6. Kesim qaysi so`z turkumlari bilan ifodalanadi?

AMALIY MASHQLAR

1. Gap egasini topish va uning qaysi so`z turkumi bilan ifodalanishibni ko`rsatish.
2. Kesimni topib, turini ifodalanishini aniqlash.
3. Ega bilan kesimning moslifgini ko`rsatish.

Masalan: U bahorni kutdi intizor (U.A.) U- ega, olmosh bilan ifodalangan, kutdi-kesim, ffe`l bilan ifodalangan, fe`l kesim, ega bilan kesim III shaxs, birlik sonda moslashgan.

46-mashq. O`qing.Har bir gapdagi egani aniqlang, so`rog`i qaysi so`z turkumi bilan ifodalanganini aytинг.

Bulut ko`kda urar charx,
Maysalar nish otar.
Quyosh tansiq nurini,
Sochib- sochib botadi.

2. Holi polvon ko`zlarini ochib, qulog`larini dikkaytirib, boyga qulq solmoqda edi. (S.A.) 3. Samovar senga yoqdimi, axir? (A.Q.) 4. Tincfhlik xalqlarimizning azaliy orzusidir .(Gazeta)5. G`oya -inson tafakkurining mahsuli .(Milliy istiqlol g`oyasi kitobidan) 6.Osmonlarni to`ldirib fsamolyot uchib o`tdi (qo`shiq). 7.Yigitning sarasi mard bo` lur.(Maqol.)8. Harkimki yomon bo`lsa, topg`usidir (Bobur). 9. Tirishgan tog`dan oshar (Maqol.). 10. qimirlagan qir oshar (Maqol.).

47- mashq. O`qing. Kesimlarni aniqlang, so`rog`i, turini ko`rsating. 1. Hali bugun ro`yi jahon she`r bo`lajak (U.A.)2. Yo`lchi oshxonaga kirdi (O.)3. Yaaxshining gapi moy, yomonning gapi loy (Maqol). 4. Er suygan -elda azizi (Maqol). Bu vataning sevgan o`g`li -biz (Gazeta). 6. Talabalar soni - yigirmata. 7. Kurashmoq- o`rnak bo`lib yashamoq (M.)

48-mashq. Ushbu she`riy parchadagi bosh bo`laklarni aniqlang?

Farzand guldir ona bir bo`ston,
Shuning bilan olam guliston.
Naylayki ilojim yo`q, har g o`shada yig`larman,
Tor o`ldi Xaziniyga Farg`ona tong otguncha
(Xaziniy)

80. ss GAPNING IKKINCHI DARAJALI BO`LAKLARI TO`LDIRUVCHI VA UNING IFODALANISHI

Boshqaruv yo`l bilan gapning biror bo`lagiga tobelanib, uning ma`nosini to`ldirish uchun xizmat qiladigan gap bo`lagi to`ldiruvchi deyiladi. Boshqaruvchi so`zning talabiga ko`ra to`ldiruvchi tushum, jo`nalish, o`rin-payt, chiqish kelishigidagi so`z yoki ko`makchi bilan ifodalanadi. Masalan:

Bularning barchasi senga atalgan,
Sening **ishqing bilan** o`sgan etilgan.

(“Navoiy”dramasi)

Ilimni mehnatsiz egallab bo`lmaydi. (Maqol) Keltirilgan misollarning birinchisida to`ldiruvchi(ishqing bilan) ko`makchili ot bilan ikkinchisi (ilimni) tushum kelishikli so`z bilan ifodalangan va ularning har ikkisi kesimga (o`sgan, egallab bo`lmaydi) boshqaruv yo`li bilan bog`langan.

To`ldiruvchi ot, sifat, olmosh, son, harakat nomi otlashgan sifat, sifatdosh, ravish, taqlid so`z undov so`zlar bilan ifodalanadi.

Ot bilan ifodalanishi: Dunyoni yoritar bizning sevgimiz, ikkimiz hech qachon o`lmasmiz aslo(H. O.)

Nahotki asrlar, yillarcha jafo,
CHekkan **odamlarga** shu etar vafo
(H. O.)

Sifat bilan ifodalanishi Yaxshiga qilsang yaxshilik ham aytadi, ham qaytadi, Yomonga qilsang yaxshilik na aytadi na qaytadi.(H.)

Son bilan ifodalanishi. Beshga beshni qo`shsak, on bo`ladi.

Olmosh bilan:

Mana senga olam -olam gul,
Etaginga siqqanicha ol (H.O.)

O`zingni er bilsang, o`zgani sher bil (Maqol)

Harakat nomi bilan ifodalanishi: Laylakning ketishiga boqma, kelishiga boq. (Maqol)

Sifatdosh bilan ifodalanishi: Bilmaganni so`rab o`rgangan olim, orlanib so`ramagan o`ziga zolim (Maqol). **Ravish bilan ifodalanishi:** Ko`pdan quyon qochib qutilmas (Maqol). o`z-ozdan o`rganib dono bo`lur (Maqol.) To`ldiruvchi ikki xil: vositasiz va vositali.

Vositasiz to`ldiruvchi. Harakatni bevosita o`ziga qabul qilgan predmetni ifodalaydigan va kimni? nimani? qayerni? kabi so`roqlardan biriga javob beradigan to`ldiruvchi vositasiz to`ldiruvchi deyiladi. Vositasiz to`ldiruvchi tushum keligigidagi so`z bilan ifodalanishi. Masalan, Erni er qiladigan ham xotin , qora yer qiladigan ham (Maqol.) Vositasiz to`ldiruvchi belgili va belgisiz tushum kelishik shaklidagi so`z bilan ifoda qilinadi. Masalan: Bilib qo`yki seni Vatan kutadi. (G.G.) Botirlari kanal qazadi(H.O.)

Vositali to`ldiruvchi. Bosh, qaratqich tushum kelishiklaridan boshqa kelishiklardagi va ko`makchili so`zlar bilan ifodalangan to`ldiruvchi vositali to`ldiruvchi deyiladi. Masaln, Boshimdan o`tganini o`zim bilaman.

Shodlik yo`lga boshladi meni,
Baxtiyorlik bo`ldi odatim.
(H.O.)

Maydon o`zining ko`rkamligi va ulug`borligi bilan butun shaharda hush kiritgan edi. (P. Q.)

Vositali to`ldiruvchi kimga? nimaga? kimdan? nimadan? kimda?nimada? kim bilan? nima bilan? kim haqida? nima haqida? kabi so`roqlardan biriga javob beradi. Masalan,

Do`s t bialn obod uying,
Gar bo`lsa u vayrona ham.
(E. V.)

Mehmonlarga har nav shirinliklar, pista, bodom, quruq mevalar tortildi. (O.)

ANIQLOVCHI VA UNING IFODALANISHI

Predmetning turli belgilarini, bir predmetning ikkinchi predmetga qarashli ekanligini bildiruvchi ikkinchi darajali bo`lak aniqlovchi deyiladi.: Aniqlovchi qanday? qanaqa ? qaysi? qancha ? kimning? nimaning? qayerning? kabi so`roqlardan biriga javob beradi. Masalan: oq, sariq, qizil: rang-barang chirmoviqlar, tikanli gullarning hammasi shudring bilan top-toza yuvilgan (O. Yo)

Aniqlovchi asosan, otga bog`lanib keladi.

Aniqlovchi qanday ma`noni ifodalashiga ko`ra uch xil: 1)sifatlovchi, 2)qaratqichli, izohlovchi.

Sifatlovchi. Predmetning belgi -xususiyati , hajmi, shakli, maza-ta`mi, rang-turi, miqdor-darajasi, tartibi kabilarni bildiruvchi aniqlovchi turi sifatlovchi deyiladi. Sifatlovchi bog`lanib kelgan so`z sifatlanmish deyiladi. Sifatlovchi o`z sifatlanmishiga bitishib yoki bilan bog`lanib, sifat, son, olmosh, ravish, sifatdosh, undov, taqlid so`zlar bilan va so`z birikmasi bilan ifodalanadi.

Sifat bilan ifodalanishi: Nasiba g`ayratli, ishchan tashabbuskor bir qiz bo`lib o`sdi. (O. Yo) Rang- barang gullar gulzorning husniga husn qo'shib turibdi(SH.R)

Son bilan ifodalanishi. Uch og`ayini botirlar ertagini o`qidim. Ikkala do`st qizg`in bahslashardi.

Olmosh bilan ifodalanishi: Hu o`sha aytgan yigit sizmisiz. Devor ortidagi qo`rg`onchada xotin kishi aytayotgan qo`shiq Boltavoyga huv, o`sha anorzar bog`ni, Salomatni eslatib qo`ydi (S. Ah)

Ot bilan : Po`lat pichoq qinsiz qolmas .(Maqol.)Oltin boshqolar shitirlaydi. Temir darvozadan kiriladi.

Sifatlovchi bilan ifodalanishi: Aytilgan so`z- otilgan o`q. (Maqol) Gurillagan shabada sekin esadi.

Ravish bilan: Qirning uzoq-yaqin yon bag`irlaridan qo`y-qo`zilarning ma`rashi eshitilib turar edi. Hushiddin mardlarcha tepalikni himoya qildi.

Taqlidiy so`z bilan ifodalanishi: Qishloqqa sen haqingda duv-duv gap tarqalgan. G`uj-g`uj oppoq tutlar shohlarida marjondek tizilib turishibdi. (P. T.) Atrofga g`uv - g`uv pashsha. (O.) Kampir so`zini tugatmasdanoq “miyov” degan ovoz eshitildi (Sh. S.)

Aniqlovchining bunday shakli aniqlanmishga bitishiv yo`l bilan birikadi.

Ayrim paytda sifatlovchi birikma holida ham kelishi mumkin. Masalan: SHu topda daraxtlar orasidan otilib chiqqan kiyik Alisherni hidldi, erkalanib surkaldi . (O.)

Qattiq erdan tatalab chiqqan boychechak,
Yumshoq erdan yumalab chiqqan oy chechek.

(U.)

Qaratuvchi. O`zi ifoda qilayotgan shaxs yo predmetga boshqa bir shaxs yoki predmetning qarashli ekanligini bildiruvchi aniqlovchi turi qaratuvchi deyiladi.Qaratuvchi quyidagi so`z turkumlari bilan ifodalanadi:

Ot bilan: Xalqni jondan sevgan Alisher Navoiy insonning haq-huquqlarini himoya qiladi va baxt-saodat uchun kurashadi. (O.) Laylakning boyi novcha, tumshug`i bor tarnovcha. (U.)

Olmosh bilan. Osmonlarda mening ham bitta lochin akam bor. (Qo`shiq.) Bizning Vatanimiz ozod va hur O`zbekiston (Tele eshitirishidan.)

Otlashgan sifan bilan.

Yaxshining yaxshilagini ayt nuri toshsin,

Yomonning yomonligini ayt quti qochsin.

(Maqol).

Otlashgan sifatdosh bilan. Maqtanganning to`yiga, **kerilganning** uyiga borma. (Maqol.)

Izohlovchi. Shaxs yoki predmetni boshqacha nom berish yo`l bilan aniqlaydigan aniqlovchining bir turi izohlovchi deyiladi. Izohlovchi, odatda, ot bilan ifodalaniib, quyidagi ma`nolarni bildiradi.

1. Unvoni: **Akademik** Shoabdurahmonov atoqli o`zbek tilshunosidir. Zobit Aslonov mashg`ulotlarni katta mahorat bilan o`tkazadi.

2. Mashg`ulot kasb, mutaxasislikni: shoir Usmon Azim tog`li Boysunda tug`ilgan. O`qituvchi Rahim Ahmedov matematikadan dars bergen.

3. Amalni: Yo`lboshchi G`ayrat akam g`oyat ajoyib ekan (M. A.) Hisobchi Marat aka qishloqqa keldi.

4. Laqabni: Xurshida bonuni yangi libosga ko`rib yana boyagiday bir daqiqa tikilib qoldi. (O. Yo) Toshpo`lat **tajang** nima deydi .

5. Qarindoshlikni yoki shunga o`xhatilgan munosabatni: Sochlari oqargan bu professor, Ernazar akaga qarab qarsak chalib yubordi. (I. R.)

6. Taxallusini: Muso Toshmuhammad o`g`li Oybek o`zbek adabiyotiga katta hissa qo`shdi. Muhammad Aminxo`ja **Muqimi** o`zbek mumtoz adabiyotining yirik vakilidir.

7. O`xshash belgi mustaqillik so`zi naqadar laziz (U.) Bizga erk berdi mustaqillik -ozodlik -quyosh.

HOL VA UNING IFODALANISHI

Ish- harakatining belgisi, qay tarizda bajarilishi, sababi maqsadi va uning bajarilishi bilan bog`liq bo`lgan o`rin va paytga munosabatini ifodalovchi gap bo`lagi hol deyiladi qay tarizda? qay holatda? qayerda? qayerga? qayerdan? qachon? kabi so`roqlardan biriga javob beradi.

Hol ravish, ravishdosh, jo`nalish, chiqish, o`rin kelishigidagi ot yoki ko`makchili ot bilan, taqlidiy so`z va son bilan ifodalanadi.Hol vazifasida keluvchi so`z turkumi, asosan, ravishdir. Masalan:

Tong chog`i tun bilan kunduz uchrashdi,

Tunda armon bilan yulduz uchrashdi.

(U. A.)

Ravishdoshning ham asosiy vazifasi gapda hol bo`lib kelishdir. Masalan: G`ulomjon qishloqda bo`lgan voqealarni oqizmay -tomizmay so`zlab berdi. (M. I.)

Hol ma`no xususiyatiga ko`ra quyidagi turlarga bo`linadi: ravish holi, payt, holi, o`rin holi, sabab holi, maqsad holi, daraja - miqdor holi.

Ravish holi. Ish- harakatining qaytarzda bajarilishini bildiradigan hol ravish holi deyiladi. Masalan: Ali Qushgchi **o`ychan** odimlaganicha rasadxonaga kirdi. (O. Yo)

Bulut zamin bilan **yig`lab** uchrashdi,
Shamol kurtaklarni **ilg`ab** uchrashdi.
(U. A.)

O`rin holi. Ish- harakatining bo`lish, yo`nalish, boshlanish o`rnini bildirgan hol o`rin holi deyiladi. Masalan:

Bunda bulbul kitob o`qiydi
Bunda qurtlar ipak to`qiydi.

(H.O.)

Qalandar **atrofiga** diqqat bilan razm soldi (O. Yo) . **Tepadan_unga** tanish ko`chalar, uylar, dalalar bir-bir ko`rinib o`tadi. (P. Q.)

Payt holi. Ish- harakatining bajarilish paytini bildiradigan hol payt holi deyiladi. Masalan:

Ertalab osh suzsak, bir nasiba kam (G.G.)

Ular Samarqanddan **kecha tun yarmida** chiqqan, tong otguncha, yo``l yurib, subhidan shu jilg`aning boshidagi yong`oqzorga kelib qo`nishgan edi.(O. Yo.)

Daraja -miqdor holi. Ish- harakatining bajarilishini daraja- miqdor jihatidan aniqlab keladigan hol daraja- miqdor holi deyiladi. Masalan: Yigirma uch gul fasli , barigday umrimdan uchdi. (U.A.)

Mard **bir marta** oladi, nomard ming marta (Maqol). Ko`p o`yla, kam suyla (Maqol).

Sabab holi. Ish -harakatining bajarilish sababini bildiruvchi hol sabab holi deyiladi. Masalan:

Ne uchun sevaman O`zbekistonni,
Tuprog`in aylab ko`zga to`tiyo
(A. O.)

Mustaqillik bo`lgani uchun biz dunyo hamjamiyatiga a`zo bo`ldik. (Gazetadan). Sen bor uchun men buyerlarga keldim.Elmurod **xursandligidan** tez-tez qadam bosib ilgari yurib ketdi. (P. T.)

O`zi seni nega sevdim,
Buncha bo`lmasam ojiz.

Maqsad holi. Ish-harakatining bajarilish maqsadini anglatuvchi hol maqsad holi deyiladi.

Bola ekan tish chiqardim,
Yovlarni **tishlasin deb.**
(H.O.)

Ko`rgali husningni zori mubtalo bo`ldim senga. (A.N.)Atay senga she`r yozdim mustaqil O`zbekiston. (Gazetadan) Olimpiada g`oliblarini qutlagani butun shahar to`plandi. (Gazetadan)

GAP BO`LAKLARINING JOYLASHISH TARTIBI

Gap bo`laklarining tartibi o`zbek tilida, asosan, erkindir. Gapda ularning o`rnini almashtirish hardoyim ham grammatic holatni o`zgartiravermaydi. Masalan: Talabalar yozgi ta`tilga chiqishdi. Yozgi ta`tilga talabalar chiqishdi. Bu gaplarda so`zlarning o`rnini almashtirish bilan grammatic holat o`zgarmagan. Shunday bo`lsa-da gapning mazmuniga ma`lum darajada ta`sir ko`rsatgan.

Odatda ega gap boshida, kesim esa gap oxirida, ikkinchi darajali bo`laklar orasida keladi. Bu esa gapdagi to`g`ri tartib hisoblanadi.

Ammo ayrim hollarda gap bo`laklarining o`rni o`zgaradi bu esa ma`noni ham o`zgartiradi.

1. Ega bilan kesimning tartibini o`zgartirsak, ega kesim va aksincha kesim ega bo`lib qoladi. Masalan; ikki yorti- bir butun; bir-butun-ikki yorti.

2. Sifatlovchi bilan sifatlanmishning tartibi o`zgarsa sifatlanmish ega kesim bo`lib keladi. Masalan; ikkita dugona; dugona ikkita: Mana shu ko`ringan-universitet; universitet- mamna shu ko`ringan.

Gap bo`laklarining odatdagagi tartibi o`zgarsa inversiya hodisasi yuz beradi .Bu hodisa ko`proq shevalarga hamda she`riyatda uchraydi.Masalan:

Xo`rsinadi bechora pari,
Yuguradi yalangda har yon
Silkinadi hali bu jahon
Zulmat cho`kar, bo`ron eladi

(U.A.)

Bu gaplarda kesim oldin ega esa keyin keladi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

- 1.Gapning ikkinchi darajali bo`laklarini qanday izohlaysiz?
2. Ikkinci darajali bo`laklardan qanday farq qiladi?
3. To`ldiruvchi nima va uning qanday turlari bor?
4. Aniqlovchi deb nimaga aytildi va qanday s`oroqlarga javob beradi?
5. Sifatlovchi nima? U qanday ifodalanadi?
6. Qaratuvchi deb nimaga aytildi va u qaysi kelishik shaklida keladi?
7. Izohlovchi nima? U aniqlovchining boshqa turlaridan qanday farq qiladi?
8. Hol deb qanday bo`lakka aytildi?
- 9.O`zbek tilida gap bo`laklari qanday tartibda joylashadi? inversiya nima?

AMALIY MASHQLAR
IKKINCHI DARAJALI BO`LAKLARNI SINTAKTIK TAHLIL QILISH
TAR TIBI VA NAMUNASI

1. Ikkinch darajali bo`laklarni belgi lash.
2. Ani qlovchi, to`ldiruvchi , hol, so`rodrlari, turi , ifoda lanishi. Masalan:

Menga ro`molchasini bergan o`shal qiz.
Rangi somon bo`pti allaqachonlar

(Qo`sish)

menga- to`ldiruvchi, kimga? vositali, olmosh bilan ifodalangan, ro`molchasini to`ldiruvchi, nimaa? vositasiz, ot bilan ifodalangan.

Bergan- Aniqlovchi, qanday? sifatdosh bilan ifodalangan, sifatlovchi aniqlovchi. o`shal- aniqlovchi qanday? olmosh bilan ifodalangan.

qiz- aniqlovchi? belgisiz qaratqichi aniqlovchi, ot bilan ifodalaangan, allaqachonlar- hol, qachonn payt holi, ravish bilan ifodalangan.

49- mashq. Ikkinch darajali bo`laklarni aniqlab, ularning tagiga chizing, turlari, so`rog`i va gan day so`z turkumi bilan ifodalangannini aayting.

1. Tashqarida hamon chaqmoq yaltirar va yomg`iri va bahor yomg`iri salobatl shovillard.(P.Q.)2. G`ulomjon ovoz egasini tanidi(M.I.) 3. Agar qiz toqqa ketsa, cholga bir kun bir yilday tuyila beradi.(Sh.R.)4. Milliy g`o ya millat ta fakkurining maahsuli, inson va jamiyat hayotiga ma`no, mazmun baxsh etadigan, uni ezgulik sari yetaklaydigan fikrlar majmuasidir. (“Milliy istiqlol g`oyasi”) 5. Baxtli yoshligimiz uchun jonajon davlatimizga minnadorchiligidizni izhor qilamiz.

50-mashq. Q uyidagi ko`rsatkichlar asosida gaplar tuzing.

1. E-----A~~~~~T-----K=====
2. A~~~~~E-----H-----K=====
3. A~~~~~A~~~~~,A~~~~~E-----K=====
4. H-----K=====.
5. E-----E-----K=====
6. E-----H-----K.

51-mashq. Ushbu she`riy parchadagi hol va to`ldiruvchini aniqlang.

Mana senga olam-olam gul,
Etiginguga siqqanicha ol
Bunda tole harnarsadan mo`l,

To o`lguncha shu o`lkada qol.
(H.O.)

81 s.

GAPNING UYUSHIQ BO`LAKLARI

Gapda bixril so`roqqa javob berib, bixildagi sintaktik vazifani bajarib, sanash ohangi va teng bog`lovchilar yordamida birikkan gap bo`laklari gapning uyushiq bo`laklari deyiladi. Masalan:

O`z **yurtimiz**, bog`imiz, o`z **vodiyimiz**, tog`imiz,
O`z qutli **chirog`imiz** hamisha bo`lur omon.

(G. G.)

Bu gapdagi yurtimiz, bog`imiz, vodiyimiz, tog`imiz, chiirog`imiz so`zлari uyushib kelgan va bixril so`roqqa javob bo`lib, sanash ohangi orqali o`zaro birikkan.

Harbir gap bo`lagi uyushib kela oladi. Masalan:

1. Ega uyushadi: **Muhayo, Surayo, Ra`no, Muqaddas,**

Ko`zlarni yashnatib kiyibsiz atlas (Qo`schiq.)

2. Kesim uyushadi: 1) fe`l kesim: Haqiqat bukilar, lekin sinmas. (Maqol).

2) ot kesim: **Xormisan** yo gulmisan, tojdormisan yo gulmisan

CHO`g`izmisan, bulbulmisan, nodon o`zing, xushxon o`zing. (E.V.)

3. To`ldiruvchi uyushadi: 1) vositasiz to`ldiruvchi: **Aqlimni, diliimni, bebaxtlarimni**-Borishsiz dunyoda otgan azizim. (U.A.)

2) vositali to`ldiruvchi: Navoiy obod joylardagi **ekinlarga**, mevazor bog`larga diqqat qildi. (O.) Navoiy tarixda mashhur shaxslarning hayotlari, fikrlari, maslakkari va ularga doir afsonalar haqida asar yozishni jomiyga taklif etdi. (O.)

4. Aniqlovchi uyushadi: 1) Sifatlovchi: Maktabimiz bog`ida oq qizil , sariq va boshqa **anvoyi** gullar bor. 2) qaratuvchi: Oq o`rik, shotut, shaftoli, g`aynolining sap-sariq yaproqchalari hovli betini ko`mib yutibdi. (I.R.)

5. Hol uyushadi: Bo`zoq, **echki boqib, to`n tepishib, varrak uchirib, chillak o`ynab** yurgan bolalar uylariga tarqab ketishdi. (H. N.) Ariq suvi **bir xilda, jimgina, sharpasiz** va **shabadasiz** oqmoqda (I.R.).

Uyushiq bo`laklarda son, egalik, kelishik qo`shimchalari va ko`makchilar odatda uyushuvchi so`zlarning oxiriga qo`shilib, hammasi uchun umumiy bo`ladi. Maktabimizda rasm, musiqa va drama to`garaklari bor.(gazetadan.)

Son, egalik, kelishik qo`shimchalari va ko`makchilar ba`zan uyushuvchi so`zlarning harbiriga qo`shilib keladi. Masalan: Tog` etaklaridan nafis **gullarning**, xushbo`y giyoxlarning hidlari anqiydi. (O.) Xalqi uchun vatani uchun o`z jonini ayamadi bizning mard o`g`lonlar. (Teleshit).

Uyushiq bo`laklarda qo`shimchalar emas, balki so`zlar ham umumlashib, ular har bir uyushuvchi so`z bilan takrorlanmay, uyushiq

bo`lak oxirida keladi. Dalada **kim unumli**, **kim ko`p**, **kim tez** ishlash uchun musobaqa qilishdi.

UYUSHISHNING IFODA VOSITALARI.

Uyshiq bo`laklarda gap bo`laklarining uyushib kelishi ikki xil yo`l bilan amalga oshadi. 1) ohang, 2) teng boh`lovchilar.

Ohang yordamida uyshiq bo`laklar sanash ohangi orqali birikadi va yozuvda vergul bilan ajratiladi: Oqarar, bo`zarar, lovullar yuzlar, falak zamin bo`lar, osmon.(U.A.)

Teng bog`lovchilar. Gap bo`laklarining uyushib kelishida bog`lovchilarning o`rni katta. Bular quyidagicha:

1) va, hamda bog`lovchlari orqali: **Bulbullarning** va **sa`valarning** sayrashi bizga zavq beradi. Ko`p o`tmasdan sergo`sht hamda ma`zali shavla tortildi.(O.)

2) Zidlovchi bog`lovchilar orqali: Ketma-ket chaqaloqning yo`g`on, lekin bo`g`iq inga-ingasi eshitildi. (S.Z.)

3) Ayiruvchi va takrorlanuvchi bog`lovchilar orqali: Bektemir dam to`xtab, dam xayol surib turgan generalga duch keldi. (O.) U o`z o`tmishini goh **quvonch**, goh g`amgin esladi.

Dillarga orom bag`ishlovchi kuylar goh qizlarning so`lim ovozlariga, goh shaydo bulbullarning gullar o`yiniga mast sayrashlariga, goh qirlar bag`rida cho`ponlarning naylaridan taralgan dilbar ohanglariga jur bo`lar edi. (Sh. R.)

Uyshiq bo`laklar bog`lovchilar orqali birikkanda ular orasiga vergul qo`yiladi.

UYUSHIQ BO`LAKLARDA UMUMLASHTIRUVCHI BIRLIKLER

Uyshiq bo`lakli gaplarda umumlashtiruvchi so`z ham ishlatiladi. Umumlashtiruvchi so`z uyshiq bo`laklardan oldin yoki keyin kelishi mumkin. Umumlashtiruvchi so`z uyshiq bo`laklar uchun berilgan so`roqqa javob beradi va umumlashtiruvchi so`zdan keyin ikki nuqta qo`yiladi: Daraxtdagi barcha **qushlar**: sa`va, bulbul, mayna va boshqalar unga jur bo`ldi (H. F.)

Umumlashtiruvchi birlik uyushiqlardan keyin kelganda, undan oldin tire qo`yiladi. Samarqandlik, bog`dodlik, misrlik, hindlik, va xitoy- hamma sayohchilarga bu shahar manzur bo`ldi. (O.)

2.ss

GAPNING AJRATILGAN BO`LAKLARI

O`zlari aloqador bo`lgan so`zlarning ma`nosini izohlab, bo`rttirib, aniqlashtirib keladigan va boshqa bo`laklardan maxsus to`xtam bilan ajratilib, logik urg`u oladigan bo`laklar gapning ajratilgan bo`laklari deyiladi. Masalan: Ariqning bo`yida qalin-qalin **mirzateraklarning soyasida**, chiroyli taxta karavot turardi. (Sh . R.)

Ajratilgan bo`laklar, qaysi gap bo`lagiga oid ekanligiga ko`ra ajratilgan aniqlovchi, ajratilgan to`ldiruvchi, ajratilgan hol kabi turlarga bo`linadi.

Ajratilgan aniqlovchilar. Ajratilgan aniqlovchilar uch xil: ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratuvchi, ajratilgan izohlovchilarga bo`linadi.

Ajratilgan sifatlovchilar sifatlanmishdan keyin kelib uning belgisini bo`rttirish, alohida ta`kidlash uchun xizmat qiladi. Masalan: Seriyoja-oddiy, navqiron, mard yigit- o`rtoqlari uchun jonini fido qildi. (Sh. R.)

Bu misolda oddiy, navqiron, mard yigit sifatlovchilari (Sereyojaning) belgilarini bo`rttirib ko`rsatish uchun sifatlanmishdan keyin keltirildan.

Ayrim hollarda yakka kelgan sifatlovchilar ham ajratilishi mumkin. Masalan: Shohista, beparvo taxta karavotning ustida nima bilandir shug`ullanardi.

Ajratilgan qaratuvchilar o`zidan oldin kelgan qaratuvchining ma`nosini izohlash uchun xizmat qiladi. Masalan: Sizning, universitet talabalarining, ko`rik tanlovida qo`lga kiritgan g`alabalaringiz hammamizni xursand qildi. (Gazetadan).

Ajratilgan izohlovchi izohlanmishdan keyin keladi va maxsus to`xtam bilan aytildi. Masalan: **Biz, paxtakorlar** bu yil mo`l hosil beramiz. Abdulla Qodiriy o`zbek romanchiligining asoschisi -bizning qalbimizda abadiy yashaydi.

Ajratilgan toldiruvchilar o`zidan oldin kelgan to`ldiruvchining ma`nosini izohlaydi, aniqlashtiradi.Masalan: Bolalarining eng kichigini, Durbekni, oldin ko`rmagan ekanman. Biz sinf rahbarimizga, Salima opaga, ko`proq o`rganib qolgan edik.

Ajratilgan hollar o`zidan oldin kelgan holning ma`nosini izohlaydi va unga aniqlik kiritadi.Masalan: Yozda, **kanikul kunlarida**, ko`pgina badiiy asarlar o`qidik. Uzorda, ko`kintir tuman ichida mudragan tog`lar ustida, siyrak yuldzilar ko`zlarini horg`ingina qisadilar.(O.)

Agap tomondagi mevazor bog`lar baland ko`tarilgan oy shu`lasida xuddi tutash qalin o`rmonga o`xshab qorayib turar, O`ng , tomonda jarlikning ustida bir qo`rg`on ko`zga chalinadi. (O. Yo)

Ajratilgan bo`laklar o`zi aloqador bo`lgan bo`lakdan ham, gapning boshqa bo`laklaridan ham, yozuvda vergul orqali ajratiladi.

Agar ajratilgan bo`laklar tarkibi-keng (yoyiq) bo`lsa, yoki uning tarkibida uyushiq bo`lak bo`lsa ajratilgan bo`lak bilan izohlanayotgan bo`lak o`rtasida ya`ni so`zini ishlatish mumkin bo`lsa, ajratilgan sifatlovchi gap oxirida kelsa, bunday holda ajratilgan bo`lak boshqa bo`laklardan tire bilan ajratiladi. Masalan: Gulnor o`limining uchinchi kuni , samarqanddan ularning bir qarindoshi -**Gulsinbibi opasining o`g`li, sodda dehqon yigit-tasodifan kelgan edi .(O.)**

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQ LAR

1. Gapning uyushiq bo`laklari nima? Ular qanday turlarga bo`linadi?

2. Uyushiq bo`laklar o`zaro qanday birikadi?
3. Umumlashtiruvchi birlik nima?
4. Uyushiq bo`laklarda qanday tinish belgilari ishlataladi?
5. Ajratilgan bo`laklar deganda nimani tushunasiz?
6. Ularning qanday turlari bor?

AMALIY MASHQLAR

52-mashq. Ga pning uyushiq bo`laklarini toping va ularning turlari aniqlang.

1. Bahor bilan kuzak- baxt qishuchrashdi.

Toshlar uchrashdilar biz uchrashmadik.

(U.A.)

2. Istiqlol deb kurashgan Cho`lpon, Fitrat, Abdulla, Usmonlaring bor. (B.Yor.) 3. Oydin, osida bir tun edi.(O.Yo)bb 4. Bu yumshoq mulohazali odamga yotoqxonadagilarning mehri tushib qolgan edi. 5. Men talabaman, universitetda o`qiyman. 6. Yaxshiga qilsang yaxshilik, ham ayradi, ham qaytadi. 7.Kechagi majlisda rektor domlalarni, talabalarni bayram bilan tablikladi.

53-mashq. Berilgan gaplardan ajratilgan bo`laklarini toping va turini aytинг. 1. Bugun kun bo`ladi , ravshan bbedog` (H.O.) 2. Ayol bolaning oldiga kelib av achinib, boshini siladi. (R.T.) 3. Sichqonoy, rahimsiz, tong, do`q urubon bosadi. (Q. Muh). 4. Aks sado yut- qoyalararo men yonoqlar topdim- g`ozal xushhavo .(A.T.). 5. Bayroq havo rang, mag`rur hilpiraab turar(H.G`.)6. Ham bor gilam zangori, shu edi bisotida bori. (S.Jo`ra)

54-mashq. Undalmalarini aniqlab tushuntirib bering.1. Azizim, devorga chiqqillar soat, kuni-tunni bo`ldik yigirma to`rtda .

Qismatim ne bo`lg`usin, ey ko`kda shoim bilmadim,

(U.A.)

Sayra, bulbulim sayra, shu gulning shohi sinsin.

(Qo`sish)

3. Sobir Umarov, sizni tabriklayman (Yashin) 5. Bir bulbulni ko`rib qoldi. Yeshakov unga dedi: menga qara, bulbulcham, deydilarki, sen emishsan xush ovoz (Kirilov) 6. Sen etim emassan tinchlan jigarim. (G` .G` .)7.

Bog`imda anoram, senga yo`l bo`lsin?

Ispixo n xanjarim senga yo`l bo`lsin?

Umrimning mevasi - bir toza nihol,

Bitgan olmazorim, senga yo`l bo`lsin ?

("Avazxon dostoni")

GAP BO`LAKLARI SANALMAYDIGAN SO`Z VA BIRIKMALAR

Gap tarkibida gap bo`lagi hisoblanmaydigan bo`laklar bilan grammatic jihatidan bog`lanmaydigan so`z va birikmalar ham ishlatiladi. Bunday so`z va birikmalar faqat ma`no jihatidan butun quyidagi turlarga bo`linadi: undalma, kirish so`z, kirish brikma va kiritma gap.

UNDALMA

So`zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni bildirgan soz yoki so`z birikmasi undalma deyiladi. Undalma bildirilayotgan fikrga tinglovchining diqqatini tortish uchun xizmat qiladi.

Undalma bosh kelishik shaklidagi ot yoki otllashgan so`z bilan ifodalanadi va bu jihatdan egaga o`xshaydi, lekin u gapning kesimi bilan grammatic jihatdan bog`lanishligi va maxsus ohangga ega bo`lmasligi bilan gap bo`laklaridan farq qiladi. Masalan:

Azizim, devorda chiqillar soat,
Kunu tunnu bo`ldik yigirma to`rtga.
(U. A.)

Undalma ikkinchi shaxsga qaratilgan bo`ladi. Ko`p hollarda shaxs otlari,qarindoshlik, hunar, kasbni anglatuvchi so`zlar undalma bo`lib keladi. Masalan:

Ey, mening munisdinam,
Mehribonim, opajon.
(U.A.)

To`kilganidan tomchilagan yomon, uka, tomchilagan yomon.Ayrim hollarda, ayniqsa, she`riy asarlarda hayvonlar, qushlar, jonsiz predmetlarning nomini bildirgan so`zlar ham undalma bo`lib keladi. Masalan:

Sayrang, **bulbulim**, sayrang,
U gulning shohi sinsin.
(Qo`schiqdan)

To`pim , to`p - to`p etasan,
Ursam uchib ketasan

Undalma bir so`z bilan shuningdek so`z birikmasi bilan ifodalanadi. Bir so`z bilan ifodalangan undalma yolg`iz undalma deb yuritiladi. Masalan:

Qo`llarim gullagan edi, bahorim,
Qara, gullab turgan qo`llarim xazon.
(U.A.)

So`z birikmasi bilan ifodalangan undalma yoyiq undalma deyiladi. Masalan:

Nechun bu tuproqni deb yig`ladi Furqat,
O, Koshgar tuprog`i, qishloqmiding sen.
(E. V.)

Kelinglar, go`zal gullar,

Keling, oshiq bulbullar

(SH. R.)

Undosh ma`nosini kuchaytirish uchun ba`zan undalma takrorlanadi:
Qushlar, qushlar, hoy qushlar !
Qanot qoqib kelinglar!

(Z. D.)

Undoshni ko`chli ifodalash uchun undalmaning oldidan ba`zan ey, yo, hoy kabi undovlar keladi. Bunday holatda undov bilan undalma orasiga vergul qo`yilmaydi:

Ey, quyosh, ko`rsat yuzing,
Tundan bag`ir qonlanmasin.

(S. A.)

Undalma gap boshida kelsa, yozuvda undalmadan so`ng vergul qo`yialadi: O`quvchilar, topshiriqlarni o`z vaqtida bajaraniz. Agar gap boshida kelgan undalma hayajon bilan aytilsa, undan so`ng undov belgisi qo`yiladi: O`rtoqlar! Aziz o`rtoqlar! Haqiqat o`z o`rnini topdi.

Undalma gap ichida kelsa uning har ikki tomonidan vergul qo`yiladi: So`zla, ko`zgujon, haqiqatni et bayon .(P.)

Undalma gap oxirida kelsa undan oldin vergul qo`yiladi: O`zbekistonni gullarga burkaylik, do`stlar! Topshiriqnni o`z vaqtida bajarganingiz uchun rahmat, **azamatlar**.

KIRISH SO`Z VA KIRISH BIRIKMA

So`zlovchining o`zi bayon qilayotgan fikriga yoki uni ifoda qilish usuliga bo`lgan munosabatini bildiruvchi so`z va so`z birikmasi kirish so`z yoki kirish birikma deyiladi. Masalan; Dunyoda hech bir xalq to`g`ri kelolmas, **mening bilishimcha**, sening elingga.(H.O.)

Kirish so`z butun gapga, qo`shma gaplarda esa odatda uning bir qismiga aloqador bo`ladi. Misollarni solishtiring: **Afsuski**, shu choq hovlida uning kichik nevaralari yo`q ekan. (O` H.). **Albatta**, har bir talaba fan yutuqlarini puxta egallash uchun quint bilan o`qishi kerak. (Gazetadan.)

Kirish so`z va birikmalarning ma`no ifodalash xususiyatini jadvalda quyidagicha ko`rsatish mumkin.

KIRITMA GAP VA KIRITMA BELGI

So`zlovchining o`zi bayon qilgan fikriga qo`shimcha mulohazasini bildirgan gap kiritma gap deyiladi.

Kiritma gap asosiy fikrni qo`shimcha izohlash, aniqlash, tolqish uchun ishlataladi va o`ziga aloqador bo`lmagan gapdan maxsus to`xtam bilan ajratiladi. Masalan: U bejirim tuflisi bilan erni duk-duk bosib (bu duk-duklardan

Qahramonning yuragi go`yo mix qoqilayotganday zirqirab ketdi) mashina tomon yurdi. (O.Yo)

Kiritma gaplar odatda qavs ichiga olinadi: O`sha yosh bolani (U otanasiq qolgan edi) boyga qarol qilib berishdi. Ayrim hollarda kiritma gap o`zi bilan aloqador bo`lgan gapdan tire bilan ajratiladi. Masalan: Universitet hovlisimmen hozirgina aylanib chiqdim talabalar bilan gavjum bo`lib turibdi.

So`zlovchining qoshimcha fikrini alohida ta`kidlaydigan maxsus belgilar ham bo`lishi mumkin. Bu darak belgilari shaklida qo`yiladi. Masalan: "Aftor mana shu bachkana (?) munosabatlarning hammasini poyetiklashtirib tasvir etadi." Nahot poyetiklashtirilgan (!) tasvir bachkana bo`lolsa (M.N.)

83 s. BIR BOSH BO`LAKLI GAPLAR VA ULARNING TURLARI

Tarkibida grammatik asoslaridan yo ega yoki kesimi mavjud bo`lgan gap bir bosh bo`lakli gap deyiladi. Bir bosh bo`lakli gaplar, bosh bo`lakardan qaysi birining ishtirokiga ko`ra ikki turga bo`linadi: 1) egasiz bir bosh bo`lakli gaplar, 2) kesimsiz bir bosh bo`lakli gaplar.

Egasiz bir bo`lakli gaplar. faqat kesim tarkibidan iborat bo`ladi va unda harakatni bajaruvchi shaxsni topib bo`lmaydi yoki uni kesimdan anglash mumkin .Bunday gaplar ikki turga bo`linadi: 1) egasi topilar gap, 2) egasi topilmas gap. Kesimsiz bir bosh bo`lakli gaplar atov (ya`ni nominativ) gaplardir.

EGASI TOPILAR GAP

Bir bosh bo`lakli gaplarning bu turida ega bo`lmaydi, ammo uni gapning kesimidan payqab olish mumkin. Bunda asosiy e`tibor harakatni bajaruvchi shaxsga emas, balki harakatga qaratiladi. Egasi tonilar gaplar ana shu xususiyatlariga ko`ra : shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplarga bo`linadi.

Shaxsi aniq gap. Kesimi fe`l bilan ifodalangan va kesimi orqali harakati bajaruvchi shaxsni topish mumkin bo`lgan bir bosh bo`lakli gap shaxsi aniq gap deyiladi. Shaxsi aniq gaplarda ega odatda, leksik jihatdan shakllanmaydi va unga ehtiyoj ham bo`lmaydi, chunki kesim vazifasida kelgan so`z tarkibidagi tuslovchi qo`shimchalar shaxsini aniq ko`rsatib turadi. Masalan:

Chappar urib gullagan bog`in,
O`par edim vatan tuprog`in. (H.O.)

Shaxsi aniq gapning kesimi quyidagicha efodalanadi:

1. Aniqlik maylidagi fe`l bilan :

Seni bir ko`ray deb keldim,
Mehringga to`yay deb keldim
(Qo`sinq).

2. Buyruq mayli shaklidagi fe`l bilan :

Bo`lsang yigit, bo`lsang hamki chol,
Qo`lingga qurol ol!

(H.O.)

3. SYart -istak maylidagi fe`l bilan:

Ayb emasdir sevilsam, sevsam,
Ayb emasdir seni yor desam

Shu berilgan topshiriqlarni o`z vaqtida tugataylik !

Ko`p hollarda shevalarda ham shaxsi aniq gaplar ishlataladi. Masalan: Do`stingdan ton! ishonmagan do`stingga, somon tiqar po`stingga (maqol) Bir hangomashaylik. Shaxsi aniq gaplar badiiy adabiyotda, ayniqsa dialogik shaklida nutqda ko`p isglataladi.

SHAXSI NOANIQ GAP

Kesimi fe`l bilan ifodalanib, harakatni bajaruvchi shaxsni aniq ko`rsatib turmaydigan bir bosh bo`lakli gap shaxsi noaniq gap deyiladi. Shaxsi noaniq gapning kesimi III shaxsga qaratilgan bo`lsa ham bajaruvchi shaxs noma`lum bo`ladi. Masalan: Umr daftarini bezashdi. Yoshlik xotirasini yozilmagan oq varaq deydilar. (SH.)

1. III shaxsning ko`plik shaklidagi fe`l bilan : Menden senga xabar bersalar.(K.S.) Shunday chiroyli, mard yigitni buncha qiynaydilar. (O.) 2. Birgalik nisbatdagi fe`l bilan : Ularni hozir olib ketishdi: Sizni rektoratga chaqirishdi.

3. III shaxsning birlik shaklidagi fe`l bilan : Hech bo`lmasa, alik olsa-chi? (U.)Bunday gaplar nisbatan kam uchraydi, ilmiy adabiyotlarda esa qo`llanmaydi.

SHAXSI UMUMLASHGAN GAP

Kesimi fe`l bilan ifodalanib, mazmuni umumga qaratilgan bir bosh bo`lakli gaplar shaxsi umumlashgan gap deyiladi. Shaxsi umumlashgan gaplarning kesimi buyruq maylining II shaxs shakli bilan ifoda qilinadi.

Xalq maqollari, asosan, shaxsi umumlashgan gaplarga teng bo`ladi. Masalan: Kerilma g`oz hunaring oz. Hurmat qilsang hurmat ko`rasan. Kattaga hurmatda , kichikka izzatda bo`l. Bir tok eksang bir tup tol ek. Sayoq yursang tayoq yeysan. Shaxsi umumlashgan gaplarning bosh bo`lagi ayrim hollarda birinchi shaxsing ko`plik shaklida ham bo`lishi mumkin. Masalan: Dushmanlardan har doim ogoh bo`laylik !

Shaxsi umumlashgan gaplarda undalma, kirish so`z, kiritmalar, maqol so`z va yuklamalar qatnashmaydi.

EGASI TOPILMAYDIGAN GAP

Kesimi orqali harakatni bajaruvchi shaxs (ega)ni topish mumkin bo`lman bir bosh bo`lakli gaplar egasi topilmaydigan gap deyiladi. Bunday gaplar quyidagicha ifodalanadi:

1. Ravishdosh va bo`ladi \\\ bo`lmaydi fe`li bilan: Oyni etak bilan yopib bo`lmaydi. Mehnatsiz rohatda erishib bo`lmaydi.
2. Shart maylidagi fe`l va bo`ladi \\\ bo`lmaydi so`zları: shu yo`ldan borilsa bo`ladi.
3. Harakat nomi va zarur, mumkin , shart, lozim, darkor, kerak so`zlaridan biri bilan: Odamlarga to`g`risini aytishimiz zarur.
4. Majhullik nisbatidagi fe`l bilan : Qishloqqa bir soatdan keyin kirib boriladi.
5. To`g`ri so`zi hamda kelmoq fe`lining tuslangan shakli bilan: Bu gun yig`ilish o`tkazishga **tog`ri** keladi.
6. Aniqlik maylining III shaxs shaklidagi fe`l bilan : Bu o`tirishni bekorchiga **chiqargan**.

ATOV (Nominativ) GAP

Bosh kelishik shaklidagi ot yoki otlashgan so`z bilan ifodalanib, predmet, narsa-hodisalarining mavjudligini ko`rsatuvchi bir bosh bo`lakli gaplar atov (nominativ) gap deyiladi.

Nominativ gaplarda fikrning nisbiy tugalligi, hukm ohang orqali ifoda etiladi. Bu gaplarda ohang asosiy vazifani bajaradi. Oddiy so`z ham ohang sababli gapda qo`lanadi. Atov gap yolg`iz ishlatilmaydi, undan keyin boshqa gap keladi.

Atovlari quyidagicha ifoda etiladi.

- 1) turli voqealari tasvirlanadi: Fevralning oxiri. **Hali izg`irin. Hali bosiqirab uxlari bog`chalar.**
- 2) sharoit tasvirlanadi .O`ktam yanga xurrak tortar. Tin jim, men jim. Oy qiz jim . (Sh.Rah.)
- 3) Ko`rsatishni ifodalaydi: Mana Qoratoy. U jamiki boylargaga ot bilan suvday. (O.)
- 4) Baholashni ifodalaydi. “Voy bechora! ”dedi Gulsumbibi birdan. Atov gaplar bosh kelishikdagi ot, otlashgan so`z olmosh, son kabi so`zlar bilan ifodalanadi.
 1. ot bilan: Ish. Choy. Suhbat. Ovqat. Yana ish, hamma narsa o`ylangan , puxta.(U.A.)
 2. otlashgan so`z bilan: mana beshinchilar. Hammaning diqqati markaziy maydonga kirib kelgan fudbolchilarga qaratildi.
 3. Olmosh bilan: Mana bu. Hammaga tanish inson.
 4. son bilan: bir. ikki. uch. olg`a intil.

BO`LAKLARGA AJRATILMAYDIGAN GAPLAR

Avvalo sodda gaplar bo`laklarga ajralish -ajralmasligiga ko`ra ikki turli: bo`laklarga ajraladigan gaplar va bo`laklarga ajratilmaydigan gaplar bo`ladi.

Bosh va ikkinchi darajali bo`laklarga ajraladigan gaplar bo`laklarga ajratiladigan gap deyiladi. Tarkibidagi ega va kesim bo`laklarni ajratib bo`lmaydigan gaplar bo`laklarga ajratilmaydigan gaplar deyiladi.

Bo`laklarga ajratilmaydigan gaplar dialogik nutqda qo`llanadi va ko`rinishi quyidagicha:

1. Tasdiq y inkorni: Mayli, xo`p, yaxshi, yo`q.
2. So`roqni ? Rostmi ? Bo`ptimi? .
3. Rasm-odatni: Omonlik. Sog`lik. Assalom.
4. Tahsinli: Balli. Ofarin. Rahmat.
5. Buyruqni: Bas. jim.
6. His-hayajon: Eh. uf. voydod.

Atov gaplar o`ziga xos ohang bilan aytildi va yozuvda atov gaplardan keyin nyqta qo`yiladi. Kuz izg`irin shabada husgtak chalib turibdi. (I. R.)

Agar atov gapda his-hayajon kuchli bo`lsa unda atov gaplardan keyin undov belgisi qo`yiladi. Tog`lar ! Purvuqor tog`lar.

SO`Z --GAPLAR HAQIDA TUSHUNCHА

Og`zaki nutqda ha, yo`q so`zlari va undovlar bilan ifodalangan so`z-gaplar ham uchraydi. Bunday gaplar sodda gaplarning alohida bir ko`rinishi sanaladi.

Ha so`z - gapi tasdiqni, yo`q so`z-gapi esa inkorni bildiradi. Yozuvda bunday, so`z - gaplarning oxiriga ohangiga qarab nuqta, undov yoki ko`p nuqta qo`yiladi. Masalan:

- Bugun darsga keldingmi?
-- Ha. - Yo`q. Kechqurun teatrga borasanmi?
- Ha ! -- Yo`q!. - Ha,- boraman.

TO`LIQ VA TO`LIQSIZ GAPLAR

Zarur bo`laklarning to`la ifoda etilishi yoki tushib qolishiga qarab sodda gaplar ikkiga bi`linadi.

Ifoda qilinayotgan fikrni bayon qilish uchun zarur bo`lgan bo`laklarning barchasi qatnashgan gap to`liq gap deyiladi. Masalan:

Biz bu yil universitetni tugatamiz. Bu gapda hamma zaruriy (ega, kesim va ikkinchi darajali bo`laklar) mavjud.

Aytelayotgan fikrni ifoda qilish uchun kerakli bo`lgan bo`laklarning bir qismi tushirilgan gap to`liqsiz gap deyiladi. Lekin bu tushirilgan bo`lak oldingi gapdan anglashtirilib turadi.

Ilgari qaerda ishlagan edilar? (To`liq gap)

- Dastavval Surxondaryoda (to`liqsiz gap)

Kecha ishga bordingmi (toliq gap)

- Bordim. (to`liqsiz gap)
Siz bu erlarda oldin ham bo`lganmisiz? (to`liq gap)
- Yo`q (to`liqsiz gap)
To`liqsiz gaplar dialogik nutqda ko`p uchraydi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Bir bosh bo`lakli gaplarni qanday tushunasiz?
2. Bir bosh bo`lakli gaplarning qanday turlari bor?
3. Egasi topilar gaplar qaysilar ?
4. Shaxsi aniq, shasi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar qanday ifodalanadi?
5. Kesimi topilmaydigan gaplar qaysilar?
6. To`liq va to`liqsiz gaplarni aytin?

AMALIY MASHQLAR

55-mashq. Bir bosh bo`lakli gaplarning turlarini aniqlang .

1. Yaxshini maqtaydilar, yomonni uyaltiradilar. (Maqol)2. Kech kuz. Bu ishlarning bajarish mumkin. 3 avval o`yla, keyin so`yla (maqol).4. Paaxta yig`im-terimiga puxta tayorgarlik ko`rildi.5. S og` yufray desang ozoda bo`l (maqol). 6. Etti o`lchab bir kes.(Maqol) 7. Oyni etak bilan yopib bo`lmaydi .(Maqol). 8. Chappar urib gullagan bo`g`in, o`par edim vatan tuprog`in.
 9. Izzat tilasang ko`p dema,
 Sihat tilasang ko`p ema

84 -s

QO`SHMA GAP

QO`SHMA GAP HAQIDA MA`LUMOT

Mazmun va grammatik jihatdan turli vositalar yordami bilan o`zaro birikib, ohang butunligiga ega bo`lgan yaxlit bir tushuncha ifodolovchi ikki va undan ortiq sodda gaplardan tuzilgan gaplar qo`shma gaplar deyiladi.

Qo`shma gaplarning grammatik asosi ikki va undan ortiq gaplar bo`lib, uning tarkibidagi qismlar mazmuniga ko`ra o`zaro birikib bir butunlikni hosil qiladi. Masalan: Vatanni sev, tuprog`ini o`p. Qadrondor har qarich eri. (O.) Bu qo`shma gap tarkibida (sev, o`p, qadrondor, eri) grammatik asoslar bo`lib, ular o`zaro ohang yoedamida birikkan. Har gulning o`z hidi va chiroyi bo`lganidek, har bir xalqning o`ziga xos urf odati madaniyati bo`ladi. (gazetadan). Bu qo`shma gap tarkibida (hidi va chiroyi bo`lganidek, urf-odat, madaniyati bo`ladi)

grammatik asoslari bo`lib, unga qiyoslash, chog`ishtirish munosabati ifodalangan.

Qo`shma gap qismlari o`zaro yordamchi so`zlar (bog`lovchilar, ko`makchilar, yuklamalar) bog`lovchi vazifasidagi so`zlar, turli qo`shimchalar, ohang orqali bog`lanadi. Misollarni qiyoslaylik: 1). Bahor keldi, gullar ochldi. 2). Bahor keldi va gullar ochildi. 3). Bahor kelishi bilan gullar ochildi. 4). Bahor kelgach, gullar ochildi. 5). Bahor keldi-yu, gullar ochildi. Bu gaplarning birinchisi ohang orqali, ikkinchisi bog`lovchi, ichinchinsi ko`makchi, to`rtinchisi gach qo`shimchasi, beshinchisi yuklama orqali bog`langan. Shu xususiyatlariga ko`ra qo`shma gaplar quyidagi turlarga bo`linadi: Oddiy qo`shma gap, murakkab qo`shma gap.

QO`SHMA GAP QISMLARINING MIQDORIGA KO`RA TURLARI

Oddiy qo`shma gap	Murakkab qo`shma gap
Bog`langan qo`shma gap:	1. Sodda period (Bir tipli sodda gaplardan hosil bo`ladi) a) bog`lanish yo`li bilan b) ergashish yo`li bilan v) bog`lovchisiz yo`li bilan
Ergashgan qo`shma gap	
Bog`lovchisiz qo`shma gap	2. Murakkab period (turli yoki aralash sodda gaplardan hosil bo`ladi) a) Bir butunlikdan b) ikki butunlikdan v) ich va undan ortiq butunlikdan

85 - s

ODDIY QO`SHMA GAP

Mazmun va grammatik jihatidan o`zaro bog`lanib, ohang butunligiga ega bo`lgan qo`shma gap oddiy qo`shma gap deyiladi. Masaln:**Tong otdi va sayohatchilar yo`lga chiqishdi. Suv keldi, nur keldi.**

Bunday qo`shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar bo`g`lovchilar, turli qo`shimchalar va ohang hamda ko`makchilar bilan o`zaro bog`lanib sodda gaplarning soni ikkita bo`ladi. Oddiy qo`shma gaplar quyidagi turlarga bo`linadi.

JADVAL

Bog`lanish yo`llariga ko`ra	Mazmun munosabatiga ko`ra
Bog`langan qo`shma gap	Teng aloqada bo`ladi. Biriktiruv, zidlov, ayiruv, qiyoslash va izohlash, sabab, natija,

	payt munosabatlarini ifodalaydi.
Ergashgan qo`shma gap	Bosh gapga nisbatan ega, kesim, aniqlovchi, to`ldiruvchi, ravish, o`rin, payt , sabab, natija, munosabatlarini ifodalaydi.
Bog`lovchisiz qo`shma gap (faqat ohang orqali)	Biriktiruv, zidlov, payt, shart, to`ssiqsizlik, natija, sabab, o`xshatish, izohlash, munosabatlarini ifodalaydi.

BOG`LANGAN QO`SHMA GAP

Tarkibidagi sodda gaplarning o`zaro teng aloqaga kirishuvidan tuziladigan gaplar bog`langan qo`shma gap deyiladi. Masalan: Meni kutgil va men qaytaman (K.S.).

Yurtimizning bu kuni chiroyli lekin ertasi indini yana chiroyliroq, baxtliroq bo`ladi. (O.)Mashina katta jar yoqasiga kelib qoldi-yu, shofyor hushyorlik qilib to`xtatdi (R.F.)

Bog`langan qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmunan birinchidan bir paytda yoki ketma-ket bo`ladigan voqealarni ifodalasa, ikkinchidan, mazmunan qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplar biriktiruv zidlov, ayiruv, bog`lovchilari orqali bog`lanadi.

BU BOG`LANISH VOSITALARI VA TURLARI QUYIDAGI JADVALDA BERILGAN

	Bog`lanish turlari	Bog`lovchi vositalari	Misollar
1.	Biriktiruv bog`lovchili qo`shimchalar	va	Ko`ngil xazinasining qulfi tildir va ul xazinaning kalidin so`zdir (A.N.) Havo sovudi hamda erlar muzladi. →
		ham, hamda	Qo`ng`iroq chalindi ham dars boshlandi.
2.	Yuklamalar	- y	Seni ko`rdim-y oromim buzildi
		-yu	Ko`m-ko`k paxtazorlar bunyod etildi-yu, cho`llar chaman bo`ldi. (SH. R.)→
		-da	Daraxtlarning tanalariga hayot suvi yugur di-da, ko`m - ko` bariglar mavj uraboshladi (SH.R.)
3.	Zidlov bog`lovchili qo`shimchalar	ammo	Umurzoq ota Ko`ktog` tomonga qaradi, ammo Oyqiz keladigan



		lekin	yolg`izoyooq yo`lda hechkim ko`rinmadi. (SH.R.) O`zbekistonning bu kuni chiroyli, lekin ertasi bundan ham chiroyliroq bo`ladi (Gazetadan)
		biroq	Onaxon yangi shaharga kam kelgan, biroq bu ko`chalardagi binolar esida qolgan ekan.(As.M.)
4.	Ayiruv bog`lovchili qo`shimchalar	Yo...yo	Yo etarman maqsadimga oxiri, yo bu yo`lda tamom bo`lg`usi bujon. (A.N.)
		yo...yoki	yo meni de yoki Omonni (H.O.) → Po`latjonning xayolidan goh jang
		goh--goh	dahshatlari o`tar, goh ko`z oldida gospital gavdalanadi (S.A.)
		← xox-- xox	xox inon, xox inonma (Mashrab)
		ba`zan... ba`zan	Ba`zan oy zarrin nurlarini yo`zib yuboradi, ba`zan bulut oy yuzini qoplab oladi. →
		dam..dam	dam menga qaraydi, dam unga. →

Bog`langan qo`shma gaplar inkor bog`lovchisi orqali ham o`zaro birikadi. Masalan: Na kunduzi oromim bor, Na uyquda halovat. Na o`qiysan, na yozasan. (U.)

6. Bog`langan qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplar bo`lsa, esa so`zlari yordami bilan ham birikadi .Masalan: O`tloqlar yam-yashil tizma tog`lar tepasida esa oppoq qorlar yarqirab turadi. (Ch.A.)

Arava tinmay tijirlardi, yo`lobchilar bo`lsa so`zsiz borishardi. (S.Z.)

BOG`LANGAN QO`SHMA GAPDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

1. Agar bog`langan qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplar biriktiruvchi bog`lovchilar (va, ham, hamda) yordamida bog`lansa, ular orasidagi vergul qo`yilmaydi.

Tashqarida chaqmoq yaltirar va bahor yomg`iri salovatli shovillardi. (P.Q.)

2. Agar zidlovchi bog`lovchilar (ammo, lekin, biroq) yordamida biriksa bu bog`lovchilardan oldin vergul qo`yiladi. Odam ham g`o`zaga o`xshab oftobga intiladi, lekin uning oftobi- odamdan ko`radigan mehr -oqibati. (A.Q.)

3. Agar yuklamalar, bo`lsa, ega so`zлari yordamida bog`lansa bog`langan qo`shma gapdagi sodda gaplar orasiga vergul qo`yiladi: Yomg`ir tindi-yu, quyosh charaqlab chiqdi.

4. Bog`langan qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplar o`zaro ayiruvchi bog`lovchilar yordamida biriksa orasiga vergul qo`yiladi.

O`ktam goh daraxtning mevalariga, goh oftobda qordek chaqnagan uym-uym pillalarga qiziqib qaraydi.(O.)

86 -s

ERGASHGAN QO`SHMA GAP

Mazmun, ohang va grammatik jihatidan biri ikkinchisiga tobelanib, uni to`ldirish, izohlash, aniqlash uchun xizmat qiladigan qo`shma gaplar ergashgan qo`shma gap deyiladi. Shuning uchun bu qo`shma gaplarning komponentlaridan biri hokim, ikkinchisi tobe sanaladi. Hokim, tobe munosabatlariga ko`ra ergashgan qo`shma gaplar ikkiga bo`linadi:

1. Bosh gap. 2. Ergash gap.

O`zicha mustaqil bo`lib, boshqa gapga tobelmagan gap bosh gap deyiladi. Bosh gapga ergashib uni izohlab kelgan gap ergash gap deyiladi.Masalan: ildiz oziq bersa, novda ko`karar(Maqol) gapida ildiz oziq bersa ergash gap, novda ko`karar bosh gap. Bunda ergash gap bosh gapni payt munosabatiga ko`ra izohlagan.

Ergashgan qo`shma gapda bosh gapning kesimi to`liq shaklangan bo`ladi, ammo ergash gapning kesimi to`liq shakllanavermaydi, shunga ko`ra ergash gap bosh gapga ergashtiruvchi vositalar, bog`lovchilar, ko`makchilar nisbiy so`zlar va ayrim fe`l shakllari orqali birikadi. Misollarni qiyoslang:

1). Mustaqillikka erishgach, O`zbekiston dunyo ham jamiyatining teng huquqli a`zosi bo`ldi (Gazetadan.) Bu gapda mustaqilikka erishgach-ergash gap, dunyo ham jamiyatining teng huquqli a`zosi bo`ldi -bosh gap va ular o`zaro-gach vositasi orqali birikkan.

2). Hali gul ochilmagan bo`lsa ham stol ustiga katta guldastalar qo`yilgan edi. (O.)3) Olim bo`lsang, olam seniki (Maqol)

4). Hammamiz dalaga yo`l olgan chog`da katta to`y tusini oladi qishloq(H.G.) ikkinchi gapda **sa ham**, uchunchi gapda sa, to`rtinchi gapda chog`da kabi vositalar orqali ergash gap bosh gapda bog`lanib kelmoqda.

Demak bu bog`lovchi vositalar quyidagi ko`rinishlarga ega:

1. Ergashtiruvchi bog`lovchilar (chunki, shuning uchun-ki, sababli, negaki, go`yo, toki.2 . Ko`makchilar vositasida (bilan, lekin, sari) va boshqalar. 3. Nisbiy so`zlar vositasida: (qancha, shuncha) kabi.

4. Fe`l shakllari vositasida (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi va fe`lning shart, buyruq mayli) yordamida.

ERGASH GAPLAR VA ULARNING TASNIFI

Ergash gaplar anglatgan mazmuni, shakllarini va bosh gapga bog`lanish usuliga ko`ra tasnif etiladi. Tasnif jadvali.

Guruhi	ma`no xususiyati	t\r	Ergash gapning turlari
birinchi guruh	Bosh gaplardagi mazmuni mavhum olmoshmi izohlaydiga n gaplar	1. 2. 3. 4. 5. 6.	Ega ergash gap Kesim ergash gap To`ldiruvchi ergash gap Aniqlovchi ergash gap Ravish ergash gap O`rin ergash gap
Ikkinchi guruh	Bosh gapdagi ish harakatning belgisani bildiradigan gaplar	7. 8. 9. 10. 11	Pyat ergash gap Sabab ergash gap Maqsad ergash gap Miqdor ergash gap Shart ergash gap
Uchinchi guruh	Bosh gapdagi mazmunni izohlaydigan gaplar	12. 13. 14.	Natija ergash gap To`siksiz ergash gap Oxshatish ergash gap

EGA ERGASH GAP

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan ega bo`lagini izohlab, kim?nima? so`roqlariga javob beradigan ergash gap turi ega ergash gap deyiladi. Ega ergash gap bosh gapga quyidagi vositalar orqali bog`lanadi.

1. Ergash gapning kesimi shart mayli shaklida bo`ladi, bunda bosh gapning egasi u, shu o`sha, o`zi kabi olmoshlar bo`lib keladi. Masalan: Kimki halol mehnatt qilsa u Vatanimiz tomonidan taqdirlanadi. (Gazeta.) Kim ko`p o`qisa, u ko`p biladi.

Harkimki vafo qilsa, vafo topqusidir. (Bobur)

2. Ergash gapning kesimi aniqlik mayli shaklida bo`ladi. Masalan: Kim Vatan uchun jon fido qilar ekan, u xalq qalbida hamisha yashaydi.

3. Ega ergash gap bosh gapdan keyin kelib, bosh gapda -ku bog`lovchisi yordamida birikadi. Bosh gapning kesimi ko`proq bor so`zi bilan yoki sifat bilan ifodalanadi. Masalan: Shunisi borki, biz bu yil universitetni tamomlash arafasida turibmiz.

Shu narsa borki, “Ta`lim to`g`risida“ Qonun hayotga izchil tadbiq etilishi lozim.

KESIM ERGASH GAP

Bosh gapdagi mazmuni mavhum olmosh kesimni izohlaydigan ergash gap turi kesim ergash gap deyiladi.Kesim ergash gap bosh gapga quyidagicha bog`lanadi.

1. Bosh gapning kesimi shu, shunday kabi so`zlar bilan ifodalanadi. Ergash gap bosh gapga - ki bog`lovchisi yordamida birikadi. Masalan: Toleyim shuki, baxtni topdim elni ko`roldim. (H.O.) Vazifamiz shundaki, paxtani o`z vaqtida parvarish qilishdir .(gazetadan).

2. Bosh gapning kesimi “chiqish kelishigidagi olmoshdan iborat”shaklida ham ifodalanishi mumkin.Masalan: Bugungi ishimiz shundan iboratki, har-doim dushmanlardan ogoh bo`laylik. (Gazetadan.)Misollarni solishtirning: Oramizdag'i farq shuki, men nima uchun ishni qilayotganimni bilaman ammo sizlar bilmaysizlar. (A. Q.) Sizdan umidim shumidiki, Ko`pchilikning fikriga qarshi turasiz. (A. Q.)

TO`LDIRUVCHI ERGASH GAP

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan to`ldiruvchini (yoki bosh gapdagi qo'llanmagan to`ldiruvchini aniqlashtiradigan ergash gap turi to`ldiruvchi ergash gap deyiladi. To`ldiruvchi ergahs gap, asosan, nimani? kimni? kimga? nimaga? kabi so`roqlardan biriga javob bo`ladi.To`ldiruvchi ergash gap bosh gapga quyidagicha brikadi.

1. Ergash gapning kesimi odatda shart mayli shaklida bo`ladi va ergash gap tarkibida kim, kimki, nima olmoshi kelib, bu olmoshlar bosh gapda to`ldiruvchi vazifasida kelgan u, shu, o`sha olmoshiga mos keladi. Masalan: Uydagilar nimani buyursa shuni bajar.(H.H.)

Siz kimni ko`rsatsangiz, men shunga, roziman. Kimki bo`lsa dilozor, undan elu- -yurt bezor. (Maqol)

2. Ergash gap bosh gapga -ki bog`lovchisi yordamida bog`lanadi va bosh gap tarkibida shu olmoshi bo`lib ergash gap o`sha olmoshning ma`nosini ochadi.Masalan: Bilib qo`yki, seni Vatan kutadi. (G.G.) Ona biladiki endi har sahar, butun Vatan bo`ylab to`lishar bahor (H. O.)

Ko`pincha bosh gap tarkibidagi olmosh ishlatilmaydi. Masalan: Kishilar istaydiki, hamisha ravshan bo`lsin kuni-kuni ertaklar, kuni-kuni istiqbol.(G`G`)

ANIQLOVCHI ERGASH GAP

Bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan aniqlovchi izohlagan ergash gap turi aniqlovchi ergash gap deyiladi. Aniqlovchi ergash gap qanday? qaysi? kimning? kabi so`roqlariga javob beradi va bosh gapning olmosh bilan ifodalangan biror bo`lagining belgi, xususiyatini aniqlaydi.

Aniqlovchi ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1.-ki ergashtiruvchi bog`lovchisi yordami bilan .

Bu bog`lovchi bosh gapning kesimiga qo`shilib keladi va bosh gap tarkibida ko`proq shunday so`z ergash gap tarkibida bu, uning kabi olmoshlari

yoki bunday so`zi bo`ladi. Masalan: Shunday inson haqida gapirginki uning harbir so`zi bebahodir. (O.)

Dunyoda shunday odamlar borki, ularning hayot yo`lidan ibrat olsa arziydi. (Gazetadan)

2. Shart maylidagi fe`l bilan . Bu fe`l aniqlovchi ergash gapning kesimi bo`lib keladi. Ergash gap tarkibida **qaysi**, **qanday**, **kimning**, kim kabi olmoshlar, **bosh gap tarkibida esa shunday**, **shu o`sha**, **uning** olmoshlari bo`ladi. Masalan:**Kimning ko`ngli to`g`ri bo`lsa**, **uning** yo`li ham to`g`ri bo`ladi. (Maqol) **Kim ko`p kitob o`qisa o`shaning** bilim doirasi keng bo`ladi.

RAVISH ERGASH GAP

Bosh gapdagi voqeа-hodisaning , harakatning qay tarzda yuzaga kelishi va bajaruvchini bildiradigan qo`shma gap turi ravish ergash gap deyiladi. Ravish ergash gaplar qanday? qaytarzda? qanday qilib? kabi so`roqlardan biriga javob beradi.

Ravish ergash gapning kesimi **-b**, **-ib** qo`shimchasi bilan yasalgan ravishdosh yordamida ifodalanadi.Masalan:

Qorong`i kechada ko`kka ko`z **tikib**,
Eng yorug` **yulduzdan** seni so`rayman

(Ch.)

Ergash gaplarning bu turi ayrim hollarda rayt, sabab ma`no nozikligida ham ega bo`ladi.

1. Rayt ma`no ottenkasi:

Oydin kechalarda ko`kka ko`z tikib,
Yoriq **yulduzlardan** seni kutdim men

(CH.)

2. Sabab ma`no ottenkasi: SHu rayt tashqaridan birdan shovqin -suron ko`tarilib, ko`zga hujum boshlandi (Ertakdan).

ORIN ERGASH GAP

Bosh gapdagi ish-harakatining yuzaga kelish, boshlanish, yo`nalish o`rnini ifodalovchi ergash gap turi o`rin ergash gap deyiladi.

O`rin ergash gap qaerda? qaerga? qaerdan? kabi so`roqlardan biriga javob bo`ladi. O`rin ergash gapli qo`shma gaplarning bosh gapi ergash gaplar tarkibida **u erga**, **u erda**, **u erdan**, **shu erga**, **shu erdan**, osha erdan ergash gaplar tarkibida esa qaerda? qaerga? qaerdan? kabi so`zlar bo`ladi.

O`rin ergash gapning kesimi shart yoki buyruq maylidagi fe`l bilan ifodalanadi. Masalan: Ko`z qaerda bo`lsa, mehr ham o`sha erda bo`ladi.(Maqol) Qaerda kurash bo`lmasa, uerda o`sish ham bo`lmaydi. Katta karvon qaerdan yursa, kichik karvon ham o`sha erdan yuradi.

RAYT ERGASH GAP

Bosh gapdagi ish -harakatining yuzaga kelish va bajarish raytini bildiradigan ergash gap turi rayt ergash gap deyiladi.

Rayt ergash gap qachon? qachongacha? qachondan buyon? kabi so`roqlarga javob beradi. Rayt ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. -gach (kach-qach): Ul **ketgach** kunchiqar yorug`lik sochib.(CH.) Bir oz vaqt o`tgach dala chetida chang ko``tarildi. (Gazetadan)

2. - guncha (-g`uncha, -guncha): Farg`ona tong **otguncha** (Xaziniy) . Ota suv bo`yida dam **olgincha** qiz yangi er mevalarini keltirdi. (SH.R.)

3. -da qo`shimchali sifatdoshlar : Gulga to`lib bahor kelganda, havas uyg`ondi(H.O.) Elmurod derazalaridan yorug` tushib turgan uylarning yoniga **kelganda**, qandaydir yoqimli musiqa eshitildi.(P. T.)

4. -dan qo`shimchali sifatdoshdan keyin beri, **buyon, so`ng, keyin**, kabi so`zlarni keltirish orqali: Senga ko`ngil qo`ygandan beri, ko`zlarimga uyqu kelmaydi. (H.O.) Sen kelgandan buyon, uyda tinchlik yo`qoldi.

5. -r + (ar) + ekan: Jilam daryosida suzar ekanmiz, qirg`oqlarda surnay sadolari, yoqimli qo`schiqlar yangradi. (Sh.R.)

6. -gap+ dan keyin (so`ng): Suhbat tugagandan keyin, odamlar tarqalishdi.(A.Q.) Mustaqillikdan so`ng, shahrimiz yanada obod bo`ldi .(Gazetadan)

7. Sifatdoshdan keyin **ekan, edi** to`liqsiz fe`llarni yoki **paytda, chog`da** vaqtida, so`zlarini keltirish orqali:

Eng gullagan yoshlik chog`imda,
Sen ochilding ko`ngil bog`imda
(H.O.)

SABAB ERGASH GAP

Bosh gapdagi ish-harakatining yuzaga kelish va bajarilish, bajarilmaslik sababini ifodolaydigan ergash gap turi sabab ergash gap deyiladi.Sabab ergash gap nima uchun? nima sababdan? kabi so`roqlarga javob beradi.Sabab ergash gap bosh gapga quyidagicha bog`lanadi:

1. Sifatdoshdan keyin **uchun** ko`makchisini keltirish orqali:

Dunyoni tark etmagayman,
Dynyoda sen bor **uchun** .

(E.V.)

Kichik ariqqa suv kelmagani **uchun** Gulnor chelak ko`tarib katta ariqqa jo`nadi. (O.)

2. Sifatdoshdan keyin egalik qo`shimchasi va sababli **tufayli** so`zlarini va dan chiqish kelishik qo`shimchasini keltirish orqali: G`ulomjon uzoq uy surib

ketgani sababli, suhbat uzilib qoldi. (A. Q.) . Men kechikkanligim tufayli sayotga borolmadim.

3. Ergash gapning kesimi “gan + dan” shaklida ifodalanadi va orada egalik qo`shimchasi keladi.

Alisher ish bilan band bo`lganidan, darsga o`z vaqtida etib kelolmadi. Kumush juda xafa ko`ringanligidan uning ko`nglini ochmoqqa to`g`ri kelar edi. (A. Q.)

4. **CHunki , shuning uchun** ergash tiruvchi bog`lovchilari yordamida:

Yovlarida osmon tutundir,

SHuning uchun bag`ri butundir.

(H.O.)

Har kun ortar ko`zlarimda nur, shuning uchun yo`q aslo g`amim. (H. O.) Biz erkin yashaymiz, chunki bu mustaqillik sharofatidir. (Gazetadan.)

5. -- **gach** orqali: Zayniddin shikoyatlanib qistagach u tokchadan xatni olib, do`sining qo`liga tutqazdi. (O.)

6. --**fe`Ining** bo`lishsizlik shakli -may orqali: Er ko`karmay, el to`ymas. (Maqol)

7.-- **shekilli** so`zi orqali: Oysulton to`g`ri gapirdi shekilli, hamma jum qoldi. (S. Ah.)

8. --**sa + kerak** : Majlis ko`p davom etgan bo`lsa kerak, Sergey tez qaytdi. (P.Q.)

9. --**mi** orqali: Oyoqlari erga yopishib qoldimi, sira qimirlay olmadi. (As. M.)

MAQSAD ERGASH GAP

Bosh gapdagi harakat yoki voqeanning qanday maqsad bilan yuzaga kelishini bildiradigan ergash gap turi maqsad ergash gap deyiladi.

Maqsad ergash gap nima uchun? qanday maqsadda? kabi so`roqlarga javob beradi. Bosh gapga quyidagi vositalar orqali birikadi.

1.-- **deb , sin deb, -di deb, -ar deb? -sa deb:** Ishonchimni oqla deb, Qo`llarga berding qurol. (U.) Tog`day og`ir bilak berdim, Dushmanni mushtlasin deb. (H.O.) Mustaqillik bo`ldi deb, baxshilar aytar qo`shiq.Kelasiz deb, ko`z tutdim. (Qo`shiqdan) Seni kelar deb kutib o`tiribman.

2. -- **mi +ekan+ deb:** Baxtim bormi ekan deb, kelaverdilar bari. (H.O.)

3. --**deya:** Vatan ozod, turmush farovon bo`lsin deya, mehnat qilamiz. (H.A.)

4. --**chun:** Ishdan kech kelgani uchun, uy ishlariga yordam beraolmadi. Mustaqillik bo`lgani uchun, shahar va qishloqlarimiz tobora chiroy ochmoqda. (Gazetadan.)

5. --**toki:** O`tni lovillating, toki batamom kuydirsin kul qilsin dushmanimizni. (O.)

MIQDOR -DARAJA ERGASH GAP.

Bosh gapdagi voqeani uning hajmi va darajasiga ko`ra o`lchab ko`rsatadigan ergash gap turi miqdor -daraja ergash gap deyiladi. Miqdor -daraja ergash gap tarkibining kesimi shart mayli shaklida bo`ladi.

Bunda ergash gapdagi qancha? qanchalik? nechog`lik olmoshlari bosh gap tarkibida kelgan shuncha, shunchalik, shu chog`li, shu qadar kabi so`zlariga mos keladi.

Bunday ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar orqali birikadi:

1. -sa, gan sari, gan sayin: Erga qancha ko`p ishlov berilsa, shunchalik hosil mo`l bo`ladi Ahmad qanchalik kuch sarflagani sari, ish shunchalik chekinardi.

2. --ki (shunday, shu qadar, shunchalik, shu darajada): Konvert ustidagi adreslar ham, familiyalar ham shunday chiroyli qilib yozilganki, har qanday kishining havasi keladi. (R. F.).

SHART ERGASH GAP

Bosh gapdagi voqea -hodisaning qanday shart bilan yuzaga kelishini bildiruvchi ergash gap turi shart ergash gap deyiladi. Shart ergash gap aniq voqea-hodisani (- sa) mo`ljallangan voqea hodisani(-sa edi, unda edi,) ifodalaydi. Masalan:

Agar o`z tilingni ko`zlasang faqat,
Diyoringda kimsa topolmas rohat.

(S. Sh.)

Shart ergash gaplar bosh gapga quyidagicha birikadi:

1. -sa, -sa edi:

Vatan, vatan deya jonim tanimdan o`lsa ravon,
Banda na g`am, qolur avlodima o`yu vatanim.
(A.Av.)

Agar jurmu gunoh bo`lsin desang oz,
Tilingni saqla g`iybatdan qishu yoz.
(A. Av)

Sen kelmasang, bo`lmaydi bahor.

(H.O.)

2. - r- ar + ekan, dan- ekan, moqchi ekan: Qarorlarimiz bajarilar ekan, hamma narsa mo`l-ko`l bo`lib ketadi.

3. **-mi:** Intizom bo`shashdimi ishda unum bo`lmaydi (U.)

4. **bo`lmasa, yo`qsa:** Darvozang och, yo`qsa boshing olaman. (“Avazxon” dos.)

5. **-may:** Er ko`karmay, mol to`ymas (Maqol.).
6. **Bo`lay desang:** Bo`lay desang sen odamga teng, qo`linngga qurol ol! (H.O.)
7. **Sinki :** Ko`zimga tuproq to`lsinki, seni xor qilsam.

NATIJA ERGASH GAP

Bosh gapdagi harakatning, belgining natijasini va voqeining xulosasini ifodalovchi ergash gap turi natija ergash gap deyiladi.

Natija ergash gap bosh gapdagi shunday, shuncha, shu qadar, shunchalik, chunon, bilan kabi so`zlar ning mazmunini aniqlashtiradi

Bosh gapning kesimiga -ki bog`lovchisi qo`shiladi, ergash gap tarkibida ba`zan natijada, oqibatda so`zлari keladi.

Misollar: Shunday ishlaylikki, yakkacho`pdagilar qoyil qolsin.(S.Ah.) Saidaning ta`bi shu qadar ochildiki, o`rnidan turib o`tirishga majbur bo`ldi.(A.O.)

TO`SIQSIZ ERGASH GAP

Bosh gap va ergash gapdagi mazmun bir-biriga zid bo`lsa ham, shu zidlikka qaramay, bosh gapdagi voqea-hodisaning yuzaga kelishi ifodalovchi ergash gap turi to`siksiz ergash gap deyiladi. To`siksiz ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi.

1. **-sa ham, -sa hamki:** Mirzo Ulug`bek allaqanday sovuq bo`lsa ham, butun umri o`tgan bu ko`hna saroy bilan abadul-abad vidolashayotgani esiga tushib beixtiyor to`xtadi.(O.Yo) Bo`lsang yigit, bo`lsang hamki chol, qo`lingga qurol ol ! (H. O.)

2. **-ganda ham -sa -da:** Bu haqda Nosirov ganirgandan bu faktni tahlil qilib berganda ham, Saida e`tibor qilmagan edi. (A.Q.) Garchi u o`z aybini tan olsa- da, hali uning bo`yi eggik yo`q edi?

3. **-gan -da,** gani bilan: Lablari kulmoqchi bo`lgani bilan qovoqlari osig`liq edi.(S. Ah.)

4. **-masin:** Ona ishdan qanday tashvish bilan qaytmasin, shu qizlarini ko`riboq ko`ngli yozilar edi. (As. M.)

5. **-i (b), gani holda ham:** Dunyo go`zal ko`rinar menga, o`zi qancha eski bo`lsa ham. (H.O.)

O`XSHATISH ERGASH GAP

Bosh va ergash gapdagi voqealar, shaxslar va harakatlarni bir - biriga qiyoslab, chog`ishtirib ifodalovchi ergash gap turi o`xshatish ergash gap deyiladi. O`xshatish ergash gap bosh gapga quyidagicha birikadi:

- O`xshatish ma`nosi:** day, dek: Erkalanib yotadi u Vatan tuprog`ida, yosh bola yotganiday onaning quchog`ida .(H.O.)
- ki, go`yo, xuddi:** Paxta maydoni oppoq, go`yo dalada chodir yozilgan . (Gazetadan). Bo`lajak farzand Ozodani unga shunchalar yaqinlashtirib qo`ygan ediki, go`yo u Ozoda, Ozoda esa Murod bo`lib ko`rinardi. (S. Ah.)
- go`yo , -go`yoki:** Yurak hayajonda, go`yoki quyosh, bosh harakatni berganday qonga. (G` .G`.)
- Chog`ishtirish ma`nosi: **-sa,-guncha:** uning ko`ngli qanday toza bo`lsa, ismi ham shunday toza. (O.)

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA T OPSHIRIQLAR

- Ergashgan qo`shma gap haqida tushuncha bering ?
- Ergashgan qo`shma gap qismlari o`zaro qanday vositalar orqali birikadi?
- Bosh gap nima va ergash gap nima? Ular bir-biridan qanday farqlanadi?
- Ergash gaplar qanday tasnif etiladi ?
- Ularni tasnif qilishda qanday xususiyatlar hisobga olinadi?
- Ergash gaplarning qanday turlari bor?
- Ega ergash gap va uni bosh gapga bog`lovchi bositalar nima? Kesim ergash gaplar - chi?
- To`ldiruvchi va aniqlovchi ergash gaplarni tushuntiring?
- Payt ergash gap nima? O`rin ergash gap -chi?
- Sabab va maqsad ergash gaplarni qanday tushuntiring?
- . Daraja miqdor ergash gaplarni qanday tushunasiz?
- O`xshatish ergash gapchi? Natija ergash gapni ayting?
- To`siksiz ergash gapni bosh gapga bog`lovchi vositalarni ayting?
- Ergashgan qo`shma gaplarda tinish belgisi qanday ishlatiladi?

AMALIY MASHQLAR

1 Ifoda maqsadiga ko`ra gapning turi. 2. Tuzilishiga ko`ra turini grammatic asosini aniqlash. 3. Qo`shma gap turini aniqlash. 4 Qo`shma gaplari (komponent) ning o`zaro bog`lanish va semantik munosabatini ko`rsatish.Masalan; unga qarata guldastalar otishdi, lekin u gullarga e`tibor bermadi.(H.I)Ifoda maqsadiga ko`ra darak gaap, tuzilishi vfa grammatic miqdoriga ko`ra qo`shma gap, birinchi gap ning grammatic asosi tomoshabinlar otishdi, ikkinchi gapning grammatic asosi u e`tibor bermadi, bunda ikkita sodda gap lekin zidlovchi bog`lovchisi bilan bog`langan va zidlash munosabatni bildiradi.

56-mashq. Bog`langan qo`shma gaplarni topib, ularning bog`lanish vositasi va munosabatini ayting. 1. Ertagidan o`t kazilgan bu yo`l uyga bemalol kirib

chiqishim uchun imkon beradi va buning natijasi da omborim ham ancha kengaydi. (D.Defo). 2. Na kunduzi, oromim bor, na uyquga halovat. (U.)3. Novdalarni bezab g`unchalar tongda aytdi hayot otini va shaba da qurg`ur ilk sahar olib ketdi gulning totini. (H.O.)4. Yo meni de, yoki Omonni (H.O.)5. Goh ochiq qalbning ovoziga ishq, goh g`amqay bozori ishq.(U.) 6. Dam k o`zga taashlanadi, g`am ko`rinmaydi. (Gazeta)7. Haf talar o`tdi ham tugaldi savdo. (O.) 8.Kozimbek ko`nmayyotibdi-ki, lekin kuzda to`y qilamiz.(A.Q.) 57-mashq. Ergash gaaplaarni topingf bva bog`lovchi vositalarini ayting.

1. Yzildi bu sha`r bahot tongida
Aziz farzandlarga bsavdo bo`lsin deb,
Toki bir muysafid otaning so`zi
Endi qalblarga dil jo bo`lsin deb

2. Yer o`rik emaski, o`zi gullab, o`zi pishsa (A.Q.)3. Har kim yomon bo`lsa jaz osini topadi. (Maqol). 4. Kim da -kim Go`roq`lining G`iro tini olib kelsa, shunga beraarkan Nigor axon qizini (Islam Shoir). 5. Shunday o`lka doyim bor bo`lsin, shunday o`lka elga yor bo`lsin (H.O.). 6. Kishi hayotida shunday hayajonli daqiqalar bo`ladiki, na til na biron harakat bilan bu holatni ifodalab bo`lmaydi. (S.A.)7. Hasanxonning qalbi yoyday bukilib, ikki ko`zidan yoshi to`kilib ichi g`amga t o`lib, rangi guliday so`lib, o`g`liga qarab bir so`z dedi (Xalq og`zaki).8. U qancha qo`shtiq aytsa sevimli Bambur uning ko`zlariga shuncha ravshan ko`ringanday se zilardi. (Sh.R.)9 .Yuz yil iborat qilgandan ko`ra bir soat fikr yuritgan afzal.(P.Q.)10. Tong otgach, safarga otlandik. 11. Ko`z qayerda bo`lsa mehr ham o`sha yerda bo`ladi

12. Chiro ylidir go`yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin

(H.O.)

BOG`LOVCHISIZ QO`SHMA GAP

O`zaro bog`lovchi yoki bog`lovchi vazifasidagi vositalarsiz, faqat mazmun va ohang jihatdan bog`langan oddiy qo`shma gap bog`lovchisiz qo`shma gap deyiladi. Masalan: Bulbul, ketir bahor xabarim, boyqushga qo`ygin yomon so`z barin. (S. Sh.) Daryo bo`lib oqdim, qush bo`lib uchdim. (S.Z.)

Bog`lovchisiz qo`shma gaplar qismlarning o`zaro munosabatiga ko`ra:

1. Bog`langan qo`shma gapga sinonim bo`lgan bog`lovchisiz qo`shma gap.

2. Ergashgan qo`shma gapga sinonim bo`lgan bog`lovchisiz qo`shma gap

3. bog`lovchisiz qo`shma gap sinonim bo`lmagan bog`lovchisiz qo`shma gaplarga bo`linadi.

1. Bog`langan qo`shma gaplarga sinonim bo`lgan bog`lovchisiz qo`shma gap ikki xil munosabatni ifodalaydi:

a) payt, chog`ishtiruv: Mard bir o`lar, nomard yuz o`lar . (Maqol.) To`g`ri til tosh yorar egri til bosh yorar (Maqol.)

b) zidlov munosabatini: Tig` yarasi bitar, til yarasi bitmaydi (Maqol.)

2. Ergashgan qo`shma gapga sinonim bo`lgan bog`lovchisiz qo`shma gap: Hamal kirdi- amal kirdi. (payt), savr kirdi- davr kirdi (payt), it huradi- karvon o`tadi (to`siksiz), qor yog`di- nur yog`di (o`xshatish), Har erni qilma orzu, har erda bor tosh -tarazi (sabab.)

3. Bog`lovchisiz qo`shma gapga sinonim bo`lmagan bog`lovchisiz qo`shma gap : Tong yaqinlashib qoldi: onda -sonda xo`rozlarning qichqirigqi eshitila boshladi. (S. Z.) Xushxabar olib keldim : garnizon yanchildi, shahar o`zimiznikilar qo`liga o`tdi (Sh.)

Bog`lovchisiz qo`shma gap qisimlari kesimlarning qanday ifodalanishiga ko`ra ikki xil: 1.Bir xil qismlardan tuzilgan bog`lovchisiz qo`shma gap. Masalan: Quyosh daraxt orqasiga cho`kdi, dala qoraydi(P. T.) Daryo ketar tosh qolar, o`sma ketar qosh qolar. (Maqol.)

2. Turli xildagi qismlardan tuzilgan bog`lovchisiz qo`shma gap: Bilib turibsiz, men hech narsa deganim yo`q. Havasim kuchli, o`ylarim, xayollarim dunyo -dunyo. (O.)

BOG`LOVCHISIZ QO`SHMA GAPLARDA TINISH BELGILARINING ISHLATILISHI

Bog`lovchisiz qo`shma gaplarda tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi:

1. Bog`lovchisiz qo`shma gap tarkibidagi mazmun jihatdan bir- biriga yaqin bo`lgan, bir paytda yoki ketma-ket bo`lgan voqealarni ifodalagan sodda gaplar orasiga vergul qo`yiladi. Masalan: Sizning iste`dodingizni bilaman , sizga hurmatim hamisha baland. (O.)

Bog`dagi meva daraxtlarni gullagan, havodan bol isi anqiydi. (M. Osim). Tong otdi, quyosh charaqlab chiqdi. Kecham tong otdi, kului bahorim . (Qo`shiq)

Kuy avjida uzilmasin tor,
She`r avjida sinmasin qalam

(E.V.)

2. Bog`lovchisiz qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplar mazmun jihatidan qisman mustaqil bo`lsa, yoki vergul ishlatilgan bo`lsa, qo`shma gap tarkibidagi sodda gap bir-biridan nuqtali vergul bilan ajratiladi.

Masalan: Pag`a -pag`a mayin qor osmondan yog`ilib turadi; shamolning sekin, bo`g`iq guvillashi eshitiladi/ (S.Z.) Shinel jiqlqa ho`l; Bektemirning yuzidan tomchilab quyilar edi.

3. Bog`lovchisiz qo`shma gap tarkibidagi ikkinchi gap birinchi gapning biror bo`lagini izohlasa, uning mazmunini to`ldirsa, sodda gaplar orasiga ikki nuqta qo`yiladi. Masalan: Gulnor butun yuragi bilan Yo`lchiga maftun: uning ko`ksini baxtsiz sevgi hasrati va ayrilik` lim-lim to`ldirgan. (O.) Siz menga aytинг: yuqori hosil olish uchun kurashni nimadan boshamoqchisiz. (O.)

4. Bog`lovchisiz qo`shma gap tarkibidagi sodda gaplarning mazmuni bir-biriga zid bo`lsa tire qo`yiladi: Ko`z qo`rkoq- qo`l botir (Maqol.)

5. Bog`lovchisiz qo`shma gap tarkibidagi birinchi gapning mazmuni ikkinchi gapning mazmuniga o`xhatilsa: Vaqting ketdi- baxting ketdi (Maqol.)

6. Bog`lovchisiz qo`shma gap tarkibidagi birinchi gap ikkinchi gapdan anglashilgan ish-harakatning payti yoki shartni bildirsa, ular orasiga tire qo`yiladi: Yurt tinch-sen tinch (Maqol).

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHI RIQLAR

1. Bog`lovchisiz qo`shma gapni tariflang? U bog`langan va ergashgan qo`shma gapdan qanday farq qiladi?

2. Bog`lovchisiz qo`shma gapning qanday turlari bor? Qanday belgilariga ko`ra turlariga ajratiladi?

3. Bog`lovchisiz qo`shma gap qismning orasida qanday tinish belgilari qo`yiladi va ularning turlarini aytинг ?

AMALIY MASHQLAR

BOG`LOBVCHISIZ QO`SHMA GAPNI SINTAKTIK TAHLIL QILISH TARTIBI VA NAMUNALARI

1. Ifodamaqsadiga ko`ra gap turi. 2. Qo`shma gap tuzilishiga ko`ra turi.3. Bog`lovchisiz qo`shma gap turini ko`rfsatish. 4. Bog`lovchisiz qo`shma gap qismlarining semantik munosabati.5. Bog`lovchisiz qo`shma gaplarda tinish belgining izohlash. Masalan, Osmon yiroq, yer qattiq (Maqol.). Bu gap bmafqsadiga ko`ra darak gap, tuzilishi va grammatik asosining miqdoriga ko`ra qo`shma gap, qismlarining bog`lanish va semantik munosabatiga ko`ra bog`lovchisiz qo`shma gap o`hang yordamida ikki sodda gap o`zaro bog`langan, ular orasiga vergul qo`yiladi.

58-mashq . Bog`lovchisiz qo`shma gaplarni topib ularni sintaktik tahlil qiling.

1. Quyosh qochib ketdi, olam qoraydi. (U.A.) 2. Havo juda issiq, uzoq dalalrda, ko`kda jimlik hukm surardi.(Sh. R.)3. Jismimiz yo`qolur o`chmas nomimiz (H.O.) 4. Men ko`rdim, sen ko`rmading.(Sh.R.) Ovchi ning so`zi she`r otar, yigitning zo`ri yer ochar.(Maqol). 6. Hamal kirdi ekinlarga amal kirdi.(Maqol). Seni ish yergasin, sen ishni yeng (Maqol). 7. Hali quyosh botmagan, uning kechki qizg`ish nurlari barglari sarg`aydi o`riklarini, terak uchlarini lovillatib yondirayotgandek. (S.A.)

- 8 Xalqqa aytинг men aslo o`lganim yo`q,
Voy qo`liga taslim ham vo`lganim yo`q
(H.O.)
- 9 Meni kutgil va men qaytarman
Faqt kutgil meni juda intizor.
(K.S.)
- 10 Daryolardan kuylab o`tardim,
Qo`sishqlarga quloq tutarman
(H.O.)
- 11 Tabiat o`zgarar ming yillardan so`ng
Balki biz bilmagan giyohlar o`sar.
(U.)
- 12 Men kulaman- hayot kuladi,
Men kulaman- kulib qarar yil
(S.A.)

Uch va undan ortiq sodda gaplarning mazmuni va grammatik jihatdan birikishidan tuzilgan qo`shma gap murakkab qo`shma gap deyiladi. Bu qo`shma gapning oddiy qo`shma gaplardan farqi shundaki, agar oddiy qo`shma gaplar tarkibida ikkita sodda gap kelsa, murakkab qo`shma gapning tarkibida uch va undan ortiq sodda gaplar o`zaro birikib keladi. Masalan: Biz shuni yaxshi bilamizki, millatlararo nizolar yaxsilikka olib kelmaydi. (Gazetadan)

Yillar o`tgach, yaxshilik urig`i unib chiqadi va biz undan manfaatdor bo`lamiz. Keltirilgan misollarning birinchisi ikkita sodda gapdan hosil bo`lgan (oddiy qo`shma gap) ikkinchisi esa ichta sodda gapdan tuzilgani uchun murakkab qo`shma gapdir.

Murakkab qo`shma gaplar qo`yidagi turlarga bo`linadi;

1. Ergashish yo`li bilan tuzilgan murakkab gaplar.
2. Bog`lanish yo`li bilan tuzilgan murakkab gaplar.
3. Bog`lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab gaplar.
4. Aralash yo`l bilan tuzilgan murakkab gaplar.

ERGASHISH YO`LI BILAN TUZILGAN MURAKKAB QO`SHMA GAPLAR

Tarkibidagi ikkitadan ortiq ergash gaplar mavjud bo`lib, bitta bosh gapga tobelangan murakkab gap bir necha ergash gapli qo`shma gap deyiladi.

Bunday ergash gaplarning bosh gapga bog`lanish usuli ikki xil:

- 1) to`g`ridan to`g`ri ergashish
- 2) ketma -ket ergashish.

1. Ergash gaplarning har biri mazmun va grammatik jihatdan biri ikkinchisiga tobelanmay, o`zaro teng holatda bosh gapga bog`lansa bu usul to`g`ridan to`g`ri ergashish deyiladi. Masalan: Mana bu kanal bitsa, yangi er ochilsa, paxta ham ko`payadi. Bahor kelsa, gullar ochilsa, yana avvalgiday tabiat gullar .(H.O.)


qachon?	qachon?	
---------	---------	--

Bunday yo`l bilan ergashish ikki xil bo`ladi:

1. Uyshiq ergash gaplar.
2. Uyshmagan ergash gap.


Uyshiq ergash gaplar tarkibidagi sodda gaplar bir xil so`roqqa javob beradi va bir turdag'i ergash gap bo`ladi. Masalan: Kim o`ylasa onalarni, vatanni, kim mehnat qilsa, unda inson fazilati bor. Uyushmagan ergash gaplar tarkibidagi sodda gaplar harxil so`roqqa javob beradi. Masalan:

Tashqari hali yorug` bo`lsa-da, eshik yopilgani uchun, derazasiz hujra qop--qorong`i edi.(O.)




Har bir ergash gap to`g`ridan -to`g`ri bosh gapga bog`lanmasdan ikkinchisiga bog`lanib keyin bosh gapga bog`lansa ketma-ket ergashish deyiladi. Masalan: Yillar o`tib qancha suvlar oqib o`tsa ham, inson o`z ustozini unitmaydi.

Sulton daraxt bo`lsa, raiya tomir,
Tomirdan, ey-o`g`lim, daraxt kuch olur (S.Sh.)



Bog`lanish yo`li bilan tuzilgan murakkab qo`shma gap. Bunday qo`shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar o`zaro bog`lovchi yoki bog`lovchi vazifasidagi so`zlar yordami bilan birikadi. Masalan: 1) Bahor keldi, 2) Lekin havo uncha ochilganicha yo`q-u, 3) daraxtlar kurtak otaboshladi.



Bunday gaplar (bog`la) bog`langan qo`shma gaplarga o`xshasa -da, lekin sodda gaplarning miqdori jihatidan farq qiladi ya`ni sodda gaplar miqdori ko`p bo`ladi.

Bog`lovchi vositasiz tisilgan murakkab qo`shma gaplar .Bunday murakkab qo`shma gaplar o`z tarkibidagi sodda gaplarning o`zaro bog`lanish usuli, sodda gaplarning tuzilish va ma`no munosabati jihatidan bog`lovchisiz qo`shma gaplardan deyarli farqlanmaydi, faqat bu gaplarda sodda gaplarning o`zaro munosabat biroz murakkabroq bo`ladi: Bu belgilarni quyidagicha izohlah mumkin .

1. Sodda gaplar teng munosabatda bo`ladi. Masalan:

- (1). Boshimga bolishlar botdi, (2) sen kelmading,
- (3). Yurakka nolishlar botdi, (4) sen kelmading.

(Qo`sinq)

2. Sodda gaplarning biri boshqalariga nisbatan alohida vaziyatga ega bo`ladi. Masalan:

- (1) Tong chog`i tun bilan kunduz uchrashdi,
- (2) Tunda armon bilan yulduz uchrashdi,
- (3) Bahor bilan kuzak baxt qush uchrashdi,
- (4) Toshlar uchrashdilar, biz uchrashmadik.

(U.A.)


3. Ba`zi hollarda gaplar juft -juft holda o`zaro birik adilar.

- (1) Qahraton o`tkinchi-(2) tunmoq o`tkinchi,
- (3) Bahor o`tkinchi-(4) unmoq o`tkinchi,
- (5) Yoz ham o`tkinchi -(6) to`lmoq o`tkinchi,
- (7) Faqat kuzak cgeksiz- (8) so`lmoq cheksiz.

(U. A.)

ARALASH MURAKKAB QO`SHMA GAPLAR.


Bunday gaplar bir necha ko`rinishdagi ega: 1.Bog`lanish va ergashish yo`li bilan tuzilgan murakkab qo`shma gaplarda sodda gaplar o`zaro bog`lanish , ham ergashish yo`li bilan munosabatga kirishadi. Masalan: (1) Bahor keldi, (2) Lekin havo sovuq edi, (3) chunki bu yil qish bir oz cho`zildi.




2. Bog`lanish yo`li bilan va boglovchisiz munosabatga kirishish yo`li bilan tuzilgan murakkab gaplarda sodda gaplar munosabati turlicha bo`ladi.

- (1). Tuproq semiz ,(2). Suv yaxshi, (3). Havosi ochiq,
- (4). Quyosh esa yil bo`yi bu erga osiq .

(Sh.)



3. Har uch munosabat asosida : bog`lanish, ergashish, bog`lovchisiz tuzilgan murakkab qo`shma gaplarning o`zaro munosabati turlicha bo`ladi. Masalan: (1) O`rtoq Xolnazarov, (2) ovqatga ishtahasi bo`lmay, chalqancha yotib papiros tortar ekan,(3) u ko`z oldidan g`alati manzaralarni o`tkazdi va (4) toliqqan ko`zlari uyquga ketdi ,(5) tushiga ham shu manzaralar kirdi. (S. Ab)



TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPISHMOQLAR

1. Murakkab qo`shma gap nima va oddiy qo`shma gapdan qaysi jihat bilan farq qiladi?
2. Murakkab qo`shma gap ning qanday turlari bor?
3. Ergashish yo`li bilan tuzilgan qo`shma gap qanday turlarga bo`linadi?
4. Bog`lanish ba bog`lovchi vositalarsiz tuzilgan murakkab qo`shma gaplarning xususiyatlarini aytинг?
5. Aralash yo`l bilan tuzilgan murakkab qo`shma gap nima?

AMALIY MASHQLAR

1. Ifoda maqsadiga ko`ra gap turini aniqlash.
2. Qo`shma gap qismlari (konponent)ning miqdoriga ko`ra turlarini aniqlash.
3. Grammatik asosini belgilash.
4. Murakkab qo`shma gapning turini aytish.
5. Murakkab qo`shma gap qismlarining bog`lanish turini auting. Masalan: Shahar uylaridagi hamma chiroqlar o`chdi, lekin uzun boloxonali bu uydagi chiqorlar o`chmagan, chunki bu chiroqlar o`chishi mumkin emas (H.G`.) Ifoda maqsadiga ko`ra qo`shma gap,

komponentlarining miqdoriga ko`ra murakkab qo`shma gap birinchi komponentning grammatik asosi chiroqlar o`chdi, ikkinchi komponentning grammatik asosi chi`roqlar, uchinchi grammatik asos chiroqlar o`chishi mumkin emas, aralash yo`l bilan tuzilgan murakkab qo`shma gap.

59-mashq. Murakkab qo`shma gaplarning turini aniqlang va bog`lanish vositalarini ayting.1. Qizlar chayladay buzilib, munchog`i uzulib, oyog`i qaltirab, sipohiga bir so`z defdi. (E.J.) 2 Agar ketar bo`lsang uzoq yurtlarga, agar gaping rost bo`lsa, men seni kutgayman, albat . 3. Baahor kelgach gullar ochilsa yana avvalgiday tabiat gullar.4. Bir tomonda qo`ylar so`yildi, qozonlar osildi, tandirlar qizidi. sermay sho`rva issiq zag`ora taylor qilindi.(S. A.)5. Shunday bir kun bo`larki, lo chinlar havoga uchib chiqajaklar, ozod bo`lur xalq. 6. Arava keng ko`chaga qayrildi, odam qalin, ammo chiroq unga-bunda, Ahmad Nusayin jiddiy asabiy, o`ychan edi.(O.)

- 7 Shahar boqiyidir unr o`tkinchi,
Daryolar sobitdir, suvlar ko`chkinchi
(M.Sh)

8 Meni kutgil va men qaytarman.
Faqat kutgil juda intizot
(K.S.)

9 Lekin sen yig`lama aylafgil bardosh,
mozorlar yo`qolgay gulga to`lur bog`
G`alaba yaqindir, barg urar quyosh
Bulbul yana sayrar, bo`lib vaqtı chog`
Kul ketar, gful kelar, ishon navjuvon
(U.)

10 Bu hayot mangu emas
Oqqani ortga qaytmas
O`z umringdan shoshqinroq
Daryoni topolmassan
(qo`sishiq)

O`ZGA GAP VA UNING TURLARI

Ayrim hollarda so`zlovchi o`z nutqida o`zganing gapini ham ishlatishi mumkin . Bunday qo`llangan o`zgalarning gapi so`zlovchi nutqida hechqanday o`zgarishsiz yoki mazmuni saqlagan, ammo grammatik xususiyatlari o`zgartirilgan holda qo`llanishi mumkin. SHunga ko`ra o`zga gap, asosan, ikki turga bo`linadi: 1) ko`chirma gapli qo`shma gap, 2) o`zlashtirma gap.

Mazmuni, leksik va grammatik xususiyalari o`zgartirilmay, aynan berilgan o`zga gap ko`chirma gap deyiladi. Bunday gap odatda so`zlovchi (avtor) gapi bilan birga qo`llanadi. Shuning uchun ham ko`chirma gap ikki qismdan iborat bo`ladi :1) ko`chirma gap (o`zganing gapi) 2) avtor (so`zlovchi) gapi.

Ko`chirma gap so`zlovchi avtor(gapi bilan birga qo`llanadi va so`zlovchi gapi ko`chirma gap kimning gapi ekanligini bildiradi.

So`zlovchi gapining kesimi ko`pincha dedi, **deb so`radi, deb javob berdi**, gapirdi, so`zladi, aytdi kabi fe`llar bilan ifodalanadi. Ko`chirma gap so`zlovchi gapidan oldin va keyin keladi. Shuning uchun so`zlovchi gapi ko`chirma gap ichida va ko`chirma gap avtor gapi ichida keladi.

Agar ko`chirma gap darak gap shaklida bo`lib so`zlovchi gapidan oldin kelsa, ko`chirma gapdan keyin vergul va tire qo`yiladi va ko`chirma gap qo`shtirnoq ichiga olinadi.

Masalan: “Men maymunjon tergani shu erga kelgan edim”, -dedi Qo`ziboy. (H.N.) ko`rinishi **“K”-, S.**

Ko`chirma gap so`roq, buyruq-yoki , his-hayajon gap bo`lsa, so`roq va undov belgilari qo`shtirnoq uopilmasdan oldin qo`yiladi: Ota, qaergacha quvib bordingiz? -dedi Haydarov cholning gaplarini tez-tez yozib borarkan. (S. A.) “K”? - S. “Xat !” xat! “ deb shivirlashdi bedapoyaga uygurgan bola- lar. (H.N.) **”K!”--S.**

Agar ko`chirma gap so`zlovchi gapidan keyin kelsa, so`zlovchi gapidan keyin ikki nuqta qo`yiladi. Ko`chirma gap so`roq, buyruq yoki his-hayajon gap bo`lsa, so`roq va undov belgilari qo`shtirnoq yopilmasdan oldin, ko`chirma gap darak gap bo`lsa, nutq qo`shtirnoq yopilgandan keyin deyiladi.

Dedi: “Qaydin sen ey Majnunni gunroq ! ”

Dedi: “Majnun Vatandin qayda ogoh ”

S: “K ? ” S: “K ! ” S: “K .” So`zlovchi gapi ko`chirma gap ichida kelsa, tinish belgilari quyidagicha ishlatiladi: Ko`chirma gapning uzilgan qismida vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta qo`yilgan bo`lsa yoki hech qanday tinish belgisi bo`lmasa, so`zlovchi gapining har ikki tomonidan vergul va tire qo`yiladi. Masalan: Kampir ketish uchun eshikka tomon borarkan, Aleksey: “Rahmat buvijon”, -dedi -S: “K”. Ko`chirma gapning uzilidan qolgan qismidan so`ng nuqta qo`yilgan bo`lsa, so`zlovchi gapidan oldin vergui va tire, undan keyin esa nuqta va tire qo`yiladi. Ko`chirma gapning davomi bosh harf bilan yoziladi.” Mana shu bo`siq Mirzacho`lga yakkalanib qolgan hayvonlarning eng oxirgisi, -deb ta`kidladi bobom.

- Mening nomimdan hayvonot bog`iga topshirib yubordi ”. “**K**, **S**. -**K**” Ko`chirma gapning uzilidan qismidan so`ng so`roq yoki undov belgisi qo`yilgan bo`lsa, so`zlovchi gapidan oldin tire, undan keyin nuqta va tire qo`yiladi. Ko`chirma gapning davomi bosh harf bilan yoziladi“Arilarning g`ashiga tegmang!”-deb ogohlantirdi bobom. Bir yopisgsa qo`ymaydi “Qiziq ! - dedi Ahmad. - Arilarga teginmoqchi bo`lasiz ”.

“**K ? -s. -K**” . **K ! - S. -K**”. Ko`chirma gap so`zlovchi gapi ichida kelsa, so`zlovchi gapining uzilib qolgan qismidan so`ng ikki nuqta qo`yilib, ko`chirma gap qo`shtirnoq ichiga olinadi. Ko`chirma gap dan keyin vergul va tire qo`yiladi, so`zlovchi gapning davomi yoziladi. Xadicha aya doim: “Baraka top qizim, obro`ying, iqboling bundan ham baland bo`lsin ”, -der edi. (H. N) S: “**K**”, -**S**.

Ko`chirma gap so`roq, buyruq yoki his-hayajon gap bo`lsa, so`roq va undov belgilari qo`shtirnoq yoyopilmasdan oldin qo`yiladi.

O`qituvchi: “Abdulla Qodiriyning “o`tgan kunlar” romanini o`qiganmisan? ”- deb so`radi. S: “**K ?**” -**S**.

O`ZLASHTIRMA GAP

Shakli o`zgartirilib, mazmun saqlangan o`zgalarning gapi o`zlashtirma gap deyiladi.

Bunday gaplarda o`zgalarning gapi leksik, semantik , grammatik va ohang jihatidan O`zlashtirilib beriladi, yani o`zgalarning fikri so`zlovchi tomonidan hikoya qilinadi. Misollarni qiyoslaymiz: **Ko`chirma gapni** : “Kitob aqilning kaliti”, -dedi o`qituvchi.**O`zlashtirma gap**: O`qituvchi kitob oqlning kaliti ekanligini aytdi.Ko`chirma gap : “Imtihonlarga qanday taylorlayapsan ? ” - deb so`radi kursdoshim.O`zlashtirma gap: kursdoshim imtihonlarga qanday taylorlanayotganini so`radi.

TAKRORLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O`zga gap nima va qanday shaklarida namoyon bo`ladi?
2. So`zlovchi gapi nima? Ko`chirma gap-chi? .
3. O`ziniki bo`lmagan ko`chirma gap nima ?
4. Ko`chirma va o`zlashtirma gapning maqsadiga ko`ra turlari?
5. O`zlashtirma gap nima? Ularning farqi?
6. Ko`chirma gap va so`zlovchi gapining joylashish o`rni va tinish belgilarining qo`llanishi?

AMALIY MASHQLAR O`ZGA GAAPNI SINTAKTIK TAHLIL QILISH TARTIBI VA NAMUNASI

1. O`zga gap va uning turi. 2. Ko`chirma gapda ko`chirma va mualif (so`zlovchi) gapni aniqlash.3. Ko`chirma va so`zlovchi gapining ifoda maqsadiga ko`ra turlari.4. Ko`chirma va so`z lovchi gapining joylashish o`rni.5. Ko`chirma gap va so`zlovchi gapining grammatic asosi. 6. O`zlashtirma gapning grammatic asosi.

60-mashq.O`zlashtirma gapni ko`cfirma gaplarga aylantirib yozing va tinish belgilarini qo`ying.

1. O`qituvchi til insonining eng muhim aloqa vositasi ekanligini uqtirdi.2. O`qituvchi bolalardan uy topshirig`ini bajargan bajarmaganliklaribni so`radi.3. Maqsad o`rni maktabni bitirganidan keyin universitetga kirishini aytdi.4. Biz ommaviy ish va ijtimoiy foydali mehnatga doyim tayor ekanligimizni bildirdik. 61-mashq. O`zingiz o`qigan badiiy asarlardan ko`chirma gapga misollar topib yozing.

TAMOYILLARI .

Punktuatsiya (lat. puktion "nuqta") so'zidan olingan bo`lib o`zbek tilshunosligida tinish belgilari nomi bilan yuritiladi.

Tinish belgilarining ishlatalish haqidagi qoidalar to`plami punktuatsiya deyiladi. Tinish belgilari yozma nutqda katta amaliy ahamiyatga ega.

O`zbek tilida tinish belgilarining birnecha tamoyillari bor: Logik-grammatik tamoyil, islubiy tamoyil, defferensiatsiya tamoyillari.

1. Logik- grammatik tamoyilga ko`ra har bir tinish belgisi mantiqiy fikrning tugalligini bildirish uchun yozuvda qo`llanadi. Masalan:

Bugun dars bo`ladi. (darak) mazmun va grammatik jihatdan tugallangani uchun (.), sen bahorni sog`inmadingmi? so`roq mazmuni ifoda etilgani uchun (?), Yashasin mustaqilliik undosh mazmuni berilgani uchun(!) belgilari qo`yilgan.

2. Uslubiy tamoyilga ko`ra gapda ifoda etiladigan turli his-hayajon, emontsia yoki badiiy, ilmiy uslub talabiga ko`ra tinish belgilari ishlataladi.

3. Defferensiatsiya tamoyilida ko`ra esa tinish belgilarini gap talab qilgan ohang va mazmuniga ko`ra ajratib farqlash asosida ishlatalish tushuniladi.

O`zbek tilida tinish belgilarining ishlatalish o`rinlarini qo`yidagicha izohlash mumkin:

1. (.) **Nuqtaning ishlatalish o`rinlari:** 1) darak gap oxirida ishlatalib, fikrning tugallanganligini bildiradi. Masalan: Mustaqillika erishgach, barcha orzularimiz amalga oshdi (Gaqzetadan).

2. orzu -istak, iltimos, yalinishga undosh, so`roq, maslahat, nasihat, ogohlantirish mazmunini ifodalagan buyruq gaplar oxirida: Bir kelib keting qo`shig`imizga.

Go`zallarning malikasi ekansan,
Buni sening ko`zlariningdan o`qidim
(CH.)

3) raqamlar yoki harflar bilan ko`rsatilgan numerativlardan so`ng: 5. B. 10. A.

4) bosh hariflar yoki bo`g`inlar bilan ko`rsatilgan shartli qisqartmalardan so`ng: A. CHo`lpon, G. Gulom, A. Oripov kabi:

5) ko`chirmaning manbayini ko`rsatuvchi kiritmalardan so`ng: A. Qahhor / "Sinchalak"/ T. Murod. / "Otamdan qolgan dalalar"/.

6) raqamlar bilan yozganda oy, kun, yillarni ajratuvchi belgi sifatida ishlataladi:

a) I. IX (1sentyabr -mustaqillik bayrami)

b) 21. X. 1989. (21 oktyabr 1989 yil "Davlat tili haqida " Qonunn qabul qilingan kun)

7) matematikadan ko`paytiruv alomati va murakkab sonlarni sinflarga ajratuvchi belgi sifatida ishlataladi: $4 - 4 = 16$; $5 - 5 = 25$; O`zbekistonda "4. 000000 tonna" paxta terib olindi.

II. (?) So`roq belgisining qo`llanish o`rinlari :

1) sof so`roq gaplar oxirida: Toshkentdan nimalar keltirdingiz, bek aka? Dars qachon tugaydi?

2) taxmin, chama, taajub, buyruq ma`nolarini ifodalagan so`roq gaplar oxiriga: SHu gaplar rostmi? Bugun qayerga bormoqchisan? kelasanmi? Hayronman?

3) ritorik so`roq gaplardan so`ng: Qizni kim sevmaydi, qimizni kim ichmaydi .(Maqol) Vatandan ayrilib bo`ladimi? Dunyoda vatandan aziiz narsa bormi?

4). taqrizlarda ko`chirmalarda biron so`z yoki jumla noaniqlik, gumon, tushunmovchilikni ifodalaganda ham so`roq belgisi qo`yiladi.”U o`zining o`tkir aqli (?) bilan ko`zlaridagi joziba (?) bilan esda qoladi”

5). So`roq ma`nisida ishlatilgan so`zlardan keyin: ot kim, nima? kimlar? nimalar ! so`roqlariga javob beradi.

III. (!) Undov belgisining qo`llanish o`rnlari:

1). undov gaplar oxirida: kelgusi avlod tarixga qarab hukm yuritadur, ustod ! - dedi Ali qushchi. (O. Yo)

Bu iflosni otgan men bo`laman !(Ua).

2). his-hayajon bilan aytilgan buyruq gaplar oxirida: Nimalar deyapman, bilmayman, hayhot ! (S. Z.)

Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun,
Sevgan farzand bo`lsa, kechirma aslo !

(A. O.)

3). Emotsionalikka ega bo`lgan yokativ gaplarga: Akajon! Men! ikki olam sohibisi akajon ! (“Ramayana” kinosidan).

4). kuchli his- hayajon bilan aytilgan so`z- gaplarda: Labbay! Xo`p! Bo`pti! Ofarin! Voy!.

5). undov ohangi bilan aytilgan atov gaplarda: -Urush! -Dunyo! Mustamlaka! (H. O.)

6). taajjub, tashakkur, rag`batlantirish, hayratlanish, zavqlanish, shodlik, mammunlik, g`azab, qo`rqish ma`nolarini bildiruvchi gaplar kuchli his-hayajon bilan aytilda undov belgisi qo`yiladi: Balli! Rahmat sizga? juda zo`r! Yashang! Nahot! Xayriyate! Bor ekansan! Voy, betamiz hayvon -ey!

7). Gap boshida undov ohangi bilan aytilgan undalmalardan so`ng: Xonimlar va janoblar ! Xush kelibsiz bizning yurtimizga

8) Gap boshida his- hayajon bilan aytilgan undov so`zlaridan so`ng qo`yiladi: Eh ! Attang! Nega oldin bilmadik ekan?

IV (,) Vergulning qo`llanishi.1) biriktiruvchi bog`lovchilar ishtirok etmagan uyushiq bo`laklar orasida: Bog`imizda olma, o`rik, shaftoli, gilos, xurmo bor.

2) Undalmali gaplarda:

Daryo emas, xalq timsoli erursan,
Oqil tushgin quriq qolma, onajon

(E.V.)

Sen ham oshiqmisan aytchi ohujon.

(A. O.)

3)kirish konstruktsiyali gaplarda: Talabalarimiz, mening eshitish-imcha , musobaqa g`olib bo`libdilar.

4) undov so`zli gaplarda: Oh,Voy, burnim (A.Q.)

5) takrorlangan so`zlarda: hoy, hoy o`lan, jon o`lan, o`yinchi qiz yor, yor!

6) ergashgan qo`shma gaplar orasida:

Bermasang tinchlik agar,
Bulbul gulistonidan ketar.

(Qo`sinq)

7) bog`lovchisiz qo`shma gaplarda:

Botirlari kanal qaziysi,
SHoirlari g`azal yozadi.

(H.O.)

8) ko`chirma gapli birikmalarda:"Chin savdogar emishsiz,"-dedi qutidor.

9) zidlovchi bog`lovchilar ishtirok etgan gaplarda: Vali o`qidi, ammo yozmadni.

10) takrorlangan bog`lovchilar ishtirok etgan gaplarda: Sensan sevarim, xoh inon, xoh inonma.

V.(;) Ikki nuqtaning qo`llanishi . 1. Bog`lovchisiz qo`shma gaplarda: uning sheri misoli oltin: Ochiladi o`qigan sayin (U.)

2. Umumlashtiruvchi bo`lak uyushiq bo`laklardan oldin kelganda: Kirib keldi ikki do`stim: biri Erkin, biri To`lqin.

3. ko`chirma gapli qo`shma gaplarda so`zlovchi gapidan keyin: Dedi: Senga nedur olamda pesha?

4. misol, masalan, chunonchi, qaror, reja, mavzu, maqsad, sabab, kabi so`zlardan keyin: Mavzu: Undosh fonemalar va ularning tasnifi.

VI (;) Nuqtali vergulning qo`llanishi.

1) ma`no jihatidan bir-biriga yaqin bo`lmagan gaplar orasida: sening taklifing, albatta o`tmaydi, unda kimning obro`yi tushadi.

2) Uyushiq bo`laklar murakkab bo`lganda:

Bir yonda taxtu tomosha,

Bir yonda sarvinozlar;
Gul bo`lib ochilgandir,
Qizlargul dilnavozlar. (Qo`sinq)

3) murakkab qo`shma gaplarda: Pastlikdan daryo ko`rindi: qirg`oq bo`yida goh bog` etaklari, goh stantsiya uylari qorayib ko`rinar edi, ba`zilarining derazalaridan chiroq miltillab turgan bo`ladi.

VI. Ko`p nuqtaning qo`llanishi (...) 1.fikrning tugallanmaganligini bildiradi: Bilmayman degan edi, yana o`zi biladi ...

2. Yozma nutqda berilishi mumkin bo`lmagan so`zlar o`rniga: Tavba !... Nima qilsam ekan bu la`natini ?

3. So`zlovchining o`ylanib qolganini: shu ishlarni o`zing bajarsang?...

4. Qisqartirilgan jumlani: To`g`risi... jonga tegdi.
5. kuchli his-hayajon: ko`m- ko`k ... ko`m-ko`k....
6. Dualoglarga: --Qaydin kelding?

-- . . .
--oting nima?

IX. () Qavsning ishlatalish o`rnlari **1.**Kiritma birikmalarda: Ahmad (Saidaning akasi) sharqshunoslikda o`qiydi, Salomat va Saodat (Ahmad akaning singillari) hali maktabda o`qishadi.

2) Sitata yoki misolning qayerdan olinganligini ko`rsatuvchi manbalarning nomi ham qo`shtirnoq ichiga olinadi.

O`zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur.

(H.O. “O`zbekiston”she`ridan)

3) Remankalar ham qavs ichiga olinadi: Ra`no (ko`z qisib) Nima Salimga ko`ngling yo`qmi?

4) Tushuntirish, ozoh, uqtirish ma`nosidagi so`zlar, iboralar, gaplar ham qavs ichiga olinadi: “Akademik” (atoqli o`zbek tilshunosi Sh. Shoabdurahmonov) “Feruz” (qo`shtiq). “Tanovar” (kuy) .

5) Badiiy asarlarning qanday janrga mansubligini bildiruvchi so`zlar ham qavs ichiga olinadi. “O`zbekiston” (she`r) “Alpomish” (doston), “O`g`ri ”(hikoya), “Otamdan qolgan dalalar” (roman).

6) Gazeta va jurnallar tahrir hayatining vazifalari ham qavs ichiga olinadi: T. Mirzayev (bosh muharrir) “O`zbek tili va adabiyoti” jurnali .M. Jo`raev (Mas`ul kotib) va boshqalar.

2)Ega va kesim harakat nomi bilan ifodalanganda: Ozodlik mulkimizdir, hunarimiz- yaratish (Zulfiya.)

3) Ega ko`rsatish olmoshidan kesim kesimlik qo`shimchasi olmasa:

Bu -ona Vatan,
Fido unga jon vatan.

4) Sifatdosh, infinitiv ega, ot kesim bo`lsa: Yurgan-daryo, o`tirgan-buyra. (Maqol.)

5)Ko`chirma gaplarda: “Hamma gap o`qishda”, -dedi o`qituvchi.

6)Sabab -javoblardan oldin: Alijon so`radi:

-Sizni qishlog`ingiz qaysi?
- Beshkara

7) Ikki atoqli otdan tuzilgan narsa-hodisalarning nomida: Termiz -Toshkent poezdi.

8) “Dan . . . gacha”grammatik shakllari o`rniga: 70-80 yillar, XVII-XIX asrlar;

9) Rasmiy qaror va farmoyish, buyruqlarda:

-Hududlar daxlsizligi;

-Ichki ishlarga aralashmaslik:
- Hamkorlik, tenglik.

10) Egani ta`kidlash uchun: Men -shu vatan farzandi.

Muz -to`shagim -qirov- ko`rpam (U.)

11) Texnik qulaylik ixchamlik uchun: Toshkent -2001 (Toshkent , 2001 yil.)

VIII. (“ ”) Qo`shtirnoqning qo`llanishi.

1. Ko`chirma gapda: “Biz o`z tilimizni va Vatanimizni sevamiz”,- dedi o`qituvchimiz.

2. Ko`chirmalarda “Til- millatning ko`rkidir”.

3. Kochma ma`noli so`zlarda:

Qushlarni sevardi, bor edi shunda “dardi”
Kulib u Adibani ”Piramidon” deb atar .

(Misra)

4. Kesatish, kamsitish: Harom pul “shaydolari” qo`lga tushdi.

5. SHartli nomlarda: “Beshinchi !”, “ Toshkentni ula!

6. Asar, gazeta, jurnal, spektakl nomlari: “Ulug`bek xazinasi”, zomoni “Shash maqom” (musiqa asari), “Alpomish” (spektakl) kabi.

BIR MA`NOLI VA KO`P MA`NOLI SO`ZLAR.

Alohida so`z holida ham gap ichida ham aynan bir ma`noli bildiruvchi so`zlar (monosemantik gr, “ bir” ma`noli) so`zlar deyiladi.

Bunday so`zlarga asosan fan, texnika,adabiyot, san`at, madaniyatga doyir atamalar (terminlar) kiradi. Misolar: fonema, morfologiya, biologiya, mimika, urg`u kabi.

So`zning o`z ma`nosidan tashqari ikki va undan ortiq ma`noga ega bo`linishi esa ko`p (polisemantik) ma`noli so`zlar deyiladi. Masalan: boshodam a`zosining boshlanish qismi (o`z ma`no) va undan keyingi so`z boshi, yo`l boshi, tog` boshi, ish boshi, qo`y bosh birikmalarida bosh asl ma`noga qoshilgan ko`chma ma`nolardir.

Boshimga ne kulfatlar solmadi. Boshimizga siz omon bo`ling. Boshginam og`riydi kabi.

SO`ZNING O`Z VA KOCHMA MA`NOSI

So`zning nutq (gan dan) tashqarida alohida olingan holda ifodalaydigan ma`nosi so`zning o`z (to`g`ri) ma`nosi deyiladi. Oltin olma olqish ol(Maqol.) Oltin -qimmatbaho metallning bir turi (o`z ma`nosida), kumush qoshiq birikmasida -kumush o`z ma`nosida qo`llangan.

So`zning gap ichi (kontekstda) o`z ma`nosidan tashqari boshqa ma`nolarni ifodalashi ko`chma ma`no deyiladi. Masalan: Oq oltindan tog`day xirmon yaratdik,kumush tola etkazib beramiz gaplaridagi oltin va kumush so`zlari ko`chma ma`nolardir. So`zning o`z yoki ko`chma ma`noda qo`llanganligini kontekst (gap) belgilaydi.

TAKRORO LASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Punktuatsiya nima?
2. Tinish bekgilari haqifdagi qoidalar to`plami deb nimaga aytildi?
3. O`zbek tilida tinish belgilari nechta?
4. Tinish belgilarining ishlatalish o`rinlarini aytинг?
5. Tinish belgilarining amaliy ahamiyati yozuvda qanday?

AMALIY MASHQLAR

61-mashq. Tinish belgilarini kerakli o`rinlarda qo`yib ko`chiring.

1.

Shunday o`lka elga yor bo`lsin
Shunday o`lka doim bor bo`lsin
Omon bo`lsin og`aynilar
Omon nbo`lsin do`srlarning bari

(H.O.)

2. Bu gap kutilmagan bo`lsa ham Mirxomid xo`janing yoshiga munosib ravishda tarang va tiniq qizil yuzi oqarishi oq oralagan cho`qqi soqol xiyol titradi (A.Q.)

3. G`anim kelsa xonimoni kul bo`lur
O`z yurtida pachoqlash ma`qul bo`lur

(G`.G`.)

MUNDARIJA

SO`Z BOSHI	4
KIRISH	
O`zbek tili O`zbekiston respublikasining davlat tili	6
BIRINCHI BO`LIM	
Tilshunoslik fani va uning sohalari	8
Til i jtimoiy doim o`zgarib, rivojlab turuvchi hodisadir	
Tilning tuzilishi	
Tilning kelib chiqishi	10
Tillarning taraqqiyoti	12
Dunyo tillarining tasnifi	13
Turkiy tillar haqida tushuncha	
O`zbek adabiy tili, umumxalq tili va shevalar	15
Hozirgi o`zbek tilshunoslik faninng sohalari va taraqqiyoti o`zbek milliy va adabiy til	16
IKKINCHI BO`LIM	
Leksikologiya	
Leksikologiya haqida umumiylar ma`lumot	19
So`z til va nutqning eng muhim va asosiy belgilari sifatida	20
Bir ma`noli va ko`p ma`noli so`zlar	21
So`zning o`z va ko`chma ma`nolari	21

So` ma`nolarining ko`chish usullari	22
So`zlarning shakl va ma`no munosabatiga ko`ra turlari	23
Tarixiy kelib chiqishi jihatidan o`zbek tili leksikasi	27
Hozirgi o`zbek tili leksikasining ijtimoiy dialektal tarkibi	30
Zamonaviylik jihatidan o`zbek tili leksikasi	32
Emosional- ekspresivlik jihatidan o`zbek tili leksikasi	33
Uslubiy jihatdan o`zbek tili leksikasi	34
Frazeologiya	
Frazeologiya haqida tushuncha	38
Frazeologik iboralarning ma`no jihatidan turlari	39
Frazeologizmlarning sintaktik modeliga ko`ra turlari	40
Lug`atshunoslik	
Lug`atshunoslik haqida tushuncha	42
UCHUNCHI BO`LIM	
Fonetika	
Fonetika haqida tushuncha	44
Tekshirish usuliga ko`ra fonetika turlari	44
O`zbek tilining fonetik vositalari	45
Nutq tovushlarining uch jihatni	45
Nutq a`zolari va ularning vazifalari	46
Nutq tovushlari va ularning tasnifi	47
Unli fonemalar va ularning tasnifi	47
Undosh fonemalar va ularning tasnifi	49
Nutqning fonetik jihatdan bo`linishi	53
Urg`u va uning turlari	55
Nutq tovushlarining o`zgarishi	56
Fonetik yozuv	
Transkripsiya	57
Grafika va orfografiya	
Harf va alfavit. O`zbek yozuvi tarixi	60
TO`RTINCHI BO`LIM	
Morfemika	67
Qo`shimchalar va ularning turlari	68
So`z yasalishi	
So`z yasalishi haqida ma`lumot	73
So`zlarning tuzilishiga ko`ra turlari	74
Grammatika	
Morfologiya	77
Grammatika va uning vazifalari	78
So`zning lug`aviy va grammatik ma`nolari	79

So`zlarning grammatik shakli va grammatik kategoriylar	80
So`z turkumlari	
So`z turkumlari haqida ma`lumot	82
Otning ma`nosi va grammatik belgilari	85
Otlarda son kategoriysi	86
Otlarda e galik kategoriuasi	89
Otlarda kelishik kategoriysi	91
Otlarning yasalishi	97
Otlarda modal shakllarning yasalishi	102
Sifatning ma`nosi va grammatik belgilari	105
Sifat darajalari	106
Sifatlarning yasalishi	107
Sifatlarda modal shakllar	112
Sonning ma`no va grammatik belgilari	113
Olmoshning ma`no va grammatik turlari	117
Fe`lning ma`nolari va grammatik belgilari	125
Fe`lo nisbatlari	127
Fe`llarning xoslangan shakllari	129
Fe`llarda modal shakllar	132
Fe`llarda shaxs-son	132
Fe`l zamonlari	134
Fe`l mayllari	138
Fe`llarning yasalishi	140
Ravishning ma`nolari va grammatik belgilari	144
Ravishlarning yasalishi	145
Yordamchi so`zlar haqida ma`lumot	148
Ko`makchilar haqida ma`lumot	148
Bog`lovchilar haqida ma`lumot	149
Yuklamalar haqida ma`lumot	151
Modal co`zlar haqida ma`lumot	153
Undov so`zlar haqida ma`lumot	154
Taqlidiy so`zlar haqida ma`lumot	155

BESHINCHI BO`LIM

Sintaksis	
Sintaksis va uning turlari	158
So`z birikmasi	159
Sintaktik munosabatolarni ifodalovchi vositalar	159
So`z birikmalarining aloqa turlari	160
Gap haqida umumiylar ma`lumot	161
Ifoda maqsadiga ko`ra gap turlari	163
Gapning tuzilish jihatidan turlari	165

Gap bo`laklari. Ega va uning ifodalanishi	164-168
Kesim va uning ifodalanishi	168
Kesimning ega bilan moslashuvi	169
Gapning ikkinchi darajali bo`laklari	172
To`ldiruvchi va uning ifodalanishi	172
Aniqlovchi va uning ifodalanishi	173
Hol va uning ifodalanishi	175
Gap bo`laklarining joylashish tartibi	176
Gapning uyushiq bo`laklari	179
Yushishning ifoda vositalari	180
Yushiq bo`laklarda umumlashtiruvchi birliklar	180
Gapning ajratilgan bo`laklari	180
Gap bo`laklari sanalmaydigan so`z va birikmalar	183
Undalma	183
Kirish so`z va kirish birikma	184
Kiritma gap va kiritma belgi	185
Bir bosh bo`lakli gaplar va ularning turlari	185
Bo`laklarga ajratilmaydigan gaplar	188
So`z -gaplar haqida tushuncha	188
To`liq va to`liqsiz gaplar	189
Qo`shma gap	
Qo`shma gap haqida ma`lumot	190
Oddiy qo`shma gap	191
Bog`langan qo`shma gap	191
Bog`langan qo`shma gapda tinish tinish belgilarning ishlatilishi	193
Ergashgan qo`shma gap	193
Ergash gaplar va ularning turlari	194
Bog`lovchisiz qo`shma gap	203
Bog`lovchisiz qo`shma gaplarda tinish belgilarning ishlatilishi	204
Murakkab qo`shma gap	206
Ergashish yo`li bilan tuzilgan murakkab qo`shma gaplar	206
Aralash murakkab qo`shma gaplar	208
O`zga gap	
O`zga gap va uning turlari	211
O`zlashtirma gap	212
Punktuatsiya	214
O`zbek tili punktuatsiyasi va uning asosiy tamoyillari	

SHARTLI QISQARTMALAR

**A. N. - Alisher Navoiy
A.O. - Abdulla Oripov
A.Q. - Abdulla Qahhor
A. Qod. -Abdulla Qodiriy
F .Y. -Fozil Yo`ldosh
E. V. - Erkin Vohidov
I. R. -Ibrohim Rahim
N. G` . -Hamid G`ulom
H.O. -Hamid Olimjon
H.N. -Hakim Nazir
M. Sh. -Maqsud Shayxzoda
Mirm. -Mirmuhsin
O.Yo. -Odil Yoqubov
O. -Oybek
P.T. -Parda Tursun
P.Q. - Pirimqul Qodirov
R. F. -Rahmat Fayziy
R. H. - Rasul Hamzativ**

S.A. - Said Ahmad
S.Z.- Saida Zununova
S.Ab.- Sobir Abdulla
T. Mal. -Tohir Malik
S.Sh. -Sa`diy Sheroziy
U. A. Usmon Azim
U. -Uyg`un
Z.D. -Zafar Diyor
O` U. -O`ktam Usmonov
G` . G` . - G`afur G`ulom
Sh. R. T. Shafoat Rahmatulla Termiziy
Sh. R. - Sharof Rashidov
Sh. Shuhrat
Ch. -Cho`lpon
Ch.A. -Chingiz Aytmatov

K. - ko`chirma
S. - so`zlovchi
Gr. - grekcha